

Abdumajid MADRAIMOV  
Gavhar FUZATSOVA

# MANBASHUNOSLIK



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDUMAJID MADRAIMOV  
GAVHAR FUZAILOVA**

# **MANBASHUNOSLIK**

*Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik*

**O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti  
Toshkent  
2008**

**Taqrizchilar:**

tarix fanlari doktori **Muhammadjon Abdurahmonov**  
filologiya fanlari doktori, professor **Ibrohim Yo'ldoshev**

Ushbu darslik manbashunoslik fanidan oliv o'quv yurtlari uchun qabul qilingan Davlat Standartlari va namunaviy dasturiga muvosiq yaratilgan bo'liub, u ikki bobdan iborat. Birinchi bobda manbashunoslikning nazariy masalalari bayon etiladi. Ikkinci bob O'zbekistonning qadiimgi, o'rta asr va yangi tarixini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, unda yunon, lotin, xitoy, arab, fors va o'zbek tillarda yozilgan va bizgacha yetib kelgan qo'lyozma manbalar, manbashunoslik fanining eng muhim masalalari va dolzARB muammolari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Kitobda mutaxassislarning manbalardan foydalanishi, ularni o'qitish metodikasi ham imkon darajasida yoritilgan.

Kitob oliv o'quv yurti bakalavriat talabalarini uchun mo'ljallangan bo'lib, undan tarix fani muallimlari va boshqa tarix bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

**63.2(5Y)**

**E74**


**Madraimov, Abdumajid.**

**Manbashunoslik:** Bakalavriatning 5140600-tarix yo'nalishi talabalarini uchun darslik / A. Madraimov, G. Fuzailova; -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2008. – 264 b.

1. Fuzailova, Gavhar.

**BBK 63.2(5Y)я73**

N312-2008/1903



**ISBN 978-9943-319-59-2**

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti», 2008.

*Akademik B. Ahmedov  
xotirasiga bag'ishlanadi*

## **SO'ZBOSHI**

O'zbekiston istiqloli (1991) yurtimizda ijtimoiy fikr erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Biz boy va qadimiy tariximizni qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldik. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo'limgan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur".

Manbashunoslik fanidan bir necha darslik, qo'llanma va to'plamlar yaratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: B. A. Ahmedovning "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" (1991), T.S.Saidqulovning "O'zbekiston tarixi tarixnavisligidan lavhalar" (1993, o'zbek va rus tillarida), A. Habibullayevning "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" (2000), B. A. Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" (2001), "Manbashunoslikdan ma'ruzalar majmuasi" (2001, tuzuvchi A. A. Madraimov), M. Hasaniy «Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va fihristlash» (2004, «Tarixiy manbashunoslik» (2006, tuzuvchilar A.A.Mdraimov, G.S.Fuzailova), «Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari» (2001, 2005, tuzuvchilar A.A.Mdraimov, G.S.Fuzailova) va «Tarixiy manbashunoslik muammolari» (2003).

Darslikni yaratishga bergen amaliy yordami uchun filologiya fanlari doktori Engash Umarov, tarix fanlari nomzodi Muzaffar Ahmedov, o'qituvchilar Askariy Madraimov va Yelena Saitovaga mualliflar o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Ushbu darslik qo'lyozmasi bilan tanishib foydali maslahatlarni bergani uchun tarix fanlari doktori, M.Abdurahmonov, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev va boshqalarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Biz yaratgan ushbu darslik ilk tajriba bo'lgani sababli unda turli bahs, munozara va fikrlarni paydo qiladigan o'rirlar mavjud. Shuning uchun uning yuzasidan bildiriladigan fikr va mulohazalarni kutib qolamiz.

**Mualliflar**

# I BOB. MANBASHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

## 1-MAVZU. MANBASHUNOSLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Darsning mazmuni:** Tarix ilmida manbashunoslik fanining tutgan o'rni, uning asosiy xususiyatlari, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot beriladi.

### Reja:

- 1.1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad.
- 1.2. Manbashunoslik fanining maqsadi va vazifalari.
- 1.3. Manbalar turlari.
- 1.4. Manbashunoslik va tarix fanining yordamchi sohalari.

**Asosiy tushunchalar:** *manba, tarixiy manba, birlamchi manba, asl nusxa, avtograf, bitik, bitma, yozma yodgorlik, qo'lyozma, qo'lyozma kitob, toshbosma, litografik kitob, nashr, ommaviy nashr, ilmiy akademik nashr, faksimile, arxeografiya, asosiy arab yozuvlari, ro'yxatga olish, tavsifga olish, tasniflash – kataloglashtirish, fihrist – katalog, kartochka, annotatsiya, monografik tavsif.*

### 1.1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad

Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad talabalarda ushbu fan sohasi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish va O'zbekiston tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganish malakasini hosil qilishdan iborat.

Tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma'lumot beruvchi shaxs, guruh, firqa, sulola, mazhab va mamlakatlar mansaati yo'lida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Masalan, O'zbekiston yaqin tarixi – mamlakatimizning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi siyosiy voqealar turli davrlarda, manbalarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bular o'z davrida yaratilgan yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va solnomalarda qanday bayon qilingan? Sho'ro davrida qanday tushuntirildi?

Va nihoyat mustaqillik sharoitida tarixiy adolatni tiklash, manbalarga xolis va obyektiv yondoshib, bo'lib o'tgan voqealarни bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa manbashunoslik fanisiz, manbalarga ilmiy yondashuvhsiz mumkin emas. Chunki, o'sha davrdagi yozma yodgorliklarning aksariyati

arab alifbosi asosidagi yozuvimizda, bir qismi rus tilida ham bitilgan va o'sha davrga xos tarixiy xususiyatlarga ega.

Xulosa, manbashunoslik fani yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va obyektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni bilishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan birdir.

## **1.2. Manbashunoslik fanining maqsadi va vazifalari**

Manbashunoslik fani tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo'lib, turli (yozma, bosma va boshqa) manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz?

Manba yoki tarixiy manba tushunchasi keng qamrovli bo'lib, inson faoliyati natijasida yaratilgan barcha narsalarni tushunamiz.

Inson faoliyati natijasida yaratilgan moddiy mahsulot ma'lum vazifani bajarish bilan birga ayni zamonda tarixiy manba bo'lishi mungkin.

Manba deb o'zida ma'lum ma'lumotga ega yodgorlik tushuniladi. Chunki tarixiy manbalardagi ma'lumotlar tarixiy, ilm asosini tashkil qiladi.

Manbashunoslik fani ijtimoiy fan sohasida, asosan ikki xil bo'lishi mumkin — tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Bizning maqsadimiz tarixiy manbashunoslikni o'rganishdir.

Manbashunoslik fanining vazifalari tarixiy manbalarni turlari va ularni tadqiq etish, tamoyillarni o'rgatishdan iboratdir.

## **1.3. Manbalar turlari**

Tarixiy manbalarni, ularning umumiylar xarakteri, o'tmishni o'zida aks ettirishiga qarab quyidagi olti asosiy guruhga bo'lish mumkin.

### **1.3.1. Yozma manbalar**

Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i kishilarning o'zaro munosabatining natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha zamonlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan manba sifatida o'rta asr (VI—XIX asrlar) tarixini o'rganishda muhim o'rinn tutadi. Yozma manbalar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

1. Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar). Bunday hujjatlarning 34 turini mutaxassislar aniqlaganlar.

2. Narrativ (lotin. *Narratio* — qissa, hikoya) yozma manbalar. Bunday manbalardan biz tarixiy, geografik va kosmografik, biografik, agiografik,

memuar asarlar, sayyoh va elchilar esdaliklarini ko'rib chiqamiz.

Aksariyat yozma asarlar nasrda ijod etilgan. Ayrim tarixiy asarlar, jumladan, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari she'riy yo'nalişda yozilgan.

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarini o'rganishda rasmiy hujjat, moliyaviy-hisobot daftari va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma'lum yuridik shaklda bevosita va ko'p hollarda aynan qayd etishi bilan qimmatlidir. Lekin ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda soxtalari ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ulardan foydalanilganda diqqat-e'tibor va zo'r ehtiyyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqeasi yoki faktini talqin etish uchun foydalanish jarayonida, bittasi bilan kifoyalanmasdan, o'xshash bir necha hujjat, manbalarni qo'shib o'rganmoq zarur. Chunki, bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki fakt ustida gap boradi. Shuning uchun faqat bir hujjat bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy masala ustida qat'iy fikr yuritib, umumlashtirib qat'iy xulosaga kelib bo'lmaydi.

Ikkinci guruh asarlar to'g'risida shuni aytish kerakki, ular hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan va shu tufayli ularning sahifalarida ko'proq podshohlar va xonlar, amirlar va yirik ruhoniyarlarning hayoti va faoliyati yoritilgan, moddiy boylik yaratuvchi mehnatkash xalqning tarixi esa ko'p hollarda chetlab o'tilgan.

Xullas, bu asarlarda, ya'ni yozma manbalarda hukmron sinfning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha sinfning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi.

### **1.3.2. Moddiy (ashyoviy) manbalar**

Ma'lumki, kishilik jamiyati tarixi qariyb 40 ming yillik davrni o'z ichiga oladi, lekin yozuv paydo bo'lganiga esa nisbatan ko'p vaqt o'tganicha yo'q.

Masalan, sivilizatsiyaning ilk o'choqlaridan biri bo'lmish Markaziy Osiyoda dastlabki yozuv oromiy xat negizida taxminan eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalarida paydo bo'lган. Xat tarixchisi Erkin Oxunjonovning ma'lumotiga ko'ra, yurtimizda arab istilosiga qadar o'n sakkiz yozuv turi mavjud bo'lган. Lekin, afsuski, ko'hna tariximizni o'zida aks ettirgan yozma yodgorliklarning katta qismi bizning zamonomizgacha yetib kelmag'an. Ularning ko'pchiligi bosqinchilik urushlari vaqtida, qolaversa tabiiy ofatlar oqibatida yo'q bo'lib ketgan.

Ilk tarixning ayrim lavhalari o'tmishdan qolgan va insonning ijtimoiy

faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy yodgorliklarda, aniqrog‘i ularning bizgacha saqlangan qoldiqlari yetib kelgan.

Xullas, moddiy (ashyoviy) manba deganda ibtidoiy odamlar istiqomat qilgan va dafn etilgan joylar, ularning mehnat va urush qurollari, bino va turli inshootlar (qal‘a va qasrlar, hammomlar va karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va boshqalar)ning qoldiqlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va zeb-ziynat taqinchoqlari tushuniladi. Moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o‘rganish ishlari bilan arxeologiya ilmi (yunon. *Arxeo* – qadimiy, *logos* – ilm; o‘tmish haqidagi ilm; kishilik jamiyatining uzoq o‘tmishini o‘rganuvchi ilm, qadimshunoslik) shug‘ullanadi.

### **1.3.3. Etnografik manbalar**

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan material va ma’lumotlar etnografik manba hisoblanadi. Masalan, xalq, qabila va urug‘ nomlari, inson qo‘li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek, og‘zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o‘tmish urf-odat va an‘analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularning barchasini etnografiya ilmi (yunon. *Etnos* – xalq, *grapxo* – yozaman, xalq haqida ma’lumotlar; xalqshunoslik) tekshiradi va o‘rganadi.

### **1.3.4. Lingvistik manbalar**

Lingvistik manbalar deb tilimizdagi, aniqrog‘i uning leksik – so‘z boyligi tarkibidagi uzoq o‘tmishdan qolgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’muriy va yuridik atamalarga aytildi. Masalan, xiroj – o‘rta asrlarda aholidan, asosan dehqonlardan olinadigan asosiy soliq; daromad solig‘i; ushr – daromadning o‘ndan bir qismini tashkil etgan soliq; zakot – chorva va mulkdan kambag‘allar uchun yiliga bir marta olinadigan soliq; suyurg‘ol – shahzodalar va amirlarga toj-u taxt oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari uchun beriladigan yer-suv; tansuqot – kamyob, e’tiborga molik buyum, mato; podshohlar, xonlar va nufuzli kishilarga qilinadigan tortiq; cherik – qo‘sish; qorovul – qo‘sinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus harbiy bo‘linma; xalifa – Muhammad payg‘ambarning o‘rinbosari, o‘rta asrlarda arab musulmon feodal davlatining boshlig‘i; mirishkor – to‘g‘risi – miri shikor, podshoh va xonlarning ov qushlari va ov hayvonlarini tasarruf etuvchi mansabdor; mirob – suv taqsimoti bilan shug‘ullanuvchi mansabdor; qozi – shariat asosida ish yurituvchi sudya; yorlig‘ – o‘rta asrlarda hukmdor tarafidan beriladigan rasmiy hujjat;

vaqfnoma – masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlarga in’om etilgan yersuv haqida tuzilgan maxsus hujjat va boshqa atamalar juda ko’p uchraydi. Bu va shunga o’xhash atamalar, shubhasiz qimmatli tarixiy material bo’lib, ajdodlarimizning ijtimoiy – siyosiy hayotini o’rganishga yordam beradi. Ularning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika fani (lotin. *Lingua* – til) o’rganadi.

### **1.3.5. Xalq og‘zaki adabiyoti**

Og‘zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi qismi bo’lib, uning ildizi ibtidoiy jamoa va ilk feodalizm tuzumiga borib taqaladi. Og‘zaki adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari, shuningdek, Tabariy, Mas’udiy, Beruniy, Firdavsiy, Ibn al-Asir kabi Sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Kayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, Amort va Sparetra, To’maris va Shiroq haqidagi qissalar shular jumlasidandir.

Urug’chilik davri tarixini, ayniqsa, patriarxal munosabatlarini o’rganishda “Alpomish”, “Go’ro‘g’li” kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, marosim qo’shiqlari, matal va topishmoqlarning roli ham benihoyat kattadir. Bu xalq durdonalari turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning turish-turmushi, ma’naviy qiyofasi, urf-odati, ayniqsa, uzoq o’tmishda hukm surgan ijtimoiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumot beradi. Tarixiy manbalarning bu turi bilan folklor fani (nem. *Folk* – xalq, *lore* – bilim; donishmandlik, xalq donoligi) shug’ullanadi.

### **1.3.6. Mo‘jaz rasm-miniatyuralar**

X–XIX asrlar davomida qo‘lyozma kitoblarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo‘jaz rasmlar ham tarixiy manba bo’lib xizmat qiladi. Yurtimiz tarixi va moddiy ashyolar, hunarmandchilik, kiyim-kechak, me’morlik obidalari va umuman moddiy madaniyatimiz xususiyatlarini o’rganmoqchi bo’lsak, nafis mo‘jaz tasviri san’at namunalari – miniatyura rasmlar qimmatli manba rolini o’taydi. Chunki, ularda tarixiy ashyolar tasviri aynan, ba’zan badiiy ijod xususiyatlariga moslashtirilgan holda aks ettiriladi.

Masalan, buyuk musavvir ustod Kamoliddin Behzodning “Samarqanddagagi Bibixonim masjidining qurilishi” nomli mashhur rasmini eslatish kifoya. Bu rasmda XV asrdagi mehnat qurollari, qurilish jarayoni, unda ishtiroy etayotgan ustalar to‘g’risida mukammal tasavvur beriladi. Bunday rasmlardan tarixni o’rganishda tasviri vosita sisatida unumli foydalanish mumkin. Biz so‘nggi yillarda chop etilgan manbalarda ulardan shunchaki befaroq foydalanishlarini ko’rishimiz mumkin.

Umuman, bizgacha yetib kelgan qadimgi devoriy rasmlar va qo'lyozma kitoblarga ishlangan hamda alohida muraqqa'lardagi rasmlarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati juda katta.

Ko'rib chiqqanimizdek, manbashunoslik fani tadqiqot manbalari juda ko'p va xilma-xil bo'lib, biz eng asosiylari to'g'risida ma'lumot berdik. Yana bosma, toshbosma kitoblar, vaqtli matbuot – jurnal va gazetalar ham tarixiy manba hisoblanadi. Shu kunlarda texnika taraqqiyoti munosabati bilan yana tovushli manba, foto manba, kino-televideenie manbalari va internet materiallari ham paydo bo'lib, ular an'anaviy manbalarni inkor etmaydi, balki qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa kompakt disklarning yaratilishi turli yangi pedagogik vositalarni qo'llash imkonini yaratadi.

Manbashunoslik fani tarix ilmining fundamental yo'nalishi bo'lib, bu sohada faoliyat olib borish uchun bir necha tilni bilish va yozma manbalar to'g'risida katta bilim va tajribaga ega bo'lish talab qilinadi.

#### **1.4. Manbashunoslik va tarix fanining yordamchi sohalari**

Manbashunoslik tarix fanining bir qator yordamchi sohalari – paleografiya, diplomatika, geraldika, sfragistika, epigrafika, numizmatika, metrologiya va xronologiya qo'lga kiritgan yutuqlariga tayanadi.

**Paleografiya** (yunon. *Paleo* – qadimiy, *grapxo* – yozaman; qadimiy yozuv) qadimiy qo'lyozma asarlarning qog'oz, muqovasi, siyohi, yozuv va yozish usullarini tekshiradi.

**Diplomatika** (yunon. *Diploma* – ikki buklangan qog'oz; hujjat) rasmiy hujjatlarni o'rghanish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

**Geraldika** (yunon. *Gerald* – gerb, belgi, nishon) qadimiy gerblar, turli-tuman nishon va belgilar (masalan, qadimgi turkiy qabilalarning tamg'alarini) ni o'rGANADI.

**Sfragistika** (yunon. *Spragis* – muhr) qadimiy muhrlar (podshohlar, xonlar, amirlar va qozilar muhrlari) va ularning yozuvlarini tekshiradi.

**Epigrafika** – (yunon. *Epi* – ustida, *tepasida*, *grapxo* – yozuv; biron narsa; buyum ustidagi yozuv) tosh, metall buyumlar, yog'och va boshqa qattiq buyumlar ustiga o'yib yozilgan qadimgi bitiklarni o'rGANADI.

**Numizmatika** (lotin. *Numis* – pul) qadimiy pullarni: ashyosi, shakli, vazni, yozuvlari, zarb etilgan joyi va vaqtini tekshiradi.

**Metrologiya** (yunon. *Metron* – o'lchov, *logos* – tushuncha, bilim; o'lchovlar haqida tushuncha) o'tmishda turli mamlakat va xalqlar orasida amalda bo'lgan og'irlilik, masofa va sath o'lchovlarini o'rGANADI.

**Xronologiya** (yunon. *Xronos* – vaqt, *logos* – tushuncha, bilim) vaqt

haqida tushunchcha, qadimgi xalqlar orasida va mamlakatlarda amalda bo‘lgan yil hisobi va taqvimni o‘rganuvchi soha. Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) nomli asari turli taqvimlarni o‘rganishga bag‘ishlangani uchun Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhur.

Bulardan tashqari manbashunoslik filologiyaning matnshunoslik fani bilan yaqindan hamkorlik qiladi, uning tajribasiga asoslanib tadqiqot olib boradi.\*

Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, manbashunoslik hamda arxivshunoslik, muzeeyshunoslik aynan bir maqsadlarni ko‘zlaydi. Manbalarni o‘rganish jarayonida filologiyaning matnshunoslik hamda germenevtika (yunoncha – talqin etish) ham muhim o‘rin tutadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

- 1. Manbashunoslikning maqsadi nimadan iborat?*
  - 2. Manbashunoslikning vazifalari nimadan iborat?*
  - 3. Qanday manbalarini bilasiz?*
- 

## **2-MAVZU. MANBASHUNOSLIKNING YO‘NALISHLARI**

**Darsning mazmuni:** Ushbu darsda talabalarga amaliy va nazariy manbashunoslik, yozma manbalarni qidirib topish, tavsifga olish va tadqiq qilish tushuntiriladi.

### **Reja:**

1. Manbashunoslik yo‘nalishlarining asosiy maqsad va vazifalari.
2. Nazariy manbashunoslik (yo‘nalishi).
3. Manbalarni turkumlash.
4. Arxeografiya. Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va tahlil etish.
5. Amaliy manbashunoslik (yo‘nalishi).
6. Manbalarni ichki belgilariiga qarab tahlil etish.

**Asosiy tushunchalar:** *qog‘oz, qog‘ozrez, ohorlash, muhrlash, mistar, mistar bog‘lash, o‘lcham, varaqlar soni, jild, muqova, sahhof, mujallid,*

---

\* Ushbu mavzuni yoritishda B. Ahmedovning «O‘zbekiston tarixi mambalari» (2001) asariga tayanildi. 7–13-betlar.

*jadval, jadvalkash, vassol, juzy, paygir, naqqosh, muzahhib, shams naqshi, sarlavha, lavha, zarvaraq, unvon, lola naqshi, turunj naqshi, lachak, girih, islimiq naqsh, abri bahor, rassom, musavvir.*

## **2.1. Manbashunoslikning yo‘nalishlari asosiy maqsad va vazifalari**

Manbashunoslik fani asosan ikki yo‘nalishga ega bo‘lib, u nazariy manbashunoslik va amaliy manbashunoslikdan iboratdir. Biz quyida nazariy manbashunoslik xususiyatlarini bayon etamiz.

## **2.2. Nazariy manbashunoslik (yo‘nalishi)**

Nazariy manbashunoslik yo‘nalishi amaliy manbashunoslik tajribasini umumlashtiradi, yozma manbalarning vujudga kelishi va ularning real tarixiy sharoitni o‘zida aks ettirish qonuniyatları, manbalarni izlab topish, turkumlash, tavsifga olish, tartibga solish asoslarini ishlab chiqadi va ularni ilmiy muomalaga kiritishning, amaliy o‘rganishning eng maqsadga muvofiq asosiy usul va yo‘llarini aniqlaydi va amaliyatga tavsiya etadi.

## **2.3. Manbalarni turkumlash**

Sharq yozma manbalarni turkumlashning yagona aniq bir qoidasi hozirgacha ishlab chiqilmagan. Mavjud qo‘lyozma manbalar fihristi bir qismi asarlar tili nuqtayi nazaridan kelib chiqib, tuzilgan. Masalan, Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanayotgan sharq qo‘lyozmalari yirik sharqshunos Charlz Ryo tomonidan, ularning qaysi tilda yozilganiga qarab, arab, fors va turkiy tildagi qo‘lyozmalarni alohida-alohida tavsifga olib fihrist tuzilgan. Fransiya poytaxti Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan sharq qo‘lyozmalari haqida Edgar Bloshe ham shu tartibda katalog tuzgan.

Toshkentdagи Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi qo‘lyozmalar birinchi bor saqlanayotgan tashkilot “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari majmuasi” nomi ostida turli tildagi va turli mavzudagi asarlar tavsifga olinib, ularning o‘n bir jildi nashr etilgan. Hozir qo‘lyozmalarni qaysi fan sohasiga oidligiga qarab tavsifga olish boshlab yuborilgan bo‘lib, mana shunday kataloglar chop etilmoqda.

Ba’zi manbashunoslар qo‘lyozmalarni mazmuniga qarab, asarda qaysi masala bayon etilganiga qarab turkumlashni lozim topsalar, ularning boshqa bir guruhi asarning kelib chiqishiga, ya’ni qayerda va qachon yozilganligiga qarab turkumlashni ma’qul ko‘radilar. Yana bir guruh olimlar esa ularni rasmiy hujjatlar, tarixiy, geo-kosmografik va biografik

asarlar kabi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladilar. Manbalarni avtograf, ya'ni muallifning o'z qo'li bilan yozilganligiga yoki ko'chirilgan nusxa ekanligiga qarab turkumlash hollari ham uchraydi.

Hozirgi paytda tarixchi manbashunoslar manbalar ustida ishlashning faqat bittasiga, ya'ni ularning turlariga qarab tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Chunki boshqa tadqiqot yo'llari yozma manbani chuqur va atroficha o'rganish hamda tahlil qilish vazifalariga to'la javob bera olmaydi.

Birinchidan, tarixiy manbalar ichida faqat bir – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy masalaga butunlay bag'ishlangan asar deyarli yo'q yoki juda kam.

Til bo'yicha manbalarni o'rganish yomon emas, lekin biror mavzuga oid manbalarni o'rganganda, faqat bir yoki ikki tilda yaratilgan asarlar bilan chegaralanish tadqiqot ilmiy qiymatini pasaytiradi.

Mana shularni inobatga olganda, tarixiy manbalarni turlariga va qaysi davr voqealarini aks ettinganligiga qarab turkumlash maqsadga muvosfiqdir. Avvalgi paytlarda talaygina markaziy oliy o'quv yurtlarida o'qitilgan "SSJI tarixi manbashunosligi" va "O'rta asrlar tarixi manbashunosligi" darsliklari mana shu qoidaga asoslangan.

B.A. Ahmedov O'zbekiston tarixi (o'rta asrlar) manbalarini (yozma manbalarni) quyidagi uch turga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan: 1) ashyoviy manbalar, ya'ni arxeologik qazishlar natijasida topilgan ashyolar; 2) rasmiy hujjatlar; 3) tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar. Ushbu turkumda qayd etilgan arxeologik yoki ashyoviy manbalar, ya'ni qadimda ajdodlarimiz turmush tarzi va ijtimoiy faoliyatini o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiluvchi manbalar, asosan arxeologiya fani tomonidan o'rganiladi va biz uchun qo'shimcha yoki yordamchi dalil sifatida tadqiqotlarga jalb etilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston tarixi yozma manbalarini, asosan ikki turga bo'lib o'rganish ma'qul ko'rindi.

1) Rasmiy hujjatlar – yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, vaqfnomalar, hisob-kitob daftarlari, rahnomalar, rasmiy yozishmalar, maktublar va boshqalar. Umuman, tarixiy hujjatlarning o'ttizdan ortiq turi mavjud. Hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni bevosita qayd etishlari, ya'ni feodal yer egaligi, ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzilishi va shunga o'xhash masalalar bo'yicha daliliy ma'lumotga boyligi bilan tarixiy manbalarning boshqa turlaridan ajralib turadi. Ular, asosan hujjatshunoslar tomonidan maxsus o'rganilsa-da, tarixiy manba sifatida manbashunoslikda ilmiy qiymati juda katta.

2) Narrativ yozma manbalar. Bunday asarlarda rasmiy hujjatlarga

nisbatan tarixiy voqealari va hodisalar keng va to‘la yoritiladi. Shuning bilan bir qatorda ular daliliy ma’lumotlarga boyligi bilan ko‘zga tashlanadi.

Yozma manbalarni faqat zikr etilganlari bilan cheklab bo‘lmaydi. Xususan, badiiy adabiyotlarda ham tarixiy voqealar, shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayoni mavjud bo‘lib, faqat ularning o‘ziga xos bayon uslubi, badiyatini nazardan qochirmaslik kerak. Chunki tarixchi bor haqiqatni yozishi kerak bo‘lsa, shoir yoki ijodkor badiiy to‘qima, bo‘rttirish, mubolag‘aga yo‘l qo‘yishi, ya’ni o‘z istagiga muvofiq tasvirlash imkoniga ega. Masalan, Alisher Navoiy badiiy asarlarida shoir davriga va zamondoshlariga oid qimmatli fikr, mulohazalar mavjud. Xususan, uning asarlaridagi shoir biografiyasiga oid ma’lumotlar asosida Izzat Sulton “Navoiyning qalb daftari” nomli kitob yozib, unda Alisher Navoiy biografiyasini tiklashga harakat qilgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlarida ham tarixiy ma’lumotlar, xususan Mirzo Ulug‘bek shaxsi va uning ilmiy merosi to‘g‘risida juda qimmatli fikrlar mavjud.

Yozma manbalardagi o‘ziga xoslikning biri shuki, ularda bayon etilgan voqealari, hodisalarga subyektiv yondashuv, ayrimlarini xaspo‘shlash yoki buzib talqin etish hollari uchrab turadi. Bunday asarlar ustida tadqiqot olib borilganda, ularga tanqidiy yondashish talab etiladi. Bu esa manbashunoslikning asosiy ilmiy talab va tamoyillaridan biridir.

## 2.4. Arxeografiya

Arxeografiya – yozma manbalarni ilk tavsifga olish yoki ularni qidirib topib, birinchi marta tavsiflash, ilmiy muomalaga olib kirishni nazarda tutadi. Bu ilmiy yo‘nalish Respublikamiz Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va sobiq Qo‘lyozmalar institutida boshlangan bo‘lib, ma’lum davrgacha Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlariga qator arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Ularda A. Murodov, A. Irisov, I. Abdullayev, A. Ahmedov, B. Hasanov, O. Jalilov, M. Hakimov, A. Madraimov, Yu. Tursunov va boshqalar ishtirot etganlar. Bular natijasida bir qancha nodir qo‘lyozmalar va hujjatlar aniqlanib, davlat xazinalariga olib keltingan.

Hamid Sulaymon (vaf. 1979) Angliya, Fransiya (1968) va A. Madraimov V. Kyuner bilan birgalikda Hindiston kutubxonalariga (1976–1977) arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan edi. Buning natijasida qator yozma manbalar to‘g‘risida ma’lumotlar, ayrimlarining mikrofilm va fotokopiyalari yurtimizga keltirilgan.

Hozirgi paytda Sharqshunoslik instituti va Islom universiteti qoshida

sharq qo‘lyozmalarini qabul qilish arxeografik komissiyalari mavjud bo‘lib, ularda aholi o‘rtasida mavjud yozma manbalarning qiymatini aniqlashga qodir mutaxassislar bor.

#### **2.4.1. Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va tahlil etish**

Nazariy manbashunoslikda eng zarur tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va nihoyat uni ilmiy tahlil qilish har qanday katta-kichik tadqiqotning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Tanlangan mavzuning ilmiy hamda nazariy jihatdan to‘g‘ri hal etilishi ko‘p jihatdan har qanday tadqiqotning asosini tashkil etadigan manbaning sifat va salmog‘iga, ya’ni mukammalligiga va daliliy ma’lumotga boyligiga bog‘liqdir.

Manbashunoslik talablaridan biri shuki, biror mavzuni tadqiq etishda bir emas, balki bir necha manbalar turiga – rasmiy hujjatlar, solnomalar, geo-kosmografik, agiografik va biografik asarlarga asoslanib, ulardagi ma’lumotlar qiyosiy solishtirilib tahlil etilsa, ilmiy tadqiqot savyasi oshib, xulosa va umumlashmalar ishonarli va asosli bo‘lib, uning ilmiy ahamiyati ham katta bo‘lishi shubhasizdir.

Tadqiqot uchun yozma manbalarning qaysi biri asosiy va qaysilari yordamchi rol o‘ynashi tanlangan mavzuning xarakteriga bog‘liqdir. Masalan, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni o‘rganishda rasmiy hujjatlar asosiy birlamchi manba rolini o‘taydigan bo‘lsa, siyosiy hamda madaniy hayotni yoritib berishda solnomalar – tarixiy asarlar va biografik tazkiralalar hamda adabiy-badiiy asarlar yetakchi o‘rinda turadilar. Lekin shunga qaramay, ilmiy tadqiqot olib borishda faqat asosiy hisoblangan bиргина birlamchi manba bilan kifoyalanib qolmay, imkon qadar boshqa ikkinchi darajali manbalarga murojaat etish, ularni ham tadqiqotga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Manbashunos olimlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tarixiy asarlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hamda madaniy hayotga oid qimmatli ma’lumotlarga boy bo‘ladi. Rasmiy hujjatlarda va biografik asarlarda esa siyosiy tarixga oid qimmatli faktlarni, tarixiy asarda yo‘q ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Manbashunoslikdagi ilmiy ishda ko‘p va turli tipdagi manbalarga asoslanib, tadqiq etilmish mavzuga oid barcha manbalarni ishga jalb etish bo‘lajak ilmiy asarning qiymatini va ahamiyatini belgilovchi asosiy va hal qiluvchi omillardan biridir.

#### **2.5. Amaliy manbashunoslik (yo‘nalishi)**

Amaliy manbashunoslik yo‘nalishi bevosita yozma manbalarni nazariy manbashunoslik tavsiyasiga binoan o‘rganish, izlab topish, tavsif etish va

o'zi topgan, mavzu uchun yangi va kerakli ma'lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirishni nazarda tutadi.

Amaliy manbashunoslikda tadqiqotchi o'zi uchun biror mavzuga oid manbalarni tanlab olgandan keyin ularning har birini tashqi yoki moddiy-texnik belgilari va ichki mazmuniga ko'ra guruhlarga ajratib ilmiy tahlil etishi lozim.

### **2.5.1. Manbalarni moddiy-texnik ma'lumotlariga qarab tahlil etish**

Manbalarni moddiy-texnik ma'lumotlari deganda qo'lyozma kitob yohud hujjat bitilgan qog'ozning o'lchami, qog'ozi, varaqlar soni, muqovasi, matn o'lchami, xati, siyohi, xattoti, asar nomi, muallifi, kitob tarixi, joyi kabi ma'lumotlar nazarda tutiladi. Bu ma'lumotlar asar yozilish sabablari, uning yozilgan joyi va o'sha vaqtidagi texnik taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy muhitni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlarni aniqlamay turib, asarda bayon etilgan voqealar haqida, umuman qo'lyozma asar haqida to'g'ri va to'la tasavvurga ega bo'lish, uning xususida fikr bildirish mumkin emas.

Qo'lyozma kitoblarning muallifi, asar nomi, yozilgan vaqt va joyini aniqlash qiyin. Chunki qadimgi qo'lyozmalarda bugungi kundagi kitoblardagi kabi muqovaning o'zidayoq asar nomi, muallif nomi, kitob boshlanishi va oxiridagi kabi zaruriy ma'lumotlar keltirilmagan. Ba'zi hollarda asar oxiri — kolofon-xotimada uning ko'chirilgan vaqt va joyi hamda kotibning nomi qayd etiladi, xolos.

Ma'lumotlar keltirilmagan taqdirda, asarning matni, yozilish va kitobati tarixi, qog'ozi, xati hamda tili va til uslubiga qarab taxminan aniqlanadi. Bunday ma'lumotlarni aniqlash tadqiqotchidan katta hayotiy tajriba va yuksak malakani talab qiladi. Bu ancha qiyin va mas'uliyatli ishdir. Bunday masalalarni mashhur kitob bilimdonlari Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov kabi yuksak malakali mutaxassislargina bir necha yozma manbalarni solishtirish, qiyoslash asosida hal qilishlari mumkin.

Asar muallifi va uning shaxsini aniqlash qo'lyozma kitobni ilmiy tahlil etishda katta ahamiyatga ega. Bu asarning yaratilish tarixi va uning yozilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muhitni aniqlab olish uchun ham zarurdir.

Odatda, qadimgi qo'lyozma asarlarda ko'p hollarda muallifning ismi ma'lum va ko'zga tashlanadigan joyda, masalan, asarning boshi yoki oxirida qayd etilmaydi. Ba'zan, u muqaddima qismida yoki asar o'rtaSIDA, voqealar

bayoni orasida biron masala yuzasidan tilga olinadi. Ko'p hollarda esa muallif o'zining haqiqiy ismini aytmay, "faqir-u haqir", "ojiz va xoksor", "bu g'arib banda" deb atash bilangina kifoyalanadi. Bunday hollarda asar varaqma-varaq, satrma-satr, alohida e'tibor va sinchkovlik bilan o'rganilishi lozim. Shunday ham bo'ladiki, asarning biron yerida muallif o'zi, otasi yoki yaqinlari haqida bir-ikki kalima aytib o'tadi. Yoki bayon etilayotgan voqeaga o'zining munosabatini (masalan, "Abdullahxon taxtga o'tirgan vaqtida kamina Hosizi Tanish ibn Mir Muhammad 33 yoshda edim") bildiradi.

Asar muallifining shaxsi, ya'ni uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, uning dunyoqarashini aniqlash uchun asarning umumiy g'oyaviy yo'nalishini to'g'ri belgilab olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2.6. Manbalarning mazmunini tahlil etish

Manbalarning mazmunini tahlil etish deganda qo'lyozma asarning tarkibi va voqealar bayonini tahlil qilish, tushuntirish, g'oyaviy-siyosiy saviyasi va ilmiy qiymatini aniqlash masalalari anglashiladi.

Qo'lyozma asarning ilmiy qiymatini unda nimalar bayon etilganligi, voqe -hodisalarga muallifning xolis munosabati, keltirilgan dalil va ma'lumotlarning to'g'riliği va oldinga surilgan fikr va g'oyalar bilan belgilanadi.

Tarixiy asarning asl nusxa, original bo'lishi yoki kompilyativ, ya'ni boshqalar ma'lumotlarni terib yoki aynan keltirishi, to'la va noqisligi, qisqaligi, voqealarning qay tarzda bayon etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda original va mo'tabar qo'lyozmalarga tayanib ish olib borish, har bir dalil va ma'lumot, raqamlar eng ishonchli, nodir, birlamchi manbalardan olinishi kerak. Boshqalar kitobida keltirilgan ma'lumotlardan saqlanish lozim.

O'tmish jamiyat sharoitida yozilgan asarlarning mualliflari ko'pincha o'zlar keltirayotgan dalillardan to'g'ri xulosa chiqarmaydilar, ularning fikrlarida noaniqlik, chalkashlik va qarama-qarshilik ham uchraydi. Butabiyl hol, albatta. Chunki, ular yashab ijod etgan muhitning o'zi ziddiyatlar bilan ajralib turar edi.

Yozma manbalarda qarama-qarshi fikrlar bilan bir qatorda xolisona mulohazalar ham uchraydi. Bunday paytlarda muallif ko'pincha o'z fikr va mulohazalarini pardozli iboralar va istiorali so'zlar orasiga yashiradi. Goroskop – odam tug'ilganda uning taqdirini yoki biron ulug' shaxs ishtirokida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muhim voqeaneing natijasini sayyoralarining o'sha paytdagi holati va o'rniga qarab maxsus jadvallar vositasida oldindan belgilash, shuningdek, ko'p asr avval bo'lib o'tgan va aynan muallif bayon qilmoqchi bo'lgan voqeaga o'xshash faktlarni misol

tariqasida keltirish yo'li bilan bayon etganlar.

Manbaning tarkibi va mazmunini ilmiy tahlil qilishdan kuzatilgan maqsad, uning muhim va qimmatli tomonlarini aniqlash, unda keltirilgan dalillarning ishonchligi va to'g'risini boshqalaridan ajrata olish hamda eng muhimi asarda bayon etilgan voqeani xolis tarixchi nuqtayi nazaridan turib baholay olishdan iboratdir.

Manbashunoslik talablaridan biri shuki, yozma manbani faqat uning bir o'zida keltirilgan dalil va ma'lumotlarga qarab baholab bo'lmaydi. Ba'zi hollarda keltirilgan dalil soxta, bayon etilgan voqeasi esa soxtalashtirilgan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham biron asar haqida qat'iy bir fikr aytishdan avval uni o'ziga o'xshash boshqalari bilan solishtirib ko'rish, keltirilgan dalillarni bir-biri bilan qiyoslash va tekshirish zarur.

Amaliy manbashunoslik qadimgi davrlardan boshlab to shu kungacha ma'lum darajada tajriba to'pladi. Ko'plab yozma yodgorliklarning eng asosiyлари asl nusxada – faksimilesi, tanqidiy matni, tarjima va izohli tarjimasi amalga oshirilib, chop etishga erishildi. Turli qo'lyozma fondlari, kutubxona va muzey, shaxsiy majmualardagi yozma yodgorliklar tavsifi fihrist-kataloglarda e'lon qilinib, ularda amalga oshirilgan manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijalari umumlashtirildi.

Xullas, manbalarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, tajribalar umumlashtirilib, kelgusida amalga oshirilajak tadqiqotlar uchun eng qulay va istiqbolli tadqiq metod va usullarini aniqlab, belgilab va ishlab chiqib, ularning eng zamonaviylari va samaradorlarini amaliyatga qo'llashni tavsija etish zarur.

So'nggi paytda zamonaviy kompyuterlarning yozma manbalarni tadqiq etish imkoniyatidan foydalanish vaqtি keldi. Bu o'rinda zamonaviy talaba va pedagog internet xizmatidan bemalol foydalana olishi talab etiladi.

Umuman, nazariy va amaliy manbashunoslik biri-birini to'ldiradi, biri ikkinchisi uchun asosiy tadqiqot yo'nalishi va uslublarini belgilasa, ikkinchisi birinchisi uchun daliliy ma'lumotlar jamlab, asos bo'lib xizmat qiluvchi dalillarni yig'adi.

Amaliy manbashunoslik nazariy bilim va tajriba asosida manbashunoslikning konkret, muayyan sohasi, bo'limi, davri masalasi yoki biror manba yuzasidan amaliy, praktik tadqiqot olib boradi, arxiv, muzey, kutubxona va shaxsiy majmualarda mavjud yozma manbalarni o'rganib, eng qimmatlilarini ilmiy muomalaga olib kirib, keng jamoatchilikning ma'naviy mulkiga aylantiradi.\*

\* Ushbu mavzuni yoritishda B. Ahmedovning «O'zbekiston tarixi manbalari» (2001) asaridan doydalanildi. 13–19-betlar.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Manbashunoslikning qaysi yo'nalishini bilasiz?
  2. Nazariy manbashunoslikning maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
  3. Amaliy manbashunoslik deganda nimani tushunasiz?
  4. Manbaning moddiy-texnik belgilari deganda nimani tushunasiz?
  5. Manbaning mazmuni nimadan iborat?
- 

### **3-MAVZU. MANBALARNI O'RGANISH VA O'RGATISH USULLARI**

**Darsning mazmuni:** Mavjud manbashunoslikka oid adabiyotlar asosida yozma manbalarni o'rganish va talabalarga o'rgatish usullari o'ziga xos xususiyatlari tahlili beriladi.

#### **Reja:**

- 3.1. Yozma manbalarni tavsif usuli va ularni talabalarga tushuntirish.
- 3.2. Kodikologik ma'lumotlar.
- 3.3. Asar muallifi va uning davri.
- 3.4. Asarning tarkibi va mazmuni tahlili.
- 3.5. Manbaning o'rganilishi yoki tarixshunosligi.

**Asosiy tushunchalar:** qo'lyozma texnik (moddiy asosi) xususiyatlari, raqamlash, varaqlar sonini yozib qo'yish – paginatsiya, matn o'lchami, sahifada satrlar soni, debocha, muqaddima, bob, fasl, qismi, daftар, xotima-kolofon, kitobat tarixi, asar nomi, uning mukammalligi, muallif nomi, tarix, xat, xattot, xat turi va uslublari, muhrlar, hoshiyadagi izohlar, turli yozuv va qaydlar, asarning boshlanishi va oxiridagi jumla.

#### **3.1. Yozma manbalarning tavsif usuli va ularni talabalarga tushuntirish**

Boy tarixni o'rganish va o'rgatish deganda, faqat yozma manbalarda mavjud ma'lumotlar to'g'risidagi bilim va tushunchalarni shunchaki mexanik tarzda talaba va bakalavrлarga yetkazish emas, balki an'naviy va zamonaviy pedagogik usullarning eng qulay va samarali vositalaridan foydalangan holda, ularda manbalar to'g'risida tushuncha, bilim va ulardan foydalanish malakasini hosil qilish bilan birga, tariximiz to'g'risida mustaqil fikr yuritishga o'rgatishni ham tushunamiz.

Yurtimiz tarixini o'rganishda yozma manbalardan foydalanishning

ilmiy va metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsija etish tarix va pedagogika fanlarining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Bu masala juda keng qamrovli bo‘lib, yozma manbalarni tadqiq etishning ilmiy metodik asoslarini chuqur o‘rganib chiqishni taqozo etadi.

Yozma manbalarni talabalarga tushuntirishning bir necha tamoyili mavjud. Birinchisi maxsus kataloglardagi manbaning tavsif tamoyilidir.

XIX asr oxirida paydo bo‘lgan Yevropa mamlakatlaridagi kataloglar ichida ingliz olimi Charlz Ryoning ko‘p jildlik arab, fors va turkiy tillardagi sharq qo‘lyozmalari kataloglaridagi yozma manbani tavsiflash tamoyili o‘zining mukammalligi va puxta o‘ylanganligi bilan alohida ajralib turadi. Quyida til tamoyili asosidagi Ch. Ryoning «Britaniya muzeyidagi turkiy qo‘lyozmalar» (London, 1888, ingliz tilida) (**Cataloguye of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Rieu Charles. — London: 1888. 432 p.**) katalogidagi manba tavsifi tamoyilini keltiramiz. Unda yozma manbaning muzeydagagi tartib raqami birinchi bo‘lib sarlavha o‘rnida berilib, so‘ngra qo‘lyozmaning kodikologik xususiyatlari, varaqlar soni, o‘lchami, sahifadagi satrlar soni, satr uzunligi, xati, ziynatlari alohida, ixcham tarzda berilgan. So‘ngra asar nomi asl nusxada, ya’ni arab alifbosida va uning tarjimasi ajratilib berilgan. So‘ngra muallif nomi va asarning boshlanishi va oxiridagi jumlalar aslida, arab alifbosida keltirilgan. Ana undan keyin muallif to‘g‘risidagi ma’lumot va asar tarkibi, mazmuni bayon etilib, tavsif oxirida asar tarixnavisligi, ya’ni o‘rganilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

Qator mavjud kataloglar asosida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari ham mustaqil ravishda qo‘lyozma manbalarni ilmiy tavsifga olish usulini ishlab chiqqanlar. Unda manbaning quyidagicha tavsifi berilgan: Sarlavha sifatida asar nomi asl nusxada va uning ruscha tarjimasi, qo‘lyozmaning xazinadagi tartib raqami va ushbu katalogdagi raqami keltirilgan. So‘ngra asar muallifi nomini asli arab yozuvida va ruschada keltirish bilan asosiy tavsif boshlanadi. Undan keyin muallif to‘g‘risida (imkon darajasida to‘liq), asar mazmunining tarkibi va qisqacha bayoni (annotatsiyasi) keltiriladi. Ba‘zi o‘rinlarda asar boshlanish va oxirgi jumlalari qo‘lyozmadan aynan arab yozuvida keltiriladi. Tarjimon va xattotlar nomlari arab yozuvida va ruscha yoziladi. Tavsif ixcham kodikologik ma’lumotlar — xati, qog‘oz, ziynati, xattot nomi, qo‘lyozmaning kitobat tarixi, nuqsoni, varaqlar soni, o‘lchami va adabiyotlar (bibliografiya) nomlarini keltirish bilan tugallanadi.

M. Hasaniy «Sharq qo‘lyozmalarini tavsiflash va fihristlash» nomli risolasida O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

instituti qo‘lyozma fondi tajribasini umumlashtirib, magistrantlarga tushuntirishga harakat qilgan.

Bulardan tashqari yozma manbalarni tavsiflashning qomusiy yoki ensiklopedik tamoyili ham mavjud. Biz uning namunasini «O‘zbekiston ensiklopediyasi» va «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» sahifalarida ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqillik davrida manbashunoslikka oid B.A.Ahmedovning «O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari» va «O‘zbekiston tarixi manbalari» asarlari chop etilgan edi. Olim manbalarning yozilgan tillariga qarab va yana huquqiy hujjatlar, yozishmalar, geografiya va kosmografiyaga oid asarlar, biografik, memuar asarlar, sayyoohlarning, elchilarining esdaliklari mavjudligini qayd etadi.

B.A.Ahmedovning asarlarida yozma manbalar alohida emas, balki muallif nomi ostida keltirilgan. Bundan tashqari tarixchi har bir tarixiy davrga qisqa ta’rif bergen. Mazkur darsliklarning ijobiy xususiyati sifatida ularda daliliy ma’lumotlarni ko‘pligi, ilmiyligini qayd etish mumkin. Faqat ularda materiallar akademik nashrlar kabi joylashtirilgan va dars o’tish xususiyatlari inobatga olinmagan.

A.Habibullayevning «Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik» qo‘llanmasi va A.A.Madraimov tuzgan «Manbashunoslikdan ma’ruzalar majmuasi» da yozma manbalar to‘g‘risida talabalarga ma’lumotlar berishda dars jarayoni xususiyatlarini e’tiborga olishga harakat qilingan. Faqat A.Habibullayev qo‘llanmasida adabiy manbashunoslikka katta e’tibor berilgan. Unda ma’lumotlar quyidagi tartibda bayon etilgan: Mavzu nomi. Adabiyotlar. Dars mazmunining qisqa izohi. So‘ngra dars mazmunining bayoni, alohida atamalar va oxirida savollar berilgan.

A.A.Madraimov tuzgan ma’ruzalar matnida ma’lumot bayonining tartibi quydagichadir: 1. Mavzu nomi. 2. Dars rejasi. 3. Asosiy tushunchalar. 4. Darsning mufassal mazmuni. 5. Materialni mustahkamlash uchun savollar va oxirida adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

A.Madraimov va G. Fuzailova tuzgan “Tarixiy manbashunuslik” (2006) o‘quv qo‘llanmasida har bir ma’ruza boshida mavzu nomi, darsning mazmuni, rejasi, asosiy tushunchalar berilgan. Asosiy matnda ma’ruza mavzui rejaga muvofoq atroflicha yoritilib, uning so‘ngida mavzuga oid asosiy adabiyotlar ro‘yxati, mavzuni mustahkanlash uchun berilagan savollar ilova etilgan.

Ushbu maxsus kataloglar va darsliklardan tashqari qo‘lyozma kitob to‘g‘risida va sharq manbashunosligiga oid to‘plam va kitoblar ham mavjud bo‘lib, ularda muhim yozma manbalarning har biriga alohida e’tibor berilmagan. Lekin, ularda eng muhimlari to‘g‘risida matn orasida

ma'lumotlar keltirilgan hamda manbalarning umumiylar xususiyatlari tadqiq etilgan. Zikr etilgan darslik va qo'llanma, maxsus adabiyotlarning barchasida o'ziga xos foydali ma'lumotlar mayjudligini tan olamiz. Lekin, ularning birontasini ham ilmiy-metodik jihatdan talabalarga manbalar to'g'risida dars berish uchun mukammal namuna deb olish mumkin emas.

Mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili va shaxsiy tajribalarimiz asosida yozma manbalar to'g'risidagi texnik ma'lumotlar va asar mazmunini talabalarga kompleks tarzda tushuntirishning eng samarali va ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga harakat qilindi.

Talabalarga manba to'g'risida kompleks tarzda ma'lumot berish kerak. Bu esa yozma manbaning kodikologik ma'lumotlar, muallif va uning yashagan davri, asar tarkibi va mazmuni tahlili, uning tarixnavisligini tushuntirishdan iboratdir. Darsning o'ziga xos xususiyatlari sifatida uning rejasи, mavzuga oid asosiy tushunchalarni izohlash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollardan foydalanishni qayd etish mumkin.

Yozma manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi tartibda tushuntirishni eng ma'qul va samarali ilmiy metodologik uslub deb hisoblaymiz.

### 3.2. Kodikologik ma'lumot

Kodikologik ma'lumot yoki tahlil deganda yozma manba, uning muallifining nomlari va noyob qo'lyozmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bayon etish tushuniladi. Bunday ma'lumotlar 5 dan 9 gacha bo'lishi mumkin. (Bundan ortiqcha ma'lumot talaba e'tiborini susaytirishi mumkin) Bular kodikologik yoki qo'lyozma to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Kodikologiya so'zi lotincha *codex* – kodeks so'zidan olingan bo'lib, qo'lyozma kitobning o'ziga xos xususiyatlarini anglatadi.

Kodikologik ma'lumotlar asar nomidan tashqari yana quyidagilardan iboratdir:

1. Muallifining nomi, hayot yillari;
2. Asarning yaratilgan vaqt;
3. Qo'lyozmaning tartib raqami va saqlanayotgan joyi;
4. Eng qadimgi qo'lyozmaning yaratilgan vaqt va joyi;
5. Qo'lyozmaning varaqlar soni va o'lchami.

Ularning ayrimlarini B.A.Ahmedov manbaning tashqi belgilari – qo'lyozma muqovasi, qog'ozi va xatidan tashqari asarning yozilgan vaqt, joyi, muallifi, yozilish sabablari, asar yozilgan vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, deb tushuntiradi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. 17-bet.

Bular qo'lyozma asar to'g'risidagi eng ixcham kodikologik ma'lumot hisoblanadi.

Pedagog o'rganilayotgan manbaning ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib, yana quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirishi mumkin va ularni qo'lyozma asar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar deb atashimiz mumkin. Ular quyidagilardir:

1. Xattotning nomi va xat turi;
2. Qo'lyozmaning ko'chirilgan joyi;
3. Paleografik xususiyatlari (siyohi, qog'ozi va qo'lyozmaning o'ziga xos xususiyatlari);
4. Qo'lyozma xotimasi – kolofon.

Pedagog-mutaxasis o'z bilim saviyasiga ko'ra va ixtiyori bilan bu ma'lumotlarning barchasini yoki ulardan ayrimlarini tanlab talabalarga tushuntirishi mumkin. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir manba, qo'lyozma kitob, bitik to'g'risida 60 dan ziyod texnik, kodikologik ma'lumot mavjud. Albatta, bularning aksariyati faqat sof ilmiy akademik tadqiqotlarda istifoda etiladi.

Oliy ta'llim tiziminining birinchi bosqichi uchun asar to'g'risidagi 9 ta eslatilgan kodikologik ma'lumotlarni kifoya deb o'yaymiz.

### **3.3. Asar muallifi va uning yashagan davri**

Qo'lyozmadagi asar muallifi va uning yashagan davri to'g'risida ixcham ma'lumot keltirilishi zarur. Odatda, sharq tarixchilari nomlari ixcham tarzda va to'la keltirilishi, imkon darajasida nomlar originalda, ya'ni arab alifbosida berilishi kerak. Muallifning tug'ilgan yili va vafoti, yaratgan asosiy asarlari, ularning qisqacha mazmuni keltirilishi maqsadga muvofiqli. Shuningdek, muallif yashagan davr, jamiyat to'g'risida ham talabalarga tushuncha berish zarur.

### **3.4. Manbadagi asarning umumiylar xarakteri**

Manbadagi asarning umumiylar xarakteri deganda, asar mazmunining umumiylar tarixga, masalan, «Tarixi Tabariy», «Jomi ut-tavorix», «Ravzat us-safo» kabi asarlarga xos xususiyatlarini aniqlash nazarda tutiladi. Yoki sulolalar tarixi – «Tarixi Bayhaqiy», «Tarixi salotini mang'itiya» kabi asarlarga xos xususiyatlarini aniqlash tushuniladi.

Bularidan tashqari yana xotira xarakterdag'i manbalar – «Temur tuzuklari», «Boburnoma» (Vaqoye), «Tarixi Rashidiy» kabi asarlar xususiyatlari ham mavjud.

Sof tarixiy asarlardan tashqari manba sifatida yana tazkiralalar – shoirlar,

adiblar va tasavvuf namoyondalari to‘g‘risidagi majmualar ham katta ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega.

Din namoyandalari to‘g‘risida agiografik xarakterdagи asarlar ham muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bulardan tashqari yozma yodgorliklardan, ayniqsa, maktublar va hujjatlar namunalaridan manbashunoslik darslarida va shu sohaga oid maxsus tadqiqotlarda foydalanish mumkin<sup>1</sup>.

Bu yerda keltirilgan asar xarakteri to‘g‘risidagi ma’lumotlar bakalavrular uchun kifoya deb hisoblaymiz. Yozma manba va undagi asar to‘g‘risidagi boshqa tafsilotlar maxsus ilmiy tadqiqotlarda istifoda etiladi.

### **3.5. Asar tarkibining tahlili**

An’anaga ko‘ra, tarixiy asarlar «Bismillohi Rahmonu Rahim» so‘zidan keyin hamd, tahmid – Allohga hamdu sano bilan boshlanadi. So‘ngra, na’t – Muhammad Payg‘ambarning ta’rifi, maqtovi bitiladi. Yana to‘rt sahabalar—Xalifai Roshidin, ya’ni to‘g‘ri yo‘ldan yurgan xalifalar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alilarning madhi o‘rin oladi. Shundan keyin tarixchi o‘z asariga homiylik qilgan shaxsni ulug‘laydi. Alovida ibora «Ammo ba’d» so‘zidan so‘ng muallif o‘zi va yozmoqchi bo‘lgan asari to‘g‘risida ixcham ma’lumot yoki shu xususida ayrim tafsilotlarni zikr etadi. Buni mualliflar muqaddima yoki debocha deb ataydilar. Mana shundan so‘ng asarning asosiy mazmuni bayon etiladi. Tarixiy asarlarda, asosan ikki uslubda voqealar bayon etiladi.

a) Xronologik tartibda, ya’ni yilma-yil. Bu tartibda «Tarixi Tabariy», «Mujmali Fasixiy», «Matla’ as-sa’dayn» va «Boburnoma» kabi asarlar yaratilgan.

b) Tarixiy asarlarda eng muhim voqealar alohida sarlavha ostida bayon etiladi.

Bundan tashqari turli hududlarda yuz bergen voqealar alohida bayon etilishi mumkin. Yana ayrim tarixiy asarlarda yuqoridagi usullar aralash holida ham kelishi mumkin.

### **3.6. Manbaning mazmuniga qarab tahlil etish**

Har bir asarning mazmuni muallifning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib yoritilgan bo‘ladi. Manbadagi asarning mazmunini yoritish juda muhim va mas’uliyatli ish bo‘lib, kitob bilan to‘la tanishib chiqishni taqozo etadi. Pedagog-mutaxassis yozma

<sup>1</sup> Ahmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. 68, 263 va boshqa betlar.

manbalardagi asarning boy mazmunini talabalarga ixcham va lo'nda tarzda bayon etishi zarur. Bunda yozma manbalar to'g'risidagi mavjud tavsif – kataloglar hamda ensiklopedik ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Umumiylar tarixga oid asarlarning aksariyatida voqealar bayoni o'z xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

a) Boshqa tarixchilar tomonidan bayon etilgan voqealar zikrini muallif ixcham holda yoki aynan keltiradi. Asarning bu qismi kompilyatsiya, ya'ni o'zlashtirma deb ataladi. Kompilyatsiya so'zi inglizcha *compile* – tuzmoq ma'nosini anglatadi.

b) Muallifning shaxsan o'zi ma'lumot yig'ib voqealarni bayon etgan qismi original, yangi qismi deb ataladi.

### **3.7. Manbaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish**

Yozma manbalar to'g'risida talabalarga ma'lumot berishda ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish juda muhimdir. Chunki har bir manba, asar albatta boshqalardan qator xususiyatlari bilan, qaysi voqealar bayonining mavjudligi bilan, qay tarzda bayon etilishi bilan, qanday manfaatlarni ifoda etgani bilan o'zaro farqlanib turadi. Asarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda uning qanday tarixiy asarlarga o'xshashligi, ulardan farqi hamda qanday manbalardan foydalanib yaratilganligiga alohida e'tibor berish zarur.

### **3.8. Asarning ilmiy ahamiyatini aniqlash**

Yozma manbadagi asar mazmunining tahlili, uning tarix fani taraqqiyotiga qo'shgan yangiligi, hissasini belgilash bilan yakunlanadi. Ya'ni, qaysi voqealar bиринчи bor yoritilgan? Avvalgi yoritilgan voqealar bayoni qay tarzda talqin etilgan? Asarda bayon etilgan voqealar yurtimiz taraqqiyotiga qay tarzda ta'sir etgan? Aynan shu masalalar asarning yurtimiz tarixini o'rganishdagi ilmiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

### **3.9. Manbaning o'rganilishi, uning tarixnavisligi**

Manbaning o'rganilishi, uning tarixnavisligi maxsus qo'shimcha tarixnavislik fanida qay darajada yoritilganligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, bo'lg'usi pedagoglar ushbu manbalar ustida mustaqil tadqiqot olib borishlari uchun ilmiy asos yaratiladi. Manbaning o'rganilish tarixi maxsus tarixnavislik yordamchi fanida tadqiq etilsa-da, manbashunoslikda ham uning to'g'risida ixcham ma'lumot berish zarur deb o'ylaymiz.

Bunda, asosan manbaning qo'lyozmalari qay darajada o'rganilgani,

asarning asl matni, zamonaviy matbaa usulida — faksimile, litografik va terma tarzda chop etilganmi, noshir ya'ni nashrga tayyorlovchi nomi, nashrga yozilgan so'zboshi, ilova qilingan izohlar va ko'rsatkichlar mavjudligini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Manbaning o'rganilishi, tarixnavisligi oxirida asardagi ma'lumotlar qanday maxsus tadqiqotlarda, darslik va qo'llanmalarda yoritilanligi bayon etiladi.

Bir akademik soat davomida talabalarga yozma manbalar to'g'risidagi yuqoridagi ma'lumotlarni berish kifoya, deb o'ylaymiz. Chunki, bu ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda dars rejasi, kamida 10 ta, asosiy tushunchalar, eng ko'pi bilan 15 ta atamalar, manba bo'yicha foydalanilgan asosiy (5ta) va qo'shimcha (10tagacha) maxsus adabiyotlar ro'yxati talabalarga tavsiya etiladi. Yana dars jarayonida ko'rgazmali quroq sifatida asar qo'lyozmasi, nashrlari va boshqa materiallardan, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dars oxirida o'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar tavsiya etilishi kerak.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. *Yozma manbalarning qanday tavsif usullari mavjud?*
  2. *Kodikologik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?*
  3. *Yozma manbadagi asarning tarkibi va mazmuni qanday tahlil qilinadi?*
  4. *Yozma manbalar tarkibi qanday qismlardan iborat bo'ladi?*
  5. *Yozma manbaning ilmiy ahamiyati nima bilan belgilanadi?*
- 

## **4-MAVZU. HUJJATLAR**

**Darsning mazmuni:** Hujjatlarning O'zbekiston tarixining muhim manbalari ekanligi, ularning o'ttiz to'rt turi, eng muhimlari to'g'risida tasavvur beriladi.

### **Reja:**

- 4.1. Hujjatlar O'zbekiston tarixining muhim manbalari.
- 4.2. O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar.
- 4.3. Rasmiy yozishmalar.
- 4.4. Turli masalalar haqidagi hujjat, farmon va maktublar.

**Asosiy tushunchalar:** Suyboriy xojalari, amirlilik, xonlik, yorliq, vasiqa.

## **4.1. Hujjatlar – O‘zbekiston tarixining muhim manbalari**

Rasmiy hujjatlarni o‘rganish – diplomatika – tarix fanining yordamchi ilm sohalaridan biri bo‘lib, shuning uchun juda muhimki, hujjatlardagi qimmatli ma’lumotlar boshqa yozma manbalardagi tarix va tarixda o‘tgan voqeя, hodisalarni oydinlashtirishga, ularni tushunishga va hatto qayta ko‘rib, yangi fikr, mulohaza va tasavvurga olib kelishi mumkin.

Yurtimizning ko‘p asrlik tarixiga oid yozma manbalar qatorida yuz yoki yuz ellik mingdan ziyod hujjatlarni o‘rganish, ulardagи qimmatli ma’lumotlardan foydalanib, o‘z tariximizning qorong‘i sahifalarini yoritish katta ilmiy ahamiyatga ega. Biz hujjat degan so‘zning ikki ma’nosini borligini eslatmoqchimiz. Birinchisi – hujjat, dokument, akt ma’nosida bo‘lib, podshohlar, amirlar, xonlar, yirik davlat amaldorlari va qozilar nomidan bitilib, ularning shaxsiy dastxati va muhr bilan tasdiqlangan hujjatlar. Bular juda kam hollarda asl nusxada uchraydi, aksariyat hollarda esa, ularning naql qilingan, qayta ko‘chirilgan nusxalari saqlangan. Ikkinci ma’nos – o‘tmishdan qolgan hokim, davlat idoralari, xususiy shaxslarga tegishli maktublar, insholar, arznomalar va qaydlarni bildiradi.

Respublikamizda yurtimiz tarixiga oid boy hujjatlarni xazinalari bo‘lib, mutaxassislar fikricha, ularda jami yuz ellik mingdan ziyod hujjat mavjud.

Hujjatlarning eng boy xazinasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida bo‘lib, ularning umumiyligi soni yuz mingdan ko‘pdir. Ular, asosan Qushbegi arxivi, Buxoro amirlari, Xiva xonlari, viloyatlar hokimlari devon va mahkamalariga tegishli hujjat, XV–XIX asrlarga oid vaqfnomalardan iboratdir.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma xazinasida taxminan o‘n mingdan ziyod hujjat mavjud bo‘lib, ular, asosan vaqfnomalar, yorliqlar, savdo bitimlari, qarz vasiqlari, ijaraga oid tilxat, da’vo arizalar va boshqa turli mazmundagi rasmiy hujjatlarni tashkil qiladi. Ular O‘rta Osiyo hududida yaratilgan.

Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa viloyat va shaharlardagi muzey va arxivlarda ham bir necha ming hujjatlar saqlanmoqda.

1873-yili Xorazm Rossiya tomonidan zabt etilganidan so‘ng Xiva xoni devoniadagi hujjatlarni mo‘tabar qo‘lyozmalar qatorida Sankt-Peterburg shahriga olib ketilgan edi. Ancha muddatdan so‘ng, ya’ni 1936-yili sharqshunos olim P.P.Ivanov Rossiya Milliy kutubxonasi – sobiq M.E. Saltikov-Shchedrin nomli Xalq Davlat kutubxonasida Xivadan olib ketilgan hujjatlarning bir qismi saqlanayotganini aniqladi. Ular 137 ta hujjat edi. Keyinchalik M.Yu.Yo‘idoshev Rossiya Fanlar akademiyasining

Sharqshunoslik institutida to'qqizta hujjatni aniqlab, ularni o'rganib, nashr etdi. Shunday qilib, jami 155 ta Xiva hujjatlari chop etildi. Mazmuniga ko'ra ularni ikki qismga: kirim-chiqim qaydlari daftarlari (Mehtar, Qushbegi, Devonbegiga tegishli) va xon amaldorlari nomlari qayd etilgan daftarlarga ajratish mumkin.

1967-yili Rossiya Milliy kutubxonasida yana uch mingdan ko'proq Xiva xonlari hujjatlari borligi aniqlandi va 1962-yili avval aniqlangan hujjatlar bilan birga Toshkentdag'i O'zbekiston Davlat arxiviga keltirildi. Bu hujjatlar, asosan, Xiva xoni nomiga yozilgan arznomalar, turli amaldorlarga murojaatnoma, soliq yig'ini to'g'risida ma'lumotnoma, yurtda olib borilgan turli tadbirlar, kanal qazish, turli ta'mir ishlari to'g'risida edi.

Xiva hujjatlarining ma'lum qismi O'zR FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida ham mavjud. Bu yerda to'rtta qozixona faoliyatini qayd etgan daftarlар bo'lib, ularda qozixonalarda amalga oshirilgan tadbirlar – savdo, qarz, da'vo, vasiyat va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar bitilgan. Bu hujjatlarda Xiva xonligi hududiga kiruvchi Hazorasp, Qipchoq, Mang'it, Qatag'on, Qo'ng'irot, Shahobod, Toshovuzlarda amalga oshirgan ishlar zikri mavjud. Bu daftarlarda 1893–1912-yillarda tuzilgan 28205 ta hujjat qayd etilgan.

O'zbekiston tarixiga oid hujjatlarni O.D.Chexovich, P.P.Ivanov, M.Yo'ldoshev, E.Yu.Bregel, T.Ne'matov, A.Shayxova va boshqa olimlar o'rganganlar. Ammo, ularning tadqiqotlari chuqur ilmiy xarakterga ega bo'lib, asarlari ancha vaqt ilgari chop qilingan, hozirgi kunda ular kamyoq nashrlarga aylangan.

O'zbekiston tarixiga oid hujjatlarni o'rganish muammolari O.D.Chexovich tomonidan 1969-yili alohida maqolada yoritilib, olima ularning o'ziga ma'lum bo'lgan o'ttiz to'rt turi borligini qayd qilgan bo'lib, ularning nomlarini keltirgan. Ular quyidagilar:

1. Omonnoma – harbiy vaziyatda tinch qo'yish va xavfsizligini ta'minlash haqidagi hujjat;
2. Ariza – murojaatnoma bilan ta'minlash;
3. Ahdnoma – kelishuv;
4. Barot – soliq olish huquqini beruvchi hujjat;
5. Vaqfnoma – ma'lum mol-mulkni vaqf qilish, ya'ni xayriya tashkilotlariga o'tkazish xususidagi hujjat;
6. Vasiyatnoma;
7. Vasiqa;
8. Vasiqai batot – savdo xususidagi vasiqa;
9. Vasiqai bahshish – tuhfa qilinganligi to'g'risidagi hujjat;
10. Vasiqai joiz – garov to'g'risida hujjat;
11. Vasiqai ijoza – ijara to'g'risidagi hujjat;
12. Daftar – soliqlar haqidagi yoki amaldorlar nomlari va maoshlari qayd qilingan ro'yxat;
13. Inoyatnoma – tuhfa – oliy mansabdar shaxs tomonidan berilgan hujjat;

14. Istimolatnoma – soliqni undirish haqidagi buyruq; 15. Kabola – savdo haqidagi (X–XVI asrlarga oid) hujjat; 8. Mahzar – janjal qaydi; 9. Manshur – farmon; 10. Misol – viloyatni boshqarish huquqini beradigan farmon; 19. Muboraknoma – hokim devoni buyrug‘i yoki u to‘g‘ridagi ma‘lumot; 20. Nishon – manshur bilan bir ma‘nodagi hujjat; 21. Rivoyat – muftiy tomonidan bahsli masala bo‘yicha chiqarilgan yuridik qaror; 22. Sulhnoma – sulk to‘g‘risidagi shartnoma; 23. Tilxat – qarz olinganligi to‘g‘risidagi hujjat; 24. Fathnoma – harbiy g‘alaba to‘g‘risidagi e‘lon; 25. Fatvo – rivoyat ma‘nosida; 26. Farmon; 27. Xatti vakolat; 28. Xatti da‘vo, ariza; 29. Xatti nikoh – nikoh shartnomasi; 30. Xatti taraka – meros taqsimlash haqidagi hujjat; 31. Xatti ibro – qarzdan ozod qilish yoki da‘vordan voz kechish to‘g‘risidagi hujjat; 32. Hukm – qozi yoki hokim hujjati; 33. Hukmnoma – hukm hujjati; 34. Yorliq – xon tomonidan lavozimga tayinlash haqidagi hujjat.

Ushbu darslikda huquqiy hujjatlar (podsho va xonlarning farmonlari, yorliqlar, inoyatnomalar, rahnomalar, vasiqalar, vaqfnomalar) haqida tushuncha berilib, ayrim namunalar tarjimalari hamda rasmiy yozishmalar xarakteri, maktublarning qisqa mazmuni bayon qilingan.

## **4.2. O‘zbekiston tarixiga oid hujjatlar**

### **4.2.1. Juybor xojalarining hujjatlari**

Juybor xojalarining hujjatlari XVI asrga doir bo‘lib, ular Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. Yirik yer-suv va mol-mulk egasi bo‘lgan xoja Muhammad Islom va xoja Sa‘dning, u xoja Kalon nomi bilan mashhur bo‘lgan, jamiyatdagi mavqeiga oid huquqiy hujjatlardir. To‘plamdagi hujjatlar forsiy matni va ruscha tarjimasini P.P. Ivanov (1893–1942) ning tadqiqotlari bilan 1938 va 1954-yillarda ikki jild qilib Sankt-Peterburgda nashr qilingan.

To‘plam Juyboriy xojalaridan xoja Sa‘d (1531/32–1589)ning mol-mulkiga oid 288 hujjatdan iborat. Ular yer-suv, do‘kon, hammom, karvonsaroy, tegirmon, oshxona va boshqa daromad keltiruvchi mulkning oldi-sottisiga oid vasiqalardir.

Juybor xojalari o‘z davrida katta mol-mulkka ega bo‘lgan boy-badavlat kishilar edilar. Xoja Muhammad Sa‘d ikki ming jufti gov, 100 ming tanob yeri, yigirma ming qo‘yi, ming bosh tuyasi, bir yarim ming oti, yirik shaharlarda ko‘plab do‘konlari, timlari, tegirmon, hammom, moyjuvoz va boshqa turdagи ishlab chiqarish va savdo korxonalari bo‘lgan.

Bular Xoja kalonning otasidan qolgan meros mulki, xonlar va boy-badavlat odamlarning hayr-ehsonlari, shuningdek sotib olingen, zarxarid mulkdir.

Quyida ushbu to'plamdag'i ayrim hujjatlar matni o'zbek tilida keltirildi, toki talabalar ular to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lsinlar.

#### **4.2.2. «Majmu'ayi vasoyiq»**

“Majmu'ayi vasoyiq” (“Vasiqalar to'plami”) – Samarqand qozixonasiga tegishli va XVI asrning oxirida tuzilgan huquqiy hujjatlar, vasiqlar to'plamidir. Unda jam'i 735 ta hujjat bo'lib, xronologik jihatdan 1588–1591-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, meros taqsimlash, kasb-hunar, shogirdlik bilan bog'liq, savdo do'konlari, yer-suv va hovli-joyni ijaraga qo'yish kabi masalalarni rasmiylashtirishga bag'ishlangan. Hujjatlarning yana bir muhim tomoni shundaki, ularda XVI asrda Samarqandda amalda bo'lgan kasb-hunarlar: zargarlik, kulolchilik, rangrezlik, attorlik, kimuxgarlik, chitboflik, sangtaroshlik, shamshirgarlik, qog'oz ishlab chiqarish, zardo'zlik, sarrojlik, duradgorlik, kulohgarlik, sahhoflik-muqovasozlik, xattotlik, kitobfurushlik va to'qsondan ortiq kasb-hunar haqida ma'lumot mavjud.

“Majmu'ayi vasoyiq”ning yaxshi qo'lyozmasi hozirda O'zRFA Sharqshunoslik institutining xazinasida 1386 tartib raqami bilan saqlanmoqda. Hujjatlarning bir qismi rus va o'zbek tillariga tarjima qilinib, chop etilgan. Abdurauf Fitrat va V.S.Sergeev ulardan faqat 36 nafarini tanlab olib rus tiliga tarjima qilganlar va 1937-yili Toshkentda nashr etganlar. Hujjatlardan 237 tasi, ya'ni taxminan uchdan bir qismi sharqshunos olim B.Ibrohimov (1908–1978-yy.) tarafidan o'rganilib, o'zbek tiliga tarjima qilingan edi. Bu ish 1982-yili B.Ahmedov, O.Jalilov, M.Karimova, T.Fayziyev va G.Ostonova tarafidan nashrga tayyorlandi va chop etildi. Undan ayrim namunalar quyida keltirildi.

#### **4.2.3. Terma hujjatlar**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy tarix arxivida, Buxoro o'lakashunoslik muzeyi va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro kutubxonasida saqlanayotgan hujjatlar: farmonlar, hukmnomalar, inoyatnomalar, vasiqlar, oldi-sotti haqidagi hujjatlar va ajrimlardan iborat bo'lib, ulardan O.D.Chexovich 51 tasini tanlab olib, rus tiliga tarjima qilib, matni bilan qo'shib, 1954-yili “Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве XVII–XIX вв.” nomi bilan alohida kitob qilib chop ettirdi.

Kitobda keltirilgan hujjatlar Ashtarkoniy hukmdorlardan Imomqulixon (1611–1642-yy.) bilan Ubaydullaxon soniy (1702–1711-yy.), mang‘it sulola vakillari amir Haydar, amir Muzaffar va Nasrulloarning farmonlari, hukmnomalari XVII asrda o‘tgan yirik yer va mulk egalari bo‘lmish Yalangto‘shibiy, Allohyor devonbegi, Odina Muhammadjonlarga tegishlidir.

Hujjatlar yer-suvni soliqlardan ozod qilish, yerni sotish, garovga qo‘yish – vasiqai joiz, yerni sotib olish va uni imtiyozli mulkka aylantirish – vasiqai mubodila, yerni in’om qilish – vasiqai bahshish, tanhoh, mulknij ijaraga berish – vasiqai ijara, ma’lumot yetkazish – ariza va boshqa masalalar haqidadir. Ularning ichida alohida xiroj olinadigan va davlat yerlarini mulki xurri xolisga aylantirish, ya’ni soliqlardan ozod etish hollari uchraydi.

#### **4.2.4. «Xiva qozilik hujjatlari»**

«Xiva qozilik hujjatlari» davlat idoralari qaydiga tushmagan 1992-yili yapon olimi Toru Xorikava tomonidan xivalik Aliakbarov Abduhamidning qizi Akliya Aliakbarovaga tegishli bo‘lgan hujjatlardir. Ularni yapon olimi sotib olib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institiga sovg‘a qilgan edi. Shundan so‘ng, ushbu hujjatlar ustida yapon va o‘zbek olimlari A.O’. O‘rinboyev, T.Xorikova, K.Isogay, T.Fayziyev, A.Jo‘rayeva bir necha yillar davomida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, nihoyat 2001-yili uni maxsus katalog shaklida rus tilida nashr etdilar. Bu kitobda 1713 rasmiy hujjat rus tilida ilmiy tavsiflangan, kitob oxiriga shaxslar nomlari, jo‘g‘rosiy nomlar va boshqa eng muhim ma’lumotlar ko‘rsatkichi va o‘ttizta hujjat fotonusxasi ilova qilingan.

Ushbu hujjatlarning aksariyati XIX asrga oid va qisman XX asr boshlarida tuzilgan. Ayrim hujjatlar XVIII da yaratilgan bo‘lib, eng qadimgisi 1762-yilda tuzilgan. Eng so‘nggi hujjatlar Sho‘ro davriga oid bo‘lib, 1924-yilda tuzilgan va muhrda «Xorazm Xalq jumhuriyatining Xiva qoziligi» muhri bilan tasdiqlangan.

Hujjatlar yaratilgan davrda Xiva xonligi tarixida murakkab siyosiy holatlar yuz bergen: Qo‘ng‘irot sulolasini namoyandalari xonlik qilgan, o‘zaro hokimiyat uchun kurashlar, urug‘lar janjali, qo‘shnilar bilan janglar bo‘lib turgan. Ayni shu davrda, 1873-yili Xiva xonligi rus qo‘shinlari tomonidan bosib olingan, 1920-yili esa ushbu hududda sho‘rolar hokimiyati joriy etilgan.

Majmua hujjatlarining aksariyati mazmun jihatidan xususiy (shaxsiy) hujjatlar bo‘lib, qozixonalarda tuzilib, qozi muhri bilan tasdiqlangan. Ularda turli shaxslar orasidagi munosabatlar o‘z aksini topgan bo‘lib, aksariyati savdo hujjatlari – «bay‘i bot-batot» va «bay‘i joiz» deb

nomlangan. Ularda yer, uy, do'kon, ustaxonalar kabi mulklar oldi-sotdisi qayd etilgan.

Son jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi hujjatlar «bay'i joiz» deb nomlanib, ularda mulk (yer, uy va boshqalar) keyinchalik sotib olish sharti bilan ijaraga qo'yilgan.

«Ibro» nomli, da'vodan voz kechish hujjatlari ham son jihatdan ko'p bo'lib, unda da'vogar va javobgar orasidagi bahsni to'xtatilgani qayd etiladi. Bu hujjatlar mazmuniga ko'ra, da'vogarga javobgar ma'lum miqdor pul berish evaziga uning da'vosini qaytarib olishga erishganini ko'rish mumkin.

Bu majmuada vaqfnomalar ham bor. Ularda masjid, qabriston, madrasa va boshqalar uchun turli ko'chmas va boshqa mulk-yer, do'kon, naqd pul va boshqalar vaqf qilingani qayd etilgan. Vaqfnomalar ichida shundaylari ham borki, mazmuniga ko'ra, vaqf qilingan mulk foyda olish maqsadida, birovlarga ijaraga berilgan va foyda xayriya idoralari va ularning xizmatchilarini moddiy ta'minlash uchun ishlatilgan.

Shuningdek, yerdan foydalanish, uni sug'orish bo'yicha tuzilgan hujjatlar ham bor.

Ushbu qozixona hujjatlari yer ijarasi, meros taqsimoti, xatti nikoh, vasiyatnoma, tuhfa, homiylik to'g'risidagi hujjat, janjalli masalalar, qo'ydi-chiqdi munosabatlari, mulk uchun mutasaddi ta'minlash va boshqalar bor. Shuningdek, qullik masalasiga oid hujjatlar ham bor. Ular 1873-yilning 12 iyuniga qadar tuzilgan bo'lib, shu tarzda Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirhon Xiva xonligi hududidagi barcha qullarni rasman ozod qilish to'g'risida farmon bergen edi. Bu paytda Xiva xonligi rasman Rossiyaga qaram bo'lgan edi. Hujjatlar ichida qarz, mol-mulkka berilgan vasiqlar ham bor.

Xususiy hujjatlardan biri (86-raqamli) Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahim soniy (1865–1910) yorlig'i bo'lib, unda o'n uchta xojalar – Muhammad pir Eshon avlodlarini davlat soliqlari, solqut, olg'ut, ham bigar, hashar, qazuv ishlaridan ozod etganligini ko'rsatadi.

Hujjatlar orasida «rivoyat» nomi ostida yuridik, huquqiy ajrimlar ham bor. Ularda fiqhiy kitoblarga asosan xususiy mulk mojarolari ajrim qilingan. Bunday ajrimlar ushbu majmua hujjatlardan farqli o'laroq, «rivoyat» lar yirik faqihlardan bir nechtasi, mustiy, raislar tomonidan ham tasdiqlangan.

Har bir hujjat tuzish uchun ma'lum qonun-qoida, tartibga rioxva qilinganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, hujjatga daxldor shaxslar nomlari aniq-tiniq ko'rsatiladi, ularning joyi, yer chegarasi, uy, do'kon tafsilotlari qayd etilib, ularga qo'shni joy nomlari, guvohlar va hujjatni

tuzuvchi kotib nomi bitiladi. hujjat qozi muhri bilan tasdiqlanib, tarixi yoziladi. Agar hoshiyaga biron ta qo'shimcha kiritilsa, u ham qozi muhri bilan tasdiqlangan.

Shunday qilib, «Xiva qozilik hujjatlari» majmuasi Xiva xonligining XIX asr va XX asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini yorituvchi boy ma'lumotlarga ega.

### **4.3. Rasmiy yozishmalar**

Rasmiy yozishmalar, ya'ni xonlar, podshohlar, amirlar, tariqat yetakchilari va shoirlar o'rtasidagi yozishmalar ham tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi va uning ham ijtimoiy-siyosiy tarixni o'rganishdagi ahamiyati kattadir. Ular, ayniqsa mamlakatdagi ichki vaziyat va mamlakatlararo munosabatlarni o'rganishda tadqiqotchilarga katta material beradi. Shunday maktublardan ko'plari o'z vaqtida ko'chirilib kitobat qilingan va ulardan birmunchalari bizning zamonimizgacha yetib kelgan. "Maktuboti Temuriya" ("Temuriylarning maktublari"), "Majmuayı murosilot" ("Maktublar to'plami") va boshqalar shular jumlasidandir.

#### **4.3.1. «Maktuboti Temuriya»**

"Maktuboti Temuriya" hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 2278-raqm ostida saqlanayotgan, 191 varaqli XVI asrda kitobat qilingan maktublar majmuasining nomidir.

Eronlik olim Abulhusayn Navoiy mazkur majmuaga Eron, Turkiya, Ozarbayjon va Fors hukmdorlarining xatlarini ham qo'shib, 1991-yili "Isnod va maktuboti tarixi Eron (az Temur to shoh Ismoil)" nomi bilan nashr etgan. Mazkur to'plamga Amir Temur va Temuriylar (Shohruh, Sulton Husayn va boshqalar)ning Fors, Ozarbayjon, Iroq va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalari jamlangan.

Bu yozishmalar Amir Temur va Temuriylarning mazkur mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari tarixini o'rganishga, xususan Amir Temurning 1381–1404-yillari Eron, Iroq, Ozarbayjon, Suriya va Turkiya ustiga qilgan harbiy yurishlarining saboqlarini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Mazkur to'plam Haydar va Er o'g'lining "Majmuayı munshaot", xoja Shahobiddin Abdulla Marvoridning "Munshaot", Frudumbekning "Munshaoti Fridunbek" asarlariga ham asoslangan.

"Maktuboti Temuriya" xurosonlik mashhur shayx, Amir Temurning pirlaridan biri Zayniddin Abubakr Taybodiy (1395-yili vafot etgan)ning o'z muridi Amir Temurga yo'llagan bir tarixiy maktubi bilan boshlanadi.

Amir Temur bu maktubni “Temur tuzuklari”ning “Tadbirlar va kengashlar” deb atalgan birinchi maqolasida keltirgan. “Tuzuklar”da keltirilgan mazkur maktub haqida, xususan, mana bulami o’qiyimiz: “Pirim Zayniddin Abubakr Taybodiy menga yozmishlarkim, “Abulmansur Temur sultanat yumushlarida to’rt ishni qo’llasın, ya’ni 1) kengash; 2) mashvarutu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyyotkorlik. Chunki, kengash va mashvaratsiz sultanatning barcha qilgan ishlari va (podshohning) aytgan gaplari xato bo’lgan. Unday podshohni johil odamga qiyoslash mumkin. Uning so’zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgan. Shunday ekan, sultanatni boshqarishda, mashvarutu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo’lmagaysan. Yana shuni ham bilginkim, sultanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo’lgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, ko’rib-ko’rmaslikka solish bilan bitur. (Xullas) tadbirlardan ogoh qilingandan keyin shuni ham aytish joizdurkim, qat’iylik, sabr-toqat, chidamlilik, hushyorlik, ehtiyyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay. Vassalom.”

Amir Temur pirining bu o’gitlariga umr bo’yi, butun faoliyati davomida amal qildi. “Bu maktub, — deb yozadi hazrat sohibqiron, — menga yo’l boshlovchi yanglig’ rahnamolik qildi. U menga sultanat ishlarining to’qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash bilan, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatadi”<sup>1</sup>.

“To’plam”dagi quyidagi maktublar Amir Temurning Eron(Fors), Ozarbayjon va Turkiyaga nisbatan 1381–1404-yillarda olib borgan siyosatini va nomlari sanab o’tilgan mamlakat hukmdorlarining Amir Temurga qarshi harbiy ittifoq tuzish xususida olib borgan siyosatini tushunishda yordam beradi:

Iraq hukmdori Sulton Ahmad jaloir (1382–1410)ning Fors hukmdori Muzaffariy Shoh Shujo’ (1359–1384)ga yozgan maktubi;

Ozarbayjon hukmdori Qora Yusuf (1389–1420)ning Yildirim Boyazid I (1389–1402) ga yo’llagan maktubi;

Yildirim Boyazid I ning Qora Yusufga javob maktubi;

Shoh Shujoning birodarzodasi Shoh Mansur (1387–1393) ning Yildirim Boyazid I ga yozgan xati;

Yildirim Boyazid I ning Shoh Mansurga javob maktubi;

Amir Temur ko’ragonning Gilon hokimi Mir Said Aliga maktubi;

Sulton A’zam Amir Temur ko’ragonning Sayyid Ali Kiyo buzurgga (Gilon) yuborgan xati;

<sup>1</sup> “Temur tuzuklari”. - Toshkent, 1996. 25-bet.

Sayyid Ali Kiyo buzurgning Amir Temurga yozgan javob xati;  
Amir Temur ko'ragonning Bag'dod podshosi Sulton Ahmad Jaloirga yo'llagan maktubi;  
Bag'dod podshosi Sulton Ahmad Jaloirning hazrat Amir Temurga javob maktubi;  
Amir Temur ko'ragonning Misr podshosiga yozgan maktubi;  
Sulton Ahmad jaloirning Yildirim Boyazid I nomiga yo'llagan maktubi;  
Yildirim Boyazid I ning Sulton Ahmad Jaloirga yuborgan javob xati;  
Qora Yusuf Qoraqo'yunluning Yildirim Boyazid Iga yuborgan nomasi;  
Amir Temurning Yildirim Boyazid I ga yo'llagan yo'llagan birinchi maktubi;

Sulton Yildirim Boyazid I ning Amir Temurga gustoxona javob xati;  
Amir Temurning Rum qaysariga yozgan ikkinchi maktubi;  
Rum podshosi Yildirim Boyazid I ning Amir Temurga yozgan javob xati;

Amir Temurning Rum qaysari Yildirim Boyazid I ga yo'llagan uchinchi maktubi;

Yildirim Boyazid I ning Amir Temurga javob maktubi;  
Amir Temurning Sulton Boyazidga yo'llagan to'rtinchi maktubi;  
Sulton Yildirim Boyazid I ning hazrat Amir Temurga yo'llagan javob maktubi;  
Amir Temurning Yildirim Boyazid I ga sulh taklif qilib Marog'adan jo'natgan maktubi;  
Sulton Boyazidning Amir Temurga yuborgan javob xati<sup>1</sup>.

#### **4.3.2. «Muraqqa'y Mir Alisher»**

“Muraqqa'y Mir Alisher” yoki “Majmua'y murosilot” (“Maktablar to'plami”) o‘z davrining nufuzli ruhoniylari – Abdurahmon Jomiy (1414–1492), xoja Ubaydulla Ahror (1404–1492), xoja Ahrorning o‘g‘li xoja Muhammad Yahyo (1500-yili o‘ldirilgan), xoja Ahrorning safdoshi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriy (1495-yili vafot etgan) va boshqalarning Sulton Abu Said Mirzo (1451–1469), Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiyga yo'llagan maktablarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu to'plam Alisher Navoiy tomonidan tuzilgani uchun “Muraqqa'y Mir Alisher” yoki “Navoiy albomi” nomi bilan ham ataladi. To'plam XIX asrning yirik ziyyolilaridan biri Buxoro qozi kaloni Sharifjon Maxdum sadri Ziyo kutubxonasida bo‘lgan va undan Alisher Navoiy

<sup>1</sup> Ahmedov B. Yuq. asar. 93–95-betlar.

nomidagi Xalq kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limiga, va undan keyin – 1943-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondiga o'tkazilgan. U 2178 tartib raqami bilan saqlanmoqda.

To'plamda Abdurahmon Jomiyning xatlari 334 ta bo'lib, ular shaxsiy mazmunda. Ko'pchiligi har xil iltimosnomalardan iborat. Ularda soliq va jarimalarning og'irligi va soliq yig'uvchilarining zulm-u bedodligi, Temuriyzodalarning o'zaro nizosi tufayli mamlakat va xalq ahvolining og'irlashgani, shuningdek, madrasa talabalariga yordam berish to'g'risidagi Alisher Navoiy, Sulton Husaynga iltimosnomalardan iborat.

Xoja Ahroming maktublariga kelsak, ular 128 ta bo'lib, ular mazmunan Abdurahmon Jomiy xatlariga o'xshashdir. Ularda Movarounnahr va Xurosonning XV asrning II yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Samarqand hokimi Sulton Abu Said Mirzo va Xuroson podshohi Sulton Husayn Mirzo (1469–1506) o'rtasidagi og'ir munosabatlar, soliq va jarimalar, xususan tamg'a solig'inинг og'irligi va uni imkonini bo'lsa, bekor qilish masalalari ko'tariladi. Tinimsiz harbiy yurishlar va o'zaro urushlarning pirovardida fojiaga olib kelishini Temuriylarga uqtirishga harakat qilinadi. Masalan, Xoja Ahror Sulton Abu Saidga yo'ilagan bir maktubida uni Ozarbayjon ustiga, uning hukmdori Qora Yusuf ustiga qilmoqchi bo'lgan yurishiga qarshi chiqadi. Maktubda, "Hargiz az Marv naguzarid" ("Hargiz Marvdan nariga o'tmasinlar") deb ochiq ogohlantirgani yozilgan. Ma'lumki, o'sha yurish natijasi Sulton Abu Said uchun fojia bilan tugadi. 1469-yilgi jangda u halok bo'ldi.

### **4.3.3. «Maktuboti Allomiy»**

"Maktuboti Allomiy" – "Maktuboti Abulfazl", "Inshoyi Abulfazl" ("Abulfazl (Allomiy) tarafidan bitilgan (va ko'chirilgan) maktublar")i deb ham ataladi. Maktublarning asosiy qismi Boburiylar sultanati (1526–1858)ning atoqli podshohlaridan Jaloliddin Akbar (1556–1605) nomidan, bir qismi vazir va yirik tarixchi olim Abulfazl ibn Muborak Allomiyning shaxsiy mazmundagi maktublaridan iborat. To'plam uch qismiga bo'lingan. Undan bizga uchdan ikki qismi, ya'ni ikkita daftari yetib kelgan, xolos. U Allomiyning qarindoshi Abdusamat ibn Afzal Muhammad tomonidan tuzilgan.

"Maktuboti Allomiy"da 1586–1596-yillarda Buxoro va Balx xonliklari bilan Boburiylar davlati (Hindiston) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida o'ta qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Ma'lumki, o'sha yillari Hindistonning nafaqat Buxoro va Balx xonliklari, balki Eron bilan ham munosabatlari jiddiy tus olgan edi. Agar Boburiylar bilan Shayboniyalar

davlatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Badaxshon tufayli, to'g'risi Badaxshonni o'z hukmronligiga kiritib olish xususida bir qadar buzilgan bo'lsa, Safaviylar Eroni bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar katta siyosiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan Qandahor xususida birmuncha buzilib qolgan edi.

Majmuadagi maktublarda mana shu chigal masalalarning mohiyatini tushuntirib bera oladigan daliliy ma'lumotlar ko'p. Bu jihatdan Akbarning Abdullaxonga yo'llagan uchta maktubi va Abdullaxonning mavlono Mir Quraysh, Ahmad otaliq boshchiligidagi Hindistonga yuborgan elchiligi, va Buxoro elchisi olib borgan maktub, va Akbarning Balx bilan Buxoroga xoha Afzal, Hakim Humom va Mir Sadrijahon boshchiligidagi yo'llagan elchiliklari xususida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Yana bir muhim masalani ham aytib o'tishga to'g'ri keladi. Maktublarning birida kelgusida tutiladigan siyosat xususida ikki davlat — Boburiylar davlati va Buxoro xonligi hukmdorlarining maxsus uchrashuvini uyushtirish masalasi ko'tariladi.

“Maktuboti Abulfazl” majmuasining yaxshi bir qo'lyozma nusxasi (tartib raqami 290, 154 varaq) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud.

#### **4.3.4. Sayyid Amir Haydar Bahodirxon maktublari**

Sayyid Amir Haydar Bahodirxon maktublari yoki “Majmu'ayi maktuboti Sayyid Amir Haydar Bahodirxon” nomli to'plamda Mang'itlar sulolasi (1753—1920)ning yirik namoyandalaridan biri Amir Haydar (1800—1826) ning o'ziga yaqin amirlaridan Muhammad inoqqa<sup>1</sup> (keyincha oliy qushbegi<sup>2</sup>) yo'llagan turli masalalarga doir muboraknomalari<sup>3</sup>, inoyatnomalari<sup>4</sup> va boshqa 900 ga yaqin 10 yil davomida, 1814—1824-yillar yozilgan maktublari, jamlangan. U 464 varaqli, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 2120/II tartib raqami bilan saqlanmoqda. XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilib, kitob holiga keltirilgan.

Hakimbiy inoq ko'p yillar davlat xizmatida bo'lib, amir Haydarning

<sup>1</sup> Inoq — qo'shinni qurollantirish va uni yurish paytida va jang oldidan joy-joyiga joylashtiruvchi oliy mansabtor.

<sup>2</sup> Qushbegi — to'g'risi qushbegiyi kull, oliy hukmdor turadigan joy mutasaddisi, saroy vaziri.

<sup>3</sup> Muboraknom — biron mansabga tayinlanishi yoki zafar quchganligini tabriklab yuboriladigan maktub.

<sup>4</sup> Inoyatnom — biron mulk berish yoki mansabga ko'tarish.

ishonchini qozongan. Uning o'limidan (1826) keyin taxt vorisi shahzoda Umarga xiyonat qilib, Ark darvozasini 1723-yildan beri Qarshida hokim bo'lib o'tingan shahzoda Nasrulla to'raga ochib bergen. Hakimbiy qushbegi 1739-yili Eron podshohi Nodirshoh (1736–1747) askariga Qarshini, keyin Buxoroni topshirg'an.

Maktublarda Buxoro amirining ma'muriy-xo'jalik faoliyati, shuningdek, uning davrida amalda bo'lgan qonun-qoidalar, yer egaligining turlari, suyurg'ol, tanho, mulki xurriy xolis hamda soliqlar – xiroj, zakot, ushrlar haqida muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

#### **4.3.5. “Silsilat as-salotin” asaridagi maktublar**

“Silsilat as-salotin” asarida Shayboniyalar va Ashtarkoniylar hukmronligi davrida Buxoro va Balx xonlari, Eron podshohlari – Safaviylar va Hindistondagi Boburiylar o'rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalardan ayrimlarining matnlari keltirilgan. Ular quyidagilardir:

Hindiston podshohi Akbar (1556–1605)ning 1586-yili Buxoro xoni Abdullaxon II (rasman 1583–1598)ga o'z elchilari Hakim Humom va Sadri Jahon orqali yuborgan maktubi;

Eron podshohi shoh Abbas I (1587–1623)ning 1590–1591-yili elchi Yodgor sulton eramli orqali Balx xoni Shayboniy Abdulmo'minxon (1582–1598)ga yuborgan xati;

Akbar podshohning 1591-yili Buxoroga Abdullaxon II nomiga yuborgan maktubi;

Turkiya sultoni Murod II (1574–1595)ning 1592-yili Balx xoni Abdumo'minxonga yuborgan xati;

Balx xoni Abdumo'minxonning Eron podshosi Abbas I nomiga elchi Ali Yorbek orqali 1597-yili yuborgan xati;

Eron shohi Abbas I ning 1598-yili Balx xoni Abdumo'minga (o'sha yili otasi o'rniqa xon etib saylangan edi) yo'llagan javob maktubi;

Shoh Abbas I ning 1598–1599-yili elchi Zulfiqorbek Zulqadar orqali Niso va Obivard hokimi Shayboniy Dinmuhammad sultonga yuborgan xati;

Shoh Abbas I ning 1611-yili Buxoro xoni Ashtarkoniylar Imomquli (1611–1642) nomiga yuborgan xati;

Imomqulixonning shoh Abbas I nomiga 1611-yili elchi O'zbekxo'ja dodxoh orqali yuborgan javob maktubi;

Hindiston podshohi Nuriddin Jahongir (1605–1627)ning 1611-yili Buxoroga, Imomqulixon nomiga yo'llagan xati;

Hindiston podshohi Shahobiddin Shohijahon (1627–1667)ning 1628-

yili Imomqulixon nomiga elchi Hakim Xoziqdan berib yuborgan maktubi;

Eron podshohi shoh Safi' I (1629–1642)ning Buxoroga, Imomqulixon nomiga 1629-yili elchi Donish munshiyidan berib yuborgan xati;

Hindiston podshohi Shohijahonning 1628-yili Balxga elchi Tarbiyatxon orqali yuborgan maktubi;

Buxoro xoni Ashtarkoni Nadr Muhammadxon (1642–1655)ning Shohijahon nomiga elchi Nadribiy Shaboyat orqali berib yuborgan xati;

Hindiston podshohi Shohijahonning Nadr Muhammadxoniga 1645-yili shahzoda Murod Baxsh orqali yo'llagan javob maktubi;

Shohijahonning 1646-yili Nadr Muhammadxoniga yuborgan maktubi;

Buxoro xoni Ashtarkoni Abdulazizxon (1645–1680)ning 1666–1667-yili Hasan qushbegi elchiligi orqali Eron podshohi shoh Safi' nomiga yo'llagan xati;

Hindiston podshohi Avrangzeb Olamgir (1658–1707)ning Buxoro xoni Ashtarkoni Subxonqulixon (1680–1702)ga elchi Yakkatozxon orqali 1671-yili yo'llagan maktubi;

Buxoro xoni Subxonqulixonning Hindistonga, podshoh Avrangzeb Olamgir nomiga 1687-yili elchi Nadr devonbegidan berib yuborgan maktubi;

Hindiston podshohi Shohijahonning Balx ustiga qo'shin tepasida yuborilgan shahzoda Murod Baxsh va Asolatxon nomiga Nadr Muhammadxonning o'g'li shahzoda Xusrav Sultonga hurmat-ehtirom va mehribonlik qilish haqida yuborgan xati.

#### **4.3.6. Turli masalalar haqidagi hujjat, farmon va maktublar**

Yer-suv, Juybor xojalarini soliq va jarimalardan ozod qilish, ularga tegishli yerlarga Vaxsh daryosidan suv chiqarish uchun turli viloyatlardan hasharchilarni safarbar qilish, oldi-sotti haqida berilgan farmonlar va Juybor xojalariga jo'natilgan maktublar, masalan, shayboniy sultonlarining Abdullaxon soniyidan shikoyat qilib Juybor xojalariga yuborgan arznomalari, Koshg'ar va Badaxshon hukmdorlarining xoja Muhammad Sa'd (1531–1532–1589) nomiga yo'llagan maktublari Badriddin Kashmireyning "Ravzat ar-rizzon" asarida ham ko'p keltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, asar muallifining o'z so'zlariga qaraganda, uning qo'lida xoja Muhammad Islom bilan xoja Muhammad Sa'd nomiga kelgan jami maktublar soni 500 dan ortiq bo'lgan. Shundan u o'z asariga 132 maktubni kiritgan. Maktublar shayboniy sultonlar Muhammad Amin Sulton, Xudoyerdi Sulton, Juvonmard Ali Sulton, Kepak Sulton, Dinmuhammad Sulton, Xusrav Sulton, Abulquddus Sulton

va boshqalarga tegishli bo‘lib, ulardan mamlakatdagi beqarorlik va ur-yiqitlarning avj olib ketganligi, soliq va jarimalarning haddan ortiqligi va soliq yig‘uvchilarning zulmi tufayli raiyat ahvoli og‘irlashib ketganligi, xon tarafidan qo‘yilgan amaldorlarning zulmidan shikoyat qilinadi.

Masalan, Sulton Sa’idxon (1530–1533)ning inisi Xuboyberdi Sultonga tegishli bir xatda, xususan bunday deyilgan: “Qo‘suhokimiyat orqasida Shayxin va Ofarinkent tumanlari xalqi Buxoro va Miyonqol taraflarga ko‘chib ketdi”. Maktub oxirida Xudoyberdi Sulton Xoja Islomdan ularni vatanlariga qaytarishda ko‘mak berishlarini iltimos qiladi. Sulaymon Sultonning o‘g‘li Mahmud Sultonning Xoja Sa’dga yo‘llagan maktubi ham e’tiborga molikdir. Maktubda Sulton Abdullaxon tarafidan o‘ziga otaliq<sup>1</sup> etib tayinlangan Xushimbiy ustidan shikoyat qiladi. Maktubdan ma’lum bo‘lishicha, otaliq sultonga tegishli hamma narsani, xususan davlat ishlari va mulkidan keladigan barcha daromadni egallab olgan. Masalan, har yili xirojdan to‘planadigan 30 ming xoniyidan sultonga bir chaqa ham bermay qo‘ygan.

Mazkur asarda, uning beshinchi bobida, Hindiston, Koshg‘ar, Turkiya va Eron podshohlari tarafidan Juybor xojalariga yuborilgan maktublarning nusxalari keltirilgan. Masalan, Koshg‘ar xoni Abdurashidxon, Muhammad Quraysh Sulton va Badaxshon hukmdori temuriyzoda Sulaymonshohning maktublarida mamlakatning ichki ahvoldidan va Balx xonlarining tazyiqidan shikoyat qilinadi.

XVI asrda o‘tgan xurosonlik yozuvchi Zayniddin Vosifiyning “Badoyi ul-voqoyi” (“Ajoyib voqealar”) degan memuar asarida shayboniy hukmdorlarning maktublari, fathnomalari va yorliqlaridan ba‘zilarining nusxalari ilova qilingan. Masalan, ulardan ikkitasida shayboniy sultonlar Ubaydullaxon, Jonibek Sulton va boshqalarning 1512-yili temuriyzoda Boburning Najmi soniy boshliq Eron (qizilbosh) askarlari ustidan qozongan g‘alabasi va o‘sha Ubaydullaxonning Koshg‘ar xoni Abdurashidxon bilan ittifoqda qozoq sultonlari ustidan qozongan g‘alabasi munosabati bilan Movarounnahrning barcha viloyatlari, Koshg‘ar va boshqa mamlakatlarga yuborgan fathnomalari bor.

Mazkur asarda Toshkent xoni Navro‘z Ahmadxon-Baroqxon tomonidan berilgan bir hujjat, yorlig‘ diqqatga sazovordir. Hujjatda mazkur xonning Sayyid Shamsuddin Muhammad Kurtiy sadrga viloyatda, Toshkent viloyatidagi barcha konlar suyurg‘ol<sup>1</sup> qilib berilgani aytilgan.

<sup>1</sup> Otaliq – Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarkoniylar va Mang‘itlar davlatida eng olyi mansab. Ular shahzodalar balog‘atga yetgunlaricha ularning mol-mulki va hokimiyatini idora qilganlar.

Va yana nomi tilga olingan sadrga ushbu viloyatda yangidan o'zlashtirilgan barcha yerlar mulk sifatida in'om qilib berilgani aytilgan.

Huquqiy hujjatlar, yorliqlar "Ravzat ar-rizvon" kitobida ham bor. Ulardan ba'zilarini qayd etamiz.

1) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxonning 1579-yilgi farmoni. Unda Hisor, Dehi nav – Denov, Kubodiyon va shahri safoning hokimlari – arbobon va kalontaronga xoja Sa'dga tegishli yerkarni sug'orish uchun Vaxshdan chiqarilayotgan ariqni qazish ishlariiga 10 ming ishchi, mardikor yuborish majburiyati yuklatilgan.

2) Mazkur xonning jo'yboriy xojalaridan xoja Sa'dga Toshkent yaqinidagi Zax ariqni tortiq qilingani haqidagi 1583-yilgi farmoni.

3) Toshkent hokimi Abdulquddus Sultonning Zax ariq atrofidagi yerkarni xoja Sa'dga suyurg'ol qilib berilgani haqidagi va o'sha yerkarni barcha soliq va jarimalardan ozod qilingani, uning yerlarida ishlash uchun ishchi, koranda yuborish haqidagi farmoni.

4) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxonning hazrat xoja Sa'dning Marvi shohijahon viloyatidagi barcha yer-suvi va boshqa mulkini uning faqat bir o'ziga tegishli ekanligini va uni mol-u jihat, muqarrariy, tarh, sabon<sup>2</sup> va boshqa soliqlardan ozod etilganligi haqidagi 1578-yil avgustdagi farmoni.

5) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxon tarafidan mulla Muhammadbiy nomiga berilgan 1585-yil aprel oyidagi yorlig'. Unda Hisor viloyatining hokimlari unga xoja Sa'dning mazkur viloyatdagi yerkarni sug'orish uchun Vaxsh daryosidan chiqarilayotgan nahrni qazish ishiga 10 ming ishchi, mardikor to'plab berishlari va nomi zikr etilgan amirning barcha ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishlari zarurligi aytilgan.

6) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxonning xoja Kalonga, xoja Sa'dga Yazd va Isfahon viloyatlaridan yer-suv in'om qilish – darubast haqidagi 1588-yil oktabr-noyabr oyidagi farmoni.

7) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxonning xoja Sa'dning suyurg'ol yerkarnini o'g'illari xoja Tojiddin bilan xoja Abdurahim o'rtasida taqsimlash va bu yerkarni soliq va jarimalardan ozod qilish to'g'risidagi 1590-yil yanvar-fevral oylaridagi farmoni.

8) Abulg'oziy Abdulla Bahodirxonning xoja Tojuddin Hasanning Marv viloyatidagi yer-suvini barcha soliq va jarimalardan ozod qilish to'g'risidagi 1590-yil fevral-mart oylaridagi farmoni.

Yurtimiz tarixiga oid hujjatlarni o'rganish va ilmiy tadqiqotlarga tadbiq

<sup>1</sup> Suyurg'ol – davlat oldidagi katta xizmatlar uchun berilgan yer-suv, mulk.

<sup>2</sup> Sabon – hosil bayrami, sabon to'yni o'tkazish uchun aholidan olinadigan yig'im, sabon to'y xarajatlari.

etish hali talab darajasida emas. Bu ishni kuchaytirish lozim, chunki bularsiz tarixni, ayniqsa uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'rganib bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, eng avvalo, ularni ilmiy tavsiflab, kataloglarini nashr qilish zarur.\*

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1. Hujjatlarni o'rganadigan fan nima deb ataladi?*
- 2. Tarixiy hujjat deganda nimani tushunamiz?*
- 3. Qanday tarixiy hujjatlarni bilasiz?*

## 5-MAVZU. TARIXIY ASARLAR XUSUSIYATLARI

**Darsning mazmuni:** Ushbu dars jarayonida O'zbekiston tarixiga oid arab, fors va o'zbek tilidagi manbalar, ular xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

### Reja:

- 5.1. Arab tilida yozilgan manbalar.
- 5.2. Arab tilida yozilgan manbalar xususiyatlari.
- 5.3. Fors tilining manbalarda tutgan o'rni.
- 5.4. Manbalarning yaratilishida o'zbek tilining tutgan o'rni.
- 5.5. O'zbek tilidagi manbalarning xususiyatlari.

**Asosiy tushunchalar:** hamd, tahmid, debocha, muqaddima, bob, qism, fasl, xotima.

### 5.1. Arab tilida yozilgan manbalar

O'zbekistonning VII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo'lgan tarixi ko'proq va deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an'ana keyincha ham Temuriylar davrigacha davom etgan. Bu davrda yurtimiz avval arab xalifaligi tarkibida, so'ngra Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviyilar, Xorazmshohlar davlatlarini boshdan kechirdi. Arab tilida vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – arab tilida ijod etgan yurtimizdan chiqqan tarixchi va olimlar. Bular Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Said Sam'oniy,

---

\* Ushbu mavzuni yozishda B. Ahmedov asaridan qisman foydalanildi.

Shahobuddin Muhammad Nisoviy va boshqalardir. Ushbu muarrixlar asarlarida ona-Vatanga muhabbat alohida namoyon bo'ldi. Bu, ayniqsa Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarida alohida ko'zga tashlanadi.

Ikkinchı guruh — xorijlik olimlardan iborat bo'lib, ular yaratgan arab tilidagi asarlarida yurtimiz tarixi, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti yoritilgan. Ushbu mualliflarning eng yiriklari Abulhasan Madoiniy (vaf. 840), Abulabbos al-Ya'qubiy (IX asr), Abubakr al-Balazuriy, Ibn Xurdodbeh (820 — taxm.913), Abu Ja'far Tabariy (839—923), Is'hoq al-Istahriy (850—934) va boshqalardir.

Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, arab xalifaligining bir qismi sifatida yoritganlar. Ular, asosan arab xalifaligini ikki qismga, ya'ni arab va ajam — g'ayri arabga ajratib o'rganar edilar. Arablar tomonidan yurtimizga berilgan nom Movarounnahr — daryoning u yog'idagi mamlakat mazmunini bildiruvchi jug'rofiy nom bizgacha yetib kelgan bo'lib, asosan arab mualliflari asarlarida istifoda etiladi.

## 5.2. Arab tilidagi manbalarning xususiyatlari

Arab tilida yaratilgan tarixiy asarlar yoki yozma yodgorliklar quyidagi umumiylar xususiyatlarga ega. Ular garchi arab tilida yozilgan bo'lsa-da, barchasida umumiylar tarixni qamrab olishga, ya'ni tarixni jahon tarixi sifatida idrok etishga, talqin qilishga intilish alohida sezilib turadi. Bu manbalar uchun ilk tarixiy asar va namuna sifatida "Qur'oni karim" olinadi.

Kitoblar ichida tarixchilar o'zlarining "Qur'oni karim", hadislar va "Payg'ambarlar qissalari", diniy rivoyatlarni yaxshi bilishini namoish etishga va ulardag'i mashhur va ma'lum voqe'a, hodisa, rivoyat, aqidalardan unumli foydalanishga intilganlar.

Arab tilidagi yozma manbalarning eng qadimgilari, asosan mumtoz yozuv turlaridan kufiyda "Qur'oni karim" va tafsir, hadislar nasx, suls yozuvlarida bitilgan. XV asrdan so'ng iste'molga nasta'liq yozuvi kirgan. Alohida farmon va hujjatlar ta'liq yozuvida bitilgan.

Tarixiy asarlar mazmuni va tarkibiga kelganda shuni aytish kerakki, ularda matn an'anaviy Alloh hamdi — tahmid, payg'ambarimiz na'tlari, to'rt sahoba yoki sahabai roshidin ta'rifi kelib, undan so'ng asar kimga bag'ishlangan bo'lsa, odatda ular yuksak lavozimdag'i shaxslar yoki hokimlar bo'lgan, o'sha homiylarg'a bag'ishlov-maqtov yoziladi va ana shundan keyin kamtarin muallif o'zi haqida, qanday asar yozmoqchi ekanligi, uning nomi va asarning ixcham mazmuni yoki zamona viy til bilan aytilsa, annotatsiyasi bayon etiladi.

Asarning oxiridagi xotima – kolofonda esa, muallif asarini tugatib olgani uchun Allohga shukronalar keltirib, mazkur qo'lyozma asar va uning ushbu nusxasi, ko'chirilish joyi va tarixi, xattoti haqida ma'lumot keltiriladi. Tarixiy asarlarda keltiriladigan "Qur'oni karim" oyatlari va "Hadisi sharif" namunalari, odatda asosiy matndan ajratib, boshqa siyoh bilan va ko'pincha boshqa yozuv, xat turi, masalan kufiy, nasx yoxud suls yozuvida boshqacha siyoh bilan bitilib, alohida ziynatlanadi.

Tarixiy asarlar qo'lyozmalari o'z davri an'analariga mos ravishda charm muqova – jiddlarga olingan, kitob boshlanishi shams, unvon, sarlavha, zarvaraq naqshlari bilan, matn o'ttalarida lavha naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan. Namuna sifatida Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarining mo'tabar qo'lyozmasini ko'rsatish mumkin.

Umuman, arab tilida yurtimiz tarixiga oid manbalar bilan tanishib ularning ham son jihatidan ko'pligi, ham ilmiy saviyasi juda yuqori ekanligi guvohi bo'lamiz. Garchi, qomusiy olimimiz Beruniy arablarda tarix yaratish an'anasi juda qadimiy va boy emasligini haqli ravishda qayd etgan bo'lsa-da, arab xalifaligi shakllanganidan so'ng, yunon, eron, yahudiy va nasroniy tarix an'analaridan ijobiy va ijodiy foydalangan arab va, asosan arab tilida ijod etuvchi muarrixlar ham arab xalqlari, ham arab xalifaligi hududiga kirgan yoki unga qo'shni bo'lgan xalqlar tarixini yozishga juda katta hissa qo'shdilar. Shuning bilan birga, yurtimizdan yetishib chiqqan tarixchilarimiz ham arab tilida, ayniqsa Beruniy, Sam'onyi, Shahobiddin Nisoviy kabi tarixchilar ajoyib asarlar yaratib arab tilidagi tarix ilmi taraqqiyotiga munosib ulush qo'shdilar. Ya'ni, arab tilidagi manbalarni o'rganish hali o'z dolzarbligini yo'qtogani yo'q. Ular xalqimiz boy merosining ajralmas qismi bo'lib, o'tmishdagi yuksak taraqqiyotimiz guvohidir.

Ushbu darslikda arab tilida bitilgan yurtimiz tarixiga oid eng muhim yozma manbalar to'g'risida ixcham va qisqa ma'lumot berishga intildik. Chunki tariximizning bu qatlami, ya'ni arab tilida VII–XIV asrlar davomida yaratilgan yozma manbalar hali mukammal o'rganilgan deyish qiyin. Bu kelgusi manbashunoslar oldidagi sharafli vazifa. Albatta, biz keltirgan yoki zikr etgan asarlar nomlari bilan arab tilidagi manbalar ro'yxati chegaranlanmaydi, yoxud tugamaydi, ammo bakalavriat talabalarida umumiylashtiruv hosil qilish uchun kifoya qiladi, deb hisoblaymiz.

### 5.3. Fors tilining manbalarda tutgan o'rni

Arab xalifaligining siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratining zaiflashuvi

va mahalliy hokimlarning kuchayishi natijasida asta-sekin markaziy hukumat nomigagina Bag'dodda bo'lib, uning o'lkalardagi noiblari deyarli mustaqil davlatlar sifatida faoliyat ko'rsata boshladilar. Bu esa madaniyat, ilm-fan sohasiga katta ta'sir o'tkazdi.

Nomigagina xalifalikka qaram mamlakatlarda avval oddiy xalq orasida, asta-sekin olimlar va davlat ayonlari va rahbarlari orasida arab tili bilan birgalikda fors va turkiy tillardan foydalanilishi natijasida arab tili din va diniy bilimlar tiliga aylandi. She'riyat va tarixda forsiy va turkiy tillar ma'lum mavqega ega bo'lib, ularda ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar yaratildi, davlat hujjatlari yuritila boshlandi. Bora-bora forsiy til davlat tili darajasiga ko'tarilib, bu tilda juda katta hududda badiiy va tarixiy asarlar yaratildi.

Masalan, Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy», Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari, Mirzo Ulug'bek rahnamoligi va ishtirokida bitilgan «Tarixi ulusi arba» ("To'rt ulus tarixi"), Muhammad Mirxonning «Ravzat us-safo» ("Jannat bog'i"), G'iyosiddin Xondamirning «Xulosat ul-axbor» va «Habib us-siar», Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» va boshqalar forsiy tilda bitildi. Mavarounnahrda forsiy va turkiy tildan doimo yonma-yon foydalanilar edi.

Bizning tariximizga oid salmoqli tarixiy manbalar avval arab tilida yaratilgan bo'lsa, ayniqsa davlat rahbarlari yoki hokimlar arab bo'lganlarida, keyincha forsiy tilda bitildikim, bu til ilmiy doiralar, madrasa va maktablarda umumiy taraqqiyot darajasini belgilovchi zarurat sifatida o'rnatilar va XIX asr oxirigacha ziyoli oilalarda arab tili din va "Quro'ni karim" tili sifatida, she'riyat va boshqa sohalar uchun forsiy va turkiy tillari istifoda etilar edi.

#### **5.4. Fors tilidagi manbalarning xususiyatlari**

Fors tilida bitilgan tarixiy asarlar an'anaga binoan arab tilida nomlanar, ularda ham islomiy manbalar va islomiy tarixiy asarlar xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanar edi. Hatto, yozuv yoki xat turi arab alifbosida bo'lib, keyincha forsiy va turkiy til xususiyatlarini hisobga olgan holda yigirma sakkiz arab harfiga to'rt harf qo'shildi va natijada arab yozuviga asoslangan fors va turkiy til yozuvi vujudga keldi.

XIV asrgacha, asosan arab yozuvning mumtoz turlaridan kufiy, nasx va sulsdan foydalanilgan bo'lsa, XV asrdan boshlab yangi yozuv nasta'liq Temuriylar davrida Mir Ali Tabriziy nomli xattot tomonidan ixtiro etilib, iste'molga kiritildi. Bu yozuv badiiy va tarixiy asarlarda yetakchi o'rinc egalladi.

Ammo, tarixiy asar matni ichida kelgan "Qur'oni karim" oyatlari,

“Hadisi sharif”lar an'anaga binoan arab tilida, kufiy, nasx va suls yozuvlarida barcha harakatlari ko'rsatilgan holda ajratilib bitilar va so'ngra ularga forsiy yoki turkiy tilda izoh, tafsir keltirilar edi.

Fors tilining tarixiy manbalar tiliga aylanish davri va taraqqiy etishi kitobat san'atining Mavarounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlanish zamoniga to'g'ri keldi.

Aksariyat fors tilidagi tarixiy asarlar oliy sifatli qog'ozga bitilar, kitob turli ajoyib naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan ziynatlanib, saroy kutubxonalarini va a'yonlar uchun yaratilgan mo'tabar qo'lyozmalar oltin va kumush suvlari, turli bo'yoqlar bilan bezatilib, kitobat san'atining shoh asarlari darajasida yaratilib, yuksak san'at namunalari aylantirilar edi.

An'anaviy tarixiy asarlar, ya'ni ulkan umumiylar tarixga oid barcha xalqlar tarixini o'z ichiga qamrab oluvchi mahobatli kitoblar o'rnini asta-sekin alohida davr va biron bir sulolalar tarixiga bag'ishlangan asarlar paydo bo'lib, ularning o'rnini egallay boshladi.

Fors tilida bitilgan eng qadimgi manbalardan biri Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari bo'lsa, Temuriylar davrida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarcandiy, Muhammad Mirxon, G'iyosiddin Xondamir kabi yirik muarrixlar bu tilda asarlar yaratdilar. So'nggi fors tilida yaratilgan tarixiy manbalardan biri sifatida Ahmad Donishning tarixiy asarlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

Forsiy tilda bitilgan tarixiy manbalarga xos xususiyatlardan biri – matn orasida, voqealar bayoni davomida she'riy lavhalarning keltirilishidir. Bu she'riy lavhalar tarixchining o'z asari bo'lishi mumkin va u boshqalarning she'riy asarlaridan ham bemalol foydalanishi mumkin. Bu badiiy-she'riy lavhalarda konkret tarixiy shaxsler nomlari obraz, timsol sifatida juda ko'p ishlatilishidir.

Fors tilida bitilgan ayrim tarixiy asarlarda o'xshatish, mubolag'alar ko'p ishlatilib, bayon uslubi o'ta jimjimador bo'lishi mumkin. Mana shunday asarlar to'g'risida Amir Temur tarixchi Nizomiddin Shomiya shunday degan: “Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan ojiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi.”<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o'giruvchi Yu. Hakimjonov. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 23-bet.

Yurtimiz hududida fors tilida yaratilgan tarixiy manbalarda ham arabiyy, ham turkiy, ayrim hollarda mo'g'ul tili elementlari, so'zlar, iboralar, atamalar va hujjatlar uchrashi va mavjud bo'lishi biz uchun bir tabiiy holdir. Chunki, o'tmishda xalqimiz ziyolilari va namoyandalari uchun bir necha tilni bilish va ularni ishlatalish odatiy hol edi.

Ushbu darslikda barcha fors tilidagi tarixiy manbalarni to'la qamrab olishni maqsad qilib qo'ymay, ularning ichidan eng muhimlarini namuna sifatida tanlab olib, ular to'g'risida ixcham, qisqa ma'lumotlar keltirdik, xolos. Chunki, bu bilimlarni talabalar o'zlarini mustaqil kengaytiradilar degan umiddamiz. Bizning maqsadimiz, keltirilgan ushbu ma'lumotlar asosida talabada fors tilidagi tarixiy manbalar xususida umumiylasavvurni shakllantirish va uni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

## **5.5. Manbalarning yaratilishida o'zbek tilining tutgan o'rni**

Boy yozma merosimiz, tarixiy manbalarimiz shakllanishi va yaratilishida o'zbek tilining alohida o'rni bor. Lekin, yurtimizda siyosiy hokimiyat avval arablarda, so'ng forsiy zabonli sultonlarda bo'lgan zamonalarda arab va fors tili davlat tili sifatida iste'foda etilib, bu tillarda rasmiy hujjatlar, tarixiy manbalar yaratildi. O'sha davrlarda ham Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" kabi yirik yozma manbalarning yaratilishi o'zbek tilining qudrati, salohiyati va kuchi yetarli ekanini namoyish etdi.

Bundan tashqari, uzoq muddat davomida xalqimiz yetakchi ziyolilari va jonkuyarlari "Qur'oni karim" tafsirlari, "Hadisi sharif" va "Qissas ul-anbiyo"larni o'zbek tiliga o'girishga va moslashtirishga harakat qilganlar. Bizning boy diniy merosimiz bilan bog'liq kitoblar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Keyingi mustamlaka davri siyosatida xalqimizga arab va fors tili, go'yoki chet tili, yet til sifatida ko'rsatilib, bu tillardagi boy merosimiz bizga begona, eskirgan, qoloq o'tmish merosi sifatida tushuntirilib kelindiki, natijada bizning ma'naviy dunyomiz ma'lum darajada kambag'allashdi, xolos.

Afsuski, arab yozuvidagi boy merosimizni tushunmaydigan, undan yotsiraydigan, eng fojialisi – tushunishni ham xohlama ydigan ziyolilar guruhi vujudga keldi. Ular tomonidan arab alifbosini asosidagi yozuvimiz eski o'zbek yozushi deb atala boshlandi.

Vaholanki, biz Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tili asoschisi deb tan olganmiz. Uning "Muhokamut ul-lug'atayn" nomli asarida qayd qilinishicha, hokimiyat arablarda bo'lganida ular o'z tilidagi madaniyatni ravnaq toptirishga homiylik qildilar va rag'batlantirdilar. Undan so'ng

fors tilidagi madaniyatga e'tibor berildi. Va nihoyat Temuriylar sultanati o'rnatilgach, o'zbek tilining va madaniyatining taraqqiy etishi uchun katta imkoniyatlар yaratildi.

Bizning tilimizdagi yozma manbalar faqat hozirgi Respublikamiz hududi bilan chegaralanib qolmay, balki Alisher Navoiy iborasi bilan aytilda, Xitoydin to Xurosongacha, hatto Idil (Volga) daryosi bo'ylarigacha bo'lgan joylarda o'zbek tili tushunilgan, yozma manbalar, madaniy obidalari yaratilgan.

Birgina xarakterli misol. Buyuk Boburiylarning oltinchisi Avrangzeb Olamgir (1657–1706) o'zining Rus podshohiga jo'natgan rasmiy maktubini o'zbek tilida bitgan va bu muhim hujjat asli matni rus solnomalarida saqlanib qolgan.

XIII asrda Qul Ali tomonidan o'zbek tilida "Yusuf va Zulayho" dostoni Oltin O'rdada bitilgan. O'zbek tilidagi, birinchi aruz risolasi XV asr o'rtalarida Misrda yaratilgan.

Mo'g'ul hokimlar huzurida bahshi – kotiblarning bo'lganligi va nihoyat XIV asr oxiriga borib "Temur tuzuklari" ning yuzaga kelishi turkiy-o'zbek tilining taraqqiyoti uchun katta xizmat qildi. Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asarining yaratilishi, "Tarixi Tabariy", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muhammad Mirxonning "Ravzat us-safo" kabi yirik asarlarning o'zbek tiliga o'girilishi, Durbek, Sayid Qosimi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlar ijodi o'zbek tilining jahonda taraqqiy etgan adabiy va ilmiy til ekanligini ko'rsatdi.

Alisher Navoiy yirik badiiy asarlari "Xamsa" va "Lison ut-tayr" dostonlari, "Xazoyin ul-maoniy" nomli to'rt devonlari qatorida yaratilgan nasriy tarixiy asarlari, xususan tarixga oid "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Xamsat ul-mutaxayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Vaqfiya", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Munshaot" asarlari – juda katta tarixiy ahamiyatga molik manbalarning yaratilganligi keyingi davrlarda o'zbek tilining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Vaqoyi" ("Boburnoma", 1530) asarining yaratilishi jahonshumul ahamiyatga molik manba sifatida ijod etilganligini ko'rsatadi. Chunki, bu obida to'rt marta fors tiliga, to'rt marta ingliz tiliga to'la tarjima qilinib, birgana forsiy qo'lyozmalarining juda ko'p tarqalganligi, o'n uch qo'lyozmaga ko'plab mo'jaz rasmlar bilan ziynatlanganligi, asl matnning sakkiz marta chop etilishi, o'ndan ziyod inglizcha qisqa nashrlar yuqorida fikr isboti uchun kifoyadir.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi ham XVI asrda uch

marta fors tiliga tarjima qilingan. Yana Muhammad Solih, Abulg'oziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Hakimxon To'ra va boshqalarning tarixiy asarlari juda muhim va qimmatli manbalardir.

Ayniqsa, XIX asrda Xorazmda va Sharqiy Turkistonda o'zbek tiliga katta e'tibor tufayli ko'plab tarixiy, diniy va badiiy asarlar forsiy, arabiy tillaridan tarjima qilindi, yangi asarlar yaratilishiga imkon yaratildi.

Umuman, XX asr birinchi choragigacha o'zbek tillarida qator tarixiy manbalar yaratilgan edi. Bu davrgacha bitilgan bizning tilimizdagi obidalar arab alifbosi asosidagi yozuvlarda bitilgan edi.

1929-yili lotin alifbosiga o'tildi.

1940-yili rus-kirill alifbosi kiritildi.

Mustaqilligimiz bizga yana lotin alifbosini qayta tikiadi. Albatta, lotin alifbosi rus-kirill alifbosiga nisbatan ko'plab turkiy xalqlar uchun qabul qilinganligi bilan qator afzallikka ega. Lekin, deyarli XIII yoki XII asr davomida yaratilgan manbalar taqdiri nima bo'ladi? degan savol kishini o'ylantiradi. Bo'lg'usi tarixchilarga fors, arab tili asoslарining o'rgatilishi, arab yozuvidagi manbalardan foydalanish malakasini hosil qilish qay darajada?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tarixga e'tibori va xalqimiz boy madaniyatini o'rganishga, qadrlashga intilishi kishida umid va kelajakka ishonch uyg'otadi. Darhaqiqat, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q".

Ushbu darslikda o'zbek tilida bitilgan hamma manbalarni qamrab olish mumkin emas, shuning uchun eng muhim va yirik yozma manbalarning xarakterli xususiyatlarni bayon etamiz, xolos. Umid qilamizki, bu yerda olgan bilimlarini talabalar o'zlarini mustaqil ravishda kengaytirib, yanada chuqurlashtiradilar. Chunki, manbalar barcha bilim asosidir.

## 5.6. O'zbek tilidagi manbalar xususiyatlari

X-XIV asrlarga oid turkiy tildagi yozma manbalar nisbatan kam saqlanib qolgan. Mavjudlari esa hali munosib tarzda manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilib, ilmiy muomalaga kiritilgani yo'q. Ya'ni, u manbalar tarix ilmida o'z o'rnnini egallagani yo'q.

X-XIV asrlarga oid turkiy tildagi yozma manbalar to'g'risida shuni qayd etish zarurki, ularda ham arab va fors tillaridagi manbalarga xos umumiy xususiyatlar o'xshash desak bo'ladi. Yozuv xususida turkiy va fors tili harflari aynan bir xil, ya'ni 32 harfsdan iborat.

Turkiston kitobi tarixining tadqiqotchisi E.O.Oxunjonov o'z ilmiy izlanishlarida yozma manbadarni kitobat tarixi nuqtayi nazaridan ochib bergen.

XV asrdan boshlab yaratilgan tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar qo'lyozmalari, kitoblari birinchi navbatda yozuv, xat turi xususiyatlari, kitobat fani, san'ati jihatidan alohida yuksak saviyasi, badiiy ziynat-bezaklari bilan ajralib turadi. Aksariyat manbalar Temuriylar davrida Mir Ali Tabriziy tomonidan ixtiro qilingan eng go'zal nasta'liq xatida bitilgan.

Temuriylar va Shayboniyilar davrida hamda keyinroq yaratilgan qo'lyozmalar asosan podshoh va a'yonlar uchun mo'ljallangan. Mana shuning uchun ham ular kitobat san'atining shoh asarlari darajasida yaratilgan.

XVIII–XIX asrlardagi yozma manbalar qo'lyozmalarini ikki guruhga ajratish mumkin. Bir guruhi – shohona qo'lyozmalar. Ikkinci guruhi esa keng jamoatchilik va o'rta hol ziyolilar uchun yaratilgan qo'lyozmalar. Bularning har biri material va saviya bilan ajralib turadi. Ikkinci guruhi qo'lyozma kitoblarida matn mazmuniga ham e'tibor berilgan, lekin qo'lyozma uchun ishlatalgan materiallar, ziynat va bezaklar o'rtamiyona, baholi-qudrat, ammo yetarli san'at asari va ilm-fan uchun bemalol foydalansa bo'ladigan manba saviyasida yaratilgan.

XIX asrda ko'proq qo'lyozmalarni yozishda ilm ahli orasida xatti mulloyi, talabalar xati va yangi ixtiro qilingan shikasta xati keng tarqaldikim, shiddatli taraqqiyot, ayniqsa toshbosma va mixbosma kitoblarning ko'payishi, an'anaviy mo'tabar qo'lyozmalar yaratilishining kamayishiga olib keldi. Bu davr qo'lyozmalar xususiyatlari kitobat san'ati nuqtayi nazaridan olima E.M.Ismoilova tomonidan aniqlangan va uning asarlarida bayon etilgan.

Qo'qon xonligi tarixi manbalar xususiyatlari olimlardan R.N.Nabihev, H.N.Bobobekov, Sh.Vohidov, T.Biysembiyev va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

XIX asr Xorazm tarixiy asarlari qo'lyozmalari Q.Munirov va N.Komilov tadqiqotlarida o'rganilgan.

Yurtimizda yaratilgan aksariyat qo'lyozmalar, xususan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagilar mashhur xattot Abduqodir Murodov tomonidan tadqiq etilgan. Ammo, shu paytgacha turkiy-o'zbek kitobi tarixiy manba sifatida alohida o'rganilmadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hali turkiy tildagi jahon qo'lyozma fondlarida mavjud yozma manbalar to'la aniqlangani va ilmiy muomalaga kiritilgani yo'q. Mavjud va aniqlangan yozma manbalar yurtimizning ko'p asrlik uzoq tarixi, uning boy yozma madaniyatidan guvohlik berib, kelajagi porloq ekanligiga to'la ishonch uyg'otadi.

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Arab tilidagi manbalar qanday xususiyatga ega?
  2. Fors tilidagi manbalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
  3. O‘zbek tilidagi manbalarning tariximizni o‘rganishdagi ahamiyati nimada?
- 

## 6-MAVZU: GEOGRAFIYA VA KOSMOGRAFIYAGA OID MANBALAR

**Darsning mazmuni:** Geografiya va kosmografiyaga oid asarlarning tarix ilmi uchun qimmatli tomonlari ochib beriladi.

### Reja:

6.1. Geografiya va kosmografiyaga oid asarlar tavsifi.

**Asosiy tushunchalar:** jug‘rofiya, kosmografiya, iqlim, hudud, mamlakat, viloyat, o‘lka.

### 6.1. Geografiya va kosmografiyaga oid asarlar tavsifi

#### 6.1.1. «Mo‘jam ul-buldon»

Mashhur qomusiy asar ”Mo‘jam ul-buldon” muallifi ajoyib sarguzashtlarni o‘z boshidan kechirgan olim, sayyoh va xattot Yoqut Hamaviydir (1179-y. tug‘.). U, asli Kichik Osiyolik (Rum) qul bo‘lgan. Otasining ismi kim ekanligini bilmagani uchun o‘zini Ibn Abdullohh (Tangri qulining o‘g‘li) deb atagan. Bolalik vaqtida asirlar bilan birga Bag‘dodga olib kelingan va uni Hama shahrida (Suriya) Askar ibn Ibrohim al-Hamaviy ismlik savdogar sotib olgan va unga Yoqut deb nom bergen.

Yoqut o‘sha savdogarning yordami bilan xat-savodini chiqardi. So‘ng madrasa ta’limini oldi. Keyin xo‘jayinning hisob-kitob ishlarini boshqardi va uning topshirig‘i bilan bir qancha mamlakatlarga savdo-sotiq yumushi bilan borib qaytdi.

Yoqut 1199-yili xo‘jayini vafot etishi bilan qullikdan ozod qilindi va, asosan xattotlik va kitobfurushlik bilan mashhg‘ul bo‘ldi. 1213-yildan boshlab Yoqut 16 yil mobaynida Suriya, Misr, Fors, Xuroson, Mavarounnahr va Xorazm bo‘ylab sayohat qildi va 1220-yili Mo‘soso‘lga qaytib faqat ilmiy ish bilan mashhg‘ul bo‘ldi.

Yoqut ikkita muhim va katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan asar yozib qoldirdi. Bularidan biri ko‘p vaqtlardan beri ilmiy jamoatchilik o‘rtasida

zo'r shuhrat qozongan «Mo'jam ul-buldon» («Mamlakatlar ro'yxati») asari bo'lib, kitob 1224-yili yozib tamomlangan. Asar Yoqutga homiylik qilgan vazir va faylasuf olim Ibn al-Qiftiyga (1172–1248) bag'ishlangan.

Olim mazkur asarini yozishda Ibn Xurdodbeh, al-Ya'qubiy, Jayhoni, Ibn al-Faqih, Abu Zayd al-Balxiy (tax.850–934-y.), Istaxriy, Ibn Hauqal, Abulfath Nasr ibn Abdurahmon al-Iskandariy (vaf. 1165-y.) va boshqa olimlarning asarlaridan ham keng foydalangan.

Asarning eng qimmatli tomoni yana shundaki, olim uni yozishda ko'p yillik sayohati vaqtida to'plagan faktik material, ma'lumotlarni unumli iste'foda etgan.

«Mo'jam ul-buldon» ko'p jildlik salmoqli katta asar bo'lib, unda Arabiston, Xuroson, Mavarounnahr, Xorazm va boshqa mamlakatlar, ularning geografik holati, iqtisodiyoti, tarixi, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ixcham, lekin qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Asar 1866–1870-yillarda F.Vyustenfenld tomonidan (olti jilda), ash-Shikiti tomonidan 1906-yilda Qohirada (sakkiz jilda) bosilgan; qo'shimcha IX–X jilda (Qohira, 1907 yil) ham bosilgan.

Yoqut Hamaviyning yana bir muhim asari «Mo'jam ul-udabo» («Adiblar ro'yxati»)dir. Asar o'ziga xos biografik qomus bo'lib, unda avval o'tgan, shuningdek muallif bilan zamondosh bo'lgan Sharq adiblarining ixcham tarjimai holi alifbo tartibida berilgan. Asar aslida 4 jildlik bo'lgan, lekin uning faqat birinchi jildi saqlangan va ingliz sharqshunosi D.S.Margolius (1858–1940) tomonidan 1908-yili nashr etilgan. Ushbu kitobdagagi ma'lumotlar Yoqutning avvalgi asaridagi tasavvur va tushunchalarni ma'lum darajada to'ldiradi va kengaytiradi.

O'zbekistonda olim ijodini Sh. Shoislomov, H. Hikmatullayev, Sh. Zokirov, B. Irmatov, I. Elmurodov va boshqalar o'rganganlar.

### 6.1.2. «Hudud ul-olam»

“Hudud ul-olam” fors tilida yozilgan (982) birinchi jug'rofiy xarakterdagi asardir. Kitobning to'liq nomi “Hudud al-olam min Mashriq ilal Mag'rib”dir (“Sharqdan G'arbga qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari”). Asar muallifi noma'lum. U Guznono (Afg'onistonning sharqi-shimoliy qismida joylashgan qadimiy viloyat) hokimlaridan (Farug'iniali) biriga atab yozilgan. Kitobning yagona qo'lyozma nusxasi sharqshunos A.G.Tumanskiy (1861–1920) tomonidan 1892-yilda Buxorodan topilgan.

“Hudud ul-olam” asari muqaddima va 59 bobdan iborat. Uning 1–7-boblarida yerning tuzilishi, dengiz, orol, tog‘, daryo, cho'l-u biyobonlar

hamda dunyoning inson yashaydigan to‘rtdan bir qismi – rub‘i maskun va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub‘i maskunning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiy mulohaza yuritiladi.

8–59-boblarida Sharqdan G‘arbga qarab joylashgan mamlakatlar, ularning xalqi, o‘sha mamlakatlarda ishlab chiqariladigan asosiy matolar, ayrim o‘rinlarda esa savdo-sotiqning umumiy ahvoli xususida so‘z boradi.

“Hudud ul-olam” asarida O‘zbekistonning shaharlari, aholisi va ularning mashg‘uloti haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

Asarning matni aynan (fotomatni) faksimilesi, kirish va zarur izohlar bilan birga, 1930-yili V.V.Bartold tomonidan, inglizcha tarjimasi esa (tadqiqot va izohlar bilan birga) 1937-yili V.F.Minorskiy tomonidan nashr etilgan. Uning forscha matni ikki marta (M.Sotude va Sayyid Jaloluddin Tehroniy tomonidan) Eronda chop etilgan. 1983-yili asarning tojikcha nashri amalga oshirilgan.

Ushbu kitob fors tilidagi ilk tarixiy-jug‘rofiy manba sifatida juda qimmatli asar hisoblanadi.

### 6.1.3. «Kitobi Mullazoda»

“Kitobi Mullazoda” (“Mullazoda kitobi”) – Buxoroyi sharifning XIV–XV asrlardan qolgan osori-atiqalari va mashhur ziyoratgohlari, u yerda dafn etilgan valiyalar, shayxlar, umuman mashhur kishilar haqida ma’lumot beruvchi asar bo‘lib, XIV asr oxiri–XV asr boshlarida yozilgan.

Muallifning ismi sharifi Ahmad ibn Mahmud bo‘lib, Mo‘in ul-fuqaro (faqirlar tayanchi) taxallusi bilan mashhur bo‘lgan.

Bu kitob yaqin-yaqinlargacha ko‘pchilik tadqiqotchilarga ma’lum emas edi. Bunga uning qo‘lyozma nusxalari ma’lum bo‘limganligi sabab bo‘lgan. 1960-yili asarning forscha matni Tehronda Gulchin Ma’oniy tomonidan chop etilgandan keyin ilmiy jamoatchilik orasida bu kitobga qiziqish birmuncha kuchaydi. Asar 1992-yili rus tilida R.L.G‘afurova tomonidan e’lon qilindi.

“Kitobi Mullazoda” – qabristonlarni erkak va ayollar ziyorat qilsalar bo‘ladi va bu ziyoratni qanday ado etish haqidagi ikki maxsus bob va ikki qismidan iborat asar.

Kitobning birinchi qismida shahar ichidagi va uning tashqarisida, shahardan yarim farsax masofada dafn etilgan ulug‘ shaxslar, shayxlar, din ulamolari va ularning muqaddas mozorlari haqida ma’lumot beradi. Bular ichida mashhur shayx, imom va ilohiyot olimi xoja Hafs kabir, xoja Abu Hafs ibn al-Zabarkan ibn Abdulloh ibn al-Bahr al-Ijliy al-Buxoriy (767–832), shogirdi xoja Abdulloh Safidmuniy, Saffariya

imomlarining mozorlari, Ismoliya imomlarining mozorlari, Talli xoja Chorshanbadagi mozorlar, Safidmun va xoja Jandi qishloqlaridagi mozorlar shular jumlasidandir.

Kitobning ikkinchi qismida Buxoroyi sharifning mashhur qishloqlaridan Fathoboddagi muqaddas ziyoratgohlar, masalan, shayx Abulmaoliy (1190–1261), uning ikki o'g'li Xovand Jaloliddin va Xovand Mutahiruddinlarning mozorlari va o'zlari haqida ma'lumot keltiriladi.

Shu qismdan joy olgan Buxoro sadrlari, Burxoniyalar haqida keltirilgan ma'lumotlar ham o'ta muhimdir.

Ikki og'iz so'z Buxoro sadrlari haqida. Aslida ular kim edilar? Buxoro sadrlari bir xonadonga mansub bo'lgan va muxtasib, rais lavozimini egallagan oliy nasab shaxslar edilar. «Kitobi mullazoda»da ularning kelib chiqishi, shajaralari haqida, hayoti va vafot etgan yili haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Buxoroyi sharifda o'tgan buyuk shaxslar xoja Abubakr tarxon, mavlono Hofizzuddin Kabir, Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy, yetti qozi – Abu Zayd Abdulloh Umar ibn Iso ad-Dabusiy, Abu Ja'far Muhammad ibn Amr ash-Sha'biy, Ismoil Mustamoliy va boshqalar haqida keltirilgan ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan, imom Abu Zayd Ubaydulloh Umar ibn Iso ad-Dabusiy ham yirik fiqh va ilohiyot olimi bo'lgan. Uning musulmon qonunchiligiga oid «Omad ul-Aqso» ("So'nggi hudud") nomli asari o'z zamonasida juda mashhur bo'lgan.

#### **6.1.4. «Samariya»**

“Samariya” asari muallifi Abu Tohirxoja Samarqand qozisi Abu Sa'id ibn Abdulhayning o'g'lidir. Abu Tohirxojaning otasi ham, bobosi mavlono Mir Abdulhay ham o'qimishli kishilar bo'lishgan. Mavlono Mir Abdulhay (1755–1827) Samarqandda qirq yil qozikalon mansabida turgan. Shu bilan birga u bir talay ilmiy asarlar yozib qoldirgan. “Havoshi shofiy bar sharhi Bayzaviy”, “Sahihi Buxoriy”ning forscha sharhi, “Zaburi Dovudiy”ning forsiycha sharhi, “Axloqi Bahodurxon” shular jumlasidandir. Otasi Abu Sa'idxoja (1849-yili 28 avgustda vafot etgan) ham keng ma'lumotli kishi bo'lgan. Fiqh va kalom, diniy aqidalarni isbotlash ilmida benazir bo'lgan.

“Samariya” XI bob, muqaddima va xotimadan iborat bo'lib, Samarqand shahrining bunyod etilishi, “Samarqand” deb atalishining sabablari, shaharning geografik holati, ob-havosi, uning XIX asrning uchinchi choragiga qadar saqlanib qolgan osori-atiqlari va mashhur kishilar haqida ma'lumot beradi.

Asarning o'zbekcha tarjimasi 1921-yili samarqandlik yosh, salohiyatli olim Abdulmo'min Sattoriy tarafidan amalga oshirilgan edi. Lekin, og'ir xastalik va 1925-yil 23 iyuldagagi bevaqt o'limi unga tarjimanini chop qilishga imkon bermadi. Sadreddin Ayniy 1925-yili o'sha yillari maorif noziri bo'lib ishlab turgan Abdurauf Fitratning taklifi bilan, uni tahrir qilib, nashrha tayyorlagan edi. Lekin, asar chop etilmay qolgan edi. S.Ayniyning qo'lyozmasi hozirda O'zR FA ShI fondida 600-raqam ostida saqlanmoqda.

"Samariya" asari B.Ahmedov va A.Juvonmardihev tomonidan qayta nashrha tayyorlandi va 1991-yili Toshkentda chop etildi.

### **6.1.5. «Majmu' al-g'aroyib»**

"Majmu' al-g'aroyib" ("G'aroyibotlar majmuasi") 1569-yili Balx xoni Shayboniyxon Pirmuhammadxon I (1546–1566/67) ning topshirig'i bilan yozilgan. Asar muallifi balxlik olim Sulton Muhammad bo'lib, uning haqida bizga quyidagilar ma'lum. Otasi mavlono Darvish Muhammad Balxning o'qimishli va katta nufuzga ega bo'lgan kishilaridan biri edi. Shayboniy hukmdorlardan Xurramshoh sulton (1506–1511) va Kistinqora sulton (1526–1544) davrida Balxning mustiysi lavozimida xizmat qilgan. O'zbek tilida she'rlar bitgan. Uning she'rlaridan namunalar "Majmu' al-g'aroyib"da keltiriladi. Darvesh Muhammad mustiy 1550-yil 19-fevralda vafot etgan.

Asar muallifi Sulton Muhammad Balxiy ham zamonasining keng ma'lumotli kishilaridan bo'lgan. U, xususan tarix, geografiya, astrologiya, mineralogiya, ilohiyot, fiqh va adabiyot ilmlaridan boxabar kishi bo'lgan. Otasi vafotidan keyin uning mansabida turgan Sulton Muhammad 1573-yil 12-may kuni vafot etgan.

"Majmu' al-g'aroyib" asarini yozishda Sulton Muhammad al-Balxiy o'zidan avval o'tgan olimlarning asarlaridan, shuningdek Balx mamlakati bo'y lab qilgan sayohatlari paytida to'plagan ma'lumotlaridan keng foydalangan. Olim foydalangan asarlar ichida bizgacha yetib kelmaganalari va kam ma'lum bo'lganlari ko'p. «Or al-muqaddimin» («Salaflarning fikrlari»), «Tarixi saqoliba» («Slavyanlar tarixi»), «Anis ul-vahdat va jolis ul-xilvat» («Yolg'izlar do'sti va xilvatda o'tiruvchilar suhbatdoshi») kabi asarlar shular jumlasidandir.

"Majmu' al-g'aroyib" ilm ahli orasida keng tarqalgan asar. Uning hozirgacha saqlangan qo'lyozmalari 80 dan ortiq. Uning ma'lumotlaridan juda ko'p olimlar foydalanganlar. Ulardan "Abdullanoma" asari muallifi

Hofizi Tanish Buxoriy, “Ajoyib at-tabaqot” kitobining musannifi mavlono Muhammad Tohir va XVII asrda o’tgan olim Mahmud ibn Vali shular jumlasiga kiradi.

Asarning ayniqsa 3, 11, 12-va 18-boblari muhimdir. Ularda Buxoro, Balx, Tamg’ach, Marv, Siyovush, Sog’oniyon, Termiz, Tibat, Turkiston, Samarqand va Bulg’or kabi yirik shaharlar va ulkan mamlakatlar, Murg’ob, Vaxsh, Jayhun, Ko’hak, Chirchiq daryolari, dunyoda yuz bergan muhim voqealar, mashhur shayxlar, olimlar va hukmdorlar, Balx va Badaxshonning mineral boyligi haqidagi qismlari muhim ahamiyatga ega.

“Majmu’ al-g’aroyib” asarining tanqidiy matni tayyorlangan edi, lekin chop etilgani yo‘q. Afg’onistonda yuz bergan so’nggi yil voqealarini tadqiqotchi va uning ilmiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatgan ko’rinadi.

### **6.1.6. «Ajoyib at-tabaqot»**

“Ajoyib at-tabaqot” (“Yer qatlamlarining ajoyibotlari”) daliliy ma’lumotlarga boy, kam o’rganilgan geo-kosmografik asar. Bir qancha tarixiy, geografik va kosmografik asarlar hamda sayyoohlarning esdaliklari va muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilgan bo‘lib, O’rta Osiyoning XVI—XVII asrlardagi tarixi va geografik sharoitiga oid ma’lumotlarga boy.

“Ajoyib at-tabaqot” mavlono sayyid Muhammad Tohir tomonidan Balx xoni Ashtarkoni Nadr Muhammadxon (1606–1642)ning topshirig’i bilan yozilgan. Muallif, asarning muqaddimasida keltirilgan ayrim ma’lumotlarga qaraganda, mazkur xon saroyida xizmat qilgan olimlar jumlasiga kirgan.

“Ajoyib at-tabaqot”ning yozilish tarixini quyidagi dalillarga asoslanib belgilash mumkin. Muhammad Tohir asarining “Balx” qismida Xoja Hayron qishlog’idagi hazrat Ali (656–661) mozori tepasiga qurilgan hashamatli bino hijriy 886-yilda shoir va tarixchi olim Kamoliddin Binoiy va uning otasi Muhammad Sabz tarafidan qurilganligini aytadi va shundan beri 172 yil o’tdi, deb yozadi. Shu 172 ga 886 (bino qurilgan yili)ni qo’shadigan bo‘lsak, 1648-yil kelib chiqadi. Shunga asoslanib, asar hijriy 1058, melodyi 1648-yili yozilgan deb aytish mumkin.

Muhammad Tohir o’z asarini yozishda «Majmu’ al-g’aroyib»dan tashqari al-Battoniy (852–929), Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas’udiy», «Javohirnomá», shuningdek, Abulmalik Marvarudiyy, Nosiriddin Tusiy, Narshahiyy va boshqa olimlarning asarlaridan foydalangan.

“Ajoyib at-tabaqot” kam o’rganilgan, nashr etilmagan. Uning uchinchi qismi, tabaqa katta ilmiy qimmatga ega. Unda O’zbekistonning Samarqand, Toshkent, Andijon, Termiz va boshqa shaharlari, shuningdek

Sharqiy Turkiston – Koshg‘ar va Afg‘oniston haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida ushbu asarning uchta qo‘lyozma nusxasi (raqamlari № 411, 2380 va 9654) mavjud. Ularning yana bir qimmatli tomoni shundaki, chiroli nasta’liq xati bilan bitilgan, unvon va sarlavhalari rangli va tillo suvi berib yozilgan, Ka’ba va payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning Madinadagi muborak qabri tasviri ham keltirilgan.

Kitobda shaharlar tavsisi baholi imkon to‘liq berilgan. Namuna sifatida Balx va Qubodiyon shaharlari haqida berilgan tafsifni keltiramiz.

“Balx – ulug‘ shahar, Xurosonga qaraydi, to‘rtinchı iqlimga kiradi. Uni qadimgi Eron podshohlaridan Kayumars qurban, Tahmuras obod qilgan, Luhrasip qaytadan qurib, tevarak-atrosini pishiq devor bilan o‘rattirgan. Bir rivoyatga ko‘ra, uni birinchi bonyod qilgan kishi Qobil ibn Odam..., boshqa rivoyatga ko‘ra shoh Gishtosip Ayyub payg‘ambarning amri bilan qurdirgan... Uchinchi rivoyatda keltirilishicha, (uni) Manucheehr ibn Iroj bino qilgan. “Tarixi Balx”<sup>1</sup> kitobida yozilishicha, Balxning qal’asi (ko‘p bor) vayron qilingan va 22 marta qaytadan tiklangan. Balxning eng so‘nggi imorati bir vaqtlar Xuroson hokimi bo‘lib turgan Abu Muslim Marvoziy tarafidan qurdirilgan. Undan keyin shahid etilgan Abdulmo‘minxon<sup>2</sup> shaharning g‘arbiy va janubiy taraflardagi devorni ta’mirlatgan. Uning uzunligi 20 ming qadam.

Shahar ikki qismdan; tashqi shahar (shahri birun) va ichki shahar (shahri darun)dan iborat.

Ichki shahar arkdan iborat. Ark shaharga asos solingandan beri ulug‘ podshohlar va qudratli xonlarga makon bo‘lib xizmat qilgan... Hozirgi kunlarda ham shunday. Balx shahrida Mehrobi sangin deb ataluvchi bir masjid bor. Ushbu rivoyatni aytuvchining hikoya qilishicha, shaharga mo‘minlar hukmdori hazrat Alining (xudo undan rozi bo‘lsin), maktubini olib kelganlarida, uni balandroq bir joydan ovoza qilmoqchi bo‘ldilar, toki uning mazmunidan hamma baxtiyor bo‘lsin. Baxtga qarshi shu payt qattiq shamol turib, maktubni uchirib ketdi. Bir payt mo‘minlar Makkani ziyorat etib yurganlarida bir (sehrli) tosh va undagi yozuvga ko‘zlarini tushgan. Yozuvda (hazrat Alining) o‘scha maktubi bitilgan ekan. (Shu sababdan) toshni muqaddas hisoblab, (Balxga) olib kelganlar va o‘scha

<sup>1</sup> «Tarixi Balx» – shayxulislom Safiuddin Abubakr Abdulla al-Balxiyning asari. Haqiqiy nomi «Fazoili Balx».

<sup>2</sup> Abdulmo‘minxon – Shayboniy xonlardan, 1598-yili olti oy Buxoro taxtida o‘tirgan, unga qadar Balxni idora qilgan.

masjidning mehrobiga o'rnatgan ekanlar. Boshqa bir rivoyatda bunday gap bor; toshni olib kelganlardan keyin uni uch qismga bo'lganlar va bir bo'lagini o'sha masjidda (Mehrobi sanginda) qoldirganlar, yana bir parchasini tashqi shaharning (shahri birunning) janubiy tarafida, shahardan bir milya<sup>1</sup> narida joylashgan Masjidi xoja No'h gunbadon masjidiga olib borib o'rnatganlar.

Ma'lumki, No'h gunbadon nur taratuvchi manzil bo'lib, Qa'b al-axbor hazratlarining, undan xudo rozi bo'lsin, zikr etilgan mozorida bino qilingan. No'h gunbadon masjidi go'zal va mustahkam bir binodir. Aytishlaricha, Chingizzon xuruji paytida Balxob daryosini shaharga burib yuborganlar. O'shanda masjid olti oy suv ostida qolib ketgan. Lekin, uning qoldiqlari hali hanuz saqlanib qolgan. Zikr etilgan toshning uchinchi qismini shaharning kun chiqish tarafida, undan ikki farsang narida joylashgan Xoja Hayron qishlog'iда bino etilayotgan masjidning mehrobiga o'rnatdilar. Qishloqning kun chiqish tarafida, undan 100 zira<sup>2</sup> masofada mo'minlar amiri Ali ibn Abu Tolibning qabri topilgan. Va haq yo'lga tushib olganlar namunasi janob mavlono Binoiyki, ma'lumotli va binokorlik ilmida tengi yo'q kishi edi, avvalgi binokorlarning harakati behuda ketgan va bino bo'sh qurilgan deb hisoblab, hijriy 886-yili, padari buzrukrori bilan birgalikda o'sha muqaddas mozorda pishiq g'ishtdan baland bir bino qurdi. Lekin, o'sha bino, qurilganiga 170 yil o'tganiga qaramay, uning biror joyi buzilmagan. (Alloh tarafidan) mag'siratli qilingan marhum Vali Muhammadxon (1601-yili) Balxga hukmdor etib tayinlangandan keyin balandligi taxminan 30 zira', aylanasi bir jarib<sup>3</sup> bo'lgan bir oliy bino qudirdi va uning (tevarak-atrofini) obod qildi. Atrofida (go'zallikda) Chin sanami bilan bellasha oladigan bir chorborg' va uning ichida 18 ta chamanzor qurdirdi. O'sha chorborg'ning shimoliy tarafida jannat bulog'iga o'xshagan bir hovuz ham qurdirdi.

Balxning tashqi shaharida (shahri birunda) va valiyalar qutbi xoja Abu Nasr Porsoning<sup>4</sup> obod mozori bor. Bu mozorning aylanasi taxminan 15 jarib. Ushbu muqaddas maqbaraning kun botish tarafida ikkita katta masjid bor. Har chorshanba kuni, peshin namozidan keyin, o'sha saodatli maqbara tevaragida donishmand kishilar, ulamo va shuaro ibodat uchun yig'ilishadi. Sufiyalar bosh egib, yarim ohangda (bir birlari bilan) suhbatlashadilar, ulamolar bahslashadilar, shuaro mushoira va hazil-

<sup>1</sup> Milya – turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan masofa o'lchovi, taxminan 7 metrga teng.

<sup>2</sup> Zira' – uzunlik o'lchovi, 81,28 smga teng.

<sup>3</sup> Jarib – yer o'lchovi, bir tanob, 4097 kv.metrga teng.

<sup>4</sup> Xoja Abu Nasr Porso – Balx shayxulislomi, taxminan 1460 – 61-yili vafot etgan.

mutoyibaga bel bog'laydi. Suhbat shu zaylda kechgacha davom etadi.

Va yana o'sha tashqari shaharda (shahri birunda) shayx Shaqiqi Balxiy hazratlarining, shuningdek jabrlangan xoja Is'hoq va boshqa valiylarning maqbaralari joylashgan.

Va yana shaharning kunbotar tarafida Sulton Ibrohimning to'ng'ich o'g'li Adham Soqaning nurga cho'mgan maqbarasi joylashgan. Shu kunlarda bu maqbara Xoja rushnoyi nomi bilan mashhur.

Va yana mazkur shaharning janub tarafida xoja Sulton Ahmad Hazraviya janoblari va ul kishining yosdiqdoshi Bibi Fotimaning ma'qullangan maqbaralari joylashgan.

Va yana shaharning kunchiqar tarafida xoja Ukkosha janoblarining maqbul maqbarasi joylashgan.

Qubodiyon Movarounnahrning katta qishloqlaridan, to'rtinchi iqlimga kiradi. Qayqubod ibn Iroj asos solgan. Aytishlaricha, Zol o'g'li Rustam Qayqubodni o'sha yerdan Eronga olib kelib taxtga o'tqizgan. Bu viloyat qadimda Qubodobod deb atalgan. Keyincha Qubodiyon nomi bilan shuhrat topgan. Hozirgi paytda oliy hazrat, Allohning yerdagi soyasi Nadr Muhammadning adl-u ehsoni tufayli u qadar obod bo'ldiki, har kimning u viloyatdan o'tadigan bo'lsa yelkasi devor va daraxtlarning soyasi ostida bo'ladi. Ob-havosi yumshoq. U yerda turli navdag'i shirin-shakar mevalar ko'p yetishtiriladi. Xususan, anori ko'p mashhur. U viloyatda qovun va tuxum sotish odati yo'q. Ularni bir xarvardan kam bo'lsa, pulga sotmaydilar va sotib olmaydilar, balki harkim istaganicha olishi mumkin. Egalari bunga monelik qilmaydilar.

Xalqi mehribon va mehmondo'st. Mehmon uchun alohida xona tutadilar. Odamlari o'qishga ixlosmand, aksariy qishloqlarda madrasa va mudarris bor».

“Ajoyib at-tabaqot” asarida Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va O'zbekistonning boshqa shaharlari haqida ham mana shunday ma'lumotlarni uchratamiz.

Mazkur asarning yana bir muhim tarafi shundaki, unda qimmatbaho toshlar va metall va ularning konlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar bor.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur asarda Abu Rayhon Beruniyning “Javohirnomá” asarining bizning zamonamizgacha yetib kelgan nusxalarida tushib qolgan parchalar uchraydi. Bu parchalar buyuk olimning mazkur yirik asarini qaytadan nashr qilishda juda zarurdir.

### **6.1.7. «Dili g'aroyib»**

“Dili g'aroyib” o'zbek tilidagi geo-kosmografik xildagi, ko'p jihatdan

umumlashtirma asar bo'lib, 1831–1832-yili xivalik olim Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad tomonidan Rahmonquli inoqning topshirig'i bilan yozilgan. Muallif o'zini bir joyda So'fizoda deb ataydi. Shunga qaraganda, otasi Qo'shmuhammad ibn Niyozmuhammad Xiva masjidlarining birida so'filik qilgan va Kubroviya tariqatiga mansub bo'lgan.

Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad keng ma'lumotli, arab va fors tillarini yaxshi bilgan kishi bo'lib, asosan tarjimonlik bilan shug'ullangan. U, asosan tarixiy va geografik asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan. Masalan, u Shermuhammad Munisning topshirig'i bilan Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini 1823–1826-yillari forschadan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilgan.

"Dili g'aroyib" umumlashtirma asar, ya'ni Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" va mavlono Muhammad Tohirning "Ajoyib ut-taboqot" asarlariga taqlid qilib yozilgan va unda aniq ma'lumotlar kam uchraydi. Undagi Xorazm va uning shaharlari haqidagi ma'lumotlar qimmatlidir. Misol tariqasida ba'zilarini keltiramiz.

Xorazm mamlakati. U katta mamlakat. Bir tarafdan Sayxun daryosi bilan, ikkinchi tarafdan hozirgi paytda Baqirton nomi bilan mashhur bo'lgan Oq qo'rg'on bilan, uchinchi tarafdan cho'l bilan va to'rtinchisi tarafdan bir zamonlar Faridun tarafidan qazdirilgan nahrning shimoliy tarafida joylashgan O'nguz otli manzil bilan tutash. Xorazmning yana bir tarafida Saroy sulton joylashgan. Bu hadlar orasida katta-kichik qal'alar va kentlar joylashgan. Xorazmning janubiy tarafida Qizilqum bo'lib, unda saksovul o'sadi.

Qadimda Xorazmning o'n to'rt darvozali shaharlari ko'p bo'lgan. Shulardan biri Jurjoniya, ikkinchisi Urganj bo'lgan.

Jurjoniya. Jurjoniyaga suv Sirdaryodan olib kelingan. Bu shaharning joylashgan o'rnini quyidagicha belgilaganlar. Uning kunchiqish tarafida Bag'lon va shimol tarafida Oqcha dengizi, kunbotishida Gurlan, janub tarafida Kot joylashgan. Ularning (Gurganjning) xarobalikka yuz tutishi, aytishlaricha, suv bo'lmay qolishi sababdan bo'lgan. Sirdaryodan kelib turgan suv zirotiga yetmay qolgan. Shu sababli uch qirni oshib nahr qazdirib Amudaryoning suvini burib olib kelganlar. Amu Gurganjni suv bilan ta'minlab, Unquzning janubidan Urganja qarab oqar va janub bo'ylab oqishni davom ettirib va janubi-sharqiylar tarafidan Abulxon tog'larni aylanib o'tib, O'g'irchagacha yetgan va so'ng Mozandaron dengiziga<sup>1</sup> borib quyilgan.

<sup>1</sup> Mozandaron dengizi – Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomlaridan.

Jurjoniyaning tevarak-atrofi mahkam qilib mustahkamlangan joylar, ekinzorlar va bog'lar bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan Jurjoniya qal'asi suv ostida qoldi va shahar xarobalikka yuz tutdi. Aytishlaricha, undan faqat bitta minora qolgan, keyincha uni Boynazar so'fi ismlik bir avliyo buzdirib tashlatib, o'rniغا masjid qurdirgan. Bu masjid hozir ham o'z o'rnidagi turibdi. Yazir alayhissalom va Yumaloq avliyo qabri o'sha yerda. Saksondan oshgan va bularning hammasini ko'rgan yoki (kimdandir) eshitgan keksalarning so'zlariga qaraganda, minorani buzayotganlarida unda bir yozuvga ko'zları tushgan. Yozuvdan ma'lum bo'lishicha, mazkur minora shu joydagı jum'a masjidining kichik minorası bo'lgan, tevarak-atrofdagi odamlarni namozga chorlovchi minoraning balandligi 100 qaridan kam bo'limgan. Bu yerda "Qur'on" tilovat qiluvchi qori, imom, muazzin (so'fi) va farroshning maoshi har biriga 300 oqchadan belgilangan. Masjid yonida madrasa, bozor va karvonsaroy ham bo'lib, ularning barchasi suv ostida qolgan.

Xorazmning yana bir shahri Gurganj bo'lib, Chingizxon tarafidan vayron etilgan. Ushbu zolim kelgunga qadar uning 12 jum'a masjidi bo'lib, ...ularning har biri uch tanobdan maydonni egallagan edi. Uning tevaragida daraxtlar ichiga cho'mgan (obod) namozgohlar bo'lib, ularning har biriga (namoz kunlari) uch-to'rt lak<sup>1</sup> xalq to'planar edi. Ularning har birida 1000 nafar odam xizmat qilgan.

Shahar aholisining katta qismini Ya'qub payg'ambarning ...avlodlari tashkil qiladi. Uning o'g'li Shamunning muqaddas mozori hozirda Xoja eli (Xojayli) deb atalmish Mizedaxkandadir.

Shu kunlarda Urganch vayronagarchilikka yuz tutgan, jabr yetgan shayx Najmiddin Kubro va Xoja Ali Azizon janoblarining maqbaralari Gurganjdadir.

Xorazmning yana bir shahari Ramldir. Unga Som ibn Narimon (qadimgi Eron podshohlaridan) asos solgan... Uni otasining kemasiga o'xshatib qurdirgan. Hozirda Xivaq nomi bilan ma'lum. Aytishlaricha, bu so'zda ("Raml" so'zida) Pahlavon Mahmud hazratlari vafot etgan yili tarixi yashiringan. Shu bois bu tarixda shaharga nom bo'lib qolgan... Va yana aytadilarki, Xivaq ko'p bor vayron qilingan va qayta tiklangan. U a'lo hazratlari xonning (Allohqulixonning) otasi (Allah tarafidan mag'firat qilingan) Abulg'ozzi Muhammad Rahimxon<sup>2</sup> va uning og'asi marhum Qutlug' Murod inoq tarafidan obod qilingan. Ularning sa'y-harakati bilan shaharda oliy madrasa bino qilingan. Bunga nomi yuqorida zikr etilgan

<sup>1</sup> Lak – son birligi, ming.

<sup>2</sup> Bu yerda Xiva xoni Muhammad Rahim avval (1825/26–1842-yy.) nazarda tutilgan.

inoqning katta xizmatkorlaridan biri Sher devonbegi va vaziri a'zam Muhammad Rizo devonbegilarning hissalarini katta bo'lgan. Jannatmakon xonning amri bilan yana bir karvonsaroy, tim va ularning o'rtaida (yana bir) katta madrasa qurildi. (Xivaq) qal'asida sayyid Alouddin Xivaqiy va uch yuz mashhur shayx dafn etilgan. Shahar tashqarisida shayx Abulvafo Xorazmiy janoblari, yonida esa mingdan ortiq avliyolar dafn etilgan.

Shaharning janubi-sharqiy tarafida, undan 200 qadam narida, hazrat shayx Husayn Boboning ...manzilgohi joylashgan. U yerda soya-salqin berib turuvchi gujum otli katta daraxt bor...

Xivaqning qovuni va gurunchi juda mazali. Uning ob-havosi yaxshi, odamlari xushfe'l, lekin qishi sovuq keladi. Eng sovuq kunlari bir oy davom etadi. Shu paytda yerni taxminan uch qarich muz qoplaydi. Gurlan, Xo'jayli va Qo'ng'irotda uch-to'rt gaz qalinlikda qor yog'adi.

Jurjonianing o'rnida hozirda suv oqadi va u Sir (dengizi)ga borib quyiladi. Uning oqibatida Gurganj xarobalikka yuz tutdi va cho'lga aylanib qoldi. Bu hodisa hijriy 984-yili sodir bo'ldi.

Sir (dengizi) hech vaqt to'lmaydi. Qayqlarda ov qilib yurgan baliqchilar «(dengiz) tubida toshdan qurilgan binolarning qoldiqlarini ko'radilar. Shuningdek, katta bir qal'aning qoldig'i ham bor», deb aytadilar...

Xorazmda mevalar va g'alla yaxshi yetishadi, xususan qovun shunday yetishtirilgan, qovun urug'ini yantoq o'zagiga joylashtirib, uni mahkam bog'lab qo'yanlar. U suvsiz, yantoq tomiridan nam olib, yetishgan. Lekin juda shirin bo'lgan.

Xorazmning, xususan Hazoraspgning olmalari juda shirin. Aytishlaricha, bu shaharga (Hazoraspqa) Sulaymon payg'ambar asos solgan. Hazoraspdha asosan sholi yetishtirilgan.

Xorazmning o'rikлari va uzumi (ham) ko'p bo'ladi. Masalan, Chinkning pastida bir qishloq bor, nomi Ekinlik. Uning uzumidan shirin uzum (boshqa yerda) uchramaydi.

(Xorazmning yana bir shahari) Zamaxshar. Xivaning kun botish tarafida, undan bir kunlik yo'lda joylashgan. Jannatmakon, oliy janob xon (Allohqulixon)ning otasi u yerga suv olib kelib uni obod qilgan».

"Dili g'aroyib" asarida Gurlan va uning osori-atiqlari, Xivaning kun chiqish tarafida qurilgan katta yangi bozor haqida ham qiziq ma'lumot keltirilgan. Muallifning guvohlik berishicha, bu bozor shu yerdagi katta bir ko'l ustiga qurilgan. "45 kun ichida, — deb yozadi Xudoyberdi ibn Qo'smuhammad, — maydoni besh-olti tanob keladigan ko'l ko'mib tashlandi".

O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida "Dili g'aroyib" asarining uchta qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ulardan biri, raqami №1335

matni to'la va muallifning o'z qo'li bilan yozilgan deb hisoblanadi.\*

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Geografik asarlar deganda nimani tushunasiz?*
  2. *Qanday geografik asarlarni bilasiz?*
  3. *Kosmografik asarlar deganda nimani tushunasiz?*
  4. *Qanday kosmografik asarlarni bilasiz?*
  5. *Geografiya va kosmografiyaga oid asarlar qanday xususiyatlarga ega?*
  6. *Geografiyaga oid asarlarda qanday tarixiy ma'lumotlar uchraydi?*
  7. *Yogut Hamaviyini «Mo'jam-ul buldon» asarida Markaziy Osiyo tarixiga oid qanday ma'lumotlar bor?*
  8. *«Samariya» asarining Samarcand tarixini o'rganishdagi ahaiyatini ochib bering.*
  9. *«Ajoyib at-taboqat» asari haqida so'zlab bering.*
- 

## 7-MAVZU. BIOGRAFIK ASARLAR

**Darsning mazmuni:** talabalarga biografik asarlar to'g'risida tasavvur berish va ulardagi tarix ilmi uchun muhim ma'lumotlarni tahlil qilish.

### Reja:

- 7.1. Biografik asarlar xususiyatlari.
- 7.2. Biografik asarlar tavsifi.

**Asosiy tushunchalar:** *biografiya, muallif, tarjimai hol.*

### 7.1. Biografik asarlar xususiyatlari

O'zbekiston tarixi va umuman tarix ilmini o'rganishda biografik asarlar, tazkiralar, manoqiblar va memuar asarlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ba'zan maxsus tarixiy asarlarda uchramaydigan ma'lumotlar biografik va memuar asarlarda uchraydi. Bu asarlar ma'lum darajada davr ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan ba'zilariga, misol tariqasida to'xtalib o'tamiz.

### 7.2. Biografik asarlar tavsifi

#### 7.2.1. «Tazkirat ush-shuaro»

«Tazkirat ush-shuaro» XV asrning ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimi Davlatshoh Samarqandiying asaridir. Muallifning to'liq ismi sharifi

\* Ushbu mavzuni yozishda B. Ahmedov asaridan qisman foydalanildi.

Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy. O'z asarida keltirilgan ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u yirik harbiy xizmatchi va davlat arbobi oilasidan chiqqan. Otasi amir Baxtishoh Shohruh Mirzoning yaqin kishilari va e'tiborli xizmatkorlari jumlasidan bo'lib, uning ko'pgina harbiy yurishlarida qatnashgan va toj-u taxt sohibiga sadoqat bilan xizmat qilib, janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. Uning «al-G'oziy» deb atalishi ham shundandir.

Davlatshohning tug'ilgan vaqt ma'lum emas. Lekin, buni boshqa dalil va ma'lumotlarga tayanib, taxminan aniqlasa bo'ladi. Davlatshohning o'zi mazkur asarini 50 yoshga kirganda yoza boshlaganini aytadi. Biz bu asarni 1487-yili yozib tamomlanganligini bilamiz. Bu katta va muhim asarni yozish uchun kamida ikki-uch yil vaqt sarflangan, albatta. Shunday taxmin qilinganda, Davlatshoh 1435—1436-yillarda tavallud topgan bo'lib chiqadi.

Davlatshoh Samarqandiy yoshlidiga durustgina tahsil ko'rdi, o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan olimlaridan, masalan, faqih va shoir xoja Fazlulloh Abulaysiydan ham ta'lif olgan. Lekin, 1480-yillarga qadar ilmiy yoki adabiy faoliyat bilan shug'ullanmagan, balki saroy xizmati va harbiy yurishlarga jalb qilingan. Shohruh Mirzo va Sulton Husayn mirzoning ko'pgina harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U so'nggi marta Sulton Husayn bilan Temuriy Sulton Mahmud mirzo (Abu Saidning ikkinchi o'g'li, Hisori shodmon va Badaxshon hokimi) o'rtasida Chamonsaroyda (Afg'onistonning Andxuy viloyatida joylashgan manzil) bo'lган urushda ishtirok etgan. Bu urush Xondamirning ma'lumotlariga qaraganda, 1471-yilda sodir bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy 60 yilga yaqin umr ko'rib, 1495-yili vafot etgan.

Davlatshoh Samarqandiy o'zining «Tazkirat ush-shuar» asarini yozishda juda ko'p manbalardan, o'zidan avval yozilgan tazkiralardan, masalan, Abu Tohir Xotuniyning «Manoqib ush-shuar», Avfiyning «Lubob ul-albob» kitoblaridan, ko'pgina tarixiy va geografik asarlardan, xususan, Istaxriyning «Kitob masolik ul-mamolik», Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Oli Sabuktakin» va boshqalardan, shuningdek, tazkirada nomlari qayd etilgan shoir va adiblarning asarlaridan keng foydalangan.

«Tazkirat ush-shuar» asarida VII—XV asrlarda Eron va O'zbekistonda yashab ijod etgan 155 shoir haqida qisqacha, lekin nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. U muqaddima, xotima va yetti qism (tabaqa) dan iborat.

Muqaddimada asarning yozilish sabablari, VII—X asrning birinchi yarmida o'tgan arabiynavis shoirlardan 10 nafari haqida ma'lumot berilgan.

Birinchi va ikkinchi qism X—XI asrda Eron va, asosan, O'zbekistonda

yashab, ijod etgan 40 yirik shoirning qisqacha tarjimai holi va ijodiga bag‘ishlangan.

Uchinchi-beshinchi tabaqalarda Xorazmshohlar – Anushteginiyalar (1077–1231), Elxoniylar (1256–1353) va Muzaffariylar (1314–1393) zamonida o‘tgan 54 shoir haqida ma’lumotlar keltirilgan.

So‘nggi ikki tabaqada Amir Temur va Temuriylar zamonida o‘tgan 41 shoir haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Xotimada XV asrning ikkinchi yarmida o‘tgan va tazkira muallifi bilan zamondosh bo‘lgan yirik shoir va adiblardan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, shayx Ahmad Suhayliy, xoa Afzaluddin Mahmud Kirmoniy, xoa Shihobuddin Abdulla Marvorid hamda xoa Asafiy haqida hikoya qilinadi.

Tazkirada tilga olinganlar orasida Abu Abdulla Rudakiy (taxm. 860–941), fors tilidagi «Qavsnoma» nomli lug‘at muallifi Qatron ibn Mansur (taxm. 1010–1073), xorazmlik mashhur shoir va adabiyotshunos, she’riyat ilmiga oid «Hadoyiq as-sehr» («Sehr bog‘lari») nomli kitobi bilan dong chiqargan Rashiduddin Votvot (taxm. 1087–1182), asli shahrisabzlik bo‘lib, Hindistonda kun kechirgan va boy ijodi bilan dong taratgan buyuk shoir, olim va musiqashunos Xusrav Dehlaviy (1253–1325), yirik tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy, shoir va qissaxon Orif Ozariy va boshqalar bor.

Qisqasi, «Tazkirat ush-shuar» asari O‘zbekiston va Eronning X–XV asrlardagi madaniy hayotini o‘rganishda muhim manbadir. Unda tarixiy ma’lumotlar ham ko‘p. XIV asming 30–80-yillarida Xurosonni larzaga keltingan sarbadorlar harakati haqida keltirilgan ma’lumotlar ayniqsa muhimdir.

Kitobning to‘la matni 1887-yili Bombayda, 1901-yili Londonda va 1958-yili Tehronda chop qilingan. U turli tillarga, shu jumladan o‘zbek tiliga B.Ahmedov tomonidan qisqartirilib tarjima qilingan va «Shoirlar bo‘stoni» nomi bilan chop etilgan. Kitob turkiy til (Xorazm shevasi)ga 1900-yili Muhammad Rafe’ tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, uning qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Asarning inglizcha to‘la tarjimasi 1900-yili E.Braun tomonidan Leydenda e’lon qilingan.

### 7.2.2. «Muzakkiri ahbob»

«Muzakkiri ahbob» («Ahboblar (ya’ni do’stlar) zikrida») nomli tazkira muallifi xoa Bahouddin Hasan Nisoriy (vafoti 1596–1597), XVI asrda o‘tgan yirik shoir va olimdir. U asli buxorolik, mashhur shoir Podshohxoja (1450 – vafot etgan yili noma’lum) oilasiga mansub. Xoa Bahouddin Hasan shoirlilik bilan bir qatorda, tibbiyot, tafsir, handasa, falakiyot, musiqa va xattotlikni egallangan. So‘g’d hokimi bo‘lib turgan Shayboniy Rustam

Sultonning sadri bo'lib xizmat qilgan, 1526-yildan keyin Balxda Kamoluddin qo'noq madrasasida handasadan dars bergan.

Xoja Bahouddin Hasan o'zining «Muzakkiri ahbob» nomli asari (1566–1567-yilda yozilgan) bilan shuhrat topgan. Asar Juyboriy xojalardan xoja Muhammad Islom (1493–1563)ga bag'ishlangan va XVI asrning birinchi yarmida Buxoroda o'tgan 261 turkiyzabon shoirlar haqida qisqacha ma'lumot keltirgan.

«Muzakkiri ahbob» qisqa so'zboshi, muqaddima, to'rt bob va xotimadan iborat.

So'zboshida mazkur asar muallifi oldiga qo'yilgan vazifa, uning mazmuni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Unda aytishicha, olim o'z asarini Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasining davomi sifatida yozgan.

Muqaddima qismida she'riyatda qalam tebratgan Shayboniy sultonlar: Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullatif Sulton, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Sulton Sa'id Sulton, Juvonmard Alixon, Do'stmuhammad Sulton, Abulg'ozzi Sulton va Boburiylardan Humoyun, Akbar, Komron Mirzo, Mirzo Askariy, Hindol, Xon Mirzolar haqida qisqacha ma'lumot va she'rлaridan namunalar keltirilgan. Asarda Shayboniyxonning 1487–1488-yillari Buxoroda kechgan hayoti haqida keltirilgan ma'lumotlar benihoyat qimmatlidir.

Aytishicha, Shayboniyxon Buxoroga Temuriyzoda Sulton Ahmad Mirzo (1469–1494) va Buxoro hokimi amir Abduali tarxonning taklifi bilan kelgan. Shayboniyxon bir yil ichida Buxoroning Omonkent qishlog'ida istiqomat qilgan va xoja Bahouddin Naqshbandning nabirasi xoja Mir Muhammad Naqshband o'sha vaqtida bobosining Qasri orifondagi mozorida mutavalliy bo'lib xizmat qilar edi. Shayboniyxon undan naqshbandiylik ta'llimotini o'rgandi. Piri Shayboniyxonga yaqin orada ulug' martabaga erishishini karomat qilgan. Tazkiravanis, «ko'p vaqt o'tmay, 12 yildan keyin, Shayboniyxon Turkistondan to Domg'ongacha cho'zilgan katta mamlakatga ega bo'ldi», degan. Undan tashqari, muqaddimada shayboniyzodalardan Rustam Sulton, Abdulazizxon va Juvonmard Alixonlarning shaxsiy hayoti haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Asarning birinchi bobida muallif o'zi shaxsan tanish bo'lmagan, tazkira tuzilmasdan ancha ilgari olamdan o'tgan, buxorolik 84 shoirning hayoti va ijodidan namunalar keltiriladi.

Ikkinci bobda muallif bilgan, lekin tazkira yozilmasdan sal ilgari hayotdan ko'z yumgan 64 buxorolik shoir haqida ma'lumot keltiriladi.

Uchinchchi bob tazkira yozilayotganda hayot bo'lgan 59 buxorolik shoir ijodiga bag'ishlanadi.

Va nihoyat, to'rtinchi bobda muallif bilan zamondosh, lekin u bilan tanish bo'Imagan 44 nafar movarounnahrlik shoir ijodidan namunalar keltirilgan.

Xotimada muallif o'zining ota-bobolari haqida, xususan ulug' bobosi Abdulvahhobxoja, otasi Podshohxoja va birmuncha vaqt Shayboniy Rustamxonning xizmatida shayxulislom lavozimida bo'lgan inisi Abdussamadxoja haqida, shuningdek, ruboynavis shoir Shohxoja haqida zarur ma'lumotlar keltirgan.

Tazkirada, shoirlikni o'ziga kasb-hunar qilib olgan shoirlar bilan bir qatorda, boshqa kasb-hunar egalari, masalan, savdo-sotiq, tabiblik, xattotlik, rassomlik, me'morlik va boshqa hunarmand shoirlar ijodidan ham namunalar keltirilgan. Ularning orasida olimlar ham bo'lgan. Masalan, mashhur shoir Muhammad Solihning o'g'li Mirzo Ulug'bek haqida bunday ma'lumot keltirilgan; u XVI asrning boshlarida Niso viloyatining hokimi bo'lgan. Hasan Nisoriyning otasi Darun hokimi Podshohxoja bilan do'st bo'lgan. Ular tez-tez bir-birlarini ziyorat qilib turganlar va shoirlarning majlislarini uyushtirib turganlar.

Ushbu asarda Shayboniy hukmdorlardan Ubaydullaxon zamonida Buxoro va Samarcandda bunyod etilgan masjid, madrasa va xonaqohlardan tashqari, ko'prik, suv inshooti va kutubxonalari haqida ham ma'lumotlarni uchratamiz. Buxoroyi sharifda qurilgan Mir Arab madrasasi, Piri Marza qishlog'ida qurilgan chorborg', Mehtar Qosim tarafidan Ko'hak daryosi ustiga qurilgan ko'prik, Abdulazizzon tarafidan Buxoro shahrida bunyod etilgan kutubxona shular jumlasidandir.

Umuman, xoja Hasan Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari O'zbekistonning XVI asrning birinchi yarmidagi adabiy muhiti va madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Asarning qo'lyozma nuxxalari Rossiya, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida mavjud. Uning o'zbekcha tarjimasi 1993-yili Toshkentda Ismoil Bekjonov tomonidan chop etilgan.

### 7.2.3. «Xotiroti Mutribiy»

«Xotiroti Mutribiy» («Mutribiy esdaliklari»), «Tazkiran ush-shuaroyi Mutribiy» («Mutribiyning shoirlar to'g'risidagi tazkirasи») va «Nusxayı zeboyi Jahongiriy» («Jahongirning zebo tazkirasи») nomli asarlar muallifi XVI asrning ikkinchi yarmi—XVII asrning 30-yillarida o'tgan shoir va tazkiranavis olim Mutribiydir.

«Xotiroti Mutribiy» degan asaridan ma'lum bo'lishicha, u 1559-yili Samarqandda tavallud topgan, ota tomonidan bobosi Malik Arg'un va ona tomonidan bobosi Basriy zamonining mashhur shoirlari jumlasidan bo'lishgan. Mutribiy dastlabki ma'lumotni ona shahri Samarqandda olgan, so'ng Buxoroga borib, xoja Hasan Nisoriyga shogird tushgan. 1620-yildan boshlab u, asosan Samarqandda istiqomat qilgan va Samarqand hokimi Hojibiy qushchining xizmatida bo'lgan. 1625-yilning kuzida o'g'li Muhammad Alini o'zi bilan birga olib, Hindistonga jo'nab ketadi. Bu vaqtida Mutribiy 69 yoshda bo'lgan va 1627-yili Samarqandga qaytib kelgan. Uning keyingi taqdiri ma'lum emas.

Mutribiy uch asar muallifidir. Ulardan biri «Tazkirat ush-shuaroyi Mutribiy» bo'lib, unda movarounnahrlik 320 shoir haqida qisqacha ma'lumot va she'rlaridan namunalar keltiriladi.

Ikkinci asari «Nusxayi zeboyi Jahongiriy» bo'lib, uni Mutribiy hali Hindistonga ketmay turib Samarqandda boshlagan va 1626-yili Lohur shahrida tamomlagan. Asarda Mavarounnahr, Xuroson, Balx, Badaxshon va Hindistonda XVI asrning ikkinchi yarmida istiqomat qilgan 292 shoir haqida ma'lumot keltiriladi va o'sha yiliyoq Jahongir podshohga (1605–1627) taqdim etiladi. «Xotiroti Mutribiy»da aytishicha, tazkira podshoh va uning yaqinlariga ma'qul bo'lgan. Jahongir suhabat oxirida Mutribiyga Hindistonda XVI asrning ikkinchi yarmida, ya'ni marhum otasi Jaloliddin Akbar davrida o'tgan shoirlar haqida to'plagan materiallarini bergen va undan mazkur tazkiraga o'z nomini qo'shishini iltimos qilgan. Ushbu materiallar ikkinchi tarzkiradan 16 varaq joy olgan. «Nusxayi zeboyi Jahongiriy»ning yaxshi qo'lyozma nusxasi 1665-yilda Shohijahonobodda ko'chirilgan va shu kunlarda «Indiya offis» kutubxonasida saqlanmoqda.

Mutribiyning uchinchi asari «Xotiroti Mutribiy» deb ataladi va muallif uni 1627-yil 25 fevral kuni yozishga kirishgan. Asar muallifning Lohurda turgan paytida podshoh Jahongirning 24 majlisida ko'tarilgan masalalar haqida hikoya qiladi. Unda Mavarounnahrning XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli va madaniy hayoti, Samarqandning osori-atiqalari va uning o'sha davridagi ahvoli haqida o'ta qimmatli dalil va ma'lumotlar keltiriladi. Shulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Jahongir podshohni Buxoro va Balx xonlarining hamda ularga yaqin amirlar va Juybor xojalarining shaxsiy hayoti, turmushi va fe'l-atvori ko'proq qiziqtirgan. Shuningdek, u boshqa Boburiy podshohlar kabi, Buxoro va Balx xonlarining qiyofasini chizdirish bilan shug'ullangan. Masalan, 18-chi xotirotda quyidagilarni o'qiyimiz: «Kunlardan bir kuni podshohning ostonasiga bosh qo'ygani borgan edim. Podshoh qandaydir

suratlarni diqqat bilan tamosha qilib o'tirgan ekan. Menga «o'ltir!», deb ishorat qildilar. So'ng suratlarni men tarafga o'girib so'radilar; «Diqqat bilan qarab ko'rchi, bular kimi larning suratlari ekan?» Qarab ko'rsam ularning biri Abdullaxon o'zbek (Abdullaxon soniy, 1583–1598), ikkinchisi (uning o'g'li) Abdumo'minxonning surati ekan. Podshoh mendan so'radi: «Suratlar asilmi, yoki sening boshqa fikring bormi? Agar bo'lsa, ayt». Men javob qildim: «Abdullaxon sal to'laroq tasvirlangan. Bo'ynidagi chandiq esa o'ng tomonda bo'lib qolgan. Aslida u ko'p ham to'la emas, bo'ynidagi chandiq esa so'l tarafda». Podshoh rassomni chaqirtirdi va suratni men aytgandek qilib chizishni buyurdi. Shundan keyin podshoh mendan «Abdulmo'minxonning surati xususida nima deysan?», deb so'radi. Javob qildim: «Abdulmo'minxonni bug'doy rangli qilib chizibdilar. Aslida u oq-sariqdan kelgan (yigit), sallani sal oldinga qilib o'raydi, bu ancha chiroyli chiqadi», dedim. Podshoh rassomni chaqirtirdi va bu suratlarni ham men aytganday qilib chizishni buyurdi».

Xotirotlardan yana birida Mutribiy 1626-yili Buxorodan Hindistonga kelgan Buxoro xonining elchisi xoja Abdurahim bilan bo'lgan suhbatni keltiradi. Jahongir podshoh Juybor xojalariga zo'r hurmat-ehtiromi bo'lishiga qaramay, Mutribiyaga: «Nima uchundir, Imomqulixon Nadr devonbegiday boobro' mulozimlari bo'la turib, huzurimizga navkarlarni yuboribdi», – degan.

Olimning Kobuldan Lohurga mehmon bo'lib kelgan Muhammad Hakim mirzo sharafiga uyuşhtirilgan ziyofat haqida yozgan xotirasi ham diqqatga sazovordir. Majlisda gap «musiqa» atamasining kelib chiqishi, ma'nosi, shashmaqom («Iroq», «Husayniy», «Segoh» va boshqalar) ning tarixi haqida musiqashunoslar o'rtasida bo'lgan bahs haqida boradi. Unda Mutribiy ham faol qatnashgan.

Xotirotlarda Samarcanddag'i tarixiy obidalar, Go'ri Amir, Shohi Zinda, Ulug'bek rasadxonasing XVII asr boshlaridagi ahvoli, Siyob (Siob) arig'i ustiga qurilgan qog'oz korxonalari (juvozi qog'oz) ning ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Xullasi, Mutribiyning tazkiralari va esdaliklari O'zbekiston, Eron, Afg'oniston va Hindistonning XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmidagi fan va madaniyati, Buxoro xonligining boshqa mamlakatlar bilan aloqalari tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lishi mumkin.

#### 7.2.4. «Muzakkiri al-as'hob»

«Muzakkiri al-as'hob» («Do'stlarni eslatuvchi kitob») tazkirasining

muallifi XVII asrda o'tgan yirik shoir va olim Maleho Samarqandiyidir. Bu asarda XVII asrda yashab ijod etgan 200 dan ortiq movarounnahrlik shoirlarning qisqacha tarjimai holi va asarlaridan parchalar keltirilgan. Kitob 1682–1692-yillar orasida yozilgan.

Maleho Samarqandiyining haqiqiy ismi Muhammad Badi' ibn Muhammad Sharif Samarqandiy bo'lib, u 1641-yili Samarqandda o'qimishli faqih va o'ziga to'q oilada tavallud topgan. Otasi Muhammad Sharif Samarqand qozisi, so'ng muftiy mahkamasida xizmat qilgan. 1670-yili vafot etganida, uning boyligi Abdulazizxonning (1645–1680) amri bilan o'g'li Muhammad Badi'ga qoldirilgan. Bo'lg'usi olimning hayoti qiyinchilik va muhtojliksiz, yaxshi kechgan. Shuning uchun ham u yaxshi o'qigan va ko'p yerlarga sayohat qilish imkoniga ega bo'lgan.

Muhammad Badi' boshlang'ich ma'lumotni Samarqandda olgan. Ko'p ilmlarni, fiqh, falsafa, ilohiyot va mantiqni otasidan, she'r ilmini qozi Lutfullohdan madrasada olgan. U madrasada tafsir, astronomiya, tarix va adabiyotni ham o'rgangan. «Xususan, – deb yozadi u o'z tazkirasida, – «Chag'miniy sharhi»<sup>1</sup> va Ali Qushchining forscha risolasini<sup>2</sup> o'sha mavlono Lutfullohdan o'rganganman». Maleho 11 yoshida she'r yoza boshlagan va ba'zi qiyin atamalarni izohlay olgan.

Olim 1670-yili, otasi vafotidan keyin, Eron bo'ylab sayohat qilgan va uch yil mobaynida mamlakatning o'sha vaqt dagi poytaxti Isfahon va katta shaharlari Nishopur, Koshon, Mashhad va boshqa shaharlarida bo'lgan, o'sha yillari bo'lajak asar uchun ma'lumotlar to'plangan. 1673-yili u ona shahri Samarqandga qaytib keldi va yetti yil mobaynida Samarqand va Buxoro shaharlarida fiqh, tafsir va hadis ilmlaridan olgan ma'lumotini Qozi xoja Mirakshoh rahbarligida chuqurlashtirgan. 1689-yili Samarqand hokimi Ibrohimbiy uni Shayboniyxon madrasasiga mudarris etib tayinlaydi. Olim o'z asarini shu yerda tamomladi. Uning qachon vafot etgani ma'lum emas.

«Muzakkiri al-as'hob», unda tilga olingan shoirlarning asarlaridan boshqa juda ko'p, turli mavzudagi asarlarda keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish asosida yozilgan. Manbalar ichida Mirxondning «Ravzat us-safo», imom Abulfazl Muhammad as-Samarqandiyining «Qandiya», Yahyo Sibak Nishopuriyning «Shabiston hayol», Ali ibn Husayn Voiz al-Koshifiyning «Rashahot ul-ayn ul-hayot», mulla Sodiq Samarqandiyining «Riyoz ush-shuaro», Mir Said Sharif Roqimning «Tarixi kasira», xoja

<sup>1</sup> Sayyid Sharif Jurjoniyning «Al-muloxtas fi-l-hay'at» asariga yozilgan sharh nazarda tutiladi.

<sup>2</sup> Olimning Mirzo Ulug'bekning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asariga yozgan sharhi nazarda tutiladi.

Samandar Termiziyning «Dastur ul-muluk» asarlari ham bor. Shuning uchun asarda she’riyat ilmidan tashqari, tarixiy va geografik ma'lumotlar ham ko‘p.

Tarixiy ma'lumotlardan Xiva xoni Anushaxonning 1681 va 1686-yillari Buxoro xonligi hududlariga bostirib kirishi, 1681-yili Buxoro atrofidiagi tumanlar va Buxoro shahristonining bosib olinishi, 1686-yili Samarqand, Qarshi va Shahrisabzning bosib olinishi va buning oqibatida xalq va hukumatning og‘ir ahvolga tushib qolishi haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Asarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid ma'lumotlar ham uchraydi. Hunarmandchilik, misgarlik, kimuxtgarlik, bo‘yoqchilik-sabotiy, gilkorlik, kavushdo‘zlik, zardo‘zlik, qassoblik, karbozfurushlik, attorlik, zarkashlik, bazzozlik, temirchilik, xirgohtaroshlik, naqqoshlik, sarroflik, jomaboflik, muhrgarlik va boshqalar, xoja Ubaydulla Ahror avlodining mol-mulki haqida ma'lumotlar uchratamiz. Ashtarkoniylar davlati tuzilishi, xususan otalik, mustavfiy, parvonachi, mirohur, dodxoh, to‘qsabo, sipohsalor, sudur, faqih, a‘lam, mustiy, qozi askar, rais, kitobdor, mudarris, mutavaliy, yuz boshi, miri hazar, voqenavis va boshqa mansablar haqida o‘ta qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Tazkirada keltirilgan Buxoro va Samarqand shaharlarining topografiyası haqidagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan, Samarqand guzarlaridan Degrezon, Hovuzi sangin, Bo‘ston Bolo, Mir Said oshiq, Kimuxtgaron, Bo‘stoni xon, Gavkashon, Sobunxona, Attoron, Sangtaroshon, Xon Said imom, Labi hovuz, Darvozayi ob guzarlari tilga olinadi. Buxoro va Samarqanddan tashqari, Amir Temur va Shayboniy Abdullaxonning Qarshi va Shahrisabzni obod qilish yo‘lida olib borgan ishlari ham tilga olinadi. «Nasaf, — deb yozadi Maleho, — obod viloyat. Uning obodonchiligi shu darajadaki, ta’rif va tavsifga muhtoj emasdir. Masjid va sardobadan tashqari, bu shaharda Abdullaxon tarafidan ko‘p imoratlar bunyod etilgan. (Amir) Boqibiy, Abdullaxonning ko‘rsatmasi bilan ushbu shaharda madrasa, karvonsaroy, hammom, (marmar) toshdan timlar qurdirgan». Shahrisabz haqida o‘qiyimiz: «Kesh viloyati, xuddi Samarqand singari, avvalo sultanat poytaxti bo‘lgan. Shahid Sulton Ulug‘bek ko‘ragon tarafidan bino qilingan jomi‘ masjid, janob shayx (Shamsuddin) Kulol maqbarasi, Mirzo Jahongirming madrasa va maqbarasa shular jumlsidandir...»

Xullas, Malehoning «Muzakkiri al-as’hab» asari Movarounnahrning XV asrning ikkinchi yarmidagi tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asarning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston, Rossiya va boshqa xorijiy

mamlakatlarning kutubxonalarida ko‘p. Faqat O‘zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida sakkiz mo‘tabar qo‘lyozma nusxalari mavjud. Asar matni nashr qilinmagan.\*

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Biografiya yoki biografik asar deganda nimani tushunasiz?
  2. Qanday biografik xarakterga ega bo‘lgan asarlarni bilasiz?
  3. «Muzakkiri al-as ‘hob» tazkirasida Shayboniylar davri to‘g‘risida qanday ma’lumotlar bor?
- 

## 8-MAVZU. AGIOGRAFIK ASARLAR

**Darsning mazmuni:** Jamiyat hayotidagi din va diniy arboblarning roli, ular to‘g‘risidagi manbalar haqida talabalarga tushuncha berish.

### Reja:

- 8.1. Agiografik asarlarning umumiylari xususiyatlari.
- 8.2. Agiografik asarlar tavsifi.

**Asosiy tushunchalar:** Tazkira, manoqib, holot, risola, shayx, imom, tasavvuf, murid, murshid, eshon, said, xo‘ja, silsila, tariqat, rashahot, maqomat.

### 8.1. Agiografik asarlarning umumiylari xususiyatlari

Manoqiblar yoki holotlar yirik din va jamoat arboblari va tariqat peshvolarining hayoti va faoliyati, ularning karomatlari haqidagi biografik asarlardir. Manoqiblar ustida ishlash shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘ta qimmatli ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va madaniy hayotga oid dalillar va ma’lumotlarni ko‘p uchratish mumkin<sup>1</sup>. Shunga qaramay, bu xildagi manbalardan foydalanish ishini yaxshi yo‘lga qo‘yilgan deb bo‘lmaydi.

Mutaxassislar, umuman tarixshunos-manbashunoslar e’tiboriga manoqiblar va holotlarning ba’zilari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirildi.

### 8.2. Agiografik asarlar tavsifi

#### 8.2.1. «Tazkirayi Bug‘roxoniy»

«Tazkirayi Bug‘roxoniy» («Bug‘roxonning hayot yo‘li va aytganlari») Ahmad ibn Sa’dulla al-O‘zgandiy qalamiga mansub asardir. Kitob

\* Ushbu mavzuni yozishda B. Ahmedov asaridan qisman foydalaniildi.

<sup>1</sup> Ахмедов Б.А. Жития мусулманских святых, как исторический источник// «Источниковедческие изыскания». Т. 11. – Тбилиси, 1988. – С. 207–214.

mashhur Qoraxoniylardan Sotuq Bug'roxon (vafoti 955)ga bag'ishlangan. Asarda Uvaysiya tariqati va unga ergashgan toliblarning, shular qatori Sotuq Bug'roxonning ham tarjimai holi berilgan. Asar «Uvaysiya» (mashoyixlari)ning tarjimai holi» deb ham ataladi.

«Tazkirayi Bug'roxoniy» ilk tariqatlardan bo'lmish Uvaysiya tariqati tarixi va O'rta Osiyoda islom dini tarqalishi tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Asar matni chop etilmagan. Qo'lyozma nusxalari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud.

### **8.2.2. «Manoqibi xoja Yusuf Hamadoniy»**

«Manoqibi xoja Yusuf Hamadoniy» («Xoja Yusuf Hamadoniyning hayot yo'li») nomli asar muallifi xojagon tariqatining asoschisi va nazariyachilaridan biri Abduxoliq ibn Abduljamil G'ijduvoniy (vaf.1179) bo'lib, u ushbu asarini ustozи xoja Yusuf Hamadoniyning hayot yo'li va ta'llimotiga bag'ishlagan.

Asarning yana bir boshqa nomi «Risolayi shayx ash-shayux hazrat xoja Abu Yusuf Hamadoniy» («Mashoyixlar shayxi hazrat xoja Yusuf Hamadoniy haqida risola») deb ham ataladi.

Asarning yaxshi bir qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida mavjud.

### **8.2.3. «Risolayi shayx Najmiddin Kubro»**

«Risolayi shayx Najmiddin Kubro» («Shayx Najmiddin Kubro risolasi») kubroviya tariqatining asoschisi shayx va shoir Najmiddin Kubro (1221) Gurganjni mo'g'ullardan mudofaa qilish vaqtida jangda halok bo'lgan) qalamiga mansub asar.

Hajm jihatidan uncha katta bo'Imagan, hammasi bo'lib 9 varaq, bu asarda tasavvuf haqida fikr yuritiladi, muallif o'zining shaxsiy kechinmalari va ruxiy iztiroblarini bayon qiladi.

Asarning yaxshi bir qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi.

### **8.2.4. «Manoqibi Amir Kulol»**

«Manoqibi Amir Kulol» («Amir Kulolning hayot yo'li») asari naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, hazrati sohibqiron Amir Temurning pirlaridan Amir Kulolning hayot yo'liga bag'ishlangan. Amir Kulol asli Buxoroyi sharifning Suxori qishlog'idan bo'lib, ota-bobolaridan tortib kulolchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar,

tariqatda xoja Muhammad Boboyi Somosiy (vaf.1354)ning xalfasidir.

Asarning muallifi Amir Kulolning nabirasi Shihobiddindir.

Asarning XVII asrda ko'chirilgan yaxshi bir qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. «Manoqibi Amir Kulol»ning toshbosma nashrlari ham bor.

### **8.2.5. Xoja Muhammad Porsoning «Maqomati xoja Alouddin Attor», «Fasl ul-xitob», «Risolayi qudsiya» va boshqa asarlari**

Xoja Muhammad Porsoning haqiqiy ismi Muhammad ibn Muhammad al-Hofiz al-Buxoriy bo'lib, 1419-yili Makkada vafot etgan. Naqshbandiya tariqatining nazariyotchi olimlaridan, ushbu tariqat va uning ko'zga ko'ringan namoyandalariga atab bir necha asar yozib qoldirgan.

Ulardan biri «Maqomati xoja Alouddin Attor» («Xoja Alouddin Attorning hayot yo'li») bo'lib, unda Naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri Xoja Buzurg – Xoja Bahouddin Naqshbandning xalifalaridan biri asli xorazmlik xoja Alouddin (vaf.1400)ning aytganlari jamlangan.

«Maqomati xoja Alouddin Attor» asari nashr etilmagan. Qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida mavjud.

Xoja Muhammad Porsoning yana bir asari «Fasl ul-xitob» («Ravshan fikrlar») bo'lib, unda e'tiqod, diniy marosimlar, aqidaparastlik va falsafiy oqimlar haqida mutasavvufona fikr yuritiladi. «Fasl ul-xitob» tasavvuf bo'yicha qomusiy asar hisoblanadi.

Asarning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston, shuningdek, Germaniya, Fransiya va boshqa xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida mavjud. 1913-yili amalga oshirilgan toshbosma nashri ham bor.

Xoja Muhammad Porsoning piri murshidi xoja Bahouddin Naqshbandga atab yozgan «Risolayi qudsiya» («Qudsiy kalimalar haqida risola») asari bo'lib, olim bu asarida ustozining aytganlarini zo'r e'tibor bilan jamlagan. Xoja Muhammad Porso bu asarini ustozni xoja Alouddin Attorning iltimosi bilan yozgan.

Olimning bulardan boshqa tasavvufning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan «Mahaq al-orifin» («Ma'rifatli kishilarni ajratuvchi mahaq toshi»<sup>1</sup>), «Tahqiqot» («Haqiqat izlash») va «Risola» degan asarlari ham mavjud.

### **8.2.6. «Manoqibi hoja Bahouddin Naqshband»**

Xoja Bahouddin Naqshband, uning hayoti, aytganlari, karomatlari

<sup>1</sup> Mahaq toshi – kumush va oltinlarga surtib, ularning sof yoki qalbakiligini aniqlab beruvchi sirlı tosh.

haqida hikoya qiluvchi yana bir muhim asar Abulmuhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining «Manoqibi xoja Bahouddin Naqshband» («Xoja Bahouddin Naqshbandning hayot yo‘li») nomli kitobidir. Abulmuhsin Muhammad Boqir bu asarini yozishda Xojayi buzrugning yaqin kishilari bilan suhbatlari chog‘ida yiqqan ma’lumotlardan va xoja Muhammad Porsoning kitoblaridan olingen ma’lumotlardan foydalangan.

«Manoqibi xoja Bahouddin Naqshband» muqaddima, xotima va uch qismidan (maqsad) iborat.

Muqaddimada Xojayi buzurgning tavallud topishi va kelib chiqishi, birinchi qismida hazrat eshon faoliyatining boshlanishi, ikkinchi qismida hazrat eshonning suluklari va aytganlari, va nihoyat, uchinchi qismida hazrat Bahouddin Naqshbandning kashf-u karomatlari bayon etilgan.

Xotima hazrati buzrugning vafoti xususidadir.

Asar Mahmud Hasanov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va zarur izohlar bilan 1993-yilda nashr etilgan.

### **8.2.7. «Maqomati xoja Ahror»**

«Maqomati xoja Ahror» («Xoja Ahrorning hayoti») nomli asar naqshbandiya tariqatining yana bir yirik namoyandasi, ma’rifatparvar va raiyatparvar inson xoja Ubaydulla Ahror Valining hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Bu kitob eshon buvaning nabirasi xoja Abdullo tomonidan XVI asrda yozilgan. Xoja Abdullo yoshligidan bobosining xizmatida bo‘lgan va mazkur asarida hazrat eshondan o‘zi eshitgan, uning yaqinlari va mulozimlari, beklar va amirlarning og‘zidan eshitgan, shuningdek Temuriyzodalar Sulton Ahmad (1469–1494) va Umarshayxdan eshitganlarini qunt bilan to‘plab kitob holiga keltirgan.

Asarda O‘zbekiston va u bilan qo‘shti mamlakatlarning XV asrdagi ijtimoiy-iqtisadiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid o‘ta qimmatli ma’lumotlar bor.

Kitob nashr etilmagan, uning qo‘lyozma nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik institutining xazinasida saqlanmoqda.

### **8.2.8. «Rashahotu ayn ul-hayot»**

«Rashahotu ayn ul-hayot» («Hayot chashmasidan tomchilar», 1503-yili yozib tamomlangan) xoja Ubaydulla Ahror haqida yozilgan muhim bir asardir. Asar muallifi ko‘pincha as-Safiy (1453–1513) taxallusi bilan mashhur bo‘lgan ilohiyot, hadis, tafsir va adabiyot fanlarini chuqr bilgan olimdir. Uning to‘liq ismi Faxruddin Ali ibn Ali al-voiz al-Koshifiy al-Bayhaqiyidir. Asarlaridan ma’lum bo‘lishicha, u Bayhaq (Eron)ning o‘qimishli xonadonlaridan biriga mansub bo‘lib, otasi ilohiyot, tafsir va

hadis ilmiga oid asarlar yozgan va naqshbandiya tariqatining yetakchilaridan xoja Ubaydulla Ahror (1404–1490), xoja Yahyo va boshqalarning diqqat-e'tiborini qozongan kishidir. As-Safiyning o'zi xoja Ubaydulla Ahrorning muridlari jumlasidan bo'lib, uning kotibi lavozimida ishlagan. Xoja Ahror vafot etgandan keyin, temuriy Sulton Husayn xizmatiga kirgan va uning voizi bo'lib xizmat qilgan.

As-Safiy turli sohalarga oid 10 ga yaqin asar yozib qoldirgan. Turli latifa va badi'alarni o'z ichiga olgan «Latoif az-zaroif» («Zarofatlari kishilarning latifalarisi»), «Mahmud va Ayoz» dostoni, al-kimyoga bag'ishlangan «Tuhfat ul-xoniy» («Xonning tuhfasi»), «Hirz al-omon min fatan az-zamon» («Zamonning ziyrakligi bilan joduni qaytaradigan tumor»), «Axloqi Muhsiniy», Naqshbandiya tariqatining ta'limoti va uning yirik namoyondalari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan «Usuli Naqshbandiya» kabi asarlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, as-Safiy tarjimonlik bilan shug'ullangan. Masalan, u shayx Shihobuddin Suhravardiyining (vaf.1234-y.) «Uyun al-haqoiq va ixoh al-taroiq» («Haqiqatlar bulog'i va tariqatlar izohi») kitobini arabchadan fors tiliga tarjima qilgan. Bu tarjima «Kitob kashf ul-asrori Qosimiy» («Qosimiy sirlarining kashf etilishi haqida kitob») nomi bilan ma'lum. As-Safiy Sharqda mashhur bo'lgan «Kalila va Dimna» asarini ham qayta ishlagan va unga «Anvori Suhayliy» («Suhayl yulduzining nurlari») deb nom bergan.

O'zbekistonning XV asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rghanishda as-Safiyning ayniqsa «Rashahot» asari muhim o'rinn tutadi. Asar naqshbandiya tariqati mashhoixlarining qisqacha tarjimai holi hamda tariqatning yirik namoyondalaridan xoja Ubaydulla Ahrorning hayoti va maqomatlarini o'z ichiga oladi.

As-Safiy o'z asarini yozishda xoja Muhammad Porsoning «Fasl ul-xitob», Shihobuddin ibn Amir Hamza (vaf. 1405-y.)ning «Maqomati Amir Kulol», Muhammad al-Buxoriyning (XII asr) «Maslak ul-orifin», Mavlono Muhammad qozining (vaf. 1516-y.) «Silsilat ul-orifin va tazkirat as-siddiqin» asarlaridan foydalangan. Lekin, asarning katta qismi, ya'ni xoja Ubaydulla Ahrorning hayoti va faoliyati haqidagi qismi, muallifning shaxsiy kuzatuvlari va so'rab-surishtirib to'plagan ma'lumotlari asosida yozilgan.

«Rashahot» qisqacha so'zboshi – debocha, kirish-maqola va uch qismidan iborat.

So'zboshida mazkur asarning yozilish sabablari, muallifning ismi sharifi, asarning yozilib tamomlangan vaqt, shuningdek, xoja Ubaydulla Ahrorning Naqshbandiya tariqatiga munosabati haqida so'z boradi.

Kirish qismida Naqshbandiya tariqati mashoyixlarining, xoja Yusuf

Hamadoniydan to mavlono Shamsuddin Ruhiygacha qisqacha tarjimai holi bayon qilingan.

Asarning I—III qismlarida xoja Ubaydulla Ahror va uning farzandlari, xoja Zikriyo, xoja Yahyo, shuningdek, xoja Ahronning yaqin muridlarining hayoti va maqomatlari haqida hikoya qilinadi.

«Rashahot»ning biz uchun qimmatli tomoni shundaki, unda, ayniqsa asarning uchinchi qismida, O'zbekistonning XV asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy axvoliga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xoja Ubaydulla Ahronning yer-suvlari va boshqa mulki, tamg'a solig'i, xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan savdo-sotiq aloqalari va mamlakatda kuchayib ketgan o'zaro kurash va bunda musulmon ruhoniylari, xususan xoja Ahronning ishtiroki haqidagi ma'lumot va xabarlar shular jumlasidandir.

«Rashahot» Hindistonda 1890, 1897 va 1906-yillari hamda Toshkentda 1911-yili chop etilgan. Asar arab (1852, 1889-yillari) hamda turk tiliga (1888-yili) tarjima qilingan.

XVI—XVIII asrlarda yozilgan maqomatlar ham bir talay. Ular ham biografik asarlar sirasiga kiradi. Ularning ko'plari XVI asrga oiddir. Maxdumi A'zam Kosoniyning nabirasi xoja Abulbaqoning qalamiga mansub bo'lgan «Jomi' ul-maqomati Maxdumi A'zam Kosoniy» («Maxdumi A'zam Kosoniy maqomotlari majmu'i»), Muhammad Rahim tarafidan yozilgan «Siroj us-salokin va latoif ul-orifin» («To'g'ri yo'ldan boruvchilar uchun chiroq va donolarning lutf so'zлari»), Do'stmuhammad al-Buxoriyning «Juybor ul-asror» («Ko'p irmoqli manzilning sir-u asrorlari»), Husayn ibn Mir Husayn Saraxsiyning «Manoqibi sa'diya» («Xoja Sa'dning maqomatlari»), Muhammad Tolib ibn xoja Tojiddinning «Matlab ut-tolibin» («Toliblar matlabi») kitobi, Badriddin Kashmiriyning «Ravzat ur-rizvon va hadiqat ul-g'ilmon» («Jannat bog'i va changalzor mahramlari»), XVII—XIX asrlarda yozilgan asarlardan Muhammad Qosimning «Nasimot ul-quds» («Qudsiylikning mayin shabadasi»), Muhammad Avazning «Ziyo al-qulub» («Qalblar ziyosi»), xoja Hoshim Kishmiyning «Zubdat ul-maqomot» («Maqomotlar zubdasi»), Sayid Ali Zindanining «Samarot ul-mashoyix» («Mashoyixlar natijasi»), Muhammad Tohir ibn Muhammad Tayyib Xorazmiyning «Silsilati xojagoni Naqshbandiya» («Naqshbandiya xojalarining silsilasi») shular jumlasidandir.

XVI—XVII asrlarda yaratilgan uch-to'rt asarga alohida to'xtalamiz.

### **8.2.9. «Ravzat ur-rizvon va hadiqat ul-g'ilmon»**

«Ravzat ur-rizvon va hadiqat ul-g'ilmon» («Jannat bog'i va changalzor mahramlari») asari Badriddin Kashmiriy qalamiga mansub bo'lib, unda

XVI—XVII asrlarda O'zbekistonda va qo'shni mamlakatlar, Xuroson, Shimoliy Hindiston va Koshg'arning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan Juybor xojalari, xususan xuja Muhammad Islom (1493—1563), xuja Sa'd (1531/32—1589) va xuja Tojiddin Hasan (1574—1646)larning hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinadi. Kitob XVII asrning birinchi yarmida yozib tamomlangan.

Asar mualifining to'liq ismi Badriddin ibn Abdussalom ibn sayyid Ibrohim al-Husayni al-Kashmiriydir. Asar muqaddimasida o'zi keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, asli kashmirlik bo'lib, 1554-yili Buxoroyi sharifga ko'chib kelgan va xuja Muhammad Islomning shaxsiy kotibi sifatida xizmatiga kirgan. Uning vafotidan keyin o'g'ilari xuja Sa'd va xuja Tojiddin Hasanlarning xizmatida (uning faoliyatining boshida) bo'lgan.

Asar mazmuni, uslubi va unda turli mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlardan ko'rinishicha, Badriddin Kashmiriy keng ma'lumotli, tarix, she'riyat, insho ilmlarini chuqur egallagan kishi bo'lgan. U «Ravzat ar-rizvon»dan boshqa «Sham'i dilafro'z» («Dilni ravshan qiluvchi chirog'», 1568/69-yili yozilgan), “Me'roj ul-komilin” (“Komil kishilarning me'rojga ko'tarilishi”, 1573/74-yili yozib tamomlangan), “Ravzat ul-jamol” (“Go'zal bog”, 1575/76-y. yozib tamomlangan), “Bahr ul-avzon” (“Vaznlar o'lchovi”, 1583-y.) va “Rasulnoma” (1593) kabi nazmiy va nasriy asarlar yozib qoldirgan. So'nggi asarining to'rtinchisi qismi “Zafarnoma” she'riy doston bo'lib, unda Shayboniy Abdullaxon soniyning tarixi bayon qilingan.

“Ravzat ur-rizvon” — 552 varaqdan iborat katta asar bo'lib, muqaddima, xotima va yetti bobdan tashkil topgan.

Muqaddimada xuja Muhammad Islomning avlod-ajdodi, hazrat eshonning xulq-atvori, xoriq odatlari va oljanob fazilatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi, Badriddin Kashmiriyning Buxoroga ko'chib kelish sabablari, mazkur asarning to'rt yil ichida yozib tamomlanganligi va buning evaziga hazrat eshondan 2.500 Abdullaxoniy kumush tanga va boshqa in'omlar olgani haqida gap boradi.

I bobda Movarounnahrning XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, 1556-yili Buxoroning Abdullaxon soniy tomonidan ishg'ol etilishi, Abdullaxonning g'alabalari va bunda xuja Muhammad Islomning ishtiroki va o'rni haqida qimmatli, ko'p o'rinnlarda tarixiy asarlarda uchratish qiyin bo'lgan ma'lumotlar mavjud.

Asarning ikkinchi bobi o'ta qimmatli. Unda Shayboniy sultonlar — Muhammad Amin sulton, Dinmuhammad sulton, Xisrav sulton, Abduquddus sultonlarning xoja Muhammad Islom va xoja Sa'd nomiga yo'llagan arznomalari va Buxoro, Samarqand, Marv va Badaxshon

shoirlari Mushfiqiy, Mahramiy, Shuuriy, Vosifiy, Sabriy va boshqalarning hazrat eshon – xoja Muhammad Islom va xoja Sa'dlar sharafiga bitgan she'rlaridan namunalar keltirilgan. Bu yerda keltirilgan arznomalar, shuningdek xon va sultonlarning farmonlari, asosan uch masala: 1) Buxoro xonligining XVI asrdagi ichki ahvoli, ya'ni markaziy hukumat bilan ulus, viloyat, o'lka hokimlari o'rtaisdagi munosabat, 2) xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, 3) Buxoro xonligi bilan Eron, Shimoliy Hindiston va Koshg'ar o'rtaisdagi munosabatlari masalasiga to'xtalingan. Arznomalar va she'rlar O'zbekistonning XVI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Asarning III va IV boblarida xoja Muhammad Islomning XVI asr 60-yillari boshidagi hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi, shuningdek, Juybor xojalarining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Bu ma'lumotlarning ko'pchiligi hatto shu masalalami maxsus o'rgangan tadqiqotchilarga ham ma'lum bo'lmasa kerak<sup>1</sup>.

"Ravzat ur-rizvon"ning V bobi ham yozishmalarga bag'ishlangan. Bu bobda Abdullaxonning xoja Muhammad Islom va xoja Sa'dga yo'llagan 100 dan ortiq maktubining nusxalari, Shayboniy sultonlar, yirik olimlar va viloyat hokimlari, shuningdek, Hindiston, Eron va Koshg'ar hukmdorlarining Juybor xojalariga yo'llagan maktublarining nusxalari keltirilgan. Bular orasida hazrat xojalarga in'om etilgan mulkler, hazrat eshonning yerlarini obod qilish yumushiga aholini majburiy safarbar qilish va dehqonlarni yerga biriktirish haqidagi farmonlarning nusxalari keltirilgan.

Juyboriy xojalarga she'r, qasidalar, masnaviyalar, tarixlar bag'ishlangan shoirlar Mehriy Buxoriy, Rahimi Samarqandiy, Masiho, Foniy, Hofiz Husayn, Mehriy, Hofiz Ibrohim va boshqalarga asarning oltinchi bobi bag'ishlangan. Tarixda Abdullaxon va Juyboriy shayxlar qurdirgan binolar haqida muhim dalil va ma'lumotlar keltirilgan.

Asarning so'nggi, VII bobida Buxoro xonligining xoja Sa'd va Abdullaxon davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida muhim, diqqat-e'tiborga sazovor ma'lumotlar keltiriladi.

"Ravzat ur-rizvon"ning yaxshi va yagona qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutining xazinasida 2094 raqami ostida saqlanmoqda. Asar hali biron xorijiy tilga tarjima qilinmagan. Uning to'g'risida B.Ahmedov va I.Saidahmedov maqolalari e'lon qilingan.

<sup>1</sup> Из архива шейхов Джуйбари. Материалы по земельным и торговым отношениям Средней Азии XVI века. Под редакцией Е.Е.Бертельса. —М. —Л.: 1938; Иванов П.П. Хозяйства Джуйбарских шейхов. К истории землевладения Средней Азии XVI—XVII вв. —М. — Л., 1945.

## **8.2.10. «Jomi’ ul-maqomati Maxdumi A’zam Kosoniy»**

«Jomi’ ul-maqomati Maxdumi A’zam Kosoniy» («Maxdumi A’zam Kosoniy maqomotlari majmu’i») asari Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri xoja Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Kosoniy (1461/62–1542)ning hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan.

Maxdumi A’zam Kosoniy yirik tariqat yetakchisi bo’lishi bilan bir qatorda, sermahsul olim edi. U axloq, siyosat va ilohiyotga oid «Tanbeh us-salotin» («Sultonlarga nasihat»), «Asror ul-nikoh» («Nikoh sirlari»), «Risolayi samo’iya» («Darveshlar uchun ixtiro etilgan musiqalar»), «Risolayi vujudiya» («Chin haqiqat haqida risola»), «Odob us-solikin» («Darveshlar odobi haqida»), «Odob us-siddiqin» («Sodiq kishilar odobi»), «Ganjnama», «Risolayi baqo’iya» («Ko’z yoshi to’kib tavba qilish haqida risola»), «Nasihat ul-solikin» («So’fiylik yo’lidan boruvchilar uchun nasihat»), «Risolayi zikr» («Zikr haqida risola»), «Risolayi bayoni silsila» («Naqshbandiya tariqati boshliqlari silsilasi»), «Risolayi chahor kalima» («Abduxoliq G’ijduvoni aytgan to’rt kalima haqida risola»), «Risolayi botixiya» («O’zini narigi dunyodagi hayotga hozirlash haqida risola»), «Mir’ot us-safo» («Poklik ko’zgusi»), «Zubdat us-solikin va tanbehs us-salotin» («So’fiylik yo’lidan boruvchilar uchun zubda va sultonlar uchun tanbeh»), «Risolayi Boburiya» kabi 30ga yaqin asar yozib qoldirgan. Maxdumi A’zam Kosoniyning ilmiy me’rosi yaxshi o’rganilmagan.

Bu ulug’ zotning hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan «Jomi’ ul-maqomat» asarini olimning nabirasi xoja Abulbaqo ibn Bahouddin yozgan. Asar Maxdumi A’zam Kosoniyning yaqin xalifalaridan Ali Axsikatiy, mavlono Do’st sahhof, mavlono Boboyi hujrador, Hafiz Ibrohim va boshqalarning bergen ma’lumotlariga asoslanib yozilgan.

Asarda keltirilgan ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, xoja Abulbaqo keng ma’lumotli va o’ziga to’q odam bo’lib, savdo-sotiq bilan ham mashg’ul bo’lgan. Uning karvonlari Movarounnahr bilan Balx, Hindiston va Koshg’ar o’tasida qatnab turgan. O’zi Shayboniy Abdulazizzon (1540–1549)ning qo’lida mas’ul, hukmgar lavozimida turgan. Keyincha Farg’ona hukmdori Muhammadshoh nomidan Qozoq sultoni huzuriga elchi bo’lib borgan, so’ng 1556-yili, Abdullaxon soniy Buxoroni qamal qilib turganida Buxoro hokimi Burxon sulton va nomi yuqorida zikr etilgan, xoja Muhammad Islomning iltimosi bilan uning o’rdasiga elchi bo’lib borgan va sulh tuzish xususida xon bilan muzokara olib borgan.

«Jomi’ ul-maqomot» qisqacha an’anaviy so’zboshi, xotima va uch bobdan iborat.

**Birinchi bobda Maxdumi A’zam Kosoniyning Muhammad**

payg‘ambarga ulangan shajarası va ulug‘ bobolari haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan. Ikkinci va uchinchi boblar to‘lig‘icha Maxdumi A’zam Kosoniyning hayoti, faoliyati va karomatlari haqida hikoya qiladi.

Xotimada hazrat eshonning hayoti oxiri va uning 1542-yil 7 may kuni yuz bergen vafoti tafsiloti bayon etilgan.

Asardat quyidagi tarixiy ma’lumotlar o‘rin olgan. XVI asrning birinchi yarmi Shayboniy sultonlarning o‘z uluslarida hukmronligini to‘la o‘rnatish yo‘lida olib borgan kurashlari, masalan, Ko‘chki ichixon, Jonibek sulton, Do‘stmuhammad sulton va Kepak sultonlarning Farg‘ona ustiga yurishi, Toshkent hokimi Navro‘z Ahmad-Baroqxonning, Samarqand hokimi Abdullatif sulton bilan birgalikda Buxoro ustiga qilgan yurishi, Suyunchxojaxonning Toshkentga yurishi va Toshkentning qamal qilinishi, Suyunchxojaxon bilan Koshg‘ar xoni Sulton Saidxon o‘rtasida Toshkent uchun bo‘lgan kurash, yuqorida nomi tilga olingan Sulton Saidxonning Aksi, Andijon va Koson ustiga qilgan xuruji, Suyunchxojaxon, Ko‘chkinchixon va Ubaydullaxonning Koshg‘ar xoni Sulton Saidxon bilan olib borgan urushi va Sulton Saidxonning Koshg‘ardan qochib ketishi, Toshkent va Qarshi, Kosonda XVI asrning 40-yillarida bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘olonlari haqida ma’lumotlarni bu kitobda uchratamiz.

Kitobda ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida ham muhim ma’lumotlar mavjud. Unda Ko‘hak daryosining ba’zi yillari to‘lib-toshib oqishi, ayrim yillarda sathi pasayishi, yoki o‘zanining o‘zgarishi oqibatida qurg‘oqchilik sodir bo‘lishi va uning tevarak-atrofidagi qishloqlarga suv chiqmay qolib, aholining iqtisodiy qiyinchiliklar iskanjasida qolishi, qurg‘oqchilik yillari Movarounnahrning ayrim hududlarini chigirtka va qora quzg‘un bosib ketganligi, shuningbek, Shayboniylar davrida ham tarxonlik tizimi, bu tizim Amir Temur va Temuriylar davrida keng tarqalganligi haqida o‘ta muhim ma’lumotlarni uchratamiz.

«Jomi’ ul-maqomat»da biografik va geografik ma’lumotlar ham juda ko‘p uchraydi. Biografik ma’lumotlardan, xususan Maxdumi A’zam, uning xotinlari va farzandlari haqidagi ma’lumotlarni diqqat-e’tiborga sazovordir. Hazrat eshonning bolalari o‘z vaqtida Movarounnahr, Koshg‘ar va Badaxshonning XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ishlar qilganlar. Masalan, koshg‘arlik xotini Bibicha Koshg‘ariydan tug‘ilgan o‘g‘li xoja Is’hoq (vaf.1599-y.) Koshg‘ar xojalari Ofoqxoja va Qoraxojalarning ajdodi bo‘lgan. Asarda toshkentlik mashhur diniy arbob shayx Xovand Tohur (taxm.1350-yili vafot etgan)ning avlodlari xoja Muhammad Ali, Xoja Xurd, xoja Iso va xoja Tohir haqida ham e’tiborga molik ma’lumotlarni uchratamiz. Ba’zi ma’lumotlar orasida XVI asrda

yashab o'tgan yirik shoir va adabiyotshunos olim Podshohxoja va «Abdullanoma» asarining muallifi, Hofizi Tanish Buxoriyning otasi – mavlono Mir Muhammad haqida keltirilgan ma'lumotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan geografik ma'lumotlardan Toshkentning Parkent tumanidagi Issiq chashma, Miyonqoldagi Garmako'z, Toshkent-Aksi yo'lidagi Qizil qo'rg'on, Karmana tumanidagi Xushikiyon va Anuz qishloqlari, Samarqand bilan Toshkent oralig'idagi cho'lida joylashgan Yog'ochlik, Buxoro va Karmana oralig'idagi Jomrabit manzillari haqida keltirilgan ma'lumotlar o'ta muhimdir.

Farg'onanining sharqiy tarafida istiqomat qiluvchi qirg'iz qavmlari, ularning hayot tarzi va o'zaro munosabatlari haqidagi ma'lumotlar ham muhimdir.

«Jomi' ul-maqomat» nashr etilmagan, lekin uning qo'lyozma nusxalarini kutubxonalarda mavjud. O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida oltita qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda.

### **8.2.11. «Nasimat ul-quds min hadoyiq al-uns»**

«Nasimat ul-quds min hadoyiq al-uns» («Avliyolik shabadasining yaqinlik bog'idan esishi») nomli asar Naqshbandiya tariqatining Hindistondagi g'oyaviy rahbarlaridan bo'lgan Muhammad Hoshim Sirhindiy tomonidan 1622-yili yozilgan bo'lib, u Husayn Voiz al-Koshifiyning «Rashahot ayn ul-hayot» asarining davomi hisoblanadi. Kitob Mavarounnah, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonda XVI–XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan Naqshbandiya tariqati namoyandalari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan va 754 varaqdan iborat. Muallif o'z asarini Naqshbandiya tariqatining Hindistondagi yirik namoyandalaridan biri Muhammad Baqr Sirhindiy (1563/64–1603/04)ning topshirig'i bilan yozgan.

Asarda, ayniqsa biografik ma'lumotlar ko'p. Shulardan uchtasini keltiramiz. XVI asrda Koshg'arning ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchilik uchun kurashgan xoja Ubaydulla Ahrorning avlodni xoja Xovand Mahmud bilan Maxdumi A'zam Kosoniyning o'g'li xoja Is'hoq o'rtasidagi kurash, Koshg'arda islam dinining targ'ibotchilaridan biri bo'lmish xoja Tojiddin, xoja Muhammad Porsoning avlodni haqidagi ma'lumot diqqatga sazovor.

«Xoja Xovand Mahmud Shohibekxon (Shayboniyxon) o'ldirilganidan keyin Koshg'arga ketib qoldi. Sulton Sa'idxon<sup>1</sup> uni xursandchilik bilan kutib oldi, iltifotlar ko'rsatdi va unga Koshg'arda muridlar orttirishiga ko'maklashdi. Xoja Yusuf 1532-yilning 12-sentabrida olamdan o'tdi».

<sup>1</sup> Sulton Sa'idxon – Mo'g'uliston (Jete) xoni (1514–1532-yy.).

«Tarixi Rashidiy» kitobining muallifi Mirza Muhammad Haydar (1500–1551) yana bir qiziq ma'lumotni keltiradi: «Xoja Xovand Mahmud (haqiqiy ismi Shahobiddin Mahmud, xoja Ubaydulla Ahror nabirası) muridlar orttirish uchun Koshg'arga kelganda uning bilan xoja Yusuf oralarida raqobat boshlandi. Shunday bo'ldiki, bir kuni xoja Xovand Mahmudning oldiga borsam huzurlarida xoja Muhammad Is'hoq o'tirgan ekanlar. Ular nimalarnidir so'zlashib o'tirgan ekanlar. Xoja Xovand Mahmudning jahli chiqib dedi; «Xoja Is'hoq! Nima sababdan sen menga bunaqa gaplarni aytib o'tiribsan? Agar sen otangning muridi bo'lsang, men hazrati oliylari (xoja Ubaydulla Ahrorning muridiman. Bundan tashqari, sen yosh jihatdan menga o'g'il o'rnidasan. Xoja Is'hoq javob qildi: «Men ham ul janobning marhamatiga tayanaman». Tortishuv tugagach, o'sha kuniyoq xoja Xovand Mahmud Badaxshonga ketib qoldilar. Oradan ikki-uch kun o'tgach, kimdur menga xoja Is'hoqning to'saddan o'sallab, vafot etganini xabar qildi.

Maxdumi A'zam Kosoniyning o'g'li xoja Is'hoq haqida shunday ma'lumot bayon etilgan. Olijanob xoja (Samarqanddan) Koshg'ar va Xo'tanga jo'nab ketdilar. Koshg'ar va Xo'tan xalqi ul janobning sa'y-harakatlari tufayli chin dinni (islomni) qabul qildi. Koshg'ar hokimi Muhammadxon xojaning haqiqiy va sofdil muridi bo'lib qoldi. Xullas, mazkur xoja tufayli Naqshbandiya – Xojagon tariqati o'sha o'lkada yoyildi. So'ng o'rniqa muridi Devoni Ashtarni qo'yib, o'z yurtiga qaytdi va 1599–1600-yili vafot etdi. Dehbed yonidagi Safed qishlog'idagi qabristonga dafn etildi. Otasidan keyin u shu qishloqda istiqomat qilib turgan edi.

Xoja Muhammad Porsoning ulug' ajdodi xoja Tojiddin haqida quyidagicha ma'lumot bor. Xoja Tojuddin xoja Hofiziddin Buxoriyning<sup>1</sup> ajdodi, xoja Rashididdinning o'g'lidir. Xoja Rashididdinning otasi xoja Shujo' Chingizzon xuruji vaqtida Mo'g'ulistoniga ketib qolgan va xoja Rashididdin o'sha yerda tug'ilgan. Uning sa'y-harakatlari bilan mo'g'ullar islom diniga kirganlar. Xoja Tojiddin xoja Ubaydulla davrida Mavarounnahrga kelgan va mavlono Iroqiy Tusiyidan ta'llim olgan. Mavlono Iroqiy Tusiy janob xoja Ahrorning do'stlaridan bo'lgani tufayli, xoja Tojiddin hazrat eshonning (xoja Ubaydulla Ahror) qabul va suhbat sharafiga muyassar bo'lgan. U ko'p vaqt uning ostonasini o'pish sharafiga va xayr-ehsoniga muyassar bo'lgan. Shundan keyin Koshg'ar shaharlаридан Turfon hokimi uning kelishini yaxshilikka yo'yib, o'zi va bolalariga izzat-hurmat ko'rsatgan. Ulardan ba'zilari hozirgi kungacha o'sha mamlakatning ehsonlariga musharrasdurlar.

<sup>1</sup> Xoja Hofiziddin Buxoriy – Xoja Muhammad Porsoning haqiqiy nomi, 1419-yili vafot etgan.

## 8.2.12. «Matlab ut-tolibin»

«Matlab ut-tolibin» («Haqiqat izlovchilarning maqsadi») Tojiddinning o'g'li Abulabbos Muhammad Tolib tomonidan 1663/64-yili yozib tamomlangan. Unda mashhur Juyboriy xojalardan xoja Muhammad Islom, xoja Sa'd, xoja Tojiddin Hasan, xoja Abdurahim (1575–1629), Abdioxoja (1577–1607) va Muhammad Yusufxoja (1595–1652)larning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bayon etilgan.

«Matlab ut-tolibin» faqat biografik asar bo'lib qolmay, unda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid hamda Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasida munosabatlarga tegishli o'ta muhim ma'lumotlar mavjud. Shuning uchun ham undan V.L.Vyatkin va P.P.Ivanov Juyboriy xojalarning yer-suvi va mol-mulkini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri sifatida foydalanishgan.

Muhammad Tolib haqida quyidagilar ma'lum. Asarda uchragan ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, otasi 1608-yili vafot etganida u 39 yoshda bo'lgan. Shuni e'tiborga olinadigan bo'lsa, muallifning tug'ilgan yili 1569-yil bo'lib chiqadi. U xoja Tojiddin Hasanning ikkinchi o'g'li bo'lib, hamma vaqt otasi bilan birga Buxoroda istiqomat qilgan. 1623-yili otabola Balxga borganlar. Muhammad Tolibning ham xo'jaligi katta bo'lgan. Otasidan olgan ulushidan tashqari, 1632–1633-yillari befarzand xolasining yer-suvi va boshqa mulki ham unga berilgan. Mulk otasi tirikligida 400 ming tangaga baholangan.

«Matlab ut-tolibin» tarkibi an'anaga binoan muqaddima, xotima va sakkiz bobdan iborat.

Muqaddimada an'anaviy fotiha va hamd-u sanolardan keyin, mazkur asarni yozishda muallif o'z oldiga qo'ygan vazifalar haqida so'z yuritiladi va asar mundarijasi keltiriladi.

Asarning eng qimmatli ma'lumotlar mavjud qismi – uning IV–VIII boblaridir.

To'rtinchı bobda xoja Sa'dning karomatlari, mol-mulki va xizmatkorlari, XVI asrning 80-yillarida mavjud siyosiy vaziyat haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Aytishlaricha, xoja Sa'dning Buxoro, Miyonqol, Samarqand, Savron, Turkiston, Aksikat, Nasaf, Hisor, Termiz, Qubodiyon, Balx, Badaxshon, Hirot, Marv, Murg'ob, Mehna, Mashhad, Chorjo'y va Andxud viloyatlarida katta mol-mulki, yer-suvi, ko'p sonli mol-qo'ylari, do'konlari, hammomlari, sardobalari va qullari bo'lgan. Masalan, hazrat eshonning tilga olingan viloyatlarda 2000 just gov' ekin yeri, 2500 bosh qo'yisi, 1500 oti, 12 hammomi, 10ta sardobasi, ko'plab bozorlari, savdo do'konlari va ustaxonlari, 100 nafar quli va boshqa

boyliklari bo'lgan. Uning har bir viloyatda g'alla omborlari bo'lgan. Faqat Buxoroyi sharifning bir o'zida shunday omborlardan to'rttasi qurilgan bo'lib, ularning har birida 100 mann<sup>2</sup> g'alla saqlangan. Xoja Sa'dning yillik daromadi 60.000 tangaga barobar bo'lgan. Hazrat xojaning mol-mulkini ko'p sonli va turli lavozimdag'i sarkor, vakil, daftardor, sohibi xiroj, kerak yaroq, bakovul, qozi, dorug'a, mirishkor kabi mansabdorlar boshqarib turganlar.

To'rtinchi bobda keltirilgan siyosiy voqealar ichida Abdullaxon soniyning Andijon va Xorazm ustiga XVI asr 80-yillarda qilgan harbiy yurishlari, Abdullaxon bilan O'zbek sulton o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy qo'shinlarining Issiqko'l viloyati ustiga qilgan harbiy yurishi haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir.

Yana shu bobda bayon qilingan voqealar ichida Samarqand hokimi Shayboniyzoda Ibodulla Sulton, Abdullaxon soniyning inisining o'ldirilishi sabablari haqida aytilgan fikrlar zo'r ahamiyatga egadir. «Abdullanoma» muallifining so'zlariga qaraganda, Ibodulla sultonning o'limiga uning shariat qoidalarini buzganligi, ya'ni ramazonning birinchi kuni ro'za tutmay, ichkilik ichganligi sabab bo'lgan. Lekin, 1586-yili Buxoro va Samarqandda bo'lib o'tgan voqealarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, bu faqat bir bahona, sababi esa tamoman boshqacha bo'lgan. Masalan, «Matlab ut-tolibin»da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, XVI asrning 80-yillari boshida Shayboniy sultonlar, xususan Ibodulla sulton bilan Abdullaxon o'rtasida munosabatlar bir qadar buzilib qolgan. Bunga Abdullaxonning 1583-yili Andijon ustiga, Isfandiyor sultonga qarshi qo'shin tortgani sabab bo'lgan. Asarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, 1586-yilning 3 avgust kuni Toshkent hokimi Do'stim sulton, Andijon hokimi Isfandiyor sulton va Hisor hokimi O'zbekxon, va Samarqand hokimi Ibodulla sultonning elchilari Samarqandga to'planib kengash o'tkazganlar va gapni bir yerga qo'yib Abdullaxon soniya qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzganlar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Ibodulla sulton Abdullaxonning yo'qligidan foydalanib, Samarqand tevaragidagi tumanlarni bosdi va talon-taroj qildi.

«Matlab ut-tolibin» muallifi yana quyidagilarni yozadi; «(Ibodulla) sulton ramazon oyi boshlarida qattiq ichib mast bo'lgani sababdan Mirzo Abdurahim kechasi maxfiy ravishda uning xonasiga kirdi va xanjar zarbi

<sup>1</sup> Justi gov – bir just ho'kiz bilan haydab ekiladigan yer, taxminan sakkiz-to'qqiz gektarga teng bo'lgan.

<sup>2</sup> Mann – o'rta asrlarda bir mann 25,6 kilogrammga teng bo'lgan.

bilan uni o'ldirdi. O'sha kunlari hazrat eshon (xoja Sa'd) Hisori shodmonda edilar. Tun yarimlaganda din suyanchig'i bo'l mish amir ulumaro Qulbobo ko'kaltosh (hazrat eshonning huzuriga) kirib keldi va Ibodulla sultonning o'ldirilganligini aytdi. Bundan sal avval hazrat eshon onasini tushida ko'rgan va mulozimlariga «Yaqin orada Ibodulla sulton bu dunyoni tark etsa kerak», deb aytgan. Asarda keltirilgan bu ma'lumotlarni diqqat bilan tahlil qilinganda Ibodulla sulton Abdullaxonning odamlari tomonidan o'ldirilganligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Yana shu bobda Abdullaxonning 1583-yili Andijon ustiga, Isfandiyor sultonga qarshi, va sal keyinroq Xorazmga qo'shin tortgani haqida ma'lumotlar bor.

Asarning beshinchi bobi xoja Tojiddin Hasanning tug'ilgan kunidan to vafotigacha Movarounnahrda kechgan voqealar haqida hikoya qilinadi. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar orasida hokimiyatning Shayboniylardan Ashtarxoniyalar sulolasi qo'liga o'tish vaqtiga haqidagi ma'lumotlar qimmatlidir. Ma'lumki, ba'zi kitoblarda va xronologiyalarga oid asarlarda, masalan, S.Leynpul, E.Sambaur kitoblarida, bu voqeа hijriy 1006, melodiy 1598-yilda sodir bo'lgan deb qayd qilinadi. Lekin, keyinroq atroficha o'rganilgan «Bahr ul-asror», «Tarixi olamoroyi Abbosiy», «Silsilat us-salotin» asarlarida bu voqeа hijriy 1009, melodiy 1601-yili sodir bo'lgani ochiq aytildi. «Matlab ut-tolibin»da shu fikr aniq va ishonarli dalillar bilan e'tirof qilingan.

Yana shu bobda Abdullaxon soniy bilan uning o'g'li va taxt vorisi Abdulmo'min sulton o'rtasida boshlangan ziddiyat haqidagi ma'lumotlar tariximizning yaxshi yoritilmagan masalalariga aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan beshinchi bobda keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Bulardan biri — Juyboriy xojalarning mol-mulki yil sayin ortib borishidir. Masalan, xoja Sa'dning vorisi xoja Tojiddin Hasanning mol-mulkleri orasida yangilari, yangi qurilgan Hasanobod qishlog'i, 50 nafar chorborg<sup>1</sup>, 20 qator<sup>1</sup> tuya va boshqalar ham bo'lgan. Shuni ham aytish kerakki, xoja Tojiddin fiqh, hadis va tarixga oid qimmatli kitoblar yig'ishga ham e'tibor bergen. «Matlab ut-tolibin»da keltirilishicha, uning kutubxonasida 1000 jild qimmatli qo'lyozmalar saqlangan. Ularning ayrimlari bezakli, tilla suvi berib yozilgan kitoblar bo'lgan.

Ikkinchisi Abdullaxon bilan uning o'g'li va taxt vorisi, Balx hukmdori

<sup>1</sup> Bir qatorda taxminan 150 nafar tuya bo'lgan.

Abdulmo'min sulton o'rtasida XVI asrning 80-yillaridan boshlab kuchayib ketgan ziddiyatlar va Abdullaxonning vafoti xususidadir. «Matlab ut-tolibin»da quyidagilarni o'qiyamiz; «Abdullaxon mamlakatni 44 yil idora qildi. Otasi Iskandarxon tirikligi chog'ida 28 yil uning nomidan, otasi vafot etgandan keyin 18 yil mustaqil idora qildi. Saltanatning bir uchi Andijonda, bir uchi Xorazmda, uchinchi uchi Dashti qipchoqda, to'rtinchisi Xuroson va Seistonda bo'lgan. Aytishlaricha, Abdumo'minxon Muhammad Boqibiy bilan til biriktirib, otasining ovqatiga zahar qo'shtirib bergen va xon hijriy 1006-yili vafot etgan.

«Matlab ut-tolibin»ning oltinchi bobo Juyboriy xojalarning yana bir namoyandasini xoja Abdurahimning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan. Bu bobda yirik xo'jaliklarda qul mehnatidan foydalanish, yer egaligining tanxoh va suyurg'ol shakllari, kerak yaroq lavozimi va uning vazifalari, Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Kerak yaroqchi haqida bu asarda, masalan, bunday deyiladi: «Mulla Mirmuhammad xoja (Abdurahim)ning xizmatkorlari jumlasidan edi. Uning zimmasiga kerak yaroqchilik vazifasi yuklatilgandi. Uning zimmasiga xojaning xonadoni uchun kerak bo'lgan harir matolar va boshqa narsalarni topib keltirish majburiyati yuklatilgandi. Bir payt hisobchilar mulla Mirmuhammad kerak yaroqchini taftish qilganlarida unga xojaning sarkorligidan berilgan naqd puldan tashqari, uning savdogarlar va boshqa shaharlardan 90 ming xoniq qarz olganligi, lekin shu haqdagi tilxatlardan 1000 xoniq mablag' tilxatlarida xoja (Abdurahim) ning muhri yo'qligi aniqlandi. Shundan keyin xoja (Abdurahim) uni huzuriga chaqirib: «Nega aytilgan qarz haqida o'z vaqtida bizga ma'lum qilmadingiz va tilxatlarni bizga ko'rsatmadingiz?», deb so'raganda, mulla Mirmuhammad (xojaga) bunday javob qilgan: «Biz sizning sohibi himmatligingizga ishongan edik». Shundan keyin xoja mulla Hojibek devonbegi bilan mutavalliyini chaqirtirib, mulla Mirmuhammadning barcha qog'ozlarini yo'q qilib yuborishni buyurgan». Keltirilgan parchadan kerak yaroqchining vazifalari va huquqlari, ortiqcha izohsiz ham ko'rinish turibti.

Asarning so'nggi, yettinchi bobo Abdioxojaning hayoti, faoliyati va karomatlari bayoniga bag'ishlangan. Lekin, tadqiqotchi uchun o'ta zarur bo'lgan dalil va ma'lumotlar, masalan, Buxoro xonligining Abdullaxon soniy vafotidan, 1598-yildan keyingi ichki ahvoli, Juyboriy xojalarning, masalan, Abdioxojaning bundagi o'rni va vazifasi, Shayboniylar davlatining tuzilishi, xususan, devonbegi, miroxur, otaliq, shig'ovul, yasovul, naqib, qozi, bakovul, qurchi boshi, dodxoh, parvonachi, shayxulislom,

ko'kaltosh, kadxudoyi daha (dahaboshi), chiroqchi, munshiy va boshqa lavozimlar haqida, shuningdek, o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan saroy, qo'ng'irot, nayman, qatag'on, yuz, arg'in, kenagas va boshqa qabilalar va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Abdixojaning XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida Buxoro xonligining ichki ahvoli va uning mamlakatning siyosiy hayotida tutgan o'rni va mavqeい haqida asarda quyidagi ma'lumotlarni uchratamiz. So'nggi Shayboniy Pirmuhammad Soniy (1598–1601) davrida mamlakatning ichki ahvoli beqarorlikka yuz tutdi. Shu payt Abdixoja Buxoroni tark etib Samarqandga bordi. Uning hokimi Ashtarkoni Boqi Muhammadning omadi yurishib, toj-taxtni egallaguday bo'lsa, ikkalari davlatni birgalashib boshqarishga ahd qildilar. «Matlab ut-tolibin»da Boqi Muhammadxonning mana bu so'zлari keltiriladi: «Agar biz Buxoro bilan Balxni egallahsha muyassar bo'lsak, unda mamlakatni Siz, men va Vali Muhammad o'rtasida uchga taqsimlaymiz...». Ertasi kuni ertalab, nonushta paytida Abdixoja Boqi Muhammadxonga murojaat qildi: «Tabriklaymiz, ulug' ajdodlarimiz Sizga poytaxt shahar Buxoroni in'om qiladilar». Boqi Muhammadxon (ichiga sig'may) suyunib ketdi va singlisini Abdixojaga xotinlikka berdi. Abdixoja hammasi bo'lib Buxoroda bir yilga yaqin istiqomat qildi. Shundan keyin Abdixojaning nufuzi ortti. Muhammad Tolib bu haqda mana bularni yozadi: «Hazrat xojaning ulug'ligi va kuch-qudrati shu darajaga borib yetdiki, jinoyat sodir etgan kishi uning huzuriga qochib borib, uning xizmatiga kirgudek bo'lsa, u jazoga tortilmagan. Xojaning ta'siri barcha viloyatlarda shu qadar kuchli ediki, biron zot uning so'zini qaytarmas edi. Kayfiyati yo'q paytlarda Boqi Muhammadxonni ham mensimas edi. Agar xon biror shaxsni ostonasidan quvib yuborguday bo'lsa, xoja uni o'z himoyasiga olar edi. Xoja tez-tez xonga o'zgalar oldida tanbeh berar edi. Odamlar va harbiylar faqat xojaga yordam so'rab murojaat qilar edilar. Xullasi kalom, yirik mansabdorlar, aslzodalar va sipohiylar guruh-guruh bo'lib hazrat xojaning panohiga qochib o'ta boshladilar. Ba'zi sipohiylar xojaga: «Siz bizning pushti panohimizsiz. Biz Sizni podshoh etib saflamoqchimiz», deb murojaat qila boshladilar».

«Matlab ut-tolibin» chop etilmagan. Uning qo'lyozma nusxalari ko'pgina kutubxonalarda mavjud. O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida uning nusxalari saqlanmoqda.\*

\* Ushbu mavzuni yozishda B. Ahmedov asaridan qisman foydalanildi.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Agiografiya so'zning ma'nosini aytib bering.
2. Dindorlar hayotiga oid qanday adabiyotlarni bilasiz?
3. Diniy adabiyotlarning tarix fanini o'r ganishdagi ahamiyatini nimada?

## **9-MAVZU. MEMUAR ASARLAR**

**Darsning mazmuni:** talabalarga memuar asarlar to'g'risida tushuncha berish va ularning tarix fanini o'r ganishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish.

### **Reja:**

- 9.1. Memuar asarlar xususiyati.
- 9.2. Memuar asarlar tavsifi.

**Asosiy tushunchalar:** memuar, xotira, taassurot.

### **9.1. Memuar asarlar xususiyati**

Memuar asarlar deb, mualliflarning shaxsiy xotiralari asosida yozilgan kitoblarga aytildi. Ularda aksariyat hollarda muallif o'zi shaxsan ko'rgan, ishtirok etgan yoki zamondoshlaridan o'zi eshitgan voqealarni bayon etadi. Bu asarlarda aksariyat hollarda voqea-hodisalar to'g'ri yoritiladi. Ba'zan muallifning shaxsiy kelib chiqishiga qarab voqealar turlicha talqin qilinishi mumkin.

Memuar asardagi voqea-hodisalar bayonini boshqa yozma manbalar bilan solishtirib, so'ngra xulosa chiqarish zarur.

Bunday asarlarda ba'zi hollarda voqea-hodisalarni g'arazli bayon etish hollari ham uchraydi.

Umuman tarixiy voqea-hodisalarni chuqur va atroflicha o'r ganish uchun memuar asarlardan ham tanqidiy foydalanish mumkin.

### **9.2. Memuar asarlar tavsisi**

#### **9.2.1. «Mujmali Fasihiy»**

«Mujmali Fasihiy» («Fasihiyning (tarixlar) majmuasi») XV asrning ko'zga ko'rigan tarixchilaridan Fasih Ahmad Xavofiyning asaridir. Muallifning to'liq ismi Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad bo'lib, u 1375-yili Hirotda yirik mansabdor oilasida tug'ilgan, 1405–1424-yillarida Alouddin Ali tarxon va Shohruh devonida xizmat qilgan. U 1440–1441-yillari Shohruhning suyukli va nufuzli xotini Gavharshod

beginning amri bilan qamoqqa tushib qoldi. 1441-yil 2-noyabrda ozod qilingandan so'ng faqat ilm bilan mashg'ul bo'lgan va 1442-yili o'zining yirik-tarixiy biografik asari bo'l mish «Mujmali Fasihiy» asarini yozib tamomlagan va Shohruhg'a taqdim etgan. Tarixchining vafot etgan yili ma'lum emas.

Fasih Ahmad Xavofsiyning mazkur asari ko'pgina tarixiy, adabiy, biografik, geografik asarlar, masalan, al-Mas'udiy, ibn al-Asir, ibn Halliqon, Nisoviy, Juvayniy, Rashididdin, Faxriddin Banokatiy, Vassof, Hofizi Abru, Robi'a Fushanjiy, Ibn Yamin Faryumadiy, Salmon Sovajiy va boshqalarning asarlari asosida, shuningdek, muallifning kuzatish va taftishlari natijasida to'plagan boy daliliy ma'lumot asosida yozilgan.

Asarda Odam Atodan to muallif zamonigacha Eron va Movaro-unnahrda bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar, mashhur olimlar, shoirlar, adiblar va boshqa taniqli kishilarning tarjimai holi, shuningdek, yirik suv inshootlari hamda diqqatga sazovor binolar, masjid, madrasa, sardoba, karvonsaroy, hammom va boshqalarning qurilishi haqida qisqacha, lekin benihoyat qimmatli daliliy ma'lumotlar keltirilgan. Voqealar yilma-yil, xronologik tartibda berilgan. Bu hol asardan foydalinishni birmuncha osonlashtiradi.

«Mujmali Fasihiy» so'zboshi-debocha, kirish-muqaddima, xotima va ikki qism — maqoladan iborat.

Debochada tarix fanining xusiyati va uni o'rghanishning ahamiyati haqida gap boradi, asarning nomi va mundarijasi keltiriladi.

Muqaddimada dunyoning yaratilishidan to Muhammad payg'ambarning tug'ilishigacha bo'lgan davr ichida kechgan voqealar haqida ma'lumot beriladi.

Birinchi maqolada Muhammad payg'ambarning tug'ilishidan to uning Makkadan Madinaga hijrat qilishi, 622-yiligacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ikkinci maqolada juda katta davr 622-yildan to 1442-yilgacha musulmon olamida yuz bergan voqealar bayon etiladi.

Xotima maxsus Hirot shahariga bag'ishlangan.

Ushbu asarni shartli ravishda umumiy tarixga oid deyish mumkin bo'lsa-da, lekin ilm uchun qimmatli qismi muallif xotiralari asosida yaratilgani uchun uni B.Ahmedov tomonidan memuar asar atalishini to'g'ri deb hisoblaymiz.

Fasih Ahmad Xavofsiy va uning mazkur asari XIX asr o'rtalaridan beri ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda va mashhur sharqshunos olimlarning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan.

«Mujmali Fasihiy»ning matni 1961–1963-yillari Eronda Mahmud Farrux tomonidan, ikkinchi maqolaning ruscha tarjimasi D.Yusupova tomonidan Toshkentda 1980-yili chop etilgan.

## 9.2.2. «Badoyi’ ul-vaqoyi’»

«Badoyi’ ul-vaqoyi’» («Nodir voqealar») nomli asar muallifi XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida o’tgan taniqli adib va olim Zayniddin Vosify yoki Zayniddin Mahmud ibn Abduljamildir. U 1485-yili Hirotda tug‘ilgan. Otasi o‘ziga tinch va ma’lumotli kishi bo‘lib, Sulton Husayn mirzo saroyida kichik lavozimlardan birida munshiy yoki voqeana vis bo‘lgan.

Zayniddin Vosify yaxshi o‘qidi, ilohiyot, tarix, adabiyot va boshqa ilmlarni puxta egalladi. 16 yoshida qarindoshi va Hirotding tariqli zotlaridan biri bo‘lgan amir Sohibdoroning yordami orqasida Alisher Navoiyning diqqat-e’tiborini qozonishga muyassar bo‘ldi. U 1500–1502-yillari hirotlik nufuzli amir Shohvali ko‘kaltoshning xonadonida muallimlik qildi, 1502–1507-yillari Sulton Husayn mirzoning o‘g‘illaridan Faridun Husaynning kutubxonasida kitobdor mansabida ishladi. 1507–1511-yillari Vosify Shohruh mirzo madrasasida Xurosonda ko‘zga ko‘ringan ilohiyot olimi Imodiddin Ibrohimdan ta’lim oldi.

Zayniddin Vosify 1511-yili Xurosonda Safaviylar hukmronligi o‘rnatalishi va sunniy mazhabidagi musulmonlarni ta’qib etish kuchayganligi tufayli 1512-yilning 17 aprelida bir guruh ruhoniylar sayyid Shamsiddin Kurti, amir Husayn va boshqalar bilan birga Movarounnahrga keldi va umrining oxirigacha shu mamlakatda istiqomat qildi. U Movarounnahr va Turkistonning ko‘pgina shaharlari Samarqand, Buxoro, Yassi, Sabron, Shohruhiya, Toshkent va boshqalarida istiqomat qildi va mudarris, imom, tarbiyachi, masalan, Suyunchxojanining kenja o‘g‘li Navruz Ahmadxonning tarbiyachisi bo‘lib xizmat qildi, Shohruhiyada bo‘lgan yillari esa Keldi Muhammadxon hukumatida qozi askar lavozimida turdi. Vosify 1551-yili Toshkentda vafot etdi va muqaddas manzilgohlardan shayx Xovand Tohur mozoriga dafn qilindi.

Zayniddin Vosify o‘zining «Badoyi’ ul-vaqoyi’» nomli tarixiy-memuar asari bilan shuhrat qozondi. Asarda 1512–1532-yillar orasida muallifning Xuroson va Movarounnahrda ko‘rgan-kechirganlari, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat zo‘r mahorat va yuksak san‘at bilan bayon etiladi. «Badoyi’ ul-vaqoyi’»da Movarounnahrning XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlar ko‘p. Asar 1538–1539-yillari yozib tamomlangan.

«Badoyi’ ul-vaqoyi’», asosan ikki qismidan iborat. Uning birinchi qismi

II bob bo'lib, unda Vosifiyning Hirotdan 1512-yili qochib kelishidan to uning Shohruhiyaga, Keldi Muhammadxon saroyiga 1518-yili kelguniga qadar Xuroson va Turkistonda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Ikkinci qismda Vosifiyning mazkur xon saroyida tez-tez bo'lib turadigan adabiy yig'inlar haqidagi esdaliklari joy olgan.

«Badoyi' ul-vaqoyi'»ning qo'lyozma nusxalari keng tarqalgan. Birgina O'zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida ushbu asarning o'ndan ortiq nusxasi saqlanmoqda. Asarning tanqidiy matni Sankt-Peterburglik olim A.N.Boldirev tomonidan 1961-yili ikki jild qilib chop etilgan. U Xorazmda 1826 va 1907-yillarda Dilovarxoja va Muhammad Amin to'ra tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ayrim parchalar rus tilida A.N.Boldirev va V.P.Yudin tarafidan e'lon qilingan. «Badoyi' ul-vaqoyi'»ning ayrim qismlari N.Norqulov tomonidan tarjima qilinib, 1979-yili nashr etilgan.

### **9.2.3. «Mir'ot ul-mamolik»**

«Mir'ot ul-mamolik» («Mamlakatlar ko'zgusi») XVI asrda o'tgan turk admirali Seydi Ali Reis asaridir. Muallifning to'liq ismi Seydi Ali Husayn o'g'li, she'rlarini Kotibiy Rumiy taxallusi bilan yozgan.

Seydi Ali Reis keng ma'lumotli dengizchi bo'lib, sultonning Mag'rib dengizi, O'rta Yer dengizida olib borgan barcha urushlarida, Xayruddin posho va Sinon posho rahbarligida ishtirok etgan. Ota-bobolari G'alatiyadagi dorussaloxiyi omira, qurol-yarog' omboriga boshchilik qilganlar.

Uning xavf-xatarlar bilan to'la sarguzashtlari 1554-yilning fevral oyida Suriyaning Basra shahridan boshlanadi. Turli sarguzashtlarni boshdan kechirib, dengizchi o'z hamrohlari bilan Hindiston, Badaxshon, Movarounnahr, Xorazm, Dashti qipchoq, Xuroson va Iroqi Ajam (G'arbiy Eron)da bo'lgan. U o'z yurtiga 1556-yilda qaytib borguncha o'sha mamlakatlarda ko'rgan-bilganlarini bir kitobga jamlab, uni «Mir'ot ul-mamolik» deb atadi.

Asarda muallifning ko'rgan-kechirganlari, o'zi bo'lgan mamlakatlarning XVI asr o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli va xalqi haqida qimmatli ma'lumotlani uchratamiz.

Masalan, Seydi Ali Reis o'sha paytlarda Movarounnahrni egallab turgan Navro'z Ahmad Baroqxon va Shayboniyalar bilan Turkiya o'rtasidagi munosabatlar haqida mana bu ma'lumotlarni keltiradi: «Samarqandi behishti monandga dohil bo'ldik. Bu yerda Navro'z Ahmadxon, ya'ni Baroqxon bilan ko'rshib, unga keltirgan faqirona tortig'imizni taqdim etdik. Xon bu faqirga bitta ot, bosh-oyoq sarupo marhamat qildi. Bundan avval saodatli podsho (Sulton Muhammad Fotih) shayx Abdullatif va

Dodosh elchi orqali Baroqxonga bir miqdor miltiq otuvchilar va bir qancha qal'a to'plari yuborgan edi. Elchilar kelgan paytda Samarcand podshosi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga o'tirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa sayyid Burxon sulton o'z nomlariga xutba o'qitganlar. Baroqxon shu ikki xonga qarshi biror chora ko'rishga qodir bo'lmasa-da, keyinroq ularning o'zaro nizolaridan foydalangan. Avval Samarcandni olgach, keyin Shahrisabzga borib u yerda ham ko'p urishgan. Bu urushda rumlik(turk)larning bir qancha boshliqlari o'lgan. Nihoyat, Shahrisabz uning qo'liga o'tgan. Yana u yerdan Buxoroga borib shaharni bir necha vaqt qamal qilgan. Buxoro xoni sayyid Burxon Baroqxonga bardosh berolmay, Qorako'lni Balx xoni Pirmuhammadga bergan. Pirmuhammadxon o'z inilarini yuborib, Qorako'lni qo'lga kirgizgan. Oxiri sayyid Burxon dosh berolmay, Baroqxondan omonlik tilab, o'rtada sulh tuzilgan. Baroqxon Buxoroni yana sayyid Burxonga topshirib, o'zi Qorako'l ustiga yurgan. Pirmuhammadxonning inilari Baroqxondan omonlik tilab, Qorako'lni unga topshirganlar. Baroqxon uni ham sayyid Burxonga qaytarib, o'zi Samarcandga qaytgan... Baroqxonning yonida atigi 150 ga yaqin rumlik nayzaboz qolgan. Qolganlari uning o'g'illari yonida qolgan». («Mir'ot ul-mamolik», 101–102-betlar).

Seydi Ali Reisning Qazvinda Eron podshosi shoh Tahmosib (1524–1576-yy.) bilan uchrashuvi haqida keltirgan ma'lumotlar o'sha yillari Turkiya Shayboniyalar davlati va Eron o'rtasidagi munosabatlarini tushunishda juda muhimdir. Asarda xususan mana bularni o'qiymiz: «Shoh (Shoh Tahmosib) ning elchisi Sobit og'a Tabriz yo'li orqali podshoh hazratlari (Sulton Sulaymon soniy qonuniy, 1520–1566-yy.) huzuriga bizdan oldin jo'nab ketgan edi, shoh (shu sababdan) bir necha oygacha bizga ketishga ruxsat bermay, bir necha marta chaqirib, ko'p suhbatlashdi. Bir kun suhbat vaqtida «Rum diyori Baroqxonga yordam berish uchun 300 ta yanichar<sup>1</sup> yuborilgan ekan», – dedi. Men ular Baroqxonga yordam berish uchun emas, balki shayx Abdullatif hazratlarini qo'riqlab Rumga olib ketish uchun yuborilgan edi, chunki Ashtarkon (Astraxan) yo'lida xoja Ahmad Yassaviyning avlodlari Bobo shayxni cherkas shahid qilgani sababli, bu yo'llar yolg'iz yurishga xatarli hisoblanib qolgan edi. Agar yordam uchun yuborilganda, faqat 300 tagina emas, balki bir necha ming askar yuborilar edi», – deb javob berdim» («Mir'ot ul-mamolik», 122-bet).

<sup>1</sup> Yanichar – eni (yangi) cherik, aslzodalar va harbiylarning bolalarini yig'ib maxsus o'tgatilgan sipohiy.

«Mir'ot ul-mamolik»da admiral va uning sheriklari bosib o'tgan mamlakat va shaharlar, ularning osori atiqalari haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

«Mir'ot ul-mamolik» matnini Ahmad Javdod toshbosma usuli bilan 1895-yili Istanbulda chop etgan. Uni G.Vamberi ingliz tiliga tarjima qilib, 1899-yili Londonda chop etgan. Asar Sh.Zunnunov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1963-yili Toshkentda nashr etilgan\*.

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Memuar so'zining ma'nosini aytib bering.
  2. Qanday memuar adabiyotlarni bilasiz?
  3. Memuar adabiyotlarning tarix fanini o'r ganishdagi ahamiyati nimada?
- 

## 10-MAVZU. SAYYOHLAR VA ELCHILARNING ESDALIKLARI

**Darsning mazmuni:** talabalarga yurtimizda bo'lgan elchi va sayyoohlarning esdaliklar to'g'risida umumiy ma'lumot berish, ularning tarixni o'r ganishdagi ilmiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

### Reja:

- 10.1. Sayyoh va elchilarning esdaliklarining xususiyatlari.
- 10.2. Sayyoh va elchilarning esdaliklari tavsifi.

**Asosiy tushunchalar:** Sayyoh, elchi, xotira, kundalik, rasmiy qabul.

### 10.1. Sayyoohlар va elchilarning esdaliklarining umumiyligi xususiyatlari

Arab, Xitoy va Rossiya elchilari va sayyoohlarning esdaliklarida ham tariximizni chuqur va atroficha o'r ganish uchun zarur daliliy ma'lumotlar ko'p. Shu bois esdaliklar ham muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Shuni e'tiborga olib, ulardan ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tishga qaror qildik.

Markaziy Osiyo Rossiya va uning sarmoyador guruhlarini har jihatdan; harbiy strategik, ya'ni uning Hindiston va Xitoyga yaqinligi, zaminning boyligi va xalqining soddadil va mehnatsevarligi bilan ko'p vaqlardan beri

---

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asari asosida yozilgan.

qiziqtirib kelgan. Markaziy Osiyo bilan qiziqish, uni Rossiyaning mustamlakasiga aylantirish yo‘lidagi harakat podshoh Mixail Fyodorovich (1613–1645-yy.) davridan boshlandi va ikki yuz qirq besh yildan keyin, 1865-yili Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklarini bo‘ysundirish bilan yakunlandi.

Rossiya hukumati o‘zining bu siyosatini amalga oshirish uchun Markaziy Osiyonini yaxshi bilgan, keng ma’lumotli diplomatlari va harbiylaridan foydalangan. Ular og‘izda savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun, aslida esa mamlakatdagi harbiy-siyosiy vaziyatni o‘rganish, Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklarining qo‘shti davlatlar: Hindiston, Eron, Turkiya va Xitoy bilan qanday munosabatda ekanligini aniqlash va Markaziy Osiyo shaharlariga olib boridigan yaqin va qulay yo‘llarni belgilash uchun yuborildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada 1620-yildan to rus armiyasining Markaziy Osiyoga bostirib kirishigacha kechgan 200 yil mobaynida mamlakatimizga Rossiyadan kelib ketgan ba’zi elchiliklar va harbiy mutaxassislarining faoliyati ixcham tarzda yoritildi.

## 10.2. Sayyoh va elchilarining esdaliklari tavsisi

### 10.2.1. «Risola»

“Risola” nomli asarni X asrning birinchi yarmida yashab o’tgan arab sayyohi va jug‘rofiv fanlar bilimdoni olim va yozuvchi Ahmad ibn Fadlan yozgan. Ibn Fadlanni 921–922-yillari Bulg‘or, ya’ni Volga bo‘yi podshohining iltimosiga binoan, bulg‘orlar orasida islamni mustahkamlash, bulg‘or podshohligini qo‘shti xazar xoqonlarining hujumidan himoya qilish uchun qal‘alar bino qilishda yordam berish uchun xalifa Muqtadir (908–932-y.) Bag‘doddan yuborilgan elchi bilan uning kotibi vazifasida Bulg‘orga yubordi. Bag‘dod elchilarini Bulg‘orga Hamadon, Ray, Domg‘on, Nishopur, Marv, Poykand, Buxoro, Xorazm, Ustyurt, Yoyiq (Urol) orqali bordilar.

Ibn Fadlan ana shu sayohat vaqtida ko‘rgan va eshitganlari haqida “Risola” deb ataluvchi bir kitob yozib qoldirgan. Asar etnografik ma’lumotlarga boy, unda turli xalqlar, ularning turish-turmushi, mashg‘ulotlari xususida qimmatli ma’lumotlar bor.

Ibn Fadlanning ushbu asari XII–XIII asrlardan buyon jamoatchilikning diqqat-e’tiborini tortgan, tarixchi olimlar undan birinchi manba sifatida foydalanganlar. “Risola”ning aslidan ayrim parchalar Yoqut Hamaviyning “Mo‘jam ul-buldon” asarida saqlanib qolgan. 1923-yili uning qisqartirilgan tahriri qo‘lyozmasi Mashhad kutubxonalarining birida topilib, asarni yaqindan, bevosita o‘rganishga yo‘l ochildi.

Ibn Fadlan “Risola”cining arabcha matni 1823-yili Peterburgda, Yoqut Hamaviy asarida saqlangan parchalar asosida va 1959-yili Damashqda nashr qilingan. Asar rus tilida (tarjimon A.P.Kovalevskiy) 1939-yilda nashr qilingan.

### **10.2.2. «Risolat ul-avval»**

“Risolat ul-avval” (“Birinchi risola”) nomli kitob muallifi Abu Dulaf X asrda yashab o’tgan adib, sayyoh va geograf olimdir. Uning to’la Mas’ar ibn Muhalhil al-Hazrajiy al-Yanbuiydir. Madinaning mashhur hazraj qabilasiga mansub bo’lib, asli Qizil dengizning port shahri Yanbulikdir.

Abu Dulaf X asr boshlarida Buxoroga kelgan va shoir sifatida Nasr II ibn Ahmad Somoni (taxm. 914–943) xizmatiga qabul qilingan. 942-yili Buxorodan qaytayotgan Xitoy elchilariga hamroh bo’lib, Sharqi Turkiston orqali Xitoy poytاختига борган, у yerdan Hindistonga o’tgan. Muallif Buxorodan Xitoy va Hindistonga qilgan safari vaqtida ko’рган-бильгандарга haqida “Risolat ul-avval” asarini yozgan.

Olimning Ozarbayjon, Armaniston va Eronning shaharlari va osori atiqalari haqida “Risolat ul-uxro” (“Ikkinchi risola”) asari ham Eronda o’sha vaqtda yozilgan. Ulardan ayrim parchalar Yoqut Hamaviy hamda Zakariya ibn Muhammad Qazviniy asarları ichida saqlangan. Bu parchalar nemischa tarjimasi bilan birga F.Vyustenfeld (1942) hamda K.Shlyotser (1844) tomonidan chop etildi.

Abu Dulaf va uning asarları mashhur sharqshunos olimlar diqqat-e’tiborini qozongan. “Risolat ul-uxro” rus tiliga tarjima qilingan (1860).

### **10.2.3. Marko Polo xotiralari**

Yevropalik sayyoh Marko Polo (1254–1324)ning 1271–1275-yillari Mo’g’uliston va Xonbaliq (Xitoy)ga sayohat qilgan. U 17 yil davomida Xitoyning ko’p viloyatlarini borib ko’rgan. U Samarqandda ham bo’lgan va bu haqda mana bu ma’lumotlarni qoldirgan: «Samarqand katta, mashhur shahar. Unda sarasinlar bilan xristianlar ham istiqomat qiladilar». Marko Poloning kitobida Oltin O’rda va Chig’atoy ulusiga qarashli shaharlar, ularning xalqi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Uning asari 1298-yili yozilgan va bir qancha Yevropa tillariga tarjima qilingan. Asarning ruscha nashri 1955 va 1990-yillari amalga oshirilgan.

### **10.2.4. Iogann Shiltbergerning Yevropa, Osiyo va Afrika bo’ylab qilgan sayohati**

Bavariyalik ritsar, qurchi Iogann Shiltberger Amir Temur davriga oid o’z esdaliklarini yozib qoldirgan. U, asli nemis jangchisi bo’lib, 1396-yilning

15 sentabridagi turklar va yevropaliklar umumiyligi qo'shini o'tasidagi jangda asir olingen va keyinchalik qariyb 8-yil Boyazid I ning xizmatida bo'lgan.

1402-yilgi Anqara yonida bo'lgan urushda Iogann Shiltberger Amir Temur tarafidan asir olindi va Samarqandga olib ketildi. Amir Temur vafotidan (1405) keyin u dastlab Shohruh, so'ngra Mironshoh va uning o'g'li Abubakr mirzo xizmatida bo'ldi. Shundan boshlab uning Osiyo va Afrika mamlakatlari bo'ylab jahongashtaligi boshlandi. Iogann Shiltberger qariyb 31 yil mobaynida qilgan «sayohat»i paytida ko'rgan-bilganlarini esdalik sifatida yozib qoldirgan. Unda juda ko'p noaniqliklar, ayrim voqealarni bo'rttirib yoki kamsitib yozishlar bor. Shunga qaramay, Iogann Shiltbergerning kundaliklarida qimmatli tarixiy ma'lumotlar, muhim dalillarni uchratamiz. Bir-ikkita misol:

1) Temuriylar, xususan ularning Ozarbayjondagi noiblari, masalan Abubakr Mirzo Oltin O'rda hukmdorlarining o'zaro kurashlariga aralashib turganlar.

2) XV asrning boshida Oltin O'rda hukmdorlarining ichki ahvoli va bunda qudratli amir Edigey (Idiku O'zbek)ning nomi ko'rsatib o'tiladi.

3) Ozarbayjon, Dashti qipchoq va uning xalqi haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, Ozarbayjon haqida bunday ma'lumotlar bor: Tabriz Eronning bosh shaharlardan. Uning savdodan oladigan foydasi tamom bir xristian davlati topadigan foydadan ortiq. «Sultoniya, Ray, Marog'a, Axlat, G'ilon ham ushbu mamlakatning yirik shaharlardan... Rayning xalqi boshqalardan shu bilan farq qiladiki, u Muhammadga emas, balki Aliga imon keltiradi. Ularni rofiziylar<sup>1</sup> deb ataydilar». Dashti qipchoq va uning xalqi haqida Iogann Shiltbergerning «Esdaliklari» da mana bunday gaplar bor: «Men, shuningdek, Buyuk Tataristonda<sup>2</sup> ham bo'ldim. Xalqi don ekinlardan faqat tariq ekadi. Ular, umuman non va vino istimol qilmaydilar. Vino o'rniga ot va tuyaning sutini ichadilar, shu va boshqa hayvonlarning go'shitini yeydilar. ...Yana shuni ham aytish kerakki, xon saylashda uni oq kigizga o'tqizib, uch marta ko'tarib yerga qo'yadilar, so'ng chodir atrofida aylantirib, keyin ichkariga olib kiradilar va taxtga o'tqazadilar».

Umuman, bu kitob Sharqiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron, Movarounnahr, Dashti qipchoq, Iraq, Suriya va Misr mamlakatlari tarixi va xalqi haqida ayrim, diqqatga sazovor ma'lumotlar beradi. Iogann Shiltbergerning mazkur asari «Iogann Shiltbergerning Yevropa, Osiyo

<sup>1</sup> Rosiziylar — g'ayridinlar. Sunna mazhabidagi musulmonlar shialarni shu nom bilan ataganlar.

<sup>2</sup> Buyuk Tatariston — yevropaliklar Dashti qipchoq (Irtish daryosining boshlanishidan Dnepr daryosigacha bo'lgan yerlar)ni XI asrдан boshlab shunday ataganlar.

va Afrika bo'ylab qilgan sayohati (1394–1427-yy.)» deb ataladi va uning rus tilida (nemischa nashri 1859-yili amalga oshirilgan) uchta yaxshi nashri bor. Birinchisi Odessa Universitetining professori F.K.Braun tarafidan 1867-yili, ikkinchisi Ozarbayjon Fanlar akademiyasi akademigi Z.M.Bunyodov tarafidan 1984-yili va uchinchisi 1997-yili Toshkentda amalga oshirilgan.

### **10.2.5. «Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaliklari»**

Lui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaliklari» (1403–1406) asarida XV asr boshidagi Movarunnahrning ichki ahvoli, uning obod shahar va qishloqlari, xususan Shahrisabz va poytaxt shahar Samarqand haqida, Amir Temur saroyidagi udumlar, Sohibqironning xotinlari va ularning jamiyatda tutgan o'rni haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

Klavixoning hikoyasida Amir Temur Shahrisabzda qurdirgan mahobatli va go'zal Oqsaroy kishining ko'z oldida namoyon bo'ladi. Lekin, Klavixo bo'lgan paytda, saroy qurilishi hali oxiriga yetkazilmagan edi. Shuning uchun uning asl mohiyatini, ne maqsadda qurdirilganligini birdan anglash qiyin bo'ladi. Jumboqni taxminan 90 yil o'tgach Zahiriddin Muhammad Bobur yechib bergen. Uning so'zlariga qaraganda hazrat sohibqiron Keshni boshda poytaxt qilmoqchi bo'lgani uchun Oqsaroyni ham podshohning ahl-u oilasi bilan, turar joyi hamda davlat muassasalari joylashgan rasmiy qarorgoh sifatida qurdirgan. «Boburnoma»da, masalan, mana bunday deyilgan: «Temurbekning zodu budi Keshdin (bo'lg'oni) uchun shahar va poytaxt qilurg'a ko'p sa'y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshda bino qildi. O'zining devon o'ltirur uchun bir ulug' peshtoq va uning yonida va so'l yonida tavochi beklar o'lturub devon so'rар uchun, ikki kichik peshtoq qilibdur. Yana savrun eli o'ltirur uchun bu devonxonaning har zilida kichik-kichik toqchalar qilibdur. Muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar. Derlarkim, Xusrov toqidin bu biyiroqdu».

Klavixo Amir Temurning otasi va xotinlari haqida ham o'ta qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Masalan, amir Tarag'ay Bahodir haqida bunday deydi: «Temurbekning otasi olijanob odam bo'lgan, chig'atoy urug'idan. Maishati o'rtacha bo'lgan. Uch-to'rt yigit bo'lib, Shahrisabzdan ko'p ham olis bo'lmagan qishloqlarning birida yashagan».

Hazrat sohibqironning xotinlari qabul marosimlari va podshohning majlislarida erkaklar bilan bir qatorda ishtiroy etganlar. Klavixo Amir Temurning xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarni qabul qilish maro-

simlaridan biri haqida hikoya qilar ekan, unda hazrat sohibqironning xotinlari Saroy mulk xonim (Kano), kichik xotini Cho'lpon Malik va katta kelini Xonzoda begimlar hozir bo'lib, Amir Temurning yonida o'tirganlar.

Amir Temur o'z davrida qonun ustuvorligini, u hamma uchun barobar ekanligini ta'minlagan davlat arbobi edi. U yetti yillik (1399–1404) harbiy yurishdan qaytib kelgach, bozor maydonida mansabini suiiste'mol qilgan bir vazirni, molini ortiq narxda sotgan bir necha kosibni hammaning oldida tergab-tekshirib jazoga buyurgani ma'lum. Bu voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan Klavixo bu haqda quyidagilarni hikoya qiladi: «Podshoh birinchi bo'lib, o'zining mashhur vazirlaridan birini jazoga tortdi. Temurbek yetti yillik yurishga ketayotib uni davlat tepasiga qo'yib ketgan edi. Temurbek yo'q paytida o'sha vazir, aytishlaricha, o'z mansabini suiiste'mol qilgan... Temurbek ba'zi do'kondorlarni, go'shtni qimmat bahoda sotgan qassobni, molini ortiq bahoda sotgan maxsido'zlarni, etikdo'zlarni ham jazoga buyurgan».

Klavixoning «Kundaliklar»ida, umuman Amir Temur sultanati, xususan Samarqand osori atiqalari va bozorlari, u yerga ko'p mamlakatlardan olib kelingan mollar haqida ham o'ta qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Klavixoning asari bir necha bor ispan tilida nashr etilgan, bir necha yevropa tillarida, ikki marta rus tilida, oxirgi marta 1990-yili I.S. Mirokova tarjimasida chop etilgan. 1881-yilgi K.I. Sreznevskiy tarjimasi asosida kitobni Ochil Tog'ayev o'zbek tiliga tarjima qilgan. Eng muhim qismlarini I.S. Mirokova tarjimasidan O. Bo'riyev tarjima qilib chop etdi.

### 10.2.6. I.D.Xoxlov elchiligi hujjatlari

Ivan Danilovich Xoxlov XVII asrda o'tgan iste'dodli rus diplomatidir. Uning hayoti va faoliyatini o'rgangan yirik rus sharqshunos olimi N.I. Veselovskiy (1848–1918) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra<sup>1</sup>, I.D.Xoxlov asli qozonlik bo'lib, aslzoda (boyarin) oilasida dunyoga kelgan. Uning haqidagi dastlabki ma'lumot XVI asrning 90-yillariga tegishli. I.D.Xoxlov o'sha vaqtida og'asi Vasiliy bilan birga, davlat xizmatida bo'lgan va Qozondagi o'qchilar qismiga bosh bo'lib turgan. 1600-yili yurtiga qaytib ketayotgan Eron elchisi Pirqulibekni Qozondan Saratovgacha (shaharga 1590-yili asos solingan) kuzatib qo'yan.

1620–1622-yillari u podshohning farmoni bilan Markaziy Osiyoda, Buxoro va Xiva xonliklarida bo'ldi. 1622-yil 12 dekabr kuni Rossiyaga

<sup>1</sup> Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов (русский посланник в Персии и Бухаре в XVII веке)/ЖМНП, ч. 273. – М.: 1891. – С. 48–72.

qaytgandan keyin I.D.Xoxlov birmuncha vaqt Moskvada istiqomat qildi, 1623-yilning boshlarida unga Qozonga qaytishiga ijozat berildi hamda voyevoda Odoyevskiyning xizmatida bo'ldi. Uni 1624-yilning 8 dekabrida yana Moskvaga chaqirib oldilar va Buxoro va Xiva xonliklari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish haqida topshiriq oldi.

I.D.Xoxlovnning hayotiga oid so'nggi ma'lumot 1629-yilga tegishli. O'sha yili Eron elchisi Muhammad Silibek va Eronning savdo karvonini Qozondan Moskvagacha va Moskvadan Qozongacha kuzatib qo'ygan.

I.D.Xoxlovdan ikki muhim hujjat; podshohning maxsus topshirig'i (nakaz) va I.D.Xoxlovnning Buxoro va Xiva xonliklarining ahvoli haqida podshohoga yozgan axboroti (Статейный список) qolgan.

Birinchi hujjatda elchilik zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida so'z boradi. Uning vazifasi, eng avvalo, har ikki xonlik hukmdorlarini Rossiya bilan do'stlashish, savdo va bordi-keldi aloqalarini o'rnatishga ko'ndirish, xonlarni Rossiya qudratli davlat ekanligi va uning boshqa nufuzli mamlakatlar bilan yaxshi munosabatda ekanligiga ishontirish, xonliklardagi rus asirlarini ozod qilish, har ikkala xonlik o'rtasidagi mavjud munosabatlар, xonliklarning Eron, Turkiya va Gruziya bilan munosabatlari qanday ekanligini aniqlash, tabiiy boyliklari va harbiy qudratini aniqlashdan iborat bo'lgan.

I.D.Xoxlovnning Elchilar mahkamasi (Посольский приказ)ga yozgan axboroti (Статейный список)ga qaraganda, u o'ziga yuklatilgan vazifaning katta qismini bajargan.

Masalan, Imomqulixon o'z ixtiyoridagi 23 rus asirini ozod qilgan. Boy-badavlat kishilar, amirlar va savdogarlar qo'lidagi asirlar xususida Imomqulixon elchiga «ularni qidirishga hozircha fursat yo'q, xizmatkor (Toshkent hokimi Tursunxon) isyonini bostirgandan keyin imperator janobi oliylarining bu iltimosini bajaramiz va topganlarimizni o'zimiz yuboramiz», deb va'da bergen.

Buxoro va Xiva xonliklarining ichki ahvoli haqida ham I.D.Xoxlov muhim ma'lumotlar to'plagan. Uning ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, mamlakat o'zaro urushlar iskanjasida qolgan. Balx, Toshkent va Samarcand ustida turgan noiblar markaziy hukumatga bo'ysunishdan bosh tortib, o'zlarini mustaqil tutayotganliklari natijasida Buxoro hukumati kuchsizlanib qolgan.

I.D.Xoxlovnning guvohlik berishicha, Xiva xonligi bilan Eron o'rtasidagi munosabatlар ham o'sha paytlarda yaxshi bo'lmagan. U, masalan, yozadi: «Urganchliklar shoh Abbos bilan yaxshi munosabatda emaslar. (Xorazmda turgan) xonzoda Ilbars qizilboshlarga qarashli Obivardga hujum qilgan, obivardliklarning otlari va tuyalarini tortib olgan. Shuningdek, 100 odamini asir qilib haydab ketgan...»

## **10.2.7. Aka-uka Pazuxinlar elchiligi to‘g‘risida manbalar**

Aka-uka Pazuxinlar Markaziy Osiyo xonliklarining umumiylahvoli, xonliklarga, Eron va Hindistonga Astraxan orqali olib boradigan karvon yo‘li haqida keng ma’lumot jamlaganlar.

Aka-uka Pazuxinlar kelib chiqishi aslzoda (dvoryan) avlod. Katta Pazuxin – Boris Andreevich Pazuxin 1667–1673-yillarda stolnik mansabida davlat xizmatida bo‘lgan va inisi Semyon Ivanovich bilan birgalikda 1669–1671-yillarda Buxoro, Balx va Urganchga yuborilgan Rossiya elchiligiga boshchilik qilgan. Oradan sakkiz yil o‘tgach, 1679-yili Qrimga elchi qilib yuborilgan. Yo‘lda isyonchi rus kazaklarining hujumiga duchor bo‘lgan va olishuv paytida o‘ldirilgan.

Aka-uka Pazuxinlar (elchilik tarkibida 10 kishi bo‘lgan) Buxoroga Yoyiq-qalmoq ulusi va Xiva orqali borganlar, qaytishda esa Eron-Shemaxa va Boku orqali qaytishgan.

Elchilar Buxoro va Xivada hammasi bo‘lib ikki yarim yil turganlar.

Podshoh va elchilik mahkamasi tarafidan berilgan hujjalardan ma’lum bo‘lishicha, aka-uka Pazuxinlar elchiligi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan;

1) Har ikki davlat: Rossiya va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi do‘stlik va savdo aloqalarini mustahkamlash. Podshoh Aleksey Maxaylovich (1645–1676)ning Buxoro xoni Abdulazizzon (1645–1680) nomiga yo‘llagan maktubida o‘qiymiz: «...Biz ota-bobolarimizning (ishlarini) o‘zaro do‘stlik va izzat-hurmatda bo‘lish, bordi-keldi aloqalarini davom ettirish haqidagi ko‘rsatmalarini esda tutib, Sizning savdogarlarингizга bizning mamlakatimizga, bizning savdogarlarimiz Sizning mamlakatingizga bemalol borib kelishlarini yaxshilaylik».

2) Buxoro, Balx va Xiva xonliklarida saqlanib turgan rus asirlarini ozod qilishga harakat qilish. Elchilik mahkamasi (Посольский приказ) bergen yo‘riqnomada bunday deyiladi: «Buxoro, Balx va Urganchga qarashli yerlarda saqlanayotgan rus asirlari (barcha choralar bilan) ozod qilinsin. Shuni ham aytish kerakki, elchilikka «Podshoh oliy hazratlariga tegishli kishilarni, aslzoda (dvoryan va boyar)larning bolalarini qidirib topib ozod qilishga» alohida e’tibor berish topshirildi.

3) O‘rta Osiyo xonliklarining ichki va xalqaro ahvolini, ulardan qaysilariga suyanish mumkinligini aniqlash. Xususan, Elchilik mahkamasining yo‘riqnomasida (Nakazida) mana bunday gaplar bor: «(Xonliklardan) qaysinisi kuchliroq va ishonchliroq bo‘lsa, o‘shanisi bilan aloqa o‘rnatish lozim. Boris va uning hamrohlari Buxoro, Balx va Urganchda bo‘lganlarida ularning xonlari hozirgi paytda Turkiya sultonni, Eron shohlari va Gruziya bilan qanday munosabatda ekanligini, kimlar

bilan aloqasi yo‘qligini, shu kunlarda Xorazm taxtida kim o‘tirganini har qanday yo‘l bilan aniqlasınlar; Buxoro, Balx va Urganch xonlarining xazinası boymı, askari kuchlimi, shularni ham aniqlasınlar».

Moskva hukumati aka-uka Pazuxinlarga ham Buxorodan Hindistonga olib boradigan qulay yo‘lni aniqlash vazifasini yuklagan edi. Ular bu vazifani bajarish uchun tarjimonlar Nikita Medvedev va Semyon Izmaylovlarni Balxga jo‘natdilar. Ulardan faqat Nikita Medvedev Pazuxinlar huzuriga qaytib keldi va Balxdan Hindiston poytaxti Shohjahonobodga olib boradigan yo‘l haqida ma’lumot keltirdi. U bunday deb yozgan: «Hindistonga olib boradigan yo‘l Balxdan aholi yashab turgan qishloqlar oraqali o‘tadi. Yo‘lda hech qanday odobsizlik, talontaroj va boj olish degan narsalar yo‘q». Tarjimon Shohjahonobodga yo‘l Xinjon, Parvon, Kobul, Peshovar orqali o‘tishini aytgan. Yana u yozgan: «Xinjon bilan Parvon oralig‘ida Hind tog‘lari (Hindikush) yotadi. To‘g‘ri yo‘ldan, tog‘ orqali borilganda masofa olti kunlik, tog‘ni aylanib borilganda – to‘rt haftalik yo‘l». Ikkinchi tarjimon Semyon Izmaylov Kobulda qolgan edi.

Aka-uka Pazuxinlar O‘rta Osiyo xonliklaridagi mavjud harbiy-siyosiy ahvol haqida ham muhim ma’lumotlarni to‘plaganlar.

Axborotnomada o‘zbek xonlari saroyida amalda bo‘lgan qabul marosimlari haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Unda, xususan, bunday deyiladi: «(Ark) darvozasi oldida Boris va uning hamrohlari Malaybek (to‘pchiboshi) kutib oldi. Boris va uning hamrohlari (to‘pchiboshi olib kelgan) otlarga mindilar. Podshoh qasriga yetganda ularni otdan tushirdilar, chunki podshoh qasriga otliq kirish man’ etilgan. Borisning o‘ng tarasiga Buxoroning atoqli zotlari, xon avlodidan bo‘lgan shahzoda va xonning yaqin mulozimlari, chap tarasda, katta amir (boyarin) xonning yaqin mulozimlari va boshqa lavozimdagি mansabdorlar, (umuman) 100 dan ortiq kishi joy oldilar... Abdulazizxonning o‘ng tarafidan xojalar, ruhoniylar va ulamolar o‘rin oldilar. Xonning oldiga uning qilichi, o‘q-yoyi va qalqoni qo‘yilgan edi. Uning orqasida 12 nafar nayza va qilich ko‘targan uy xizmatkorlari turgan edi. Xonning old tarafida 200dan ortiq yasovul (va qo‘riqchilar) tik turar edilar...»

### **10.2.8. V.A. Daudov va Muhammad Yusuf elchiligi to‘g‘risida manbalar**

Vasiliy Aleksandrovich Daudov asli fors (eronlik) bo‘lib, 1653-yili Qozonda xristianlikni qabul qilgan, Rossiya davlatining xizmatiga kirgan ham stolnik va voyevoda lavozimida xizmat qilgan<sup>1</sup>. Muhammad Yusuf esa asli musulmon (tatar). U ham ruslarning xizmatida bo‘lgan.

<sup>1</sup> Автобиография В.А.Даудова/Русский архив, год 27, 1889. Кн.2. С.5–20.

Avvalo shuni alohida aytib o'tish kerakki, har ikkala elchi—V.A.Daudov va M.Yu.Qosimov Buxorogacha birga borishgan bo'lsalar-da, elchilar mahkamasidan alohida-alohida topshiriq olganga o'xshaydilar, chunki V.A.Daudov va M.Yu.Qosimovga berilgan yo'riqnoma (nakaz) bizgacha yetib kelmagan. U 1800-yilgacha Rossiya tashqi ishlar mahkamasining arxivida saqlanar edi. 1806-yili o'tkazilgan tekshirish paytida u turgan joyidan topilmagan. Shu sababdan V.A.Daudov va M.Yu.Qosimov qanday vazifalarni ado etganliklarini aniq bilmaymiz. Buni V.A.Daudovning elchilik mahkamasidan olgan yo'riqnomasi (nakaz)dan taxminan bilib olish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva hukumati bilan diplomatik aloqalarini rivojlantirishga xohishi bormi-yo'qmi, shuni aniqlash;
  2. Xonliklarda yashab turgan rus asirlarini ozod qilish;
  3. Ikki davlat, Rossiya, Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi savdo va elchilik karvonlarining xavfsizligini ta'minlash uchun Kaspiy dengizining kun chiqish tarafida, dengiz sohilidagi Saratosh tepaligida kemalar to'xtaydigan bandargoh qurishga Xiva xonining roziliginini olish;
  4. Amudaryoning boshi va o'zani, daryo sohilida istiqomat qilib turgan xalqlar, ularning mashg'uloti va turmush tarzi haqida ma'lumot to'plash;
  5. Buxorodan Hindistonga olib boradigan yo'llar, Hindiston hukumatining Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalarini o'rnatishga xohishi bor-yo'qligini M.Yu.Qosimovga berilgan topshiriqda aniqlash.
- Elchilik Buxoro va Xivada, yo'lga ketgan vaqt ni qo'shib olganda, Buxoroda 1675-yilning 15-mayidan—1676-yil 2-oktabrigacha bo'lgan.
- M.Yu.Qosimov elchiliga kelsak, unga Buxorodan Hindistonga olib boradigan yo'llar va Hindiston podshosi Avrangzeb (1658—1707)ning Rossiya bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga mayli bormi-yo'qmi ekanligini aniqlab kelish topshirilgan edi. Shuning uchun ham, u Buxoroga kelganidan ko'p vaqt o'tmay, Hindistonga jo'nab ketdi. M.Yu.Qosimov faqat Kobulgacha bordi. «Shoh (Avrangzeb) ulug' podshoh bilan do'stona aloqalar o'rnatishni istamaganini» uchun orqaga qaytishga majbur bo'ldi va 1677-yili Moskvaga qaytib keldi.

### **10.2.9. Florio Benevini elchiligi to'g'risida manbalar**

Sharqqa katta harbiy kuch yuborish va uni quroq vositasi bilan egallash harakati Pyotr I (1682—1725) davridan boshlab kuchayib ketdi. Pyotr I Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyni mukammal qurollangan 5000 askar bilan Xivaga, uni Rossiya homiyligiga kiritish xususida xon bilan muzokaralar olib borish uchun yubordi. Aslida bu shunchaki elchilik

emas, balki xonni chalg'itib, Xiva xonligini kuch bilan bo'ysundirishga qaratilgan harakat edi. Lekin Pyotr I maqsadiga erisha olmadi. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sherg'ozixon (1715–1728-yy.) Rossiya podshosining asl niyatini o'z vaqtida payqadi va A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini daf qildi.

Shundan keyin Rossiya Xiva va Buxoro xonliklarini bo'ysundirish payti kelmaganligini, uni osonlikcha bo'ysundirish mumkin emasligini, ularni hali ko'p o'rghanish zarurligini anglatdi.

Rossiya elchilik mahkamasining mas'ul xodimi Florio Benevini elchiligi shunday maqsad bilan O'rta Osiyoga yuborildi. Shuni ham aytish kerakki, Buxoro va Xivada A.Bekovich-Cherkasskiy voqeasidan keyin Pyotr I O'rta Osiyoga katta qo'shin yuboradi, degan xavf-xatar tug'ilgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Abulfayzxon 1717-yili Rossiyaga elchi yuborib, u bilan do'stona va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildirdi.

Florio Benevini uchun tuzilgan va 1718-yil 13 iyul kuni Pyotr I tarafidan tasdiqlangan qo'llanmada elchiga quyidagi topshiriqlar berilgan:

1) Florio Benevini Buxoro xoni huzuriga podsho hazratlarining elchisi sifatida boradi. Shu haqda uning qo'liga podsho hazratlarining Buxoro xoni nomiga yozilgan maktubi topshirildi. Elchi Peterburgdan Moskvaga qaytib borishi hamono Astraxanga jo'nab ketadi. Astraxandan Buxorogacha Abulfayzxonning uni Astraxanda kutib turgan elchisi bilan birga boradi.

2) Florio Benevini Abulfayzxonning elchisiga yo'lida o'zini tanitmaydi. Yo'lida, ayniqsa Buxoro xonligi hududlaridan o'tayotganda, hamma yerlarni, xususan bandargohlar, qal'alar va shaharlarni diqqat bilan ko'zdan kechirib boradi.

3) Xon bilan uchrashganda uni Eron va boshqa davlatlarning elchilarini qatorida zo'r hurmat va ehtirom bilan qabul qilinishiga erishsin. Podsho hazrati oliylari u bilan do'stlik va savdo-sotiq aloqalarini ilgaridan ham ziyoda bo'lishini istayotganini xonga ma'lum qilsin.

4) Buxoroda bo'lganida, qanday bo'lmasin, Buxoro xonligi qal'alari, qo'shini, otliq va piyoda askarlarining umumiyligi soni, ularning qurollaslahalari va qancha zambaragi borligini, qo'shinidagi umumiyligi ahvoli, qal'alarning qo'riqlanishini bilib olsin.

5) Abulfayzxonning Eron shohi va Xiva xonlari bilan munosabati qaydarajada ekanligini aniqlasın. Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklif etilsin.

6) Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqariladi va ular qayerlarga olib borib sotiladi? Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo'l bilan borish mumkin? Buxoroda qaysi rus tovarlariga ehtiyoj katta? Rossiya bilan

savdo-sotiqni kuchaytirish mumkinmi? Mana shu masalalarni aniqlasın.

7) Amudaryoda oltin bormi? Buxoro xonini qo'riqlash uchun necha yuz gvardiyachi, yoki qo'shin yuborilsa, xon bunga rozi bo'ladi? Shuni ham aniqlasın.

Har ikkila elchilik, Buxoro xonining Rossiyadan vataniga qaytib kelayotgan elchisi va Florio Benevini 1721-yil 6 noyabrdan Buxoroga yetib oldilar. Florio Benevini va uning hamrohlarini Buxoroga 10 verst<sup>1</sup> qolganda yo'l ustida Buxoro to'pchiboshisi boshliq 50 kishidan iborat saroy mulozimlari kutib oldilar.

Rossiya elchiligi Buxoroda uch yarim yil, 1721-yil 6 noyabridan to 1725-yil 8 apreli gacha turdi va podshoning yuqoridagi topshiriqlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

F.Benevini to'plagan ma'lumotlar Rossiya hukumati, uning tashqi siyosati uchun kelajakda qo'l kelib qoldi.

## 10.2.10. Mitropolit Xrisanfning esdaliklari

Xrisanf asli grek, venetsiyalik aslzoda dvoryanlardan, Afina yaqinida joylashgan Yangi Pator cherkovining mitropoliti bo'lib xizmat qilgan. Haqiqiy ismi sharifi Kontaripi. 1724-yili muqaddas patriarch Samuyel tomonidan Istanbul atrofida joylashgan Xiroti nisan cherkoviga mitropolit etib tayinlangan. Podshoning tazyiqi oqibatida 1784-yili Istanbulga ketib qoldi. Ko'p vaqt o'tmay, Xrisanf Livon ordeniga qarashli cherkovlar bilan tanishish maqsadida Shom-Suriyaga, u yerdan Xalab-Aleppoga bordi. O'sha yerda ingliz savdogarlari bilan tanishib qoladi va ular bilan birga Frot-Evfrat daryosi bilan Fors qo'ltig'iga bordi va u yerda kemaga tushib, Maskat orqali Hindistonning Surat bandargohiga kelib tushdi. So'ng Hindiston, Kashmir, Kobul, Balx va Samarqand orqali Buxoroga bordi. Xrisanf O'rta Osiyoning bir qancha shaharlarda bo'ldi, bir yil Xivada turdi.

So'ng 1792-yili Ashtarkonga bordi va bir fursat o'sha yerda istiqomat qildi. Keng ma'lumotli va kuzatuvchan bu odam tez orada Astraxanda ko'plarning diqqatini o'ziga tortdi. Ashtarkon yepiskopi uning haqida Muqaddas Sinodga axborot yuboradi. So'ng Xrisanf Moskvaga chaqirtiriladi. Muqaddas Sinod uni har taraflama tekshirib ko'rib va keng ma'lumotli odam ekanligiga ishonch hosil qilgandan keyin, Xrisanfni Kavkaz o'lkasiga, uni batafsil o'rganish uchun yubordi.

So'ng, 1796-yilning boshida, Ryazan, Tambov va Kavkaz o'lkalaringin general-gubernatori graf Gudvich podshoyi oliy hazratlarining amri bilan

<sup>1</sup> Verst — masofa o'lchovi, 1,6 km.ga teng bo'lgan.

Xrisanfni Peterburgga, Nevskiy monastriga mitropolit Gavrill huzuriga jo'natib yuboradi.

Mitropolit Xrisanfning birdan poytaxtga chaqirilishi, uni yaxshi bilgan sharqshunos V.V.Grigorevning fikricha, Rossiyaning yaqin orada Eronga bostirib kirish rejalari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Rus harbiy ekspeditsiyasining rahbari Valeriyan Zubovga sayyohning Eron va O'rta Osiyo haqidagi keng bilimi kerak bo'lib qolgan. Oradan bir yil o'tgach, 1797-yili Xrisanf muqaddas Sinodning farmoni bilan Yekatrinoslav yeparxiyasiga xizmatga jo'natildi. 1798-yilning 20 yanvarida Mitropolit Xrisanf Feodossiyaga jo'nab ketdi. Uning keyingi hayoti va faoliyati haqida boshqa ma'lumotga ega emasmiz.

Mitropolit Xrisanfning O'rta Osiyoga qilgan sayohati kundaligi bir paytlar rus harbiy ekspeditsiyasiga boshchilik qilgan graf Valeriyan Zubov qo'lida bo'lgan. Kundalik, ba'zi shahar va viloyatlar o'tasidagi masofa, aholisining umumiy soni haqidagi noaniqliklarni hisobga olmaganda, katta qimmatga ega. Unda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, xalqining turmush sharoiti, e'tiqodi haqida, shuningdek, O'rta Osiyoda istiqomat qilib turgan rus va eronlik asirlarning ahvoli haqidagi qisqa, lekin o'ta muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

### **10.2.11. Filipp Nazarovning esdaliklari**

Filipp Nazarovning hayotiga oid ma'lumotlar juda kam, 1789-yili Omsk shahrida Osiyo bilim yurtini tugatib, 1804-yili Tobolsk guberniyasidagi Irtish chizig'idagi Charlakovsk chegara postiga tarjimon bo'lib xizmatga kirgan. Undan keyin xizmat yuzasidan boshqa chegara punktlariga ham borib ishlagan. Qo'qonga jo'nab ketishi (1813) oldidan «Alovida Sibir polki»da tarjimon bo'lib xizmat qilgan.

1813-yili G'arbiy Sibir general-gubernatori Glazemanning maxsus topshirig'i bilan Peterburgdan yurtiga qaytishda yo'lida, Petropavlovsk (Shimoliy Qozog'iston)da o'ldirilgan Qo'qon xonining elchisi bilan bog'liq janjalni tinchitish uchun Qo'qonga yuborildi. Shu bilan birga uning xotira yozuvlaridan ma'lum bo'lishicha, unga Qo'qonga Sibir orqali olib boriladigan yo'llar, yo'l ustidagi shahar va qishloqlar, xonlikning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, uning mudofaa salohiyatini kuzatish ham yuklatilgan.

Filipp Nazarov Qo'qonga sibirlik rus savdogarlari karvoniga qo'shilib, 1813-yil 16-may kuni jo'nab ketdi. Karvon Qozog'iston cho'llari va Janubiy Qozog'istondagi Suzoq va Chimkent orqali Toshkentga, undan 1813-yil oktabr oyi boshlarida Qo'qonga kirib bordi. U Qo'qonda bir yil atrofida turdi va 1814-yilning avgust oyida, Qo'qon xoni Umarxon (1810–

1822)ning elchisi bilan birga Petropavlovsk shahriga qaytib ketdi.

Filipp Nazarov bir yil mobaynida xonlik poytaxti Qo'qondan tashqari, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Yangiqo'rg'on va Xo'jand shaharlarida bo'ldi va bu shaharlar, ularning xalqi hamda mashg'uloti haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

Filipp Nazarovning esdaliklari «Филипп Назаров: Записки о некоторых народах и землях Средней Азии» nomi bilan ikki marta 1821 va 1968-yillari nashr etilgan.

Rossiya harbiylari O'rta Osiyo xonliklarini g'arb tarafdan, Astraxan, Kaspiy va Orol dengizi orqali ham taftish qildilar. N.N.Muravyov (1819–1926), G.I.Danilevskiy (1842–1843) va A.N.Butakov (1848–1849) ekspeditsiyalari shunday maqsadlarga xizmat qilgan.

## **10.2.12. Nikolay Muravyevning Turkmaniston bilan Xivaga sayohati**

Nikolay Muravyev (1794–1866) – mahalliy harbiy mutaxassis, 1812–1814-yillari Rossianing Eron va Turkiyaga qarshi olib borgan urushlarida ishtirok etgan, 1816–1828-yillari Kavkaz armiyasida xizmat qilgan. 1819–1820-yillari rus armiyasining Kavkazdagagi bosh qo'mondoni general Yermolovning topshirig'i bilan Boku – Kaspiy dengizi – Chelekan oroli – Qoraqum orqali Xivaga borgan.

N. Muravyev kuzatuvchan odam edi. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan asarida («Путешествие в Туркмению и Хиву гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьёва». Ч.1–11; –М., 1822) Xiva xonligi haqida muhim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik ma'lumotlar to'plagan.

Asarda Xiva xonligining hududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashg'uloti va mudofaa salohiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi.

N. Muravyovning esdaliklarida o'zbeklarning fe'l-atvori, tabiatи va qiyofasi haqida e'tiborga loyiq ma'lumotlar keltirilgan. Unda, xususan o'qiyimiz: «О'zbeklar, umuman aqlli va yoqimli, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qat'iy, to'g'ri so'z, yolg'oni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismonan kuchli xalq...»

Harb ishlarida horib-charchamaydilar, qo'rmas va jasur kishilardir...»

## **10.2.13. Dmitriy Gladishev va Ivan Muravinlar. Xiva xotiralari**

Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va qishloqlar, Orol dengizini

o'rganish uchun 1740-yili davlat arbobi va tarixchi olim V.N.Tatishchevning tashabbusi bilan Xivaga poruchik D.Gladishev va kontr-admiral, yer o'Ichovchi I.Muravinlar yuborilgan.

Orskda olgan ko'rsatmaga binoan, ular 1717-yili Pyotr I zamonida Rossiya tobelligiga o'tgan Kichik Juz xoni Abulkayrxon (1695–1748) bilan uchrashishi zarur edi. Lekin, bu paytda Abulkayr Orolدا edi. Mamlakatni esa Eron podshohi Nodirshoh bosib olgan edi. Shuning uchun Gladishev bilan Muravin Abulkayrxonning inisi Nurali va tog'asi Niyoz bilan birga Orolga jo'nab ketdilar va xon huzuriga yetib bordilar. Ertasi kuni Xivaga bordilar. O'sha vaqtda Abulkayr xon deb e'lon qilingan edi. Gladishev bilan Muravin Shovotda 9 noyabr kuni Nodirshoh huzurida bo'lganlar va unga Abulkayrxon bilan Xiva Rossianing tabaqalari ekanligini aytib, Xivaga mehr-u shafqat qilinishini so'raganlar. Zobitlarning so'zlariga qaraganda, ularning iltimosi ijobat topgan. Lekin, ular Abulkayrxon bilan uchrasha olmaganlar. Shunday bo'lsa-da, Abulkayr shohdan cho'chib 12 noyabrda rus zobitlari bilan birga Orolga qochib ketdi. Bu yerda ko'p tortishuvlardan keyin Nurali xon deb e'lon qilindi. Abulkayr Gladishev bilan Muravinni olib, Odam ato arig'i bo'yida joylashgan eski o'r dasiga qaytdi. Gladishev va Muravin 1741-yilning aprel oyida u yerdan Orskka qaytib keldilar. Ularning mazkur sayohati paytida to'plagan ma'lumotlari «Гладышев – Муравин. Поездки из Орска в Хиву и обратно 1740–1741 годах поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным, ИРГО. Вып.IV. –СПб., 1850. С.519–599» deb atalgan.

Gladishev va Muravin to'plagan ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ularda Orol dengizining sohillari, Xorazmning Xiva, Shohtemir, Xo'jayli, Xonqa va Shovot shaharlari haqida, shuningdek, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkman aholisi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Rossiya uchun Orol dengizining iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyati katta edi. Shuning uchun ham Orol flotiliyasining boshlig'i kontr-admiral A.I.Butakov (1816–1869) ga 1848-yili Orol dengizini o'rganish va uni tavsiflash vazifasi yuklatildi.

A.I.Butakovning kuzatishlari uning «Kundaliklar»ida (to'la nomi «Дневные записки плавания по Аральскому морю в 1848–1849 г.г.», подготовка к печати Э.К.Бетгера. –Ташкент, 1953) bayon etilgan. Uning yozishchicha, «Orol dengizi tinch dengizlardan bo'lmay, ayniqsa shamol turgan paytida panoh topish qiyin». «Uning G'arbiy sohilini suratga tushirishni Qumsuat qo'Itig'idan boshladik. Qumsuatdan boshlab menga dengiz chuqurlasha boshlaganday tuyuldi...» Butakov o'shanda Orol dengizini va uni bandargoh qurish mumkin bo'lgan yerlarini

qarichma-qarich o'lchab chiqdi. Umuman, kontr-admiral Butkovning kuzatishlari, Rossiya hukumatiga kelajakda dengizda harbiy va savdo floti qurish mumkinligini ko'rsatdi. Bu reja podsho Rossiyasiga Sirdaryo va Amudaryoda ham kemalar qatnovini yo'lga qo'yishga va bu bilan Koshg'ar va Hindistonga suv yo'lini ochib berish imkonini berar edi.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

- 1. Elchi va sayyoohlarning asosiy maqsadi nima?*
  - 2. Elchi va sayyoohlarning esdaliklarida qanday masalalar yoritiladi?*
  - 3. Elchi va sayyoohlarning tarixni o'r ganishdagi ilmiy ahamiyati nimada?*
- 

## **11-MAVZU. MANBASHUNOSLIK TARIXI VA MUAMMOLARI**

**Darsning mazmuni:** Ushbu darsda manbashunoslik fanining paydo bo'lishi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlari, yurtimiz manbashunoslari faoliyati hamda zamonaviy muammolari yoritiladi.

### **Reja:**

1. Manbashunoslik fanining paydo bo'lishi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbekistondagi manbashunoslik fani tarixi.
3. Zamonaviy manbashunoslik muammolari.
4. Manbashunoslikka oid adabiyotlar tahlili.
5. O'zbek xalqining shakllanishiga oid manbalar.

**Asosiy tushunchalar:** voqeа, hodisa, tarixchi, voqealar bayoni, talqin, afsonaviy bayon, o'rta asr, yangi zamon, germenevtika, zamon, tamoyil, sharh, nashr, tabdil.

### **11.1. Manbashunoslik fanining paydo bo'lishi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlari**

Mutaxassislar tarixiy manbashunuslikni maxsus fan sohasi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan deb hisoblaydilar. Ayni shu davrdan boshlab o'quv yurtlarida ushbu fan o'qitila boshlanadi hamda tarixchi olimlar tomonidan o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratiladi. Tarixiy tadqiqotlarda manbalarga oid maxsus qismlar paydo bo'ladi. Ammo zamonaviy tarixiy manbashunoslik ildizlari juda qadim zamonlarda

paydo bo'gan edi. Manbashunuslik fan sohasi sifatida o'z tarixiga ega bo'lib, unda nazariy va amaliy masalalar hamda manbashunoslikni o'qitish masalalari o'rganiladi.

Manbashunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi uchun tarix ilmi taraqqiy etishi va tarixchilarining manbalar ustida ishlashi, tajribalarini umumlashtirishi zarur edi. Qadimgi zamondagi tarixchilari voqeasi, hodisalarini qissa, afsona, rivoyat sifatida bayon etar edilar. Bunga misol sifatida Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", payg'ambarlar to'g'risidagi ko'plab qissa va rivoyatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ilk o'rta asr tarixchilari (V–VIII asrlar) barcha yozma matn yoki og'zaki xabarlarni manba sifatida qabul qilganlar. Misol tariqasida Abu Jafar Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Unda tarixchi turli shaxslar va manbalardagi ma'lumotlarni tanqidiy tahlilsiz aynan keltirganini ko'ramiz.

O'rta asr tarixchisi o'zi guvohi bo'limgan voqeasi va hodisalarini boshqalar ma'lumotlariga asoslanob qabul qilish yoki rad etishi mumkin bo'lgan. Lekin biz aksariyat tarixiy asarlarda muallif avvalgi tarixchilar asarlaridagi ma'lumotlarni aynan bayon etishini kuzatamiz. Lekin ba'zi tarixchilar, xususan Abu Rayhon Beruniy boshqa shaxslar ma'lumotiga tanqidiy munosabatda bo'lganini uning "Osol ul-boqiya" asaridan ko'rshimiz mumkin. Bu davr tarixchilari o'zi guvohi bo'limgan voqealarni bayon etishda boshqalar fikriga tayanishga, ular asarlardagi ma'lumotlarni o'z asarlarida aynan qaytarishga majbur bo'lganlar. Lekin muarrix o'zi guvohi bo'lgan voqeasi, hodisalarini yoritishda o'zining jamiyatda tutgan mavqeiga qarab ish ko'rganlar. Tarixchi o'z davrida yuz bergan voqealarni xolis yoritishga harakat qilgan. Bu zamonda tarixnavislik va badiiy adabiyot o'rtasida juda yaqinlik, o'xshashlikni kuzatish mumkin.

Yevropada Uyg'onish davrida, yani XIV–XV asrlarda mutafakkirlarda tarixchilar an'anasisiga ishonch susayadi. Insonparvarlar qadimgi dunyo an'analarini davom ettirar ekanlar, o'tmishdagi matnlarga keyincha kiritilgan o'zgarishlar, to'ldirishlar va buzishlarga duch kelganlar. Natijada, o'tmishning buyuyk shaxsler asarlari matnlarini o'ganishning yangi tamoyillari majmuasi paydo bo'ldi. Asar matnnini qayta-qayta o'qish jarayonida uni tushunish va talqin etish malakasi hosil bo'ldi.

Uyg'onish davrida tarixchi, muallif shaxsi, uning o'z asariga, unda bayon etilgan voqealarga shaxsiy munosabatini ifoda etilishi namoyon bo'ladi. Tarixchnavislardan qalimgi matnlarni so'nggi sharh, izoh va hoshiyalarga ajrata boshladilar.

Ayni shu davrda tarixiy asarlar tarixiy manba va tarixiy qo'llanma,

darsliklarga ajratildi. Tarixiy manba deb eng ishonchli shaxslar tomonidan birinchi darajali qimmatli ma'lumotlarga ega yodgorliklar hisoblandi. Ular qatoriga qadimgi zamon va o'rta asrlar mualliflari asarlarini qo'lyozmalari hamda qadimgi hujjatlarning asl nushalari kiritildi. Barcha boshqa qayta bayonlar tarixiy qo'llanma, darslik, sharh hisoblanib, ularda ilk manbadagi ma'lumotlarning o'zgarishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, qadimgi qo'lyozmalarga nisbatan ularni ikkinch darajali yoki yordamchi manba deb ataldi.

Uyg'onish davrida tarixiy manbaga tanqidiy munosabatda bo'lish, uning yaratilgan vaqt, yili va muallifini aniqlashga katta e'tibor qaratildi.

XVIII–XIX asrlarda Evropa mamlakatlaridagi milliy o'zlikni anglash ularning o'z xalqi tarixini, tarixiy manbalarni jiddiy va ma'lum tartib va tamoyil asosida o'rganishga olib keldi. Tarixshunoslikka oid muhim tadqiqotlar amalga oshirilib, ularda manbashunoslik masalalari ham yoritilgan. Misol tariqasida F.K.Dalmonning "Germaniya tarixi manbashunosligi" (nemis tilida, 1830) asarini ko'rsatish mumkin. Bu davrdagi tarixiy manbashunoslik asosan tarixiy manbalarni yig'ish, tanlash, tavsif e'tish va tadqiq etish tamoyillarini nazarda tutgan.

## 11.2. O'zbekistondagi manbashunoslik fani tarixi

XX asrning umumiy taraqqiyoti o'zbek manbashunosligini shakllanishiga olib keldi. Toshkentda 1870-yili davlat kutubxonasi tashkil etilib, uning sharq qo'lyozmalari bo'limi ochilgan. XX asr boshlarida ushbu kutubxonada yuzdan ortiq qo'lyozma jamlangan. Samarqandda qo'lyozmalar kutubxonasi mavjud bo'lgan. Jadidlar tomonidan Toshkentda "Turon" kutubxonasi ochilib, unda turkcha, tatarcha va ozarbayjoncha nashrlar jamlangan.

Oktabr to'ntarishidan keyin Fitrat, Saydali, Sadriddin Ayniy va boshqa o'zbek ziyyolilari o'tmisht merosni o'rganishga kirishdilar hamda "o'zbek millatchilari" nomini oldi.

Sho'ro davrida (1917–1990) O'zbekiston tarixi manbashunosligi fansifatida shakllana boshladi. 1935-yili Toshkent Davlat xalq kutubxonasida 4000 dan ortiq qo'lyozmalar mavjud bo'lgan. Bu yerda mashhur kitob bilimdoni Ibodulla Odilov(1872–1944) o'z faoliyatini davom ettirgan.

1944-yili Toshkentda "Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti" tuzildi. Unda A.A.Semenov, A.K.Arends, V.I.Belyayev, A.Murodov (1893–1971), A.Rasulov (1893-yilda tug'ilgan), C.Mirzayev(1885–1961) kabi olimlar faoliyat ko'rsatgan.

XX asr O'zbek manbashunosligi tarixi A.Habibullayevning "Adabiy

manbashunoslik va matnshunoslik”(2000) qo‘llanmasida (81—85-betlar) juda yaxshi bayon etilgan. Unda keltirilgan ma’lumotlarga shuni qo’shimcha qilish mumkinki, bu davrda asosan birinchi galda qadimgi qo‘lyozma kitoblar sobiq hukmdorlar kutubxonalarini va aholi orasidan davlat tashkilotlariga yig‘ildi. Bu ishlarning samarasi sifatida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida Abu Rayhon Beruniy nomli sharqshunoslik instituti tashkil etilgan edi. Ushbu joyda qadimgi qo‘lyozmalar bilimdoni Ibodulla Odilov, Abdusattoh Rasulov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov va boshqalar faoliyat ko‘satgan bo‘lib, ular institut xazinasidagi qo‘lyozmalarni o‘ganishga qulaylik yaratish uchun uch turdagisi katalog tuzganlar. Bu katalog keyincha qirqdan ziyod olimlar ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi sharq qo‘lyozmalarini majmuasi” (1952-1987) nomli o’n bir jildlik rus tilidagi katalog A.A. Semyonov, D.G. Voronovskiy, A.O. O‘rinboyev, L.M. Epanova, R.P. Jalilova tahriri ostida chop etilgan.

Ushbu mashhur katalogdan tashqari yirik tarixchi olimlar alohida-alohida yozma manbalarni o‘rganib, ularning ilmiy tanqidiy matnlarini tiklashga intilganlar, eng muhimlarini rus tiliga tarjima qilganlar. Bu davrda o‘zbek manbashunosligi umum ittifoq manbashunosligi sifatida o‘rganilib, ularda O‘zbekiston tarixi manbashunosligiga juda kam e’tibor berilgani akademik B.Ahmedov tomonidan aytib o‘tilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng (1991) manbashunoslik fani oliy o‘quv dasturlariga kiritildi. Mustaqillikdan avval B.Ahmedov manbalarni o‘rganishga kirishgan va o‘quv yurtiga moslab qo‘llanma yaratgan edi. So‘ngi yillarda B.Ahmedovning “O‘zbekiston tarixi manbalari” (2001), A.Habibullayevning “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” (2000), A.Madraimovning “Manbashunoslikdan ma’ruzalar majmuasi” (2001), M.Hasanovning “Sharq qo‘lyozmalarini tavsiflash va fihristlash” (2004) hamda A.Madraimov va G.Fuzailova tuzgan “Tarixiy manbashunoslik” (2006) o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan bo‘lib, ular mukammal darslik yaratishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### **11.3. Zamonaviy manbashunoslik muammolari**

Shu paytgacha chop etilgan manbashunoslikka oid qo‘llanma, to‘plam va rus tilidagi darsliklar ushbu fan sohasidagi zamonaviy yutuqlarni to‘liq aks ettirmaydi. Buning asosiy sababi O‘zbekiston tarixiga oid barcha yozma manba, toshbosma kitob, bosma kitob, vaqtli matbuot — jurnal va gazeta materiallari, ularning xususiyatlari jiddiy o‘rganilib, ularning

hammasi haqida ma'lumotnoma yaratilishi zarur. Bundan tashqari, eng muhim manbalar alohida tadqiq etilib, kitob holida bosib chiqarilishi kerak. Mana shular asosida avval maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, bakalavriat va magistratura talabalariga moslab o'quv qo'llanma, darslik va yordamchi adabiyotlarni chop etish bugungi kun davr talabidir. Mavjud adabiyotlar, shu jumladan ushbu darslik ham ma'lum darajada kamchilik va bирyoqlamalikdan holi emas. Bir necha oliv o'quv yurtida, jumladan Mirzo Ulug'bek nomli Milliy universitet, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent Islom Universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik institutlarida manbashunoslik fanidan dars berayotgan pedagoglarning, O'zbekiston Fanlar akademayasi ilmiy tadqiqot inastitudagi olimlar manbashunoslik bo'yich mukammal darslik yaratishadi deb umid bildiramiz.

#### **11.4. Manbashunoslikka oid adabiyotlar tahlili**

Bizning tariximiz juda boy, yozma yodgorliklarimiz ko'p bo'lishiga qaramay, o'z madaniy merosimizni butun boyligini namoyish etadigan, uning o'ziga xos xususiyatlari va jahon madaniyati xazinasiga hissa bo'lib qo'shilganlarini alohida ko'rsatadigan manbashunoslik fani sohasida yaratilgan mukammal darslik va qo'llanmaga ega emasmiz. Yurtimizda tarix fani sohasida olib borilgan deyarli uch ming yildan uzoqroq davr davomida to'plangan tajriba hali umumlashtirilgani yo'q.

Hozircha mavjud darslik va qo'llanmalar ichida akademik B.Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" darsligining ikkinchi nashrini eng mukammal deb tan olishimiz mumkin. Qimmatli ma'lumotlar jamlangani bilan ajralib turgan bu asar bizning darslik uchun asos bo'lib xizmat qildi.

A.Habibullayevning "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" qo'llanmasida ham qator ijobiy xususiyatlar mavjud bo'lib, ulardan tarixiy manbashunoslik bo'yicha darslik tuzishda foydalanish mumkin.

A.A.Madraimov tomonidan tuzilgan "Manbashunoslikdan ma'ruzalar majmuasi" da ilk bor arab, fors va turk tilidagi tarixiy manbalar xususiyatlarini xarakterlashga harakat qilingan va manbalar to'g'risidagi ma'lumotlar manba nomi ostida berilishi bilan ajralib turadi.

M.Hasanov «Sharq qo'lyozmalarini tafsiflash va fihristlash» nomli risolasida (2004) magistrantlarni ushbu jarayon bilan tanishtiradi.

A.Madraimov va G. Fuzailova tuzgan "Tarixiy manbashunoslik" (2006) o'quv qo'llanmasi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmadagi manbalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosan B.Ahmedovning

“O’zbekiston tarixi manbalari” (2001) qo’llanmasidan keltirilgan. Undagi ma'lumotlar ma'lum darajada to’ldirilgan bo’lib, o’quv jarayoni xususiyatlarini hisobga olgani bilan ajralib turadi. Bundan tashqari qo’llanmada birinchi bor manbalarni o’rganish va o’rgatish usullari bayon etilgan, Alisher Navoiyning tarixiy asarlari, Turkistonning Chor Rossiyasi mustamlakachiligi, sho’ro va mustaqillik davri manbalari tavsifi keltirilgan, arab, fors va o’zbek tillaridagi yozma manbalar xususiyatlari alohida alohida tushuntirilgan.

Manbashunoslik fani ko’p asrlik an'anaga ega bo’lsa-da, yurtimiz manbashunosligi yuqorida zikr etilgan asarlarda umumlashtirishga harakat qilindi. Manbashunoslikni o’rganish uchun birinchi galda tarixga oid ilmiy tadqiqotlar, yozma yodgorliklar nashrlari va birlamchi yozma manbalar bilan bevosita ishlashga to’g’ri keladi. Bu sohada Ya.G’ulomov, B.A.Ahmedov, A.O’.O’rinboyev kabi yirik olimlar asarlari, O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslilik institutida saqlanayotgan qo’lyozmalar tavsifini o’z ichiga olgan 11 jiddlik monografik katalog hamda maxsus katalog — fihrist, tadqiqotlar bo’lg’usi manbashunoslar uchun namuna bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Talabalar yordamchi manba sifatida ensiklopedik qomuslardan foydalanishi mumkin.

Manbashunoslikni yaxshi egallash uchun talaba bir necha til, ayniqsa arab yozuvidagi o’zbek til va g’arb tillaridan ingliz, nemis va fransuz tillaridan birini yaxshi bilishi kerak. Bu sohada rus tili ham ma'lum mavqega ega.

## **11.5. O’zbek xalqining shakllanishiga oid manbalar**

### **11.5.1. O’zbek xalqining shakllanishiga oid manbalar umumiyligi xususiyatlari**

O’zbek xalqining shakllanish masalasi yaxshi o’rganilmagan, yechimini topmagan ilmiy muammolardan biri. Masalani bir manba bilan, bir tadqiqotchi, u garcha fan mirishkori bo’lganda ham, yechib berolmaydi. Buning uchun uzoq o’tmishtdan qolgan va turli tillarda, qadimgi eron, yunon, rim, xitoy, arab, fors va turkiy tillarda yozilgan qo’lyozma va toshga, yog’ochga, sopolga va boshqa buyumlarga bitilgan yozuvlarni o’qiy oladigan mutaxassis — manbashunos, arxeolog, etnograf va antropolog olim, adabiyotshunos (folklorshunos), tilshunos va geograf olimlar bingalashib, bir ilmiy jamoa bo’lib ishlashlari zarur bo’ladi. Alsuski, bizga shunday hamkorlik yetishmay turibdi. Lekin, bu ishni o’zbek olimlari

yechib berishlari kerak. Vaholanki, muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov juda to‘g‘ri aytganlaridek, «Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-u nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi»<sup>1</sup>. Demak, bu – xalq talabi, Vatan talabi.

O‘zbeklarning xalq bo‘lib shakllanishiga oid biron alohida manba yo‘q. Bu masalaga oid ma’lumotlar tarixiy, geografik, lingvistik va xalq og‘zaki adabiyotiga oid asarlarning barchasida mavjud. Lekin, ularni sinchkovlik bilan bittalab terib olish kerak bo‘ladi. Ularni Tabariy va arab geografiya olimlarining asarlarida, Nizomuddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida, Juvayniy va Rashiduddinning yuqorida tilga olib o‘tilgan asarlarida, «Nusratnoma» va «Abdullanoma»da va X–XVI asrda yozilgan barcha asarlarda uchratish mumkin.

XV asr oxiri va XVI asr boshida ikki azim daryo – Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘ida joylashgan ko‘hna mamlakatimizga qo‘shti Dashti qipchoqdan 20 dan ortiq qavm: qo‘ng‘irot, nayman, ming, do‘rmon va boshqa qavmlar ko‘chib kelib, mahalliy turkiyzabon xalq tarkibiga qo‘sildilar. «Tarixi Abulxayrxoni», «Abdullanoma» va «Maktuboti Allomiy» (XVI asr) kitoblarida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qavmlar soni 92 taga yetgan. Bu haqda ma’lumot beruvchi uchta-to‘rtta asarni misol tariqasida tilga olib o‘tamiz.

## Manbalar tavsisi

### 11.5.2. «Tarixi Abulxayrxoni»

«Tarixi Abulxayrxoni» asarida Bag‘dod xalifaligining sharqiy qismida joylashgan mamlakatlar va Mavarounnahrning qadim zamonlardan to XV asrning 60-yillarigacha kechgan tarixi qisqacha bayon etiladi. Kitobning so‘nggi qismi, ya’ni Dashti qipchoqda Abulxayrxon bosh bo‘lgan qismi noyob hisoblanadi.

«Tarixi Abulxayrxoni» Shayboniy Abdullatif Sulton (Samarqand xoni, 1540–1551) hukmronligining boshlarida Shayboniy Ko‘chkunchixon (1510–1530)ning sobiq kotibi Mas‘ud ibn Usmon Kuhistoniy tarafidan yozilgan. Asarda Abulxayrxon davlatiga asos solgan va XVI asr boshida Shayboniyxon bilan birga Mavarounnahrga ko‘chib o‘tgan burkut,

<sup>1</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q // Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 1999. 132-bet.

do'rmon, iyjon, kenegas, qiyot, qo'ng'iroq, qushchi, qurlovut, masit, tuboyi, uyshin, koonboyli, qudag'ay, mang'it, muluj, nayman, uyg'ur, chimboy, qorliq, yonqojar, nukuz, timat, tuman-ming, o'tarchi qavmlari haqida ma'lumotlarni uchratamiz.

### 11.5.3. «Nasabnomayi o'zbek»

«Nasabnomayi o'zbek» bor-yo'g'i ikki varaqdan iborat kichik bir asar. Unda 92 o'zbek qavmining ro'yxati keltiriladi. Ular quyidagilar: ming, yuz, qirq, o'zbek, o'n qajot, jaloir, saroy, qo'ng'iroq, olchin, arg'in, nayman, qipchoq, chaqmoq, azaq, qalmoq, torliq, tudak, burloq, samarchiq, kibcha, kelachi, kinakash, buyrak, urot, qiyot, xitoy, tunidi, o'zjulachi, qoychi, o'taji, bo'lotchi, juyut, job, chilchut, buymaut, orlot, kerait, ungut, tangut, manbit, chilchuvit, mesit, markit, burkut, qurlas, o'kalan, qori, arab, ilochi, juburg'an, tishliq, keray, turkman, do'rmon, tobin, tama, ramadan, ko'ytan, uyshin, badiyi, hofiz, qirg'iz, mojar, ko'chalik, savron, baxrin, uyris, jubrot, biday, tatar, tabash, michqor, suldus, tuboyi, tilov, kirdor, baktiya, qarqin, shirin, o'g'lon, qurlat(qurlavut), bag'lon, chinboy, chechilkas, uyg'ur, agar, yobu, targ'il, turkan, kohat.

### 11.5.4. «Asomiyi navadu du firqayı o'zbek»

«Asomiyi navadu du firqayı o'zbek» («To'qson ikki o'zbek firqasining nomlari» to'rt nafar mustaqil asar «Majma' al-g'aroyib», «Solnomayi xoja Abdulhakim Termizi», «Tarixchiyi Somiy» va nomi aniq bo'limgan geo-kosmografik asar bilan bir muqovada, O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 1330-raqamli kitob tarkibida mavjud. Unda Chingizxon dan to Ashtarkoniy Abulfayzxon (1711–1747) davrigacha kechgan voqealar qisqacha bayon etiladi. «Solnomayi Abdulhakim Termizi»dan keyin «Asomiyi navadu du firqayı o'zbek» asari boshlanadi va o'zbek xalqi tarkibiga kirgan 92 qavmnning nomi keltiriladi. Ular quyidagilardir: ming, yuz, qirq, o'ng, unkajot, jaloir, saroy, xitoy, qipchoq, nayman, chaqmoq, urmoq, tudaq, bo'ston, samarchiq, qalmoq, qorliq, qatag'on, orlot, arg'in, barlos, bo'ytay, kenagas, kelachi, buyrak, uyrot, qiyot, qo'ng'urot, qong'li, o'z, julovchi, jusulovchi, kaji (xoji), o'tarchi, qirlovchi, juyut (juyut), jid, chulchut, buyozit (bayozit), uymovut, keray, bag'lon, long'it, tangut, mang'it, marki, burkut, modi qiyot, o'kalan, olchin, qori, g'arib, shibirg'on, qishliq, turkman, do'rmon, tabai, tam, tobin, ramadan, miton, uyshun, bo'sa, haft, qirg'iz, tatar, bochqir, suldus, kelovchi, dujor, jurot, badayi, o'g'lon, quryuvut, chimboy, mehdi, chilkas,

uyg'ur, farkon, nukus, qora tushlub, yobu, torg'il, ko'xat, shuran, shirin, tama, baxrin, keray, taxtiyon, mug'ol, qoyon.

XVII asrda o'tgan shoir Turdi Farog'iy ham o'zbeklar o'sha davrda 92 qavmdan iborat ekanligini aytadi.

Tor ko'ngillik beklar, manman demang, kenglik qiling,

To'qson ikki bori o'zbek yurtidir, kenglik qiling!

Birni qipchoq-u, birni yuz, birni nayman demang,

Qirqu yuz, ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling!

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,

Bir o'ngirlik, bir terezlik, bir yaqo-englik qiling!

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Manbashunoslik fani qachon shakllangan?*
2. *Eng qadimgi zamон tarixchilarini voqeа, hodisalarни qanday bayon qilgan?*
3. *O'rta asr tarixchilarining manбaga munosabati qanday bo'lган?*
4. *O'zbekiston tarixiga oid qo'lyozma asarlar qaysi kataloglarda tavsifga olingan?*
5. *Qaysi o'zbek manbashunoslari bilasiz?*

## **II BOB. O'ZBEKISTON TARIXI MANBALARI**

### **1-MAVZU. QADIMGI ZAMON MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** O'zbekiston qadimgi tarixi arxeologik manbalari, Eron, hind, yunon va Rim manbalari to'g'risida umumiy tushuncha beriladi.

#### **Reja:**

- 1.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 1.2. Qadimgi Eron va hind manbalari.
- 1.3. Qadimgi Yunon va Rim manbalari.

**Asosiy tushunchalar.** «Avesto», arxeologik manbalar, Xitoy, Eron, yunon va Rim manbalari, katiba, tasvir, surat, tarixiy yozuvlar, relyef.

#### **1.1. Asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar**

O'zbekiston hududi ham Eron, Hindiston, Mesopotamiya, Yunoniston, Rim, Misr va Xitoy singari mamlakatlar kabi ilk madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Lekin, uning qadimiy madaniyati haqida ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Biz yurtimizning faqat miloddan avvalgi VI asrlardan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma'lum darajada yozma ma'lumotlarga egamiz.

Eron, Hindiston va ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim manbalarida saqlangan ma'lumotlarga qaraganda qadim zamonlarda hozirgi O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak, massaget va boshqa qabilalar urug'chilik tuzumini boshdan kechirganlar, chorvachilik, qisman dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi VI asrda yurtimiz Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi 550–330-yillar) asoratiga tushib qoldi. Ana shu davrda bu yerda istiqomat qilgan xalqlar hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Urug' jamoalari orasida tabaqalanish boshlandi: yangidan paydo bo'lgan urug' aslzodalari serunum yerlarni egallab oldilar, qul mehnatidan foydalanish hamda erkin jamaa a'zolariga zulm qilish yo'li bilan boyib bordilar. Shu tariqa jamiyatning tabaqalanish jarayoni kuchaydi va quzdorlik jamiyatni paydo bo'ldi.

Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, miloddan avvalgi VII asrda yurtimiz hududida, masalan Balx va Xorazmda otashparastlik – zardushtlik dini paydo bo'ldi va keng tarqaldi.

Ahamoniylar va ularning mahalliy noiblari baribir aholini to'la itoatda tutib tura olmadilar. Xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi kuchaydi. Natijada miloddan avvalgi VI asr o'rtalariga kelib Xorazm mustaqillikni qo'lga kiritib oldi. Sak va massagetlar ham o'z ozodligi uchun tinmay kurash olib bordilar. Eron hukmdorlari bilan yurtimiz xalqlari o'rtasida uzlusiz davom etgan urushlar Ahamoniylar davlatini kuchsizlantirdi va Eronning Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 336—323-yy.) tarafidan bosib olinishini birmuncha osonlashtirdi.

Iskandar Zulqarnaynning yurishlari (miloddan avvalgi 334—324-yy.) yurtimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi: katta yer egalari bo'lmish mahalliy aslzodalarning mavqeい yanada mustahkamlandi.

Ma'lumki, Iskandar Zulqarnayn vafotidan (miloddan avvalgi 323-yil 13-iyun) ma'lum vaqt (taxminan 75 yil) o'tgach, uning ulkan sultanati mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketdi.

Miloddan avvalgi taxminan 250-yili Buyuk Makedoniya sultanatinining Baqtriyadagi noibi Diodot mustaqillik e'lon qildi va Yunon-Baqtriya davlatiga asos soldi. Bu davlat tarkibiga Sirdaryo bilan Ind daryosi yuqori oqimlarigacha bo'lgan yerlar va xalqlar qarar edi.

Hozirgi Turkmanistonning janubiy tumanlari ham mustaqillikka erishdi. Bu yerla hokimiyat tepasiga nufuzli Arshakiylar urug'inining boshliqlari o'tqizildi.

Miloddan avvalgi 190-yili Magnesiya<sup>1</sup> yonida bo'lgan janglarda Rim qo'shinlari Buyuk Antiox (miloddan avvalgi 242—187-yy.) qo'shinlarini tor-mor keltirib, Salavkiylar hukmronligiga qaqshatqich zarba berdilar. Bu hol Yunon-Baqtriya, ayniqsa Parfiyaning kuchayishiga yo'l ochib berdi.

Miloddan avvalgi II asrning 40-yillarda Parfiya butun Eron va Mesopotamiyaning katta qismini o'ziga qaratib olib, yirik quidor davlatga aylandi. Poytaxt Ekbatana (Hamadon)dan Evfrat bo'ylariga, hozirgi Bag'dod yonida joylashgan Ktesifonga ko'chirildi.

Taxminan o'sha vaqtarda Yunon-Baqtriya davlati ham o'z chegaralarini birmuncha kengaytirib oldi. Evfidem, Demetriy va Eakradit zamonida So'g'diyona, Baqtriya, Araxosiya (hozirgi Afg'onistonning G'arbiy qismini o'z ichiga olgan hudud) va Ariya (hozirgi Afg'onistonning markaziy qismi), boshqacha so'z bilan aytganda hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Eronning sharqiy qismi hamda Afg'onistonning katta qismi Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirar edi.

Lekin, Yunon-Baqtriyaning ichki ahvoli u qadar mustahkam emas edi. Mahalliy xalq bilan yunon-makedoniyalik hokimlar o'rtasidagi ziddiyat

<sup>1</sup> Magnesiya — Lidiyaning qadimiy shaharlaridan, Turkiyaning hozirgi Manisiya shahri o'mida bo'lgan.

tobora chuqurlashib bordi, chet el bosqinchilariga qarshi qo'zg'olonlar kuchaydi. Xalq harakati, ayniqsa, So'g'diyonada keskin tus oldi. Natijada miloddan avvalgi II asr oxirlari va I asr boshlarida So'g'diyona mustaqillikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Yunon-Baqtriya imperiyasining boshqa o'lkalardan ham mustaqillik uchun kurash kuchaydi.

Qadimdan Shimoliy Xitoyda istiqomat qilib kelgan xunnlar miloddin avvalgi II asr oxirlarida xitoylar tazyiqi ostida g'arbg'a qarab chekinishga majbur bo'ldilar va Sharqiy Turkiston hamda Yettisuv vohasida ko'chib yurgan skif (xitoy manbalarida yuechji, antik adabiyotda toxarlar nomi bilan mashhur) va usun qabilalarini surib chiqardilar. Oqibatda yuechji (toxar) va usunlar So'g'diyona va Baqtriya hududiga ko'chib o'tdilar va bu yerda sak va boshqa mahalliy qabilalar bilan qo'shilib, avval So'g'd, milodning taxminan 128-yili Yunon-Baqtriya davlatiga qaram boshqa o'lkalarni ham to Ind daryosigacha istilo qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunday qilib, Yunon-Baqtriya davlati o'mida yuechjilar (toxarlar) davlati tashkil topti. Bu davlat tarixda Kushonlar davlati nomi bilan mashhurdir. Kushonlar davlatiga hozirgi O'zbekistonning katta qismi, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Pokistonning shimoli-g'arbiy qismi qaragan bo'lib, ayniqsa Kanishka va uning taxt vorisi Xuvishka hukmronlik qilgan yillari kuchaydi. Lekin, milodning II asri o'talarida bu davlatning ham inqirozi boshlandi va IV asrga kelib mayda davlatlarga bo'linib ketdi.

Yurtimiz hududida hukmi surgan qadimiy davatlardan yana biri – Qang' va Farg'on'a (Parkana)dir.

Qang' davlati tarkibiga Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Toshkent viloyati va Xorazmning shimoliy qismi kirgan. Davlat tepasida jabg'u (xitoy manbalarida chaovu) turgan.

Miloddin avvalgi II–I asrlarda Farg'onada ham mustaqil davlat bo'lgan. Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Farg'onada hunarmandchilik, ayniqsa dehqonchilik rivoj topgan qadimiy mamlakat bo'lib, uning 70 ga yaqin katta-kichik shaharlari Kuba-Quva, Gaushan-O'zgan, Ershi – Marhamat, Go'y-Shan – Koson va boshqalar bo'lgan. Mahalliy xalq dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan, arpa, bug'doy, sholi, beda, uzum, anor, poliz ekinlari va boshqalarni yetishtirgan.

104–101-yillar orasida Xitoy qo'shinlari Farg'onaga ikki marta bostirib kirdilar. Birinchi yurish 104-yili xitoy qo'shinlarining tor-mor keltirilishi bilan tugadi. Ikkinci marta 101-yili 60 000 kishilik xitoy qo'shini Farg'onaning yirik shaharlaridan Ershini (hozirgi Andijon viloyatiga qarashli Marhamat qishlog'i o'mida bo'lgan) qamal qildilar. Lekin,

shaharni ola olmadilar, sulu tuzib va ozgina o'lpon, 3000 bosh ot olib qaytib ketishga majbur bo'ldilar.

## **1.2. Qadimgi Eron va hind manbalari**

### **1.2.1. Qadimgi Eron manbalari**

#### **1.2.1.1. Tosh va sopolga o'yib yozilgan katibalar (mixiy yozuvlar)**

Bunday yozuvlar Ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persopol, shuningdek Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan.

Masalan, pishiq sopol taxtachaga o'yib yozilgan bir katibada Doro I (miloddan avvalgi 522–486-yy.) hukmronligining dastlabki yillarda (miloddan avvalgi 494–490-yillar orasida) Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrog'i qurilishga ketgan materiallarning qaysi mamlakatdan keltirilganligi yozilgan. Taxtachadagi ma'lumotlarga ko'ra oltin Lidiya bilan Baqtriyadan, qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizil va qizg'ish rangli tosh) So'g'diyonadan, firuza Xorazmdan olib kelgingan.

Persopoldan (Sherozning shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan 520–450-yillar orasida qurilgan shahar) topilgan yozuvlar va tasviri suratlar – relyeflar katta ilmiy qiymatga ega. Ularning ayrim namunalari XVII–XVIII asrlarda (1621-y.) italyalik sayyoh Pedro Della Valle va daniyalik olim K. Niburning nomi bilan bog'liq. 1931–1934, 1935–1939 va undan keyingi yillari nemis olimi E.Xertsfeld, amerikalik E.Shmidt, fransuz A.Godar hamda eronlik M.T.Mustafoviy va A.Somiy tarafidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natidasida Persopolda juda ko'p noyob yodgorliklar ochildi. Ular orasida Apadana zinalari ustiga ishlangan tasviri suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut – ingliz o'lchovi 30, 479 santimetrga teng) ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplikdan (qaram mamlakatdan) o'lpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar turli idishlar, teri, mo'yna va tuya bilan, so'g'dliklar turli mato, teri va qo'ylar bilan, saklar ot va chakmonlar bilan, parfiyaliklar idishlar va tuya bilan va xorazmliklar ot va qurol-aslaha bilan tasvirlangan.

Persopoldan 6 milya – qariyb 5 km masofada, uning shimol tarafida Husaynkuh qoyalarida ahamoniylardan Doro I, Ksereks I (miloddan avvalgi 486–465-yy.), Artakserks I (miloddan avvalgi 465–424-yy.) hamda Doro II (miloddan avvalgi 424–404-yy.) larning maqbaralari hamda ularga

kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sosoniy sarkardalardan Rustam (636-yili arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomi bilan ham bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam deb ataladi.

Katibalarda, ayniqsa Doro I surati ostiga yozilgan katibada, uning davlati ko'klarga ko'tarib maqtaladi, uning tarafidan bosib olingen xalqlar esa itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, bo'ysunmaganlar va shu sababdan jazoga mahkum etilganlarning nomlari qayd etiladi. Muhimi shundaki, katibada ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la ro'yxati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar hamda xorazmliklar ham bor.

Yodgorlik orasida muhimlaridan yana biri mashhur Behistun yozuvlaridir. Bu yozuvlar uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lib, ular Shimoliy Eronda, Kirmoshohdan 30 km masofada, daryo bo'ylab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tarafida, Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning 'amri bilan yozilgan g'alaba yodgorlidir. Yozuv elam, bobil va qadimgi eron tillarida bitilgan va miloddan avvalgi 523–522-yillari Ahamoniylar sultanatini larzaga keltirgan Gaumata–522-yil 29-sentabrda halok bo'lgan, Frada – marg'iynonalik, 522-yil 10-dekabrida asirga olingen, Skunxa – hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining yetakchisi kabi boshliqlar rahbarligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

### 1.2.1.2. «Avesto»

Zoroastrizm – otashparastlik (miloddin avvalgi VI – milodning VI asri) dinining muqaddas kitobi bo'lib, miloddin avvalgi VI – milodning VI asrlarida yozilgan, Eron hamda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, e'tiqodi, tili, adabiyoti va qisman tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Asarning yozilgan joyi haqida turlicha fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar – fransuz J.Darmsteter, Ozarbayjon olimi I.Aliyev, "Avesto" Midiya – hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy qismi va Ozarbayjonda yozilgan, desa, ko'pchilik – V.V.Struve, S.P.Tolstov, F.Altxaym va boshqalar Amudaryo bo'yida joylashgan viloyatlarda, Balx va Xorazm oralig'ida yaratilgan, deb hisoblaydilar. Oxirgi fikr so'ngi vaqtarda Eron olimlari, masalan Ibrohim Pur Dovud tarafidan ham e'tirof etildi.

"Avesto" matni to'liq saqlanmagan. Bizgacha, uning juda oz qismi yetib kelgan, xolos. Ma'lumki, "Avesto" Kayoniy hukmdorlardan Gishtosp–Vishtosp zamonida kitob holiga keltirilgan. Rivoyatlarga

qaraganda uning gatlар deb ataluvchi asosiy qismi xudo – Zaratushtra tomonidan yozilgan va Mas’udiy, Tabariy va Beruniylarning so‘zlariga qaraganda 12 000 ho‘kiz terisidan tayyorlangan maxsus pergamentga oltin harflar bilan yozilgan. O’sha vaqtarda uning uch nusxasi mavjud bo‘lgan, lekin bir nusxasi Iskandar Zulqarnaynning farmoni bilan yoqib yuborilgan. Ikkinci nusxasi Yunonistonga olib ketilgan, uchinchi nusxasi esa otashparastlar diniga o‘ta e’tiqodli bo‘lgan kishilar qo‘lida saqlanib qolgan. Lekin bu nusxa to‘liq emas.

Asarning saqlanib qolgan qismlarini to‘plash va kitob holiga keltirish ishlari Parfiya podshosi Valgash III (148–192) hamda Sosoniylar (milodning III asri) davrida ham davom ettirildi. “Avesto” sosoniy Shopur II (309–379) davrida tartibga solindi, izohlar va qo‘srimchalar (zand) bilan boyitildi va to‘la kitob holiga keltirilib, asosiy qismlari pahlaviy tiliga tarjima qilindi. Bu kitob “Zand Avesto” nomi bilan mashhur.

Afsuski, “Zand Avesto” ham bizning zamonimizgacha to‘la holda yetib kelmagan. Uning bir qismi Iskandar Zulqarnayn yurishlari vaqtida, boshqa bir qismi esa arablar istilosи (674–715-yy.) vaqtida yo‘q qilingan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi, professor E.E.Bertelsning ma’lumotiga qaraganda<sup>1</sup>, 83 000 so‘zdan iboratdir. U, asosan to‘rt qismdan – yasna, yashtov, vispered, vendidaddan tashkil topgan. Yasna tarkibiga kirgan gat deb ataladigan qo‘shiqlar “Avesto”ning eng eng ko‘hna va qimmatli qismlaridir.

“Avesto”ning qo‘shiqlari va qissalari Abulqosim Firdavsiyining (taxm.940–1030) “Shohnoma” dostoniga manba bo‘lib xizmat qilgan.

“Avesto” nisbatan yaxshi o‘rganilgan (K.Zalemen, X.Bartolomey, E.E.Bertels, V.V.Struve va boshqalar). U fransuz (Anketel dyu Perron, Y.Darmsteter), rus (K.A.Kossovich), ingliz (L.X.Mayls), Daniya (A.Xristensen) va fors (Ibrohim Pur Dovud) tillariga tarjima qilingan. Uning Kopengagenda (Daniya) saqlanayotgan yagona nusxasi asosida tayyorlangan fotomatni 1937–1944-yillarda olti jild qilib nashr etilgan. O‘zbekistonda bu asarni M.Is’hoqov, H.Homidiy, T.Mahmudov, A.Qayumov va boshqalar o‘rgangan.

### 1.2.1.3. «Xvaday namak»

“Xvaday namak” (“Podshohnoma”) qadimgi Eronning 627-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan bahs etuvchi afsonaviy tarixiy asar bo‘lib, pahlaviy tilida yozilgan. Sosoniylardan Yazdigard III (632–651)ga yaqin kishi tomonidan 632–637-yillar orasida yozib tamomlangan. Asar,

<sup>1</sup> Бертельс Е.Е. История персидско-таджикской литературы. – М., 1960. С. 52.

ayniqsa Ahamoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

"Xvaday namak"ning o'zi ham, mashhur shoir, olim va tarjimon Abdulloh ibn Muqaffa (721–757-yy.) tarafidan qilingan tarjima ("Siyar al-muluk" deb atalgan) ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin, uning ayrim parchalari Ya'qubiy (897 yoki 905-yili vafot etgan), ibn Qutayba (828–889-yy.), Tabariy, Ibn al-Asir asarlarida, shuningdek, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida saqlangan.

### **1.2.1.4. «Matakdani xazar datastan»**

"Matakdani xazar datastan" ("Bir ming nafar huquqiy ajrim") pahlaviy tilida yozilgan (VIII asr) bo'lib, unda Eronning Sosoniylar davridagi davlat tuzulishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma'lumot bor. Asarning faqat ayrim qismlarigina saqlangan. Mitropolit Ishobaxt qilgan suryonicha tarjima (VIII asr) saqlangan. Inglizcha tarjimasi S.Y.Bulsara tomonidan chop etilgan (Bombay, 1937).

Geografik asarlardan "Shahristonhoyi Eron" ("Eron shaharlari haqida risola") Eronning Sosoniylar davridagi geografik holati va ularning buniyod etilishi haqida ma'lumot beradi. "Ajoyib as-Sakiston" ("Sakiston viloyatining ajoyibotlari") nomli asar Eronning ko'hna viloyatlaridan Sakiston (Seiston)ga bag'ishlangan. Bu ikkala asar ham pahlaviy tilida, VIII asrning ikkinchi yarmida yozilgan. "Shahristonhoyi Eron"ning matni va qisqacha inglizcha tarjimasi J.Asana hamda Modi tomonidan 1897 va 1899-yillarda Bombayda chop etilgan.

Qadimgi Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ayrim ma'lumotlarni "Komomayi Artashir Papakan" ("Artashir Papakanning ishlari haqida qissa"), "Mazdak namak" ("Mazdak haqida qissa"), "Ayatkari zariran" ("Zarira haqida rivoyat"), "Podshoh Xusrav va uning mahrami" kabi tarixiy qissalarda uchratamiz.

Sosoniylar davlati ichki va tashqi siyosati asoslarini o'rganishda "Andarznama" ("Nasihatnama") hamda "Tojnama" kabi axloqiy-didaktik xarakterdagи asarlarning ham qimmati kattadir.

### **1.2.1.5. «Shohnoma»**

Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" asari uch qism va 65 ming baytdan iborat doston bo'lib, u 976–1011-yillar orasida yozilgan.

Uning birinchi qismi afsonaviy bo'lib, "Avesto" materiallariga asoslanib yozilgan va Eron hamda Turon xalqlarining diniy aqidalari va rivoyatlaridan bahs yuritadi.

Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi

qism qahramonlik dostoni bo'lib, qadimgi Eron podshohlari va ular zamonida o'tgan qahramonlar Rustam va Kova siymolari talqin qilingan.

"Shohnoma"ning uchinchi qismi tarixiy doston bo'lib, unda Eron va Turonning zardushtiylikning paydo bo'lishidan to arablar istilosigacha bo'lgan siyosiy hayoti talqin etilgan.

"Shohnoma"ning qo'lyozma nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxonalarida, shuningdek O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Asarning to'la matni Hindiston (1829), Fransiya (1838–1878), Olmoniya (1877–1884), Eron (1934–1936) va Rossiyada (1960–1971) chop etilgan, rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan.

"Shohnoma" matnini tiklash ustida manbashunoslik tadqiqot ishlarini Boysung'ur Mirzo ibn Shohruh Hirotda olib borgan. Ko'p tarixchilar, xususan Muhammad Mirxon undan manba sifatida foydalangan. Alisher Navoiy bu asarda lof ko'pligini qayd etgan.

### **1.2.1.6. Qadimgi hind manbalari**

Saklar, massagetlar, toharlar va qadimgi Qanha xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlarni hindlarning epik dostoni "Mahobharata"da ham uchratamiz.

"Mahobharata" ("Bharata avlodlari jangnomasi") sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsonaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kavravlar va pandavlarning o'zaro adovatlari va urushlari bayon etiladi. U miloddan avvalgi X–VIII asrlarda yaratilgan.

Asarda, masalan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toharlar va qanhalar haqida mana bu muhim ma'lumot keltirilgan: "Uning (podshoh Yudhishterining) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toharlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Pahmoq soqol, peshonalari shohlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-tuman sovg'alar, jun, rang, ipak va patta (oq qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan, paxtadan to'qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar"<sup>1</sup>.

### **1.3. Qadimgi Yunon va Rim manbalari**

O'zbekistonning antik davrdagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari muhim

<sup>1</sup> Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. 33–34-betlar.

manba bo'lib xizmat qiladi. Quyida ulardan ayrimlari haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

### 1.3.1. Xeradot

**Xeradot** (miloddan avvalgi 490–480-yillar o'rtasi–425-y.) – yirik qomusiy olim, tarix fanining “ota”si, asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan, 455–447-yillari Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan.

Xeradot Ellada va Sharq mamlakatlari (Liviya, Misr, Assuriya, Vavilon, Eron va Skifiya)ning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi 479-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat “Tarix” nomli asari bilan shuhrat topgan. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi. Shu tufayli ham Xeradot, Sitseronning (miloddan avvalgi 106–43-yy.) so'zlarini bilan aytganda, tarix fanining “ota”si hisoblanadi.

Xeradot, garchi o'zi bayon etayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri bayon etishi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtayi nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi.

Xeradotning asarida O'zbekistonning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiyalar, issedonlar, massagetlar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Tarix”ning Shteyn tarafidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869–1871-yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856–1860) hamda rus (F.G. Mishchenko, Moskva, 1858–1860) tillariga tarjima qilingan. 1982-yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A.I.Davatur, D.P.Kallistov hamda I.A.Shishova tomonidan yangidan nashr etilgan.

### 1.3.2. Diodor

Diodor (miloddan avvalgi 90–21-yillar) yirik tarixchi olim, asli Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahridan. U “Tarixiy kutubxona” nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asar, asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlaridan to milodning I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek, O'zbekistonning qadimiy xalqlari skif, sak, massaget, baqtriyaliklar, yurtimizning Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko'p jihatlari bilan ko'chirma-kompilyatsiya

hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, bu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Diodorning asari to'la holda bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi – qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1–5-kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari(miloddan avvalgi 500–449)da to miloddan avvalgi 301-yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan 11–20-kitoblarigina saqlangan, xolos.

Bu asar 1774–1775-yillari I.Alekseev tomonidan olti qismda va 1874–1875-yillari F.G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan.

### 1.3.3. Pompey Trog

Pompey Trog ( milodgacha 1 – milodning I asrlari o'rtaida yashab o'tgan) – "Filipp tarixi" asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuariya podshohlari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddin avvalgi 63 – milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359–336) va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmati shundaki, u birtalay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergen. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan.

"Filipp tarixi"da skiflar, Baqtriya, Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin yuz bergen voqealar, parsiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlari, Parfiya podsholigining tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Pompey Trogning bu asari Yustin (II–III asr) tarafidan qisqartirilib qayta ishlangan shaklda bizning zamonamizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935-yili chop qilingan. Uning ruscha tarjimasi A.A.Dekonskiy va M.M.Rijskiy tomonidan "Вестник древней истории" jurnalining 1954-yil 2–4 va 1955-yil 1-sonlarida bosilgan.

### **1.3.4. Arrian Flaviy**

Arrian Flaviy (taxminan 95–175) – yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geograf olimi, asli Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. U “Iskandar haqida”, “Parfiyaliklar haqida”, “Hindiston” va 7 jildlik “Iskandarning yurishlari” nomli kitoblar muallifidir.

O’zbekiston va Eronning qadimiy tarixini o’rganishda Arrianning “Iskandarning yurishlari” nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O’zbekiston, Eron hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batasfil bayon qilingan.

Asar panegrizm – maddohlik ruhida yozilgan. Muallif Iskandar Zulqarnayn va uning faoliyatini ko’klarga ko’tarib ulug’laydi. U ko’pgina qo’lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilgan bo’lib, mavzu bo'yicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi.

Arrian Flaviyning “Iskandarning yurishlari” asari nemis (Myuller, Leyptsig, 1886) hamda rus (Korenkov, Toshkent, 1912 va M.E.Sergeenko, M.-L., 1962) tillarida nashr etilgan.

### **1.3.5. Kvint Kurtsiy Ruf**

Kvint Kurtsiy Ruf (milodning I asri) – mashhur Rim tarixchisi, Iskandar Zulqarnaynning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat “Buyuk Iskandar tarixi” nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolomey Lag va Iskandar Zulqarnaynning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan.

Kvint Kurtsiy Rufning asarida O’zbekiston hududining Iskandar Zulqarnayn qo’shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo’zg’olon keng yoritib berilgan.

“Buyuk Iskandar tarixi” 1841-yili Myuttsel, 1867-yili T.Nyoldeke va 1885-yili Fogel tomonidan nashr etilgan. Ruscha yangi tarjimasi V.S.Sokolov tahriri ostida chop etilgan (M., 1963).

### **1.3.6. Gay Pliniy Sekund**

Gay Pliniy Sekund (24–79) – rimlik mashhur yozuvchi, tarixshunos olim va davlat arbobi, 79-yili mashhur Vezuviy vulqonining otlib chiqishi natijasida yuz bergen umumxalq fojiasi vaqtida halok bo’lgan.

Gay Pliniy Sekund – sermahsul olim, 20 kitobdan iborat “Germanlarning urushlari”, ikki jiddan iborat “Pomponiy Sekundning hayoti” va 37 kitobdan iborat “Oddiy tarix” nomli asarlar yozib qoldingani ma’lum.

Pliniyning germanlar tarafidan Reyn va Dunay bo'yłari mamlakatlarining bosib olinishi tarixidan bahs yurituvchi "Germanlarning urushlari" nomli asari bizning davrimizgacha yetib kelmagan, lekin u Kornelyi Tatsitning (taxminan 56–117) "Solnomalar" (imperator Oktavian Avgust vafotidan (milodning 14-yili) Neronning halok bo'lishigacha (milodning 68-yili) bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi) hamda "Germaniya" (unda german va boshqa qabilalarning tarixi bayon etilgan) nomli asarlari uchun birinchi manba bo'lgan.

"Pomponiyning hayoti"da Pliniy sobiq boshlig'i Pomponiy Sekundning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Bu asar ham bizning zamonomizgacha yetib kelmagan.

"Oddiy tarix" Gay Pliniy Sekundning shoh asari hisoblanadi va unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Unda muallifning o'z manbalariga jiddiy va tanqidiy munosabatda bo'Imaganligi, ayrim dalil va voqealarni buzib ko'rsatilganligi sezilib turadi. Bu kitob antik dunyo tarixi bo'yicha keng ma'lumot beruvchi qomusiy asar sifatida e'tiborga sazovordir.

"Oddiy tarix"da O'zbekistonning ham qadimiy tarixi, unda yashagan xalqlar, masalan, skiflar, Oks – Amudaryo, Yaksart – Sirdaryo va skifcha joy nomlari, tabiiy boyliklari, Antioxiya shaharlarining barpo etilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

### 1.3.7. Polibiy

Polibiy (miloddan avvalgi 201–120) – yirik yunon tarixchisi, 40 kitobdan iborat "Umumiylar tarix" asari bilan mashhur. U Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning 220–146-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Umumiylar tarix yo'naliishida yozilgan bu asarning katta qismi saqlanmagan, bizgacha faqat 1–5-kitoblarga yetib kelgan, xolos.

Polibiyning "Umumiylar tarixi" daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Unda Oks – Amudaryo va Yaksart – Sirdaryo haqida, Antioxiya ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor.

"Umumiylar tarix"ning matni 1889–1905-yillar orasida to'rt jilda Leyptsigda chop etilgan. Uning inglizcha (V.R.Paton, London, 1922–1927; ikkinchi nashri, London, 1957–1960) va ruscha (F.G.Mishchenko, 1–3-jildlari. M., 1890–1899) tarjimalari mavjud.

O'zbekistonning qadimiy tarixini o'r ganishda Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlari benihoyat qimmatlidir.

Efor (miloddan avvalgi taxminan 405–330-yillar), Klavdiy Ellian (taxminan milodning 170–235-yillari), aleksandriyalik Kliment (milodning II asri), Korneliy Tatsit (taxminan milodning 56–117-yillari), Ksenefont (taxminan miloddan avvalgi 430–355-yillar), Plutarx (milodning 46–127-yillari), Polien (milodning II asri) va boshqalarning asarlari ham ana shunday qimmatga egadir.

Geograf olimlardan Strabon va Ptolomey asarlari ham zo'r ilmiy qiyamatga egadir.

### 1.3.8. Strabon

Strabon (miloddan avvalgi 63 – milodning 23) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohlaridan), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotelning (miloddan avvalgi 384–322) shogirdi, qariyb 80 yil umr ko'rgan.

Strabonni dunyoga tanitgan uning 17 kitobdan iborat “Geografiya” nomli asaridir. Asarning 1–2-kitoblari “Muqaddima” deb ataladi va unda geografiya ilmi va uning hokimlar, sarkardalar va savdogarlar faoliyatidagi o'rni va roli haqida gap boradi. Eratosfen, Poseydon va Polibiyning Yer tuzilishi haqidagi ta'limoti tanqid qilinadi, Yer yuzini tavsiflash haqida umumiy tushuncha beriladi.

3–10-kitoblarida Yevropa mamlakatlarining tavsifiga, shundan 8–10-kitoblar Ellada va unga tutash mamlakatlarga bag'ishlangan.

Asarda Osiyo mamlakatlariga katta o'rin berilib, ular to'g'risida 11–16-kitoblarda ma'lumot berilgan. 17-kitob Afrika mamlakatlariga bag'ishlangan.

Strabon Polibiyning “Umimiy tarix”ini davom ettirib, unga miloddan avvalgi 146–31-yillar orasida bo'lib o'tgan voqealarni qo'shgan. Afsuski, bu muhim asar bizning zamonimizgacha yetib kelmagan, lekin uning ayrim qismlari, xususan O'zbekiston tarixidan xabar beruvchi ayrim parchalar olimning “Geografiya” nomli asariga kirib qolib saqlangan.

Strabonning “Geografiya”sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Ox (Harrirud), Oks va Yaksart daryolari haqida, O'zbekistonning qadimiy xalqlari – sak, massaget, day, atasiya, toharlar hamda xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, bu xalqlarning turmushi, urf-odati va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtriyaning miloddan avvalgi III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Strabonning ushbu asari 1844 va 1848-yillari Kramer va Myuller

tarafidan, maxsus xarita va tarhlar bilan qo'shib nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831–1834) hamda ruscha (F.G.Mishchenko. M., 1879; G.A.Stratanovich. M., 1964) tarjimalari ham mavjud.

### 1.3.9. Ptolomey Klavdiy

Ptolomey Klavdiy (taxminan 90–160) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlari yozib qoldirgan.

Jahonga mashhur "Almagest" – "Al-majasti" (18 kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini o'z ichiga oladi), "Optika" (5 kitobdan iborat), "Germanlar haqida tushuncha" (3 kitobdan iborat) va, nihoyat, "Geografiya" shular jumlasidandir. Lekin, olimga shuhrat keltirgan asarlari "Almagest" va "Geografiya"dir.

"Geografiya"ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24-bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashiga bag'ishlangan va katta ilmiy qiyamatga ega. Shunisi muhimki, asarda shahar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27ta xarita ilova qilingan.

Ptolomeyning "Geografiya" sida Girkanlya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan<sup>1</sup>.

Yunon va Rim olimlarining tarix va geografiyaga oid asarlari ma'lum darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.\*

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston tarixiga oid qanday Eron manbalarini bilasiz?
2. «Shohnoma» asarida O'zbekiston tarixiga oid qanday ma'lumotlar bor?
3. Hindlarning «Mahobharat» asarida qadimgi O'zbekiston to'g'risida qanday ma'lumotlar bor?
4. Qaysi Yunon tarixchilarasi asarida Iskandarning yurtimizga yurishi aks etgan?
5. «Avesto»da qanday tarixiy ma'lumotlar mavjud?

<sup>1</sup> Yuq. asar. 34–41-betlar.

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asari asosida yoritildi.

## 2-MAVZU. VI–VIII ASRLAR MANBALARI

**Darsning mazmuni:** VI–VII asrlardagi tarixiy voqealar aks etgan so'g'diy, turkiy va Xitoy manbalari to'g'risida ma'lumotlar keltiradi.

### Reja:

- 2.1. Muhim siyosiy voqealar.
- 2.2. Qadimgi Turk manbalari.
- 2.3. Xitoy manbalari.
- 2.4. So'g'd tilidagi manbalar.

**Asosiy tushunchalar:** estaliylar, xeptal, haytal, runiy yozuv, so'g'd tili, bitik.

### 2.1. Muhim siyosiy voqealar

V–VI asrlarda O'zbekiston tarixi Eftaliylar va Eftaliylar davlati tarixi bilan bog'liqdir. Tarixiy manbalar, shuningdek, arxeologik qazishlar bergan ma'lumotlarga qaraganda Eftaliylar saklar va masagetlarning avlodlaridir.

Eftaliylar juda katta hududda o'z hukmronliklarini o'matdilar. Ularning davlatiga Sharqiy Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan yerlar qarar edi. Eftaliylar milodning 457-yilida Chag'anion, Toxariston va Badaxshonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. Eron shohi sosoniy Firuz (459–484) Eftaliylarga qarshi uch bor qo'shin tortti, lekin uning barcha yurishlari mag'lubiyat bilan yakunlandi. Buning ustiga Eron Eftaliylarga o'lpon to'lab turishga majbur bo'ldi. Shundan keyin Eftaliylar Marv va Kobulni, oradan ko'p vaqt o'tmay, Sharqiy Turkistonni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar.

Eftaliylar Turon, Eronning sharqiy tumanlari, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston hamda Sharqiy Turkiston ustidan hukm yurgizdilar.

563–567-yillari turk xoqoni Istemi (Dizovul) Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, Eftaliylar davlatiga zarba berdi va ularga qarashli yerkarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada Turk xoqonligi Amudaryo va Orol dengizigacha cho'zilgan o'lkkalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi. VI asrning uchinchi choragida turklar Shimoliy Xitoyda joylashgan Chjau va Si davlatlarini ham bo'ysundirdilar, 576-yili Bosporni (Kerch) egaladilar, 581-yili esa Xersonni qamal qildilar.

VI asr o'rtalariga borib Turk xoqonligi zaminida ilk katta yer egaligi munosabatlari shakllana boshladi. Shuning bilan bir qatorda o'zarlo urushlar kuchaydi va bundan Suy imperiyasi (584–618) hukmdorlari ustalik bilan foydalandilar. Oqibatda Turk xoqonligi ikki qismga – Sharqiy va Garbiy turk xoqonligiga bo'linib ketdi.

Sharqiy turk xoqonligi Markaziy Osiyoda xoqon Shibi davrida (609–619) Suy imperiyasi bilan ko'p urushdi va o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Xoqon Xelu (620–630) davrida ham bu kurash davom etdi. O'sha yillari turklar Xitoya 67 marta bostirib kirdilar. Bu davrda soliqlar ko'paydi, mehnatkash xalqning ahvoli og'irlashdi. Xitoy imperatorlari bundan ustalik bilan foydalandilar va Sharqiy turk xoqonligi ustidan o'z hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin ko'p o'tmay, turklar Xitoy istibdodiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Bunga dastlab Eltarish qoon (Qutlug' qoon), keyinchalik esa uning maslahatchisi To'nyuquq boshchilik qildilar. Natijada 681-yili G'arbiy turklar yana mustaqillikni qo'lga kiritdilar. Xoqon Bilga vafotidan (734) keyin kuchayib ketgan feodal kurashlar natijasida G'arbiy turk xoqonligi mayda qismlarga bo'linib ketdi va keyinchalik uning o'rniga Uyg'ur xoqonligi tashkil topdi.

G'arbiy turk xoqonligi harbiy siyosiy jihatdan birmuncha qudratli edi. VII asrning o'rtalarida unga Sharqiy Turkistondan to Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlar qarardi. Uning ijtimoiy-siyosiy tomondan yuksalishida Marv, Chorjo'y, Buxoro, Samarqand, Choch, Ispijob kabi shaharlarning o'sishi va Xitoy, Eron hamda Vizantiya bilan olib borilgan savdo-sotiq ham sabab bo'ldi. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, G'arbiy turk xoqonligi poytaxti Suyabda har yili katta yarmarkalar tashkil etilib, unda ko'pgina xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar ham qatnashgan.

G'arbiy turk xoqonligining xalqi xoqon Shabolo Xilishi hukmronligi yillari 10 toifaga bo'lingan. Masalan, Chu daryosining o'ng tarafida istiqomat qiluvchi xalqlar Nushibi (5 toifa), daryoning so'l sohilida istiqomat qiluvchilar esa Dulu (5 toifa) deb atalgan. Ko'p o'tmay bu toifalar o'zlarining mustaqil davlatini tuzib oldilar. Bu o'zaro feodal kurashning kuchayishiga olib keldi. Xitoy qo'shnlari bundan foydalanib, 658-yili G'arbiy turk xoqonligi yerlariga bostirib kirdilar, lekin uni tamoman bo'ysundira olmadilar. Xoqon Ashina Xudaydao uni yana tiklashga muvaffaq bo'ldi. Biroq, katta yer egaligi, o'zaro kurashlar va shimoldagi qo'shni xalqlar, xususan qorliqlarning xurujlari natijasida xoqonlik inqirozga yuz tutdi. VIII asrning ikkinchi yarmida hokimiyat tamoman qorliqlar qo'liga o'tdi. Ular 766-yili Suyabni bosib oldilar va uni o'z poytaxtlariga aylantirdilar.

G'arbiy turk xoqonligi markazlashmagan davlat bo'lib, 15ga yaqin mustaqil hokimliklardan, So'g'dda yuechji xalqidan chiqqan jabg'u, Buxoroda mahalliy buxorxudot, Farg'onada ixshidlar kabilardan tashkil topgan edi.

Xoqonlik tarkibiga kirgan xalqlar bir qismi So'g'd, Xorazm, Toxariston, Farg'ona dehqonchilik, shahar aholisi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan, uning tog'li va cho'l tumanlarida istiqomat qiluvchi katta qismi esa chorvachilik bilan shug'ullangan.

Arablar istilosи arafasida O'zbekiston mayda-mayda davlatlardan iborat edi. Sharq va xitoy tillarida yozilgan manbalar ma'lumotlariga qaraganda VIII asr boshlarida yurtimizda 15 yaqin mustaqil davlatlar bo'lib, bularning eng kattasi Xorazm, So'g'd, Buxoro, Chag'oniyon, Toxariston, Ustrushona, Choch va Farg'ona hisoblangan. Ularning podshohlari jabg'u (knyaz), xudot, ixshid va ispahbed deb atalardi.

Arablar O'zbekiston hududiga 674-yildan boshlab bostirib kira boshladilar. Bosqinchi qo'shinlarga xalifalikning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod boshchilik qilar edi. O'shanda ular Poykent va Buxoro shaharlari hamda ularning tevarak-atrofidiagi tumanlarni talontaroj qildilar va katta o'lja (1 mln dirham pul, 4000 asir va boshqalar) bilan qaytdilar. Bundan keyin ham arablar O'zbekiston ustiga ko'p marta talonchilik yurishlarini uyuştirdilar.

705-yildan boshlab arablarning O'zbekiston ustiga istilochilik yurishlari kuchaydi. Bunga arablarning Xurosondagi yangi noibi Qutayba ibn Muslim (715-yili hozirgi Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida, hozirgi Shurunch mozor, aslida Qilich mozor temir yo'lbekati yonida o'ldirilgan) boshchilik qildi.

Arab qo'shini 706-yili Omul (Chorjo'y), Zamm (Karki), Buxoro hamda Poykent shaharlarini, 709-yili esa Buxoroning mustahkam qal'alaridan Shofurkon (Vardanza)ni, 710-yili esa Kesh va Nasafni zabt etdi. Buxoro, So'g'd, Vardanza va Farg'ona hukmdorlari turklar bilan qo'shilib arab istilochilariga qarshi ittifoq tuzishga harakat qildilar, lekin o'zaro kelishmovchiliklar va ixtiloslar ittifoqning mustahkamlanishiga yo'l bermadi. Qutayba bundan ustalik bilan foydalandi va ular bilan birma-bir kurashda g'alaba qozondi.

712-yili Qutayba o'zaro ichki kurashlardan foydalanib, xiyonatkorona tarzda Xorazmni ham bo'ysundirdi. Samarqand podshohi G'urak (710–737) bilan tuzilgan bitim shartlariga binoan Samarqand va So'g'diyona xalqi arablarga har yili 2 million 200 ming dirham miqdorida o'lpon to'lash va arab qo'shiniga 100 ming kishi to'plab berishga majbur etildi. 713–715-yillari Qutayba Choch (Toshkent) hamda Farg'ona viloyatlarini, shuningdek Yettisuv va Koshg'argacha bo'lgan yerlarni bosib oldi.

Arab istilosи O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotiga katta zarar yetkazdi, ko'plab katta va boy shaharlarning kuli ko'kka

sovurildi, ming-minglab kishilarning “yostig‘i quridi”, Marv, Buxoro, Samarqand va Xorazm kutubxonalarida saqlanayotgan juda ko‘p noyob asarlar yo‘q qilindi.

Arab istilochilar mahalliy xalqlarni ham majburan islom diniga kiritdilar, mehnatkashlar zimmasiga og‘ir soliqlar va jarimalar – xiroj, jizya, zakot yuklatildi, aholining yarim mulki arab qo‘smini foydasiga musodara qilindi.

O‘zbekiston xalqlari arab istilochilar zulmiga qarshi bir necha bor qo‘zg‘olon ko‘tardilar. VIII asrning o‘rtalarida bo‘lgan Is’hoq turk qo‘zg‘oloni, 769–776-yillarda butun Movarounnahrni larzaga solgan Muqanna (783-yili o‘ldirilgan) boshchiligidagi bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon, 806-yili Rafi’ ibn Lays boshchiligidagi So‘g‘dda bo‘lib o‘tgan dehqonlar qo‘zg‘oloni shular jumlasidandir.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi katta tafovut, ularning etnik jihatdan bir xil emasligi, ular o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning zaifligi, ayniqsa, yersuv va boylikning tobora mahalliy boshliqlar qo‘lida to‘plana borishi va nihoyat, mahalliy aholi va bosqinchilar o‘rtasidagi ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi xalq harakatlari va o‘zaro kurashni kuchaytirib yubordi. Bu hol, o‘z navbatida, arab xalifaligining inqirozini tezlashtirdi. IX asrning birinchi choragida uning zaminida mustaqil mahalliy davlatlar paydo bo‘ldi. Masalan, Misrda Tuluniylar (868), Tabaristonda Aliylar (864), Xurosonda Tohiriyalar (821), Seistonda Safforiylar (867) va nihoyat, Movarounnahrda Somoniylar (819) hokimiyat tepasiga keldilar. Boshqa o‘lkalarda ham shunday ahvol yuz berdi. Qisqasi, 935-yildan boshlab Abbosiylar xalifalikda o‘z siyosiy mavqelarini tamoman yo‘qotdilar va nomigagina xalifa bo‘lib qoldilar.

## 2.2. Qadimgi Turk manbalari

Qadimgi Turk manbalari orasida XVII asrda Sibir hamda Mo‘g‘ilistonda, Oltoy hamda O‘zbekistonda topilgan runiy bitiklar alohida qiymatga ega. Bu yozuvlarning yetti guruhi – Lena – Baykalbo‘yi bitiklari, Yenisey, Mo‘g‘uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo bitiklari ma’lum. Bu bitiklar O‘zbekiston xalqlarining arablar istilosini arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o‘rganishga yordam beradi.

### 2.2.1. Yenisey bitiklari

Yenisey bitiklari mashhur rus xaritashunos olimi S.U.Remezov (taxminan 1642–1720-yy.) tarafidan XVII asr oxirida Yenisey havzasini

(hozirgi Xakas avtonom viloyatiga qaraydi) topilgan. Undan keyin bu haqda shvetsiyalik harbiy asir F.Stralenberg (Tabbert) ma'lumot beradi. U Yenisey havzasidagi qabrtoshlardan toshga o'yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida "Сибирский вестник" jurnalida e'lon qilindi. 1889-yili fin olimlari Yeniseydan topilgan yozma yodgorliklar xaritasini tuzdilar.

## 2.2.2. Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar

Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar orasida To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon va Ongin muhim o'rinn tutadilar.

To'nyuquq bitigi Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonning (681–691) maslahatchisi, sarkarda To'nyuquqqa atalgan va 712–716-yillari yozilgan. 1897-yili rus olimi D.A.Klemens (1848–1914) va uning xotini Yelizaveta Klemenslar tarafidan ochilgan, V.V.Radlov (1899), V.Tomsen (1922), X.Sheder (1924), D.Ross (1930) hamda G.Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. Obida G'.A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982).

Kul tegin bitigi Bilga xoqonning (716–734) inisi Kul tegin (731-yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko'kshin O'rxun daryosi bo'yidan rus arxeolog va etnograf olimi N.M.Yadrinsev (1842–1894) tomonidan 1889-yili topilgan.

Bitik V.V.Radlov (1891), A.Xeykel (1892), V.Tomsen (1896), P.M.Melioranskiy (1897), X.Sheder (1924), S.E.Malov (1951), G.Aydarov (1971) lar tomonidan nemischa, fransuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. G'.A.Abdurahmonov va A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qilingan qisqacha tarjimasi (1982) ham bor.

Bilga xoqon bitigi Kul tegin bitigi topilgan joydan 1 km janubi-g'arbda – Ko'kshin O'rxun daryosi havzasida topilgan. Bu obida 735-yili bitilgan. Uni V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan o'rganilgan va chop etilgan.

Ongin bitigi Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan va kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba'zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilga olingan Eltarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qo'yilgan (735-y.), boshqa fikrga ko'ra Qopag'on xoqonga (691–716-yy.), yana bir ma'lumotga (J.Klossen) qaraganda Bilga xoqonning harbiy

boshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731-yilda o'lgan) sharafiga qo'yilgan.

Obida 1892-yili V.V.Radlov tarafidan (estompaji) va 1957-yili J.Kloson tomonidan (inglizcha tarjimasi va tadqiqot bilan) nashr qilingan.

Bulardan tashqari, Qarabalsag'un shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xayto Tamir, Cho'yren, Beyshin-Udzur, Bayan-Xo'ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qo'shog'och hamda tog'li nohiyalaridan topilgan bitiklarni aytib o'tish mumkin. Bular O'rxun-Yenisey bitiklaridan farqli o'laroq, etnografik materialga boydir. Oltoydan topilgan yozuvlar P.M.Melioranskiy, E.R.Tenishev, A.K.Borovkov, K.Seydakmatov, V.M.Nadelyayev hamda D.D.Vasilyev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g'orlarga joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o'rinnutadi. Bitiklar V.Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qirg'izistonda topilgan bitiklar (asrimizning 60-70-yillarida topilgan) hali chuqur o'rganiilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayrитом, Тераксой, Қулонсой, Толдиқо'ғон, Уржор, Сирдарё, Ила, Олма Ота, Толғар, Тинбас ва һоказо) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kash etadi.

Qozog'iston hamda Qing'iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S.Sodiqov, M.E.Masson, A.N.Bernshtam, A.S.Omanjolov, G.Musaboyev, Ch.Jumag'ulov hamda G.Karag'ulovlar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgand, Kosirnihon, shuningdek So'g'ddan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, E.R.Tenishev, Yu.A.Zadneprovskiy tarafidan o'rganilgan.

Umuman, qadimiy turk runik yozuvlari xalqimiz tarixini yoritishda juda qimmatli manbadir.

### 2.3. Xitoy manbalari

Xitoy manbalari haqida so'z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin, xitoy manbalarida bo'lib o'tgan

voqealarning vaqtiga va o'rni, bir-biriga qarshi turgan qo'shinchilarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi.

Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o'ynaydi.

### 2.3.1. «Shi Szi»

“Shi Szi” (“Tarixiy esdaliklar”) xitoy tarixshunoslarining otasi hisoblanadigan Sima Syanning 130 bobdan iborat asaridir.

Sima Syan — (taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135–86-yillar) Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy tarixchisi Sima Txan oilasida tug'ilgan, mamlakat bo'ylab ko'p sayohat qilgan, otasi vafot etgandan keyin (miloddan avvalgi 108-yili) uning o'rniqa saroy tarixchisi sifatida qabul qilingan. Miloddan avvalgi 98-yili imperatorga qarshi chiqib, sarkarda Li Linni himoya qilgani uchun qattiq jazoga tortilib, saroydan quvib yuborilgan. Lekin, u ruhiy tushkunlikka tushib qolmadidi va bo'lajak tarixiy kitobi ustidagi ishni davom ettirdi. Ko'p vaqt o'tmay, Sima Syan yana saroya taklif etildi va imperator Bosh mahkamasi boshlig'i etib tayinlanadi, kitobini yozib tamomlashga sharoit yaratib beriladi.

Uning “Shi Szi” nomli asarida Xitoyning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o'tgan tarixi bayon etilgan. Asarda O'zbekiston, uning 123-bobida xususan Farg'ona va uning qadimiy xalqi hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar mayjud.

“Shi Szi”ning to'la matni olti jild qilib 1959-yili Pekinda e'lon etilgan. Rus tiliga tarjima etilib (I.Ya.Bichurin, L.S.Vasilyev, L.S.Perelomov, Yu.L.Krol va boshqalar), 1972, 1975, 1984, 1986-yillari chop etilgan. E.Shavann (1865–1905) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, 1895–1918-yillari 5 jilda bosmadan chiqqan.

### 2.3.2. «Syan Xan shu»

“Syan Xan shu” (“Avvalgi Xan sulolasining tarixi”) yirik tarixchi olim Byan Gu (39–92) asaridir. Tarixchi Anlin (Shensi viloyati) shahrida G'arbiy Xan sulolasini (miloddan avvalgi 206 – milodning 220-y.) xizmatida turgan yirik mansabdar va tarixshunos oilasida tug'ilgan. 47–55-yillari Loyanda oliy ta'llim olgan, 58–82-yillari o'z asarini yozgan.

“Syan Xan shu”ning 95-bobida O'zbekiston (ayniqsa, kangli, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

“Syan Xan shu” 1962-yili Pekinda 12 jilda nashr qilingan. Inglizcha tarjimasi (G.Dubs, Baltimor, 1938–1944) ham bor.

### **2.3.3. «Xou Xan shu»**

“Xou Xan shu” (“Keyingi Xan sulolasi tarixi”) tarixchi Fan Xua (398–445) asari. Olim avvalgi Xan sulolasi (25–220)ga xizmat qilgan. Kichik davlat lavozimida turgan va 424-yili viloyat hokimligiga ko‘tarilgan. Davlatga qarshi isyonda qatnashganlikda ayblanib qatl etilgan.

“Xou Xan shu” Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixni o‘z ichiga olgan katta asar (130 bobdan iborat). Unda O‘zbekiston, Sharqiy Turkiston va Jung‘oriyaning 25–221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar bor.

### **2.3.4. «Bey shu»**

“Bey shu” (“Shimoliy sulolalar tarixi”) 100 bobli asar bo‘lib, Tan sulolasi (618–907) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan-shou (taxm.595–678) qalamiga mansub. Unda Shimoliy Xitoyda Vey (386–535), Si (550–577), Chjou (557–581) sulolasi hukmronligi, ya’ni 386–581-yillar tarixi bayon etilgan.

Asarda O‘zbekiston, xususan Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

“Bey shu”ning matni 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

### **2.3.5. «Suy shu»**

“Suy shu” (“Suy xonadonining tarixi”) Xitoy tarixchilarini jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580–643) – Tan sulolasi davrida o‘tgan tarixchi, imperator Chjen-Guan (626–650) davrida uning o‘g‘li va toj-u taxt vorisiga tarbiyachi bo‘lgan, Yan Shi-Gu hamda Kxun In-da bilan bingalikda ishtirot etib, asarda Xitoyning Suy sulolasi davrida, V–VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yili yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa 20-yil vaqt ketgan.

Asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo‘shtinning tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma’lumotlarni uchratamiz. Ko‘p jildli “Sulolalar tarixi” tarkibida 9-jild sifatida 1958-yili Shanxayda bosilgan.

### **2.3.6. «Szyu Tan shu» va «Sin Tan shu»**

“Szyu Tan shu” (“Tan sulolasining eski tarixi”) imperator Jen-Izzun (1023–1063)ning topshirig‘i bilan 940–945-yillari yozilgan.

O‘yan Syu (1007–1072) va Sun Si (998–1061) 960–1279-yillari hukmronlik qilgan Sun (Janubiy va Shimoliy Xitoy) sulolasi tarixchilarini

1043–1060-yillari shu sulolaning yangi tarixi “Sin Tan shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”)ni yozganlar. Har ikkala asar ham o‘ziga xos afzalliklariga ega bo‘lib, ma’lum darajada bir-birini to‘ldiradi.

XVIII asrda tarixchi Shen Bin-chjen har ikkala tarixni bir-biriga bog‘lab, unga “Sin szyu Tan shu xechao” (“Tan sulolasining bir-biri bilan qo‘shilgan yangi hamda eski tarixi”) deb nom qo‘ydi. Asarda 618–907-yillar voqealari bayon etilgan.

“Sin Tan shu”da O‘zbekiston janubi, Afg‘oniston, Eron hamda Sharqiy Turkiston haqida ma’lumotlar uchraydi.

1958-yili ko‘p jildli “Sulolalar tarixi”ning-12 jildi sifatida Shanxayda chop etilgan.

## 2.4. So‘g‘d tilidagi manbalar

So‘g‘d tilidagi manbalar, asosan IV – X asrlarga oid bo‘lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar – ahdonmalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar, So‘g‘d, Shosh, Turk va Farg‘ona hukmdorlari o‘rtasidagi yozishmalar, xo‘jalikning kundalik faoliyatiga oid hujjatlar, masalan, harajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So‘g‘diyonaning o‘zidan, Mug‘ qal’adan, Samarqandda Afrosiyobdan, Qirg‘iziston va Sharqiy Turkistonda topilgan.

Bular orasida Mug‘ qal’a xarobalaridan 1932-yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar bahorda Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zahmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog‘ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari A.Po‘lotiy tomonidan ochilgan. Hujjatlar jami 79 ta bo‘lib, bulardan 74 tasi so‘g‘d, 1 dona arab, 3 tasi xitoy va yana biri turk tilidadir. Ular turli materiallarga – charmga, taxtaga va qog‘ozga yozilgan. Hujjatlar so‘g‘d dehqoni, katta yer egasi, podshohi Devashtich (708–722) va yirik mansabdorlar – framandarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo‘lib, So‘g‘dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba rolini o‘ynaydi.

Mug‘ qal’asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A. V.Vasilyev, I.Yu.Krachkovskiy, M.N.Bogolyubov, V.A.Livshits, M.Is’hoqov, O.N.Mansurov hamda O.I.Smirnovalar tarafidan chuqur o‘rganilgan.

Mug‘ qal’asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma’lumotlar 1934-yili maxsus to‘plam shaklida (“Согдийский сборник”. Л., 1934) e‘lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Yu.Krachkovskiy va A.A.Freyman tomonidan 30-yillarda e‘lon qilindi. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan (Согдийские

документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Вып. II. 1962.) V.A. Lifshits tomonidan chop qilindi.

1961 va 1965-yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V–VI asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga so'g'd tilida o'n olti satrda iborat ishonch yorlig'i yozib qo'yilgan edi. Bu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqanda topilgan yozuvlar IX asrga oid uch tilda – so'g'd, qadimgi turk va xitoy tilida yozilgan turk xoqonining qabr toshidagi bitikdir.

Bunday hujjatlar so'g'diyrlarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniylaridan ham topilgan. Bular orasida, ayniqsa A.Steyn (1862–1943) tarafidan 1907-yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joydashgan Qulonsoy hamda Teraksoy daralarida qoya toshlarga o'yib bitilgan yozuvdar alohida e'tiborga molik. Bu yozuvlar IV–XI asrlarda So'g'd koloniylarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda so'g'diyrlarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A.Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V.A. Kallaur, M.E. Masson, D.F. Vinnik, A.A. Asanaliyev, K.Ashiraliyev, U.Jumag'ulovlar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimiz tarixi, xususan unda yashagan qadimiy xalqlar tarixini o'rganishda, so'g'd tilida yozilgan "Xalqlar ro'yxati" deb atalgan bir hujjat (VIII asr) o'ta muhimdir. Unda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elatning nomi keltirilgan.\*

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qanday turkiy tildagi bitiklarni bilasiz?
2. Qaysi Xitoy manbalarida VI–VIII asr O'zbekiston tarixi yoritilgan?
3. Mug'qal'asidan topilgan So'g'd tilidagi hujjatlarning ilmiy ahamiyati nimada?
4. So'g'd tilidagi manbalarni kimlar o'rgangan?
5. Turkiy tildagi bitiklarni kimlar o'rgangan?

\* Ushbu mavzni B. Ahmedov asari asosida yoritildi.

### 3-MAVZU. IX – XII ASRLAR MANBALARI

**Darsning mazmuni:** Ushbu darsda talabalarga IX–XII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va bu davrda yaratilgan arab, fors va turkiy tildagi asosiy tarixiy manbalar va ularning umumiy xususiyatlari to'g'risida tasavvur beriladi.

#### Reja:

- 3.1. Asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar.
- 3.2. Huquqiy hujjatlar va yozishmalar.
- 3.3. Arab tilida yozilgan manbalar.
- 3.4. Arab tilidagi manbalarning xususiyatlari.

**Asosiy tushunchalar:** Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Buvayhiylar, Ziyoriylar, qoraxitoylar, Xorazmshohlar.

#### 3.1. Asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar

Bag'dod xalifaligining sobiq hududida tashkil topgan eng yirik davlatlardan biri Somoniylar davlati (819–999) edi. Unga Nuh ibn Asad (819–842) asos soldi. Bu davlat, ayniqsa X asrning birinchi yarmida–Ismoil ibn Ahmad davridan (892–907) boshlab kuchaydi. Somoniylar Movarounnahr, Xuroson, Eron, hozirgi Afg'onistonning katta qismi, shuningdek, Toshkent, Turkiston va Ispijob (Sayram) ustidan o'z hukmronligini o'rnatdilar.

Somoniylar yirik yer egalari, nufuzli ruhoniylar hamda yirik savdogarlarning ko'magiga tayanib, feodal tarqoqlik va ichki urushlarga, Ila vodiysida va Sirdaryo bo'yalarida ko'chib yurgan qorliqlarning Movarounnahrning ichki tumanlari ustiga qilib turgan xurujlariga barham berdilar (893). Bu hol mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga yo'l ochdi.

Bu sulola davrida markaziy davlat boshqaruvi birmuncha takomillashdi. Amir davlatni o'nta muassasasi (devon): *devoni vazir* (Bosh mahkama), *devoni mustavfiy* (moliya ishlari mahkamasi), *devoni omid ul-mulk* (insho va elchilik idorası), *devoni sohib shurat* (amir gvardiyasi ishlari bilan shug'ullanuvchi idora)<sup>1</sup>, *devoni sohib barid* (pochta ishlari mahkamasi), *devoni mushrif* (o'ziga xos davlat xavfsizligi idorası), *devon ad-diya* (amirning yer-mulkini boshqartuvchi idora), *devoni muxtasib* (shariat ishlari mahkamasi), *devoni vaqf* (vaqf ishlarini nazorat qiluvchi idora), *devoni*

<sup>1</sup> Amir gvardiyasi turk g'ulomlaridan tashkil topgan va davlatni idora qilishda katta rol o'ynagan.

*quzzot* (qozilik mahkamasi) yordamida boshqargan. Lekin, davlatni boshqarishda turk amirlarining roli juda katta bo'ldi.

Somoniyalar davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Buni Buxoro, Samarqand, Marv, Balx, G'azni, Hirot va Toshkent kabi yirik, taraqqiy etgan shaharlar misolida ko'ramiz. Bu davlatning Hazar xoqonligi, Bulg'or xonligi, Rus va Xitoy bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari birmuncha rivoj topdi.

Bu davr ilm-fan va madaniyatning o'rta asr sharoitida benihoyat rivojlangan davri hisoblanadi. Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy singari ulkan shoirlar, Farobiy, Beruniy, Ibn Sinodek allomalar yetishib chiqdilar.

Katta yer egaligi munosabatlarning rivojlanishi, mahalliy yer egalari bilan byurokratik apparat, katta yer egalari bilan ijrarachi dehqonlar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida o'zaro feodal kurash va yirik yer egalarining ayirmachilik – ajralib chiqishga bo'lган harakati kuchayib ketdi.

X asr oxirlariga kelib feodal tarqoqlik yanada kuchaydi. Hamadon, Isfahon va Rayda Buvahiyalar, Tabariston va Jurjonda Ziyoriyalar mustaqillikka erishdilar. 962-yilda Somoniylarning G'aznidagi noibi Alptakin ham mustaqillik e'lon qildi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, shuningdek, Chag'oniyon va Xorazm ham Somoniylarga itoat etishdan bosh tortdilar.

Mamlakatda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy parokandalikdan Qoraxoniylar ustalik bilan foydalandilar. Ular 996-yili Zarafshonning shimoliy tarasidagi barcha yerlarni, 999-yili esa Buxoroni ishg'ol etib, Somoniylar hukmronligiga barham berdilar.

Qoraxoniylar (X asrning 90-yillarda Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy qismida tashkil topgan feudal davlatga asos solgan sulola) 996–999-yillari Nasr ibn Ali (1012-yili vafot etgan) boschchiligidida butun Movarounnahrni egalladi. Faqat Somoniylar lashkarboshisi Abu Ibrohim Ismoil (Muntasir) 1001-yilgacha Qaroxoniylar bilan kurashdi, lekin ulardan ustun kelolmadi.

Nasr ibn Alidan keyin Movarounnahrni Iligxon Ali takin(1034-yilning kuzida vafot etgan) idora qildi. 1025-yili Koshg'ar xoni Qodirxon (Tang'ochxon) bilan Mahmud G'aznaviy (998–1030-yy.) birgalikda Movarounnahr ustiga yurish boshladilar. Ali takin Buxoro va Samarqandni qoldirib cho'lga chekinishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar Movarounnahrda o'zlarining harbiy-siyosiy mavqelarini mustahkamlay olmadilar va uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar.

1032-yili Xorazm hukmdori Oltintosh (1017–1032) ham urinib ko'rdi, lekin uning barcha harakatlari zoye ketdi. Tarixiy manbalar, masalan, Abulfazl Bayhaqiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Ali takindan keyin

taxminan 1040-yilga qadar uning o'g'illari hukmronlik qildilar. Ulardan keyin 1060-yilgacha Abu Is'hoq Ibrohim ibn Nasr hukm yuritgan. U Qoraxoniylar poytaxtini O'zganddan (Farg'ona vodiyisidan) Samarqandga ko'chirib olib keldi. Uning vasotidan keyin o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Bu kurashda Abu Is'hoq Ibrohim ibn Nasrning Shams ul-mulk Nasr ismli o'g'li g'olib chiqdi.

Shams ul-mulk Nasr davrida (1068–1080) Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida Termiz va Balx uchun kurash kuchaydi. Buning ustiga Tamg'ochxon Qodir Yusuf va uning o'g'illari unga qarshi kurash boshladilar va Sirdaryoning shimoliy sohilidagi yerlarni hamda Farg'onani undan tortib oldilar.

Abu Is'hoq Ibrohim ibn Nasr va uning avlodini bilan muslimon ruhoniylari o'rtasidagi ziddiyatlar Shams ul-mulkning taxt vorislari Xidir va Ahmad (1081–1089) davrida benihoyat kuchaydi. Saljuqiy Malikshoh I 1089-yili Movarounnahrga qo'shin tortib, Buxoro va Samarqandni zabt etdi. Lekin, Saljuqiylar tez orada sulh tuzib, Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Sulton Sanjar davrida (1118–1157), 1130-yildan boshlab, Qoraxoniylar unga tobe bo'lib qoldilar. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi – viloyat va o'lkalarning ko'pchiligi mustaqillik e'lon qildi. Ana shunday mustaqil viloyatlardan biri Buxoro bo'lib, bu yerda hokimiyat Sadrlar (Burboniylar) deb ataluvchi ruhoniylar sulolasi (1130–1207) qo'liga o'tdi.

Qoraxoniylar inqirozga yuz tutgan va Movarounnahr tarqoqlik iskanjasiga tushib qolgan paytda, uning shimoli-sharqiy va g'arbiy tarafida ikki yirik harbiy siyosiy kuch paydo bo'ldi. Bularidan biri qoraxitoylar bo'lib (etnik tarkibi aniqlanmagan), ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning asli tungus, ayrim olimlarning fikricha mo'g'ul edi. Ular XII asr boshlarida dastlab Chug'uchak, keyinchalik Bolosog'un shahri bilan birga butun Yettisuv vohasini ishg'ol qildilar. Qoraxitoylarning oliy hukmdori gurxon deb atalgan. Yana bir yirik harbiy siyosiy kuch Xorazmda shakllandi. Ilgari Saljuqiylarga tobe bo'lgan Xorazm 1127-yili mustaqillikka erishdi.

XII asrning 30-yillari boshlaridan qoraxitoylarning Movarounnahrga talonchilik xurujlari boshlandi. Ular Shosh va Farg'ona bilan kifoyalanib qolmay, Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalariga ham kirib bordilar. Qoraxitoylar 1138-yili Samarqand xoni Qoraxoniy Mahmudxonni (1132–1141) tor-mor keltirdilar va katta o'lpon olib, Yettisuvga qaytib ketdilar. 1141-yili ular Samarqandga yaqin Katavon degan joyda Mahmudxon va Sulton Sanjarning birlashgan kuchlarini tor-mor keltirib, Samarqand, so'ngra Buxoroni egalladilar. Lekin, ular Yettisuvdan Movarounnahrga

ko'chib o'tmadilar, balki har yili o'lpon olib turish bilan kifoyalandilar.

Xorazmning mustaqillikka erishuvi Xorazmshoh Otsiz (1127–1156) nomi bilan bog'liq. U qisqa vaqt ichida Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Jand shahrini va Mingqishloqni egalladi. Sulton Sanjar Xorazmni yana bo'ysundirishga harakat qildi, lekin bunga erisha olmadı. El Asrlon (1156–1172) va Sulton Takash (1172–1200) vaqtida Xorazmshohlar davlati birmuncha mustahkamlandi. Xorazmshohlar 1156–1192-yillar orasida Hind daryosidan Iroqqacha bo'lgan yerkarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. Xorazmshoh Muhammad (1200–1220) davlati hududini juda kengaytirdi. 1206 va 1212-yillarda Buxoro va Samarqandni bosib oldi, 1210-yili esa Yettisuva Gurxon qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi va bu bilan qoraxitoylarning Movarounnahrga bo'lgan da'volariga chek qo'ydi. Ammo, bu ulkan davlat markazlashmagan va mustahkam emas edi. Shuning uchun ham u mo'g'ullarning kuchli zarbasiiga dosh berolmadı.

Qoraxoniylar davrida davlat tepasida xon (manbalarda Tomg'ochxon) turgan va u rasman oliy hukmdor hisoblangan, aslida esa nomigagina shunday bo'lib, ijtimoiy-siyosiy hayotda ulus hokimlarining, manbalarda ular iligxon atalgan, tutgan mavqeい kuchli bo'lgan. Ulardan ayrimlari mustaqil siyosat yuritganlar. Farg'ona (markazi O'zgand) hamda Movarounnahr (markazi Samarqand) iligxonlari shular jumlasidandir. Qoraxoniylar davlat tuzulmasi haqida ma'lumot kam. Lekin vazir, sohib barid, mustavfiy atalmish lavozimlarning mavjud bo'lishiga qaraganda, ular davrida ham Somoniylar davlati idoralari saqlangan ko'rindi.

XI asrdan boshlab O'zbekistonda yerga egalik qilishning yangi shakli – iqto', toj-u taxt oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun shahzoda va xonzodalar, amir va mansabdorlarga in'om tariqasida beriladigan yersuv, taraqqiy eta boshladi.

Qoraxitoylar bosib olingan yerkardan o'lpon yig'ib olish (har bir xonadondan bir dinor miqdorida) bilan kifoyalandilar.

Mehnatkash xalqning ahvoli og'ir edi. U ikki tomonlama, mahalliy yirik yer egalari va xorijlik bosqinchilar zu'lmi ostida qoldi, muntazam ravishda xiroj hamda boshqa soliq va jarimalar to'lab turishga, davlat, xon va yirik yer egalarining shaxsiy qurilishlarida tekinga ishlab berishga majbur edilar.

Bu davrda chet el bosqinchilariga qarshi xalq qo'zg'oloni shular bilan bo'ldi. Masalan, 1206-yili Buxoroda va 1212-yili Samarqandda bo'lib o'tgan kosiblar qo'zg'oloni shular jumlasidandir.

X–XII asrlarda O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot birmuncha rivoj topti,

Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Marv, Gurganj kabi shaharlar kengaydi, rivojlandi. Bu davrda Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy (X asr), Mahmud Koshg’ariy (taxminan 1029–1038-yillar orasida tug‘ilgan) kabi zabardast olimlar, Unsuriy, Am’oq Buxoriy, So‘zaniy Samarqandiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Yusuf Xos Xojib Bolasog‘uniy kabi ajoyib shoirlar va adiblar yetishib chiqdilar. Mamlakatimizda ko‘plab masjid, madrasa, karvonsaroylar, baland minoralar va boshqa mahobatli bino va inshootlar barpo etildi. Hazora tumanidagi (Buxoro) Deggaron masjidi, o’sha atrofdagi Raboti malik karvonsaroyi (XI asr), Buxorodagi masjidi kalon (1127-yili qurilib bitkazilgan), Vobkentdagи minora (1198–1199-yillari qurilgan), Shohi zinda va Afrosiyobdagи (Samarqand) ayrim binolar, Xorazmdagi Bo‘ron qal’a, Noib qal’a va Faxreddin Roziy maqbarasi (XII asr), shuningdek, hozirgi Qиргизiston va Turkmaniston o‘rnida qurilgan bino va inshootlar shular jumdasidandir.

### **3.2. Huquqiy hujjatlar va yozishmalar**

O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda ilmiy tekshirish institutlarining kutubxonalarida, davlat tarix arxivida, o‘lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan rasmiy hujjat va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Lekin ularni topish, o‘rganish va o‘z o‘rnida foydalanish o‘ta qiyin bo‘lib, tadqiqotchidan chuqur bilim, maxsus malaka, qunt va sabot-matonat talab qilinadi.

Huquqiy hujjatlarni ham, jamiyatda katta nufuzga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida olib borilgan yozishmalarni ham bir yerdan, aniqrog‘i bir yoki ikki asar ichidan, bir muzey, arxiv va fondidan topib bo‘lmaydi. Ularni barcha muzey, arxiv va fondlar ichidan, qo‘lyozma kitob va chop etilgan asarlardan qidirib topish mumkin.

Huquqiy hujjatlar – podshoh va xonlarning farmonlari, yorliqlari, inoyatnomalar, rahnomalar, vasiqalar, vaqfnomalar va boshqalar O‘zbekistondagi tarix va o‘lkashunoslik muzeylarida, maxsus ilmiy tekshirish institutlari va universitetlarning kutubxonalarida, shuningdek, Davlat tarix arxivlarida hamda shaxsiy majmualarda saqlanadi. Ammo IX–XII asrga oid hujjatlar hali alohida to‘planib o‘rganilganicha yo‘q.

Bu davrda maxsus kotib yoki dabirlikka qancha katta e’tibor berilgani Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “To‘rt maqola” asarida bayon etilib, ayrim maktublar namunalari keltirilgan. Musulmonchilik hujjatlari Burxoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarida keyincha o‘zining rasmiy tavsifini topdi.

### **3.3. Arab tilidagi manbalar**

Quyida arab tilida bitilgan eng muhim manbalar va ularning mualliflari haqida ixcham ma'lumot keltiriladi.

#### **3.3.1. «Kitob at-tarix»**

Ushbu arab tilida bitilgan qimmatli asar muallifi buyuk matematik Muhammad Muso al-Xorazmiy(VIII asr oxiri—IX asr birinchi yarmi)dir. Biz uni birinchi o'rtaosiyolik tarixchi olim deb atashimiz mumkin. Chunki, al-Xorazmiy birinchilardan bo'lib o'zining “Kitob at-tarix” (“Tarix kitobi”) asarini yozgan. Ammo, ushbu asar bizgacha mukammal holida yetib kelgan bo'lmasa-da, undan olingen parchalarni so'nggi davr tarixchilari Ibn an-Nadim, al-Mas'udiy, at-Tabariy, Hamza al-Isfahoniylar o'z asarlarida keltiradilar. Bu kitobni Abu Rayhon Beruniy o'zining “Osor ul-boqiya” asarida ham eslatadi. Mazkur asar xalifalik tarixiga oid ma'lumotlardan iborat bo'lgan.

#### **3.3.2. «Kitob surat al-ard»**

Mazkur asar ham al-Xorazmiy tomonidan yaratilgan bo'lib, yunon olimi Ptolomeyning jug'rofiyaga oid kitobini arab tiliga tarjima qilgan va uni o'zining yangi ma'lumotlari bilan boyitgan. “Kitobi surat al-ard” (“Yer tasviri kitobi”) asarida Kaspiy dengizi yoki Xorazm dengizi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Ushbu tarixiy jug'rofiyaga oid asardagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobning 937-milodiy, hijriy 428-yili ko'chirilgan mo'tabar qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, unga turli xaritalar chizib, ilova qilingan. Ushbu mo'tabar qo'lyozma matni 1926-yili sharqshunos H.M.Mjik tomonidan Leypsigda nashr qilingan. Kitobni o'zbek tiliga A.Ahmedov tarjima qilib, ilmiy sharhlar bilan 1983-yili chop etgan.

#### **3.3.3. «Kitob futuh al-buldon»**

“Kitob futuh al-buldon” (“Mamlakatlarning zabit etilishi”) IX asrda o'tgan yirik geograf va tarixchi olim Balazuriy (vaf. 892)ning asaridir. Muarrif Madoiniyning shogirdi bo'lib, uning to'liq ismi Abubakr Ahmad ibn Yax'yo Jabir al-Balazuriy, asli eronlik Abbosiylardan al-Mutavakkil (847–861) va al-Musta'in (862–866) saroyida tarbiyachi bo'lib xizmat qilgan.

Balazuriy ikki yirik asar “Kitob futuh al-buldon” va “Kitob al-ansob ash-sharif” (“Sharofatli kishilarning nasablari haqida kitob”) ning muallifidir.

“Kitob futuh al-buldon” arab istilolari tarixi bo'yicha eng yaxshi asarlardan biri hisoblanadi. Faqat shu asarda arablarning xalifa Usmon

(644–656) va uning Xurosondagi noibi Abdulloh ibn Amr davrida Mavarounnahrga bir necha bor bostirib kirganliklari va Maymung‘ni (Samarqand tumanlaridan biri) talab qaytganliklari haqida ma'lumot bor.

Asarda arablar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, ularning diqqatga sazovor shaharlari va osori-atiqlari, xalqi, pul muomalasi, undiriladigan soliqlar, shuningdek arab tilining joriy qilinishi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Kitob futuh al-buldon”ning qisqartirilgan tahriri yetib kelgan, xolos. Arabcha matni de Guye tarafidan 1866-yili Leydenda chop etilgan. Uning inglizecha tarjimasi (tarjimonlar Xitti va Murgotten) ham bor. Balazuriyning ushbu asarining to‘liq nusxasi Yoqut va Ibn al-Asir asarlari uchun manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

### 3.3.4. «Kitob masolik ul-mamolik»

Ushbu asar muallifi Ibn Xurdadbeh yoki Abulqosim Ubaydulloh Xurdadbeh (820 – taxm. 913) asli eronlik bo‘lib, u oliy martabali mansabdor xonardoniga mansub edi. Otasi IX asr boshlarida Tabariston hokimi bo‘lgan, Daylam viloyatini bo‘ysundirib, xalifaning diqqat-e’tiborini qozongan. Ibn Xurdadbeh Bag‘dodda o‘qigan va keng ma'lumot olgan. U xalifa Mo’tamid (870–892) davrida yuksak davlat lavozimlarida turgan, dastlab nadim, so‘ng Eronning g‘arbi-shimoliy tarafida joylashgan Jibal viloyatida sohib barid va-l-xabar (pochta va razvedka boshlig‘i) lavozimini egallagan. Ibn Xurdadbeh turli mavzuda adab, tarix, geografiyaga oid o‘nga yaqin asar bitgan bo‘lib, ulardan eng muhimmi “Kitob masolik ul-mamolik” (“Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob”) nomli asari bo‘lib, u 846-yili yozib tamomlangan.

Asarning qisqartirilgan tahriri bizgacha yetib kelgan va M. de Guye tarafidan 1889-yili chop qilingan. Ruscha tarjimasi (tarjimon Noila Velixanova) 1986-yili Bokuda chop etilgan.

Kitobda arab xalifaligi qo‘l ostidagi mamlakatlar, shaharlari, ularga boriladigan yo‘llar, ular orasidagi masofa, aholidan undiriladigan soliq va jarimalarning miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Ayniqsa, qadimiy So‘g‘d shaharlaridan Kushoniya (Samarqand atrofida joylashgan), Samarqand, Ustrushana, Shahriston (Ustrushana shaharlaridan), qadimgi Shosh, Ispijob (Sayram) shaharlarida aholi o‘rtasida muomalada bo‘lgan pul birligi, Nuh ibn Asad (vaf. 842) va Ahmad ibn Asad (819–846) davrida So‘g‘d va Farg‘onaning umumiy ahvoli, Mavarounnahr va Farg‘onada IX asrda istiqomat qilgan turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar benihoya qimmatlidir.

### **3.3.5. «Tarixi ar-rusul va-l-muluk»**

Bu asar muallifi yirik qomusiy olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (836–923)dir. U, Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shahrida tug'ilgan, umrining ko'p qismini Bag'dodda o'tkazgan va shu yerda vafot etgan. Tarixchi xalifalikning ko'p shaharlarini aylanib chiqqan, birmuncha vaqt Ray, Basra, Kufa, Suriya va Misrda turgan.

Tabariy o'z davrining keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, o'ndan ortiq kitob yozib qoldirgan. Musulmon qonunshunoslari orasida mavjud bo'lgan ixtiloslar bayon etilgan “Kitob ixtilos al-suqaho” (“Faqhlar o'rtaсидаги иxtiloslar haqida kitob”), “Qur'oni karim” oyatlari sharhiga bag'ishlangan o'ttiz (boshqa ma'lumotlarga qaraganda qirq) jilddan iborat “Jome' al-bayon at-ta'vil al-Qur'on” (“Qur'on” so'zlari ma'nosining keng bayoni majmuasi”) va nihoyat, “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” (“Payg'ambarlar va podshohlar tarixi”) ana shular jumlasidandir. Tarix ilmi uchun eng muhim so'nggi asar hisoblanadi.

“Tarixi ar-rusul va-l-muluk” yoki qisqa nomi “Tarixi Tabariy” asari umumiylar tarix tipida yozilgan kitob. Lekin, mukammalligi va daliliy materiallarga boyligi bilan boshqa asarlardan tamoman alohida ajralib turadi.

Asarda olamning “yaratilishi”dan to 912–913-yillarga qadar Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi asoratiga tushib qolgan mamlakatlarda, shuningdek, O'zbekiston hududida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilinadi. Voqelar yirma-yil, xronologik tarzda bayon etilgan. Bu esa asardan foydalanishda ko'p jihatdan qulaylik yaratgan. Tabariy mazkur asarini yaratishda yahudiy va xristianlarning naql-rivoyatlari, Sosoniylar (224–651-y.) solnomasi “Xvaday namak” (“Podshohnoma”), al-Voqidiyning (747–823-y.) “Kitob ul-mag'oziy” (“Urushlar haqida kitob”), al-Madoiniyning “Tarixi xulafo” (“Xalifalar tarixi”), Ibn Tayfurning (819–893-y.) “Tarixi Bag'dod” (“Bag'dod tarixi”) kabi asarlaridan keng foydalangan. Lekin, u ko'p hollarda “Hadis ilmi” tamoyiliga ko'ra, ayniqsa asarning qadimiylar tarixga bag'ishlangan qismlarida boshqa manbalardan olingan dalil va ma'lumotlarni aynan keltingan.

Kitobning qadimiylar tarixdan bahs yurituvchi qismlari ham ma'lum ilmiy qiymatga ega. Chunki, bularda bizgacha yetib kelmagan manbalarda (rivoyatlar, “Xvaday namak”, “Tarixi xulafo” va boshqalar) mavjud bo'lgan qimmatli ma'lumotlar, lavhalar saqlangan.

“Tarixi ar-rusul va-l-muluk” musulmon mamlakatlari, shuningdek, Movarounnahrning VIII–IX asr tarixi bo'yicha asosiy va eng mo'tabar manbalardan biri bo'lib, tarix ilmining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Mazkur asarning arabcha ikki xil (mufassal va qisqartirilgan)

tahriri bo'lgan, lekin bizgacha uning faqat qisqartirilgan tahriri yetib kelgan va asar matni gollandiyalik sharqshunos M.Ya. de Guye tomonidan 1879–1901-yillarida 15 jilda nashr etilgan.

Tabariy asarining forsiy tahriri ham bor bo'lib, u Somoni Abu Solih Mansur ibn Nuhning (961–976) vaziri, atoqli ilm-fan homiysi al-Bal'amiy (vaf. 974) tomonidan 963-yili yozilgan.

Bal'amiy tahriri shunchaki oddiy tarjima bo'lib qolmay, balki asarning qayta ishlangan va ayrim hollarda yangi faktlar bilan boyitilganidir.

Unda, birinchidan, qisqartirilgan tahririda uchramaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularni Bal'amiy Tabariy asarining to'la nusxasidan olgan.

Ikkinchidan, Bal'amiy tahriri boshqa manbalar asosida yangi ma'lumotlar bilan to'latilgan.

Tabariyning mazkur asaridan ayrim parchalar bir necha Yevropa tillariga tarjima qilingan. Uning to'liq fransuzcha tarjimasi G.Zotenberg tomonidan 1867–1874-yillari Parijda nashr etilgan.

Asarning forsiy va turkiy tarjimalari ham bo'lib, ularning mo'tabar qo'lyozma nusxalari Sankt-Petburg va Toshkent kutubxonalarida mavjud. Bal'amiy tahririning matni to'liq tarzda Lakxnav, Kanpur (1874, 1896, 1916) va Tehronda (1962, 1967) chop qilingan.

"Tarixi ar-rusul va-l-muluk" asarining qo'lyozma nusxalari MDH, Angliya, Turkiya, Eron va Hindiston kutubxonalarida saqlanadi. Toshkentda, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida arab tilida to'rtta mo'tabar qo'lyozmalari, o'zbek va uyg'ur tillaridagi tarjimalari mavjud. Qisqartirilgan ruscha tarjima (tarjimon V.I.Belyayev) 1987-yilda Toshkentda "История Табари" nomi bilan chop etildi.

### **3.3.6. «Kitob al-masolik val-mamolik»**

Ushbu nomidagi yetti jiddlik ulkan asarni vatandoshimiz, davlat arbobi va olim Jayhoni (870–942 halok bo'lgan) yoki Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr al-Jayhoni yaratgan. U Buxoroda Somoniylar davlatida katta obro'ga ega bo'lib, 914-yildan hayotining oxingacha vazir bo'lib xizmat qilgan.

Olimning asosiy asari tarixiy jug'rofiyaga oid bo'lib, u yana "Kitob al-mamolik fi ma'rifiyi al-mamolik" ("Mamlakatlarni bilishda masofalar kitobi") deb ham atalgan. Bu kitob o'z davrida juda mashhur bo'lib, barcha keyingi olimlar Beruniy, Gardiziyy, Idrisiy, Muqaddasiy va boshqalar undan qimmatli va ishonechli manba sifatida foydalanganlar, iqtibos (sitatalar) keltirganlar.

Jayhoni asarida Sharq mamlakatlari, xususan Movarounnahr, turk qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bo'lgan.

Mazkur asar bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, uning nomi barcha yirik olimlar asarlarida zikr qilinganligi va Beruniy, Ibn Xavqal, Gardiziy va Avfiy asarlarida parchalar keltirilganligi, uning qimmatli manba ekanligidan guvohlik beradi.

### 3.3.7. «Kitob masolik ul-mamolik»

Ushbu kitob muallifi Istaxriy yoki Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy (850–934) nomi bilan mashhur bo'lган sayyoh va geograf olim. U 915-yildan boshlab Eron, Mavarounnahr, Suriya, Misr va Mag'rib bo'yab sayohat qilgan. Mana shu sayohat vaqtida to'plangan boy daliliy material va zamondoshi Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiyning (850–934) "Suvar al-aqolim" ("Iqlimlar surati") kitobi asosida 930–933-yillarda o'zining "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga boriladigan yo'llar haqida kitob") nomli qimmatli asarini yozgan.

Asar yigirma bobdan iborat. Unda musulmon mamlakatlari (Arabiston, Mag'rib, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Mavarounnahr), shuningdek, Hindistonning chegaralari, iqlimi, ma'muriy bo'linishi, mashhur shaharlari, ularga olib boriladigan yo'llar, aholisi va uning mashg'uloti, atoqli kishilar, savdo-sotiq va boshqa masalalar bayon etilgan.

"Kitob masolik ul-mamolik" asarining asl matni uch marta 1870, 1927 va 1967-yillari Leydenda chop etilgan. U Abulmahosin Muhammad ibn Sa'd ibn Muhammad an-Naxchivoniyl tomonidan XVI asrning ikkinchi yarmida fors tiliga tarjima qilingan, qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkentda saqlanmoqda.

### 3.3.8. «Kitob ul-masolik va-l-mamolik»

Ushbu kitobning muallifi Ibn Havqal (vaf. 976)dir. U o'z davrining ko'zga ko'ringan yirik geograf olimi va sayyohi bo'lган. Olimning to'liq ismi Abulqosim ibn Havqal an-Nisibiy bo'lib, nasabiga ko'ra olim Shimoliy Mesopotamiyada joylashgan Nasibin shahridan chiqqan.

Ibn Havqal 943-yildan boshlab savdogar sifatida turli mamlakatlar Markaziy Afrika, Ispaniya, Italiya, Eron, Hindiston bo'yab sayohat qilgan. U Istaxriy bilan shaxsan uchrashgan. Uchrashuv vaqtida Istaxriy go'yoki undan o'z asaridagi xato va chalkashliklarni xalos qilish va qaytdan ishlashni iltimos qilgan.

"Men, — deb yozadi Ibn Havqal, — uning kitobidagi bir emas, bir necha xaritalarni tuzatdim, so'ngra ushbu o'z kitobimni yozishga qaror qildim. Istaxriy kitobida uchragan xatolarni tuzatdim, kitobimga bir nechta (yangi) xaritalarni ilova qildim va ularni izohlab berdim."

Ibn Havqalning asari "Kitob ul-masolik va-l-mamolik" ("Yo'llar va

mamlakatlar haqida kitob") yoki qisqacha "Kitob surat al-ard" ("Yerning surati") nomi bilan mashhur bo'lib, Hamadoniylardan Sayfulla Ali I ga (945–967) bag'ishlangan. Uni yozishda muallif sayohatlari vaqtida to'plagan, savdogarlardan so'rab-surishtirib yiqqan materiallardan hamda Ibn Xurdodbeh, al-Jayhoniv, Qudama asarlaridan foydalangan. Kitobda tafsiflangan har bir mamlakat va viloyatning xaritasi ham berilgan. Masalan, Movarounnahr qismiga ilova qilingan xaritada Jayhun (Amudaryo), Buxoro, Samarqand, Usrushana (O'ratega), Ispipob (Sayram), Shosh va Xorazm shaharlari va viloyatlari tasvirlangan. Asarda turk va g'uzzlar. ularning mashg'uloti, shuningdek, Movarounnahr shaharlari, xalqlari xususida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda qimmatlidir.

"Kitob ul-masolik va-l-mamolik" asarining arabcha matni ikki marta M.Ya. de Guye (1878) hamda Kramers tomonidan (1938–1939) chop etilgan. Kramers nashri (u 1086-yili ko'chirilgan va hozir Istanbul kutubxonalaridan birida saqlanayotgan mo'tabar qo'lyozmaga asoslangan) birmuncha noyob nashr sifatida qadrlanadi.

### 3.3.9. «Tarixi Yaminiy»

"Tarixi Yaminiy"<sup>1</sup> ("Yamin ud-davla tarixi") asarining ijodkorি Utbiydir. Uning haqiqiy ismi Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiy (taxm.961–1077 yoki 1036) bo'lib, asli Eronning Ray shahridan. Olimning xonadoni badavlat va nufuzli zodagonlardan bo'lib, uning tog'alari Somoniylarning vaziri sifatida xizmat qilishgan.

Abu Nasr Muhammad Utbiy ham yuqori davlat lavozimlarida turgan, Somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali ibn Simjur (989–998), so'ngra Ziyoriylardan<sup>2</sup> Shams ul-Maoliy Qobus ibn Vushmagir (998–1030) ning shaxsiy kotibi, keyinchalik G'aznaviylardan<sup>3</sup> Sabuktakin (977–997), Sulton Mahmud (998–1030) hamda Sulton Mas'ud (1031–1041) saroyida xizmat qilgan. Masalan, Utbiy Sulton Mahmudning elchisi sifatida (999) Garchistonga<sup>4</sup> borgan, keyin Ganj rustakda<sup>5</sup> sohib barid bo'lib ishlagan va 1023-yili Sulton Mahmudning amri bilan xizmatdan chetlatilgan.

<sup>1</sup> Yamin (arab) – o'ng qo'l, Sulton Mahmudga Bag'dod xalifasi al-Qodir (991–1031) tomonidan berilgan laqab, faxriy nom.

<sup>2</sup> Ziyoriyalar – 927 – taxminan 1090-yillarda Eronning Tabariston hamda Jurjon viloyatlarida hukmronlik qilgan sulola.

<sup>3</sup> G'aznaviyalar – Xuroson, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston ustidan 977–1186-yillari hukmronlik qilgan sulola.

<sup>4</sup> Garchiston – Murg'ob daryosining yuqori oqimida joylashgan tarixiy viloyat. Janubda G'azni, shimolda Marvarrud, sharqda G'ur va g'urbda Bodhiz. Hirot viloyati bilan tutash.

<sup>5</sup> Ganj rustak – Bodhizning sharqiy qismida joylashgan viloyat.

Manbalarda, xususan as-Saolibiy tazkirasida aytılıshicha, al-Utbiy bir nechta yirik asar yozgan. Lekin, ulardan faqat bittasi — "Tarixi Yaminiy" nomli tarixiy asari saqlanib qolgan, xolos. Uning yana "Latoif al-kuttab" ("Kotiblarning latif so'zлari") nomli asari bo'lib, u bizgacha yetib kelmagan<sup>6</sup>.

"Tarixi Yaminiy" amir Sabuktakin hamda Sulton Mahmud zamonida G'aznaviyalar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg'oniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975–1021-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Asarda Qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992–996) haqida keltirilgan ma'lumotlar benihoyat qimmatlidir.

Asar o'rta asr tarixshunosligiga xos og'ir saj — qofiyali nasr uslubida yozilgan. Unda hukmon sinfning maqsad va manfaatlari himoya qilinadi, xususan Sulton Mahmud va uning yaqinlari ko'klarga ko'tarib maqtaladi. Shuning bilan birga, tarixchi uzuksiz davom etgan urushlar, zulm, turlituman soliq va jarimalar tusayli xonavayron bo'lgan mehnatkash xalqning og'ir turmushiga ham ayrim o'rnlarda ko'z tashlab o'tadi.

"Tarixi Yaminiy" asarining arabcha matni 1874-yili Dehli, 1874-yili Buloq va 1883-yili Lohur shaharlarida chop etilgan. Undan ayrim parchalar K.Shefer, T.Nyoldeke, G.Elliot va N.Douson tomonidan fransuz, nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan. Kitobning forscha tarjimalari bo'lib, eng durusti Abu Sharif Nosih al-Jorbozaqoni qalamiga mansub. Bu tarjima Eronda 1856, 1956 va 1966-yillari chop etilgan. Asarni Londonda 1858-yili Reynolds ingliz tiliga tarjima qilgan.

### 3.3.10. «Mafotix ul-ulum»

O'z davri qomusi bo'lmish bu kitobni Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy yaratgan. U X asrda o'tgan mashhur filolog va fan tarixchisidir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Kotibiy al-Xorazmiy bo'lib, olim Somoniy Nuh II ibn Mansurning (976–997) vaziri al-Utbiy qo'llida dabir bo'lib xizmat qilgani va, asosan, Nishopurda istiqomat qilib, fan tarixi hamda davlat bosh idoralari uchun muhim qo'llanma bo'lgan "Mafotix ul-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") nomli asar yozib qoldirganligi ma'lum. Ushbu asardan ma'lum bo'lishicha, Abu Abdulloh yunon, suryoniy, arab va fors tillarini mukammal bilgan keng ma'lumotli kishi bo'lgan.

"Mafotix ul-ulum" 976–991-yillar orasida yozilgan o'ziga xos izohli terminologik lug'at bo'lib, ikki qismidan iboratdir. Birinchi qism olti bobdan iborat bo'lib, unda shariat bilan bog'liq ilmlar: fiqh, aqidalar,

<sup>6</sup> As-Saolibiy. Yatomat ad-dahr. Arab tilidan I.Abdullayev tarjiması. — Toshkent, 1976. — 95-bet.

grammatika, idora ishlarini yuritish tartibi, she'riyat va tarix to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi qism to'qqiz bobdan iborat bo'lib, u ajam, ya'ni arab bo'lмаган xalqlar: yunonlar, suriyaliklar, forslar, hindlar va boshqa xalqlar orasida taraqqiy etgan ilmlar – falsafa, mantiq, tibb, arifmetika, handasa-geometriya, falakiyot-astronomiya, mexanika, musiqa va kimyo fanlarini o'z ichiga oladi.

Asarda yurtimiz haqida, xususan bu yerda amalda bo'lган sug'orish o'лchovlari haqida muhim ma'lumotlar ham bor. "Mafotix ul-ulum" ilmiy jamoatchilik, xususan V.V.Bartold, I.Yu.Krachkovskiy, S.L.Volin, van Flotenning yuksak bahosiga sazovor bo'lган. Uning arabcha matni 1895-yili van Floten tomonidan, ayrim parchalar tarjimasi S.L.Volin tomonidan 1939-yili nashr qilingan. Toshkentda bu asarni R.M.Bahodirov tadqiq etib, maxsus kitob yozgan.

### 3.3.11. «Osor ul-boqiya»

Ushbu benazir asar ijodkori qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyidir (973–1048). U tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ortiq asarlар yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyat va muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy fan, ayniqsa tarix to'g'risidagi chuqr bilimlarini "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") hamda "Hindiston" yoki "Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma" ("Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini tadqiq etish") va "Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm" ("Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar") nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo'shdi.

Ayniqsa, bo'lg'usi tarixchilar uchun "Osor ul-boqiya" har tomonlama namuna bo'ladigan qimmatli manbadir. Asar 1000-yili Jurjon shahrida yozib tamomlangan. Unda qadimgi O'rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo'lган tarixi, urf-odatlari, bayramlari va, asosan, vaqtini hisoblash taqvim – xronologiya to'g'risida mukammal ma'lumot beradi. Ushbu asarning XIV asrda yaratilgan mo'tabar qo'lyozmasiga nodir rasmlar ishlangan va bu noyob san'at obidasi Shotlandiya poytaxti Edinburg shahri Universiteti kutubxonasida 161-raqam ostida saqlanmoqda.

"Osor ul-boqiya"ning ruscha va o'zbekcha tarjimalari Toshkentda 1957 va 1968-yillari chop etildi. Kitob Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhur. Biz asar to'g'risida ortiqcha ma'lumotlarni keltirmadik, chunki bizning vazifamiz qimmatli yozma manbalar to'g'risida umumiy tushuncha, bilim va yo'nalish berishdir. Ushbu kitob to'g'risida talabalar

mustaqil ish jarayonida yoki laboratoriya ishi jarayonida chuqurroq va keng bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana "Tarixi Xorazm" va "Mashohiri Xorazm" ("Xorazmning mashhur kishilari") nomlari bilan ham mashhur bo'lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan "Tarixi Bayhaq" va Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon" asarlarida saqlanib qolgan.

Beruniyning "Kitob fi axborot al-mubayyiz ot val-karomita" ("Oq kiyimlilar va karmatlarning xabarlari haqida kitob") asari ham tarix ilmi uchun alohida qiymatga ega. Unda o'sha zamonlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan ijtimoiy harakat – karmatlar harakati haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Beruniyning asarlarida tarix ilmi uchun ma'lumotlar juda ko'p uchraydi, ammo ulardan tashqari nomi zikr etilgan asari uning katta tarixchi olim, etnograf bo'lganligini ko'rsatadi.

### 3. 3.12. «Devonu lug'at at-turk»

"Devonu lug'at at-turk" ("Turkiy so'zlar lug'ati") – 638 sahifadan iborat turkiy-arabiylug'at – Mahmud Koshg'ariy nomi bilan mashhur bo'lgan XI asr yirik tilshunos olimining noyob asaridir. Olimning to'liq ismi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy bo'lib, Qoraxoniylar xizmatida bo'lgan turk beklaridan birining oilasiga mansub. U 1029–1038-yillar orasida taxminan Barsg'onda tug'ilgan, lekin umrining ko'p qismini Bolasog'un, Koshg'ar, Bag'dod va boshqa shaharlarda o'tkazgan.

Mahmud Koshg'ariy yoshligida yaxshi ma'lumot olgan va o'rta asr fanining ko'p sohalarini, xususan, arab tili, turkiy tillarni, tarix hamda geografiya fanlarini chuqur bilgan. Uning qimmatli "Devonu lug'at at-turk" asarining dunyoda yagona qo'lyozmasi hozir Istanbulda (Turkiya) saqlanmoqda.

Ushbu asarning arabcha matni 1915–1917-yillarda uch jilda Istanbulda, mukammal o'zbekcha sharhli tarjimasi S.M. Mutallibov tomonidan amalga oshirildi va 1960–1963-yillarda Toshkentda chop etilgan.

6727 ta lug'at maqolasida turkiy urug', qabilalarning tili, adabiyoti, tarixi, urf-odatlari bo'yicha noyob ma'lumotlar jamlangan. Kitob hijriy 466-yili yozilgan, bizga hijriy 664-yili kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ko'chirgan qo'lyozma yetib kelgan.

"Devonu lug'at at-turk" asarining usmonli turkcha 1939–1941-yillarda B. Atali, inglizcha 1982–1985-yillarda R. Danko'll bilan J. Kelli, uyg'urchasi esa 1981–1984-yillarda bir guruh tarjimonlar tomonidan amalga oshirilib, chop ettirilgan.

### **3.3.13. «Muqaddimat ul-adab»**

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Zamahshariy (18.03.1075-iyun 1144) xorazmlik olimning ko‘p tillik “Muqaddimat ul-adab” asari yuzlab qo‘lyozmalarda, jahonning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Asar besh katta – ot, fe’l, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari qismlaridan iborat bo‘lib, unda fanning ko‘p sohalariga oid atamalar uchraydi. Shu sababli lug‘at yillar davomida qayta-qayta ko‘chirilgan. Olim lug‘atni xorazmshoh Alouddavla Otsiz (1123-1156)ning buyrug‘i bilan 1137-yilda arab tilida tuzgan va turkiy tilga tarjima qilgan. Xorazmshoh Otsiz o‘z davrining yetuk, odil hukmdorlaridan bo‘lib, ilm ahllarini qadrlagan, o‘z atrofiga adib-u shoirlarni yig‘gan va ularga homiylik qilgan.

“Muqaddimat ul-adab”ning 1492-yilda ko‘chirilgan arabcha-forscha-turkiy-mo‘g‘ulcha nodir qo‘lyozmasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanmoqda. Lug‘atning eng nodir qo‘lyozmalarini uchta bo‘lib, eng qadimiysi Turkiyaning Yazgat shahri maorif kutubxonasida mavjud, hijriy 655-yil uchunchi jumod ul-avval, yani 27-may 1257-yili yaratilgan. Ikkinci qo‘lyozma hijriy 66 yil 13 rabi’ ul-oxir, yani 1265-yili kitobat qilingan va Italiyaning Boloniya shahridagi Marsigli sharq qo‘lyozmalarini fondida saqlanadi. Istanbul universiteti kutubxonasida uchinchi noyob qo‘lyozma mavjud bo‘lib, u hijriy 715-yil safar oyining 25 kunida, 1315 yil 1 iyunida yaratilgan.

Kitob birinchi marta 1706 yili Xoja Is’hoq afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So‘ngira bir necha Yevropa, jumladan frantzuz, nemis tillariga o‘girilgan. Asar matni Parij, Vena, Qozon shaharlarida chop etilgan. Nemis olimi Vatzastayn 1850-yili yetti qo‘lyozma asosida ikki jildlik tanqidiy matnni Leypzigda nashr etgan. Sadiddin Ayniyning fikricha, “Muqaddimat ul-adab” asarining qimmati o‘zbek tili uchun butun dunyo xazinasi bilan barobardir. Kitobni O‘zbekistonda filologiya fanlari doktori Zohid Islomov tadqiq etgan.

### **3.3.14. «Kitob al-ansob»**

“Kitob al-ansob” (“Nasablar haqida kitob”) nomli asarning muallifi mashhur biograf, tarixchi va sayyoh Abu Sa‘id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam’oni (1113–1167)dir. U Marvda yirik qonunshunos olim oilasida dunyoga kelgan, Marv, Buxoro hamda Samarqandda tahsil ko‘rgan, 1155–1156-yillari Mavarounnahr va Xorazm bo‘ylab sayohat qilgan, ma’lum muddat Nishapur, Isfahan, Bag‘dod, Xalab, Damashq hamda Quddus (Iyerusalim) shaharlarida hayot kechingan.

Sam’oni “Kitob al-ansob” dan tashqari yigirma jildlik “Marv tarixi” nomli asarning ham ijodkoridir. Ammo, bu kitob bizgacha yetib kelmagan ko‘rinadi. Taxminlarga ko‘ra, bu muhim asar Chingizzon huruji vaqtida kuyib ketgan bo‘lishi mumkin, chunki o’shanda Marvning eng katta va boy kutubxonasi bilan birga Sam’oniylar xonadoniga tegishli bo‘lgan ikki yirik kutubxona ham (Yoqut Hamaviy Sam’oniylar kutubxonasini ko‘rganligini aytadi) yonib ketganmikan? Bizgacha olimning faqat “Kitob al-ansob” asarigina yetib kelgan.

“Kitob al-ansob” asari Ibn Xalliqonning ma’lumotlariga ko‘ra sakkiz jilddan iborat bo‘lgan. Uning to‘liq nusxasi ham yo‘qolib ketgan ko‘rinadi. Kitobning tarixchi Ibn al-Asir tarafidan tahrir etilgan uch jildlik qisqartirilgan qismigina saqlanib qolgan, xolos.

“Kitob al-ansob” asarining arabcha matni ikki marta nashr etilgan, bosh qismi 1835-yili prof. D.S.Margoulis tarafidan chop etilgan. Uning Bayrut nashri ham bor. Bu asarda islomiyatdan to muallifning zamonigacha musulmon mamlakatlarida, ko‘proq Eron va Movaro-unnahrda o’tgan mashhur kishilar haqidagi keng ma’lumot beriladi.

“Kitob al-ansob” Movarounnahrning qadimiy tarixi, yirik shaharlari, qo‘sini mamlakatlar, xususan Xitoy bilan bo‘lgan savdo va madaniy aloqalarni o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar to‘g‘risida Sh.Kamoliddinov nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan va rus tilida «Китаб ал-ансоб» Абу Саъда Абдулкарима ибн Мухаммада ас-Самани как источник по истории и истории культуры Средней Азии» (Т., 1993) nomli kitob nashr ettirgan.

### 3.3.15. «Al-komil fi-t-tarix»

“Al-komil fi-t-tarix” (“Mukammal tarix”) nomli salmoqli asar muallifi yirik arab tarixchisi Izzuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad (1160–1234) bo‘lib, u ko‘pincha Ibn al-Asir nomi bilan mashhur bo‘lgan. Muarrix Tigr daryosi bo‘yida joylashgan Jazirat ul-Umar shahrida katta yer egasi oilasida tug‘ilgan. Umrining ko‘p qismini Mo’sulda (Suriya) o’tkazgan va o’sha yerda vafot etgan.

Ibn al-Asir o‘z davrining keng ma’lumotli kishisi bo‘lib, bir necha tarixiy asar yozgan. “Al-komil fi-t-tarix” va Muhammad payg‘ambar sahabalari (izdoshlari) tarjimai holini o‘zida qamrab olgan besh jildli “Kitob usd al-g‘aba fi ma’lumot as-sahoba” (“Sahobalar haqidagi ma’lumot beruvchi o‘rmon sherlari”, 1863-yili chop qilingan) shular jumlasidandir. Lekin, Sharq mamlakatlari xalqlari, shuningdek Movarounnahr xalqlari tarixini o‘rganishda uning birinchi asari “Al-komil fi-t-tarix” katta ahamiyat kasb etadi.

“Al-komil fi-t-tarix” asari o’n ikki jilddan iborat bo‘lib, unda

dunyoning “yaratilishi”dan to 1231-yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil, xronologik, ya’ni davr tartibida bayon etib beriladi.

Asarda ko‘pgina qimmatli manbalar, xususan Tabariy hamda as-Sallomiyning bizgacha yetib kelmagan “Kitob fi axbor vuloti Xuroson” (“Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob”) kabi qimmatli asarlardan keng foydalanilgan.

“Al-komil fi-t-tarix”ning birinchi qismi (I–IV jildlari) olamning “yaratilishi”dan to 931-yilgacha bo‘lib o‘tgan voqealar bayonidan iborat. Bular avval yashab o‘tgan olimlar Balazuriy, Tabariy, Ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlariga tayanib yozilgan. Lekin, bu qismda ham ko‘p hollarda asosiy manbalarda uchramaydigan muhim va qimmatli ma’lumotlar bor.

Masalan, 751-yili Talas daryosi bo‘yida arab va Movarounnahr qo‘sishnlari bilan Xitoy armiyasi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang va unda ko‘p minglik xitoy qo‘sining tor-mor etilishi haqidagi ma’lumot shular jumlasidandir.

Undan tashqari, as-Sallomiy va uning muhim tarixiy asari haqida ma’lumot Ibn al-Asir tufayligina bizgacha yetib kelgan.

Asarning VII–XII jildlari mustaqil, alohida ahamiyatga ega bo‘lib, 924–1231-yillar orasida Sharq mamlakatlarida, shuningdek Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga oladi va, asosan qo‘lyozma manbalar, shuningdek tarixni yaxshi bilgan kishilar bergen axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari davomida to‘plagan boy va faktik material asosida yozilgan.

“Al-komil fi-t-tarix” asarining, ayniqsa mo‘g‘ullar istilosiga bag‘ishlangan XII jildi alohida ahamiyatga ega va Movarounnahr hamda Sharq mamlakatlarining XIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

Kitobning to‘la matni ikki marta (1851–1876-yillarda va 1901) chop etilgan. Ayrim parchalarni rus tiliga N.A. Mednikov, A.E. Krimskiy, B.A. Ahmedov tarjima qilganlar.

Asar Xivada to‘liq holda o‘zbek tiliga Muhammad Rahim soniy (1863–1910) davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif oxund va boshqalar tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, Toshkentdag‘i Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida o‘n uchta mo‘tabar qo‘lyozmalari saqlanmoqda.

### 3.3.16. «Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni»

Xalqimizning buyuk o‘g‘loniga bag‘ishlangan noyob asar “Sirot us-

sulton Jaloluddin Menkburni” (“Sulton Jaloluddin Menkburnining tarjimai holi”) nomli kitobni vatandoshimiz Shihobuddin Muhammad Nisoviy (vaf. 1249, Xalab) yozgan. Muarrixning to’liq ismi Shihobuddin ibn Ahmad ibn Ali Muhammad Nisoviyidir.

Tarixchining otasi Xorazmshohlarning e’tiborli amirlaridan biri bo‘lgan. Niso viloyatiga qarashli Xurandiz qal’asining hokimi edi. Otasi vafot (1220) etgach, uning mol-mulki va mansabi o‘g‘liga o‘tgan. U 1224-yilga qadar Niso viloyatining hokimi Nusratuddir Hamzaning noibi bo‘lib xizmat qilgan. Nashjuvon (Nisoning katta qishloqlaridan) hamda al-Halqa (Jurjon qishloqlaridan) da mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan janglarda shaxsan ishtirot etgan. So‘ng Astrobod viloyatlaridan Kabud joma (hozirgi nomi Hojilar) hokimi Imom ud-davla Nusratuddin Muhammad huzuriga kelgan va uning yordami bilan yana Nisoga qaytishga muvaffaq bo‘lgan, lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Nisoda o‘zaro feodal urushlari kuchayib ketganligi sababli u Iroqqa ketib qoladi va 1224-yili Sulton Jaloluddin Menkburnining (1220–1231) xizmatiga kiradi va uning kotibi (kotib al-insho) lavozimiga tayinlanadi. Shihobuddin Muhammad Nisoviy bu lavozimda 1231-yilgacha, ya’ni sultonning o‘limiga qadar xizmat qiladi.

Keyin u Mayofarikin (Diyorbakr viloyatida) hokimi Ayyubiy al-Malik al-Muzaffar G‘oziyining (1220–1224) xizmatiga kiradi. Biroq, oradan ko‘p vaqt o‘tmay qamalib qoladi. Qamoqdan ozod etilgach, Ildegiziylar (1227–1235) huzurida, so‘ngra 1238-yili Xarron (Eron Ozarbayjoni) qal’asiga hokim etib tayinlanadi. Oxiri Xalab (Suriya) sultoni al-Malik an-Nosir Salohiddin Yusuf ibn al-Azizning xizmatiga kiradi va umrining oxirigacha Xalabda istiqomat qiladi.

Shihobuddin Muhammad an-Nisoviy O‘rtta Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining mo‘g‘ul istilosini davridagi (1220–1231) ijtimoiy-siyosiy ahvoldidan bahs yurituvchi “Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni” nomli qimmatli kitob yozib qoldirgan. Asar 1241-yilda Xalabda yozib tugallangan bo‘lib, u memuar – xotira-yodnomasi tarzida yozilgan.

Kitob muqaddima va 108 bobdan iborat. Asarning I–IV boblarida mo‘g‘ul-tatarlar, Chingizzxonning kelib chiqishi, xon bo‘lib ko‘tarilishi masalalari ixcham tarzda bayon etilgan.

V–XXII boblar xorazmshoh Alouddin Muhammadning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

XXIII bobdan boshlab kitobning to‘oxirigacha mo‘g‘ul istilosini va xorazmshoh Alouddin Muhammadning sojiali taqdiri, sulton Jaloluddinining hayoti va kurashi, sojiali halokati hikoya qilinadi.

Ushbu asarning 1224–1231-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan boblari

original va zo'r ilmiy ahamiyatga ega, chunki bayon etilmish voqealarning ko'pchiligidagi muallifining bevosita shaxsiy ishtiroki bor.

Mana shuning uchun ham bu kitob tarix ilmi namoyandalarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Undan ham o'tmishdagi muarrixlar al-Futuvvatiy (1244–1323), Ibn Xaldun (1332–1406), Badruddin Ayniy (vaf. 1451) qimmatli manba sifatida foydalanganlar. Zamonaviy sharqshunoslar ham o'sha davrga oid tadqiqotlarida bu asarni chetlab o'ta olmaydilar.

“Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni” nomli asarning arabcha matni, fransuzcha tarjimasi bilan 1891–1895-yillari Parijda hamda Qohirada chop qilingan. Uning qisqartirilgan turkcha (tarjimonlar Yusuf Ziyo va Ahmad Tavhid) va forsiy (tarjimonlar Muhammad Ali Nosih va Mujtab Minoviy) tarjimalari mavjud. Asarning turkmanlar va Turkmanistonning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoldidan hikoya qiluvchi qismi rus tilida (tarjimon S. L. Volin) nashr etilgan edi.

Kitobni to'liq holda avval Bokuda, keyin Moskvada Z.M.Buniyatov rus tiliga tarjima qilib, ilmiy izohlar bilan nashr ettirgan.

### 3.3.17. «Mulhaqot as-suroh»

“Mulhaqot as-suroh” (“As-suroh”ga ilova”) nomli kitobning muallifi XIII–XIV asr boshlarida yashagan tilshunos va tarixchi olim Jamol Qarshiydir (1230-y. tug.). Uning asli ismi Abulfazl Muhammad ibn Umar ibn Xolid, ammo olim ko'pincha Jamol Qarshiy (Qarshi – mo'g'ulcha “qasr” demakdir.) nomi bilan mashhur bo'lgan. Olim Olmaliq shahrida (Ila vodiysida, G'uljaning g'arbi-shimoliy tarafida joylashgan yirik o'rta asr savdo va madaniyat markazlaridan biri) ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Olmaliqning mashhur hofizlaridan (“Qur'on”ni qiroat bilan o'quvchi), onasi esa marvlik shayx Abu Alining avlodи bo'lgan.

Bo'lg'usi olim Olmaliqlik mashhur shayx Ashraf ibn Najib al-Kosoniydan ta'lif oldi, so'ng Chingiziyalarga tobe bo'lgan mahalliy hukmdor Sug'noq takinning (vaf. 1250–1253) o'g'li Elbutarning tarbiyachisi sisatida xizmatga kiradi. Bu hol, shuningdek sadr Burhoniddinning homiyligi tufayli, uning keyingi yuqori lavozim – devoni inshoga ko'tarilishiga yordam berdi. 1264-yili Jamol Qarshiy, bizga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra, iste'foga chiqqib, Koshg'arga ketib qoladi.

Koshg'arda Jamol Qarshiyga sadrlardan Kamoluddin Abu Abdulloh ibn Husayn va Sa'duddin homiylik qildilar. Olim Koshg'arda, asosan she'r yozish bilan mashhg'ul bo'ldi va sadr Sa'duddinining taklifi bilan 1302-yili o'zining “As-suroh min as-Sahoh” (“Foydali (mulohaza)dan kelib chiqqan ochiq gap”) nomli asarini yozdi. Jamol Qarshiy 1269–

1294-yillar orasida O'rta Osiyoning ko'pgina viloyatlari bo'ylab sayohat qilgan.

Masalan, 1269–1270-yillari Ilamishda (Andijondan Talasga boradigan yo'l ustida joylashgan qadimiy shahar), bir necha bor (1272, 1293) Shoshda, 1273-yili Barchinlig'kent va Jandda bo'lgan. Olim ana shu sayohatlar vaqtida to'plangan ma'lumotlardan o'zining yuqorida nomi qayd etilgan asarini yozishda keng foydalangan.

Jamol Qarshiyning ushbu asari Abu Nasr Ismoil ibn Hammud al-Javhariyning (vaf. 1008) "As-sahoh" ("Mukammal lug'at") nomli asariga yozilgan qo'shimcha bo'lib, ko'pincha "Mulhaqot as-suroh" nomi bilan mashhurdir.

Asarda XIII asrda Olmaliq va unga qaram yerlarda hukmronlik qilgan turk hukmdorlari, Qoraxoniylar, xususan ularning Koshg'arda hukmronlik qilgan namoyandalari; Koshg'ar, Xo'tan, Farg'ona, Shosh viloyatlari, shuningdek Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan bir qator yirik o'rta asr shaharlari, masalan Barchinlig'kent, Jand haqida, Jamol Qarshiy bilan zamondosh bo'lgan mashhur kishilar – shayxlar, olimlar, shoirlar haqida diqqatga sazovor ma'lumotlarni uchratamiz.

Umuman, Jamol Qarshiyning ushbu asari Movarounnahr hamda Markaziy Osiyo xalqlarining XIII asrdagi tarixi, madaniyati, yirik shaharlari va ularning ahvolini o'rganishda zarur manbalardan biridir. "Mulhaqot as-suroh" hozirgacha bironta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari Angliya, Fransiya, Germaniya kutubxonalarida, Rossianing Sankt-Peterburg shahrida va Toshkentda mavjud.\*

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Arab tilida yozilgan manbalar va ularning yurtimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati qanday?
2. Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarining tarixni o'rganishdagi ahamiyati nimada?
3. Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asari tarixiy manba sifatida qanday xususiyatlarga ega?
4. Shihobuddin Nisoviyning "Sirot us-sulton Jalohuddin Menkburni" asari mazmuni nimadan iborat va uning manba sifatidagi ahamiyati nimada?
5. «Devonu lug'at at-turk» asarining ilmiy ahamiyati nimada?

---

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asariga tayanib yoritildi.

## **4-MAVZU. XIII – XIV ASRLAR MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** Ushbu darsda vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarning yaratilishida fors tilining tutgan o‘rni, u tildagi asosiy manbalar to‘g‘risida talabalarga tushuncha beriladi.

### **Reja:**

- 4.1. Asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar.
- 4.2. Mo‘g‘ul va Xitoy tillarida yozilgan manbalar.
- 4.3. Huquqiy hujjatlar va yozishmalar.
- 4.4. Forsiy tilining manbalarda tutgan o‘rni.
- 4.5. Fors tilidagi manbalarning umumiy xususiyatlari va ahamiyati.

**Asosiy tushunchalar:** Forsiy tildagi yozma manbalarga oid atamalar ham deyarli arab tilidagilar bilan bir xil ataladi yoki aynan bir tushuncha ikkala tilda ham ishlatalidi.

### **4.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar**

1219–1221-yillar ichida O‘zbekiston mo‘g‘ullar tomonidan istilo etildi. 1227-yili Chingizzon Yettisuv, Koshg‘ar, Movarounnahr va Xorazmning sharqi qismini, shuningdek, hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismini ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoya (1227–1241-y.) in’om qildi. Bu ulus tarixda Chig‘atoy ulusi nomi bilan mashhur. Chig‘atoy ulusining oliv hukmdorlari ham, qoraxitoylar singari, ulusni maxsus ijaradorlar, ya’ni xorazmlik mashhur savdogar Mahmud Yalavoch (1125–1238) va uning o‘g‘li Ma’sudbek (1238–1289) yordamida idora qildilar.

Munko qoon (1251–1260) taxtga o‘ltirgandan keyin, Jo‘ji ulusining oliv hukmdori Botuxon (1227–1255) bilan til biriktirib, Chig‘atoy avlodining ko‘philigini qatl ettirdi va Chig‘atoy ulusini o‘rtada bo‘lib olishdi.

Lekin, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Olg‘u (1261–1266) ulus mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Muborakshoh (1266) va Baroqxon (1266–1271) davrida mo‘g‘ul hukmdorlari mahalliy aholi bilan yaqinlashish maqsadida islom dinini qabul qildilar. Natijada, 1266-yili xon hamda ba’zi mo‘g‘ul urug‘lari (masalan, jaloiriylar) Yettisuvdan Movarounnahrga ko‘chib o‘tdilar. Bu hol o‘z navbatida tarqoqlik va parokandalikka olib keldi. XIV asrning 50-yillariga kelib, Chig‘atoy ulusi ikkiga ajralib ketdi – Yettisuv va Koshg‘arda qolgan mo‘g‘ullar mustaqillik e’lon qilib, o‘z davlatlarini tuzib oldilar. Bu davlat tarixda Mo‘g‘uliston yoki Jete nomi bilan mashhurdir.

Mo‘g‘ullar hukmronligi yillarda Movarounnahr xalqi ikki tomonlama – mo‘g‘ul hukmdorlari dorug‘alar, bosqoqlar hamda mahalliy yer egalari

zulmi ostida qoldi. Ular asosiy daromad solig'i xirojdan tashqari talaygina boshqa soliq va jarimalar – dorug'agi, sar shumor, ulufa, tamg'a, qupchur yasog'i, tag'or, bigor va boshqalarni to'lashga majbur etilgan edilar.

Og'ir chorakorlik mehnati, mo'g'ul hukmdorlarining beboshligi mehnatkash xalqning sabr kosasini to'ldirdi. Buxoro viloyatining xalqi kosib Mahmud Tarobiy va ilohiyot olimi Shamsuddin Mahbubiy larning atrofiga uyushib, 1238-yili qo'zg'olon ko'tardi, lekin u boshqa shahar va viloyatlarga yoyilmadi. Natijada Buxorodagi qo'zg'olon Yettisuv va Xo'janddan Ildiz no'yon hamda Chuqan qurchi boshchiligidagi yuborilgan mo'g'ul qo'shini tomonidan bostirildi.

## 4.2. Mo'g'ul va xitoy tillarida yozilgan manbalar

Mo'g'ul va xitoy tillarida yozilgan manbalarda O'zbekistonning XIII–XIV asrlardagi tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, Chingizzon va mo'g'ullar xuruji davri tarixi, mo'g'ul imperatorlari hukmronligi davri tarixini bu manbalarsiz o'r ganib bo'lmaydi. Shuni alohida uqtirib o'tish kerakki, bu manbalarda, xususan xitoy manbalarida, voqealar, birinchidan, yilma-yil bayon etilgan, ikkinchidan, ularning sodir bo'lgan joyi va vaqtani aniq ko'rsatilgan.

### 4.2.1. «Mongol-un niucha tobchan»

“Mongol-un niucha tobchan” (“Mo'g'ullarning maxfiy tarixi”) XIII asr boshida o'rta asr uyg'ur imlosida yozilgan va bizgacha xitoy imlosi, ierografida xitoycha tarjimasi bilan yetib kelgan. Asarning xitoycha nomi “Yuan-chao bi shi” (“Yuan sulolasining<sup>1</sup> maxfiy tarixi”) deb ataladi. U Xitoy, Mo'g'uliston, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning XIII asrdagi tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Unda nayman, kerait, o'ng'ut, uyg'ur, qorliq va boshqa turkiy xalqlarning Chingizzon xuruji paytidagi tarixi va ularning mo'g'ul asoratiga tushib qolishi haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Mongol-un niucha tobchan” xitoy tiliga 1404-yili tarjima qilingan. 1800-yili istifodaga kiritilgan. Asar 1866-yili P.Kafarov tarafidan rus tiliga tarjima qilingan va so'zboshi, xitoycha matni va lug'atlar bilan qo'shib, 1941-yili S.A.Kozin tomonidan “Сокровенное сказание” nomi bilan chop etilgan. Asarning E.Xyonning tarafidan amalga oshirilgan nemischa nashri mavjud.

### 4.2.2. «Szin-shi»

“Szin-shi” (“Szin sulolasining<sup>2</sup> tarixi”) nomli asar so'nggi yuan imperatori

<sup>1</sup> Yuan sulolasasi – Xitoyni 1259–1332-yillarda idora qilgan sulola. Asoschisi Xubilayxon (1260–1294).

<sup>2</sup> Szin sulolasasi – 265–420-yy.

Shindi (To'g'on Temur) davrida, xitoy olimi va yozuvchisi Ouyan Sian tomonidan yozilgan. Unga mo'g'ul imperatorlari davrida yozilgan va keyincha yo'qolgan "Shilu" ("Sahih yozuvlar") nomli solnomasi asos bo'lgan.

"Szin-shi" to'rt qismidan iborat: 1) Szin sulolosining siyosiy tarixi; 2) Szin davlatining ma'muriy, harbiy, huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy, ma'naviy va ilmiy tizimlari; 3) Szin imperatorlari; 4) imperatorlar va ularning oilalari, davlat arboblari, sarkardalari va madaniy arboblarining tarjimai holi.

Asarning to'rtinchi qismida o'sha vaqtarda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turkiy xalqlar, uyg'urlar, o'ng'itlar va boshqalar, ular bilan olib borilgan elchilik munosabatlari, ularning boshliqlarini harbiy xizmatga jalg qilish haqida ma'lumotlar bor.

#### **4.2.3. «Yuan-chao min-chen shi-lyue»**

"Yuan-chao min-chen shi-lyue" ("Yuan sulolesi mashhur mansabdorlarining qisqacha tarjimai holi") nomli asar 15 bobdan iborat bo'lib, uni tarixchi Su Tyanszyue yaratgan. Kitobda sultanatda xizmat qilgan 47 yirik mansabdorning tarjimai holi bayon etilgan. Ular orasida turkiy qavmlardan chiqqanlari ham bor.

Bu uch kitobdan iborat asarning ko'pgina nashrlari mavjud. Eng yaxshi nashri 1962-yili Nankin universiteti professori Xan-Julin tarafidan amalga oshirilgan. Noshirning so'zboshisi muhim ilmiy ahamiyatga ega.

#### **4.2.4. «Shen-u sin chjen-lu»**

"Shen-u sin chjen-lu" ("Muqaddas sarkarda Chingizxonning harbiy yurishlari tafsilotlari") nomli asar asli mo'g'ul tilida yozilgan, lekin uning shu nomdag'i xitoycha tarjimasini bizgacha yetib kelgan, xolos. Unda Chingizxonning harbiy yurishlari va mo'g'ullar xuruji vaqtida turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida hikoya qilinadi.

"Shen-u sin chjen-lu" asarini birinchi marta Yuan Chjon 1894-yili, Van Govey ismli tarixchi 1925–1926-yillari keng izohlar bilan chop etgan. 1872-yili P.Kafarov asarning ruscha tarjimasini, so'zboshi va zarur izohlar bilan qo'shib, nashr etgan. 1951-yili Pelo va Gambus uning fransuzcha nashrini amalga oshirganlar.

#### **4.2.5. «Yuan-shi»**

"Yuan-shi" ("Yuan sulolesi tarixi") – Yuan sulolesining to'liq rasmiy tarixidir. Uni Sun-lyan (1310–1381) boshchiligidagi 16 muallif-tuzuvchilar yaratgan deb hisoblaydilar. Kitob Min sulolesining imperatori Tayqchuning buyrug'i bilan 1369-yili yozib tamomlangan.

## Asar to'rt qismdan iborat:

Birinchi qismda Yuan sulolasi shajarasi, ya'ni Xubilayxondan boshlab 13 mo'g'ul imperatori, ularning shaxsiy hayotida bo'lib o'tgan va ularning davrida mamlakatda kechgan asosiy voqealar berilgan.

Ikkinci qismda samoviy voqealar tafsiloti, mamlakatda bo'lib o'tgan hududiy voqealar, mamlakatning ma'muriy bo'linishi haqida, mamlakatdagi daryolar va nahrlar, xalqining liboslari, amaldorlarni mansabga tayyorlash oldidan o'tkaziladigan imtihonlar va boshqalar haqida ma'lumot keltiriladi.

Uchinchi qismda imperator va uning xonadoni a'zolarining shajarasi o'rin olgan.

To'rtinchi qismda imperator xonadoni a'zolarining tarjimai holi va qo'shni mamlakatlar haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi.

Turkiy xalqlar tarixi va turk aslzodalarining mo'g'ul imperiyasining ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida "Yuan-shi"ning to'rtinchi qismida, yettinchi bobda juda qimmatli ma'lumotlar beriladi. Unda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, turklar, jamiyatda tutgan mavqeiga ko'ra xitoylardan keyin ikkinchi o'rinda turgan xalq bo'lgan. Yirik turk amaldorlari, asosan uyg'ur, qorliq, qipchoq, qong'li, o'ng'ut, arg'in, nayman va kerait qavmlaridan chiqqan. Ular, asosan mo'g'ul imperiyasining ma'muriy idoralari va harb ishlarini boshqarganlar.

Turklar orasida olimlar ham ko'p bo'lgan. Bular — qorluqlardan chiqqan Bayon, o'ng'ut Maqchuzan, qipchoq Toybug'a, Boboxudu, Ulchaybotir, qong'lidan chiqqan Buxulu, O'rus, Tabrikchi va boshqalar. Mo'g'ul imperatorlari xizmatida bo'lgan turklar orasida uyg'urlardan 300 mansabdor va olim bo'lgan.

"Yuan-shi"ning ayrim qismlari turli yillarda N.Ya.Bichurin, Pelo, L.Gambis, E.Xyonish, S.A.Kozin, A.Vayli, G.Franko, F.V.Klavaza va G.F.Shurmann tarafidan tarjima qilingan.

## 4.3. Huquqiy hujjatlar va yozishmalar

Xoja Ahrorga tegishli vasiqa va vaqfnomalar. Bu turdag'i hujjatlar ko'p va ularni arxiv va muzeylarning fondlaridan, shuningdek qo'lyozma kitoblar saqlanayotgan kutubxonalardan topish mumkin. Yirik sharqshunos olima O.D.Chexovich (1912–1982) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti va O'zbekiston Respublikasi Davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan vasiqa va vaqfnomalar fondini ko'p yillar davomida qunt bilan o'rgandi va ular ichida Xoja Ubaydulla Ahrorga tegishlilarini ajratib olib, matni va ruscha tarjimasi va maxsus tadqiqot bilan birga qo'shib 1974-yili "Самаркандские документы XV–XVI веков" nomi bilan nashr etdi.

Xoja Ubaydulla Ahror o‘z davrining badavlat obro‘li kishisi bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo‘lgan. Uni shu darajaga yetkazgan omillardan biri bu uning qo‘lida to‘plangan katta yer-suv va mol-mulk bo‘ldi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, uning 300 justi nov (bir just ho‘kiz yordamida haydab ekiladigan yer) yeri, shaharlarda tim (usti yopiq bozor), do‘kon, hammom, karvonsaroy, tegirmon, moyjuvozlari bo‘lgan.

Xoja Ubaydulla Ahror ma’rifatli va raiyatparvar kishi edi. Daromadining bir qismini xayrlı ishlarga sarflagan, xalq manfaatini himoya qilgan. Masalan, 1463-yili Temuriyzoda Umarshayx Mirzo Toshkent xalqidan katta miqdorda xiroj talab qilganda, Xoja Ubaydulla Ahror uni o‘z hisobidan to‘lab yuborgan; hunarmandlar va bozor ahlidan olinadigan tamg‘a solig‘iga qarshi chiqqan, uning o‘zi va mulki barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari hamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlar – ma‘unoti devoniya va navoibi sultoniga to‘lab turgan.

Xoja Ubaydulla Ahror har yili Sulton Ahmad Mirzo (1458–1494, Movarounnahr hukmdori)ning devoniga 80 ming man (4,32 kg.ga teng) g‘allani xiroj o‘rnida yuborib turgan; yiliga unga xirojning bir qismini – 10 ming kumush tanga berib turgan.

Xoja Ubaydulla Ahrorga tegishli vasiqa, vaqfnomha va boshqa huquqiy hujjalalar hali boshqa yerlardan ham topiladi. Lekin, O.D.Chexovich nashr qilganlarining o‘zi ham O‘zbekistonning XV–XVI asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o‘rganishda birinchi darajali manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

#### 4.3.1. Vasiqa

Alloh jumlai jahon egasidir, uning shon shavkatni yuqori bo‘lsin! (Hijriy 859-yil jumodi ul-oxir oyining 12-kuni).

Bayramxo‘ja o‘g‘li Hasan, mulkiga mutasaddiy bo‘lishga haq-huquqi bo‘lgan holda, dedi: “Samarqandning So‘zangaron ko‘chasida joylashgan ikki xonalik uyimni, tahoratxona va ayvoni bilan, Ubaydullaxoja Jaloliddin Mahmudga sotdim.

Mazkur hovli-joyning g‘arb tarafī oljanob, hurmat-ehtiromga loyiq bo‘lgan olg‘uvchining do‘konini bilan tutash, shimoliy tarafī podshohlik yerlari va qisman Amir Shermuhammad xojaning uyi bilan, sharqi-janub tarafdan esa halqa ko‘chalar bilan tutashdir.

Ushbu mulkni, barcha haq-huquqlari bilan, hozirda muomalada bo‘lgan 1500 dinori adliyaga<sup>1</sup> sotdim.

<sup>1</sup> Dinori adliya – Mirzo Ulug‘bek davrida zarb etilgan oltin tanga pul, vazni 4.4 gr.ga teng.

Mazkur sado-sotiqning kafilligi o'zimning zimmamda.  
Savdo quyidagi shaxslarning guvohligida bo'ldi:  
Abu Mansur Muhammad;  
Sa'dulla Muhammad al-Ispijobi;  
Ahmad Ali al-Xorazmi;  
Xoja Sulton Jahongir o'g'li;  
Bayramshoh Junayd Ramazon o'g'li.  
Hammasi bo'lib 26 guvoh.”<sup>1</sup>

## 4.4. Fors tilidagi manbalar

### 4.4.1. «Buxoro tarixi»

“Buxoro tarixi”, “Tarixi Narshaxiy” va “Tahqiq ul-viloyat” (“Buxoro viloyati tahqiqi”) nomlari bilan mashhur bo'lgan bu asar Buxoro va Quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlarning jo'g'rofiy holati, aholisining VII—X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettingan qimmatli tarixiy manbadir.

Kitob muallifining nomi qisqacha Narshaxiy (899—959) deb ataladi. Uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Shariq bo'lib, X asrda ijod qilgan buxorolik yirik tarixchi sifatida mashhurdir. Tarixchi Sam'oniyning ma'lumotiga qaraganda Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan. Narshaxiy o'z asarini 944-yili yozib tugallagan.

“Buxoro tarixi” asarining Narshaxiy yozgan arab tilidagi asli saqlanib qolmagan. Asar 1128-yili farg'ononalik (Quva shahridan) Abunasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy tarafidan ilk bor qisqartirilib, forsiy tilga tarjima qilingan. Oradan taxminan 50 yil o'tgach, 1178-yili kotib Muhammad ibn Zufar ibn Umar tomonidan “Buxoro tarixi” asari ikkinchi marta tahrir etildi.

“Buxoro tarixi” asarining bizgacha yetib kelgan nusxalarida 1178—1220-yilgi voqealar bayoni uning tarkibiga kiritib yuborilgan. Shunga qaraganda, Narshaxiyning asari uchinchi marta noma'lum muharrir tomonidan to'ldirilgan ko'rindi.

“Buxoro tarixi” O'zbekistonning arablar tomonidan bosib olinishi, bu yerda islom dinining tarqatilishi hamda mamlakatning Somoniylar hukmronligi yillaridagi tarixini bayon etadigan noyob manbadir.

Bu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939-yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966-yillari) tarjima qilingan.

<sup>1</sup> Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. 74—75-betlar.

#### **4.4.2. «Siyosatnoma»**

Bu mashhur asar muallifi Nizomulmulk tahallusini olgan Saljuqiyalar davlatida vazir sifatida xizmat qilgan yirik davlat arbobi va tarixchi olimdir. Uning asli ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Is'hoq at-Tusiy (1018–1092) bo'lib, Saljuqiy hukmdorlar Sulton Alp Arslon (1063–1073) hamda Sulton Malikshoh I larning bosh vaziri bo'lган va bu davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. U sultanatdagi tarqoqlikka barham berish, markaziy davlat tuzumini mustahkamlash, davlatning moliyaviy ishlarini tartibga solish uchun harakat qilgan. Shuning uchun unga mamlakatni tartibga soluvechi, ya'ni Nizomulmulk nomi berilgan. Nizomulmulk Bag'dodda "Nizomiya" atalmish musulmon huquq-aqoid maktabiga asos solgan.

"Siyosatnoma" asarining boshqa nomi "Siyar al-muluk" ("Podshohlarning turmushi")dir. Kitob 1092-yili yozib tugallangan. U 51 bobdan iborat bo'lib, unda davlat tizimi, moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shin tuzulishi, mansablar va ularga amaldorlarni tayinlash tartibi, amaldorlar faoliyatini muammolari xususida fikr yuritiladi.

Asarda O'zbekiston tarixiga oid muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarini davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, Turkiston xonlari Qoraxoniylar saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlar unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017–1032) bilan Sulton Mahmud G'aznaviyning vaziri Ahmad ibn Hasan o'tasidagi yozishmalar ana shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud.

"Siyosatnoma"ning forschasi 1931, 1956-yillari, fransuzchasi 1893-yili, inglizchasi 1960-yili hamda ruschasi 1949-yili B. D. Zaxoder tomonidan chop qilingan. Kitob o'zbek tiliga ham tarjima qilingan va bosib chiqarilgan.

#### **4.4.3. «Chor maqola»**

"Chor maqola" nomi bilan mashhur bo'lgan bu qiziqarli asar muallifi Nizomiy Aruziy Samarqandiyidir. Uning o'z ismi Najmuddin Ahmad ibn Umar ibn Ali bo'lib, asli samarqandlikdir. Otasi bir vaqtlar Saljuqiy Alp Arslon xizmatida bo'lgan. Bo'lg'usi olim IX asrning 90-yillarda tug'ilgan, 1116–1119-yillari Sulton Sanjar (1118–1157) saroyida Nishopurda hayot kechirdi, so'ngra Gur va Bomiyyonda (Afg'onistonning markaziy qismida joylashgan viloyatlar) hukm surgan Shansabiylar xizmatiga kirdi va umrining oxirigacha o'sha yerda yashadi.

“Chor maqola” ilmiy, etik-didaktik mavzuda yozilgan asar bo‘lib, “Majma’ ul-g‘aroyib” (“Ajoyibotlar majmuasi”) nomi bilan ham ataladi. Asar 1156–1157-yillarda bitilgan bo‘lib, to‘rt qismidan iborat:

Dabir (kotib)lar va dabirlik haqida;

She’riyat ilmi va shoirlarning qadr-qimmati haqida;

Sayyoralar haqidagi ilm va munajjimlik haqida;

Tibb (meditsina) va tabiblik xususida.

Birinchi qismda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o‘rtasidagi 1141-yilning 9-sentabrida Samarqand atrofida bo‘lgan urush, Qoraxitoylar bilan Xorazm, shuningdek, Sulton Mahmud G‘aznaviy bilan Movarounnahr hukmdori Qoraxoni Bug‘raxon Muhammad (1033–1056-yillar atrofida vafot etgan) o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, qoraxitoylar istilosini arafasida Buxoro sadrlarining umumiy ahvoli haqida qisqa, lekin qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

“Chor maqola”ning ikkinchi qismida ham muhim ma'lumotlarni uchratamiz. Mashhur forsiy zabon shoirlar Rudakiy (taxm. 860–941), Farruhiy (1038-yili vafot etgan), Firdavsiy (taxminan 940–1020–1030-yillar orasi) larning hayotiga oid, shuningdek, Bodhizning tabiiy sharoiti, masalan u yerda bo‘lgan 1000 ga yaqin koriz, uzumning 120 ta navi, Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning adabiy va madaniy hayotiga oid axborotlar shular jumlasidandir.

Uchinchi qismda Abu Rayhon Beruniy va Umar Hayyomning (taxm. 1048–1123) hayoti (Nizomiy Aruziy Samarqandiy u bilan yaqindan tanish bo‘lgan) bilan bog‘liq ma'lumotlar berilgan.

To‘rtinchi qismda o‘zbekistonlik buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) Buxoro va Xorazmdagi ilmiy faoliyati bilan bog‘liq ma'lumotlarni uchratamiz.

Xullas, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning ushbu asari O‘zbekistonning X–XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardan biri hisoblanadi.

“Chor maqola”ning forsiy matni 1910 va 1955–1957-yillarda eronlik sharqshunos olimlar Mirzo Muhammad Qazviniy hamda Muhammad Mu’in tomonidan chop qilingan. Asar ingliz tiliga 1921-yili va 1963-yili rus tiliga tarjima qilingan. Sharqshunos Mahmud Hasaniy uni o‘zbek tiliga tarjima qilib chop ettirgan.

#### **4.4.4. «Mujmal at-tavorix va qisas»**

Muallifi noma'lum bo‘lgan “Mujmal at-tavorix va qisas” (“Tarixlar va qissalar majmuasi”) nomli bu asar ixcham tarzda yozilgan umumiy tarixga

oiddir. Unda qadim zamonlardan (islomiyatdan avval o'tgan Eron podshohlari zamonidan to o'g'uzlar tarafidan Sulton Sanjarning asir olinishi (1153) va Nishopurning vayron etilishigacha bo'lган davr ichida Eronda va qisman O'zbekistonda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilinadi.

Asar 1153-yildan keyin yaratilgan. Kitobning ilmiy qimmati shundaki, unda turkiy xalqlar, ularning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar, turklarning vatanlaridan biri Issiqko'l haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar keltirilgan.

"Mujmal at-tavorix va qisas"ning yagona qo'lyozma nusxasi Parij Milliy kutubxonasining qadimiyligi forsiy kitoblar fondida, 62-raqam ostida saqlanmoqda. Uning matni 1939-yilda eronlik Malik ush-shuaro Bahor tomonidan chop etilgan.

#### 4. 4.5. «Zayn al-axbor»

"Zayn al-axbor" ("Tarixlar bezagi") nomli kitob muallifi XI asrning yirik tarixchisi Gardiziyyidir. Uning to'la ismi Abu Said Abulhay ibn Zahhok ibn Mahmud Gardiziyy, G'azniga (Afg'oniston) tobe bo'lgan va uning sharqiy tarafida joylashgan Gardiz qishlog'ida tug'ilgan. U o'z zamonidayoq shuhrat topgan olimdir. Bu esa uning "Zayn al-axbor" nomli asari tufayli bo'ldi. Kitob 1049–1050-yillar orasida yozib tamomlangan va G'aznaviylardan Sulton Abdurashidga (1049–1053) taqdim etilgan.

"Zayn al-axbor", asosan qadim zamonlardan (islomiyatdan avval o'tgan qadimgi Eron podshohlari zamonidan) to 1041-yilgacha, ya'ni G'aznaviylardan Sulton Mavdud (1041–1050) bilan Sulton Muhammad (1030–1031, ikkinchi marta 1041) o'rtasida, ya'ni 1041-yili Dinovarda bo'lgan urushgacha Xurosonda bo'lib o'tgan voqealar haqida hikoya qiladi. Asarda ayniqsa Xurosonning arab istilosidan 1041-yilgacha bo'lgan tarixi boshqa asarlarga nisbatan kengroq yoritilgan.

Gardiziyy ushbu asarini yozishda as-Sallomiyning "Kitob fi axbor vuloti Xuroson", al-Jayhoniyning "Ajoyib al-buldon", shuningdek ibn Muqaffa, ibn Xalliqonning asarlaridan ham foydalangan.

"Zayn al-axbor" rumliklarning madaniyati (dar ma'rifati rumiyon), turli xalqlarning diniy marosimlari va yil hisoblari, Mavarounnahrning turkiy aholisi va Hindiston haqida, degan boblardan iborat. Asarning turli xalqlarning (musulmon, yahudiylar, xristian va boshqalarning) diniy marosimlari va yil hisoblari hamda Hindiston haqidagi boblari Abu Rayhon Beruniy asarlari, O'rta Osiyo va O'zbekistonning turkiy aholisi haqidagi boblari esa qisman ibn Xurdodbeh, Jayhoniy va Ibn Muqaffa asarlariga tayanib yozilgan.

Gardiziyning “Zayn al-axbor” asari Xuroson va Mavarounnahrning arablar istilosidan to XI asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan siyosiy tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

“Zayn al-axbor” asarining forscha matni eronlik Mirzo Muhammad Qazviniy 1937-yili, Muhammad Nozim 1928-yili hamda Said Nafisiy tomonidan 1954-yili chop etilgan edi. 1969-yili Tehronda asarning to‘la nashri amalga oshirildi. Uning turkiy xalqlar haqidagi bobi rus tilida V.V.Bartold tomonidan 1900-yili nashr qilingan.

Kitobning O‘zbekistonga aloqador qismi A.K.Arends tomonidan ruschaga qilingan tarjimasi 1991-yili L.M.Epifanova tomonidan nashrga tayyorlanib, Toshkentda chop etildi.

#### **4.4.6. «Kitob al-qand fi marifat ulamo Samarqand»**

“Kitob al-qand fi marifat ulamo Samarqand” (“Samarqand olimlarini tanish borasida qand kitobi”) nomli asar muallifi yirik tarixchi, tilshunos va faqih Najmuddin Abu Hifs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Luqmon an-Nasafiy (1068–1142)dir. U musulmon qonunshunosligiga oid “Manzumot an-Nasafiya fi-l-xulofiyot” (“Kelishmovchiliklar haqida Nasafiyning she’riy asari”), “Aqoid an-Nasafiya” (“(Islom) aqidalariga an-Nasafiy sharhi”), shariat yo‘l-yo‘riqlari va “Qur’oni karim” sharhiga bag‘ishlangan “Al-yavoqit fi-l-mavoqit” (“Qulay vaqtlar xususida yoqutlar”), “Zallat al-qoriy” (“Qorilarning xatolari haqida”) va tasavvuf xususida “Risolai Najmiya” kabi bir necha kitoblar yaratgan.

Nasafiyning tarix fani uchun eng muhim “Kitob al-qand fi ma’risati ulamoi Samarqand” asaridir. Uning yana bir nomi «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand» (“Samarqand tarixi haqida qand kitobi”) ham mashhurdir. Ushbu asarda 1232 ulamonning tarjimai hollari, rivoyat qilgan hadis va isnodlari mavjud. Unda O‘zbekistonning islomgacha bo‘lgan tarixi, uning arab istilochilari tomonidan bosib olinishi, Samarqandning diqqatga sazovor osori atiqalari haqida ma’lumot keltirilgan. Asarning yagona va noto‘liq qo‘lyozma nusxasi Istanbuldagi mashhur Sulaymoniya kutubxonasining Turhan Valde fondida 70-raqam ostida saqlanadi. Yaqin vaqtargacha asl nusxa yetib kelmagan hisoblanar edi. Uni birinchi bor Fuad Sezgin tadqiq etgan va asar to‘g‘risida Durbek Rahimjonov nomzodlik dissertasiyasini 2003-yili yoqlagan.

Nasafiyning shogirdi Abulfazl Muhammad ibn Abdusalil ibn Abdumalik ibn Haydar as-Samarqandiy (XII asr) ushbu asarning qisqartirilgan forscha tahririni yaratgan. V.V.Bartoldning fikricha (Asarlar. VIII jild, -M., 1973, 257 bet) Abulfazl Muhammad as-Samarqandiy asarning forscha tahririga

Abulfazl Muhammad as-Samarqandiy al-Idrisiyning (1015-yili vafot etgan) “Kitob komil al-ma’rifat ar-rijol” (“Mashhur kishilarni tanish haqida mukammal kitob”) nomli asaridan ham ayrim parchalarni olib kiritgan.

“Kitob al-qand fi tarixi Samarqand”ning XV asr oxiri XVI asr boshlarida Said Ahmad ibn Mir Vali qalamiga mansub forscha tahriri ham bor. “Qandiyayi xurd” (“Kichik qandiya”) nomi bilan mashhur bo’lgan bu asarning qo’lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent va Dushanbe shaharlarida hamda Germaniya, Hindiston va Saudiya Arabistoniga kutubxonalarida saqlanmoqda.

“Qandiyayi xurd” bir necha marta toshbosma usulida Samarqand (1909), Toshkent va Tehronda (1955) chop etilgan; bir qismi V.L.Vyatkin (1869–1932) tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1906-yili nashr etilgan.

#### 4.4.7. «Tarixi Muborakshoh»

“Tarixi Muborakshoh” (“Muborakshoh tarixi”) asarining muallifi Faxriddin Muborakshoh Mavarrudiylar bo’lib, u XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrning boshlarida yashagan yirik tarixchi olimdir. Tarixchining to’liq ismi Faxriddin Muborakshoh yoki Faxri mudir nomi bilan mashhur bo’lgan ekan.

Faxriddin Muborakshoh o’z asarining debochasida, shuningdek, Ibn Al-Asir va “Haft iqlim” muallifining keltirgan ma’lumotlariga qaraganda, otasi ham, o’zi ham G’uriylardan<sup>1</sup> Shahobiddin (yoki Mu’izziddin) Muhammad (1173–1206) hamda G’iyosuddin Mahmud (1206–1212) saroyida xizmat qilgan va o’z zamonasining keng ma’lumotli kishilaridan hisoblangan.

Faxriddin Muborakshoh 1206-yilda o’zining mashhur “Tarixi Muborakshoh” asarini yozib tamomladi va Lohurda G’iyosuddin Mahmudga taqdim etib, uning e’tiborini qozongan. Asar, muallifning so’zlariga qaraganda, 13 yil ichida tamomlangan.

“Tarixi Muborakshoh” asari 136 qism (shajara)dan iborat bo’lib, unda Muhammad payg’ambar, xulafoyi roshidin (Abubakr, Umar, Usmon, Ali), anstorlar<sup>2</sup>, muhojir sahabalar<sup>3</sup>, G’assaniylar, ya’ni Suriya hukmdorlari, Yaman podshohlari, johiliyat zamonida, ya’ni islomiyatdan avval o’tgan

<sup>1</sup> G’uriylar – 1000–1215-yillarda Xurosonning sharqiy qismi, Afg’oniston va Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilgan suluota.

<sup>2</sup> Anstorlar – yordamchi, safdosh; Muhammad payg’ambar 622-yili Makkadan Madinaga ko’chib ketishga majbur bo’lganida uni qo’llab-quvvatlagan Avs va Hazraj qabilalarining a’zolari.

<sup>3</sup> Sahoba – hamrohlari, do’stlar. Muhammad payg’ambarning hamrohlari, yaqin do’stlari.

shoirlar, sahabalar orasidan chiqqan shoirlar, Ajam podshohlari (Peshdodiyilar, Kayoniylar, Ashkoniyilar, Sosoniyilar), Umaviylar, Abbosiylar, Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va nihoyat G'uriylar tarixi bayon etilgan.

Ushbu asarning biz uchun qimmati shundaki, unda Turkistonning sarhadlari va unda ishlab chiqariladigan mol va matolar, ularning horijiy mamlakatlarda e'tibor qozongan navlari, turk qabila va urug'lari, ularning tili va madaniyati, yozuvlari, urf-odatlari haqida boy daliliy ma'lumotlar keltirilgan.

“Tarixi Muborakshoh” asarining yagona mo'tabar qo'lyozmasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida saqlanmoqda. Kitobning G'uriylar va turkiy xalqlar tarixiga oid qismi matnini ingliz sharqshunosi Denison Ross 1927-yilda chop qilgan.

#### 4.4.8. «Tarixi Mas'udiy»

An'anaviy tarixiy asarlardan yaqqol ajralib turadigan “Tarixi Mas'udiy” (“Mas'ud tarixi”) asarning muallifi Abulfazl Muhammad ibn al-Husayn al-kotib al-Bayhaqiyidir (995–1077). U Nishopur viloyatiga qarashli Harisobod qishlog‘ida badavlat mansabdor oilada tug‘ilgan, asosan Nishopur shahrida ta'llim olib, balog‘atga yetgan.

Abulfazl Bayhaqiy taxminan 1021-yili G'aznaviylar davlatining devoni rasoili — xorijiy mamlakatlar bilan aloqa yurituvchi mahkamaga dabirlik mansabiga qabul qilindi va vazir Abu Nasr Mishkon rahbarligida 19 yil o'sha mansabda xizmat qildi. Abu Nasr Mishkon vafotidan so'ng 1039-yili Abulfazl Bayhaqiy uning o'rniiga devon boshlig'i etib tayinlandi. 1041-yili Sulton Mas'ud o'ldirilgandan so'ng, u saroy xizmatidan chetlatildi va faqat Sulton Abdurashid 1050-yili hokimiyat tepasiga kelgach, yana o'z o'rniiga tiklandi. Abulfazl Bayhaqiy bu lavozimda 1059-yilgacha, ya'ni Sulton Farruhzod (1053–1059) sultanatining oxirigacha davlat xizmatida bo'ldi, keyin istefoga chiqib, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi. U 1077-yili vafot etgan.

Abulfazl Bayhaqiy “Ziynat ul-kitob” (“Kitoblar ziynati”), “Tarixi oli Mahmud” (“Mahmud xonadonining tarixi”) yoki “Jomi’ fi tarixi oli Sabuqtegin” (“Sabuktegin xonadoni tarixidan hikoyalari majmuasi”) nomli asarlari bilan mashhur. “Tarixi Bayhaq” (“Bayhaq (viloyati) tarixi”) asar muallifi Abulhasan Ali Bayhaqiy XII asrning ikkinchi yarmida o'tgan va ko'pincha ibn Funduq nomi bilan mashhur bo'lgan olimning ma'lumotiga qaraganda, Abulfazl Bayhaqiying “Tarixi oli Mahmud” asari o'ttiz jilddan iborat bo'lgan. Lekin, bu ulkan asarning faqat oltinchi jildining ikkinchi qismi, 7, 8, 9-jildlari hamda 10-jildining bir qismi yetib kelgan, xolos.

Bu qismlar Sulton Mas'ud (1030–1041) davri tarixini o‘z ichiga oladi va “Tarixi Mas’udiy” nomi bilan ma’lum va mashhur.

“Tarixi Mas’udiy” asarida boshqa tarixiy kitoblardan farqli, muallif o‘zi ko‘rgan va ishonchli kishilardan aniqlagan ma’lumotlarni, shuningdek, hukumat mahkamalarida saqlangan rasmiy hujjatlar asosida hamda maishiy tafsilotlarga ham alohida e’tibor berilgan.

Bu xususiyat asarning daliliy ma’lumotlarga boyligi, voqealarning keng va atroficha bayon etilishi va nihoyati zo‘r badiiy mahorat bilan yozilganligi, uni boshqa tarixiy asarlardan alohida ajratib turadi.

Kitobda, asosan Sulton Mas’ud davri G‘aznaviyalar sultanati ijtimoiy-siyosiy ahvoliga keng o‘rin berilgan. Bundan tashqari, asarda Safforiylar, Somoniyalar, Saljuqiylar tarixiga oid muhim ma’lumotlar ham bor. Ayniqsa, G‘aznaviyalar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati o‘rtasida bo‘lgan siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar ko‘p.

Ushbu asardagi Abu Rayhon Beruniy hayoti to‘g‘risida tafsilotlar va uning bizgacha yetib kelmagan Xorazm tarixiga oid asaridan lavhalar biz uchun juda qimmatlidir. Chunki, muarrix ulug‘ vatandoshimiz bilan muloqotda bo‘lgan, uni yaxshi bilgan va fikrlarini qadrlagan.

“Tarixi Mas’udiy” asarining forsiy matnnini U. Morley Kalkuttada 1861-yili, Tehronda esa Ahmad Peshavoriy 1886-yili, Said Nafisiy 1941–1954-yillari, G‘ani va Fayoz 1945-yili chop etganlar. Uning arabcha tarjimasi Qohirada Yahyo Hashshob va Sodiq Nishot tomonidan chop etilgan.

“Tarixi Mas’udiy” asarining ruscha tarjimasi tadqiqot va zarur izohlar bilan manbashunos olim A.K.Arends tomonidan Toshkentda 1962-yili va Moskvada 1969-yili e’lon qilindi. Kitobning X–XI asr tarixini o‘rganuvchilar uchun manba sifatida ahamiyati juda katta.

#### 4.4.9. «Lubob ul-albob»

“Lubob ul-albob” (“Qalblar qalbi”, 1222–1223-yillari yozilgan) nomli asarning muallifi Sa’duddin Muhammad Avfiy bo‘lib, u XII asrning so‘nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida yashagan adib, tarjimon va tazkiranevis olimdir.

Avfiy 1172–1177-yillar orasida Buxoroda tug‘ilgan, asosiy ma’lumotni ona shahrida olgan va 1201-yili Samarqand hokimi Qoraxoniylar Ibrohim IV ibn Husayn (1178–1204) saroyiga taklif etilgan. U, bu yerda ko‘pgina fozil kishilar, jumladan shayx Najmuddin Kubro (1221-yili Urganjda mo‘g‘ullar qirg‘ini vaqtida halok bo‘lgan) hamda shayx Majdiddin Bag‘dodiy (1216-yili xorazmshoh Alouuddin Muhammadning amri bilan qatl etilgan) bilan uchrashgan.

Olim 1205-yildan boshlab Movarounnahr va Xuroson bo'ylab ko'p sayohat qilgan, dastlab Niso, Marv, Tus, Hirot va Seistonda bo'ladi. U Nishopurda ham bo'lib, Xurosonning yetuk arabiynavis va forsinavis shoirlari bilan yaqindan tanishadi. Xullas, olim Xuroson shaharlari bo'ylab qilgan sayohati vaqtida bo'lajak tazkirasi uchun ma'lumotlar to'playdi.

Avfiy mo'g'ullar istilosiga arafasida Hindiston safariga otlanadi. G'aznaga yetganda Chingizzon (1206–1227) boshliq mo'g'ul qo'shinlarining O'rta Osiyoga bostirib kirgani haqida xabar tarqaladi. Olim Xuroson va Movarounnahrdan kelgan qochoqlarga qo'shilib Hindistonga jo'naydi va 1222-yili Panjobning Uch viloyatiga kelib, bu yerning hokimi Nosiruddin Qabochaning (1205–1227) xizmatiga kiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Avfiy Gujoratga qozi qilib tayinlanadi. U 1227-yili Dehliga ko'chib kelib, Sulton Shamsuddin Eltutmishning<sup>1</sup> xizmatiga kiradi va umrining oxirigacha shu yerda kun kechiradi.

Nuriddin Muhammad Avfiy Uchda turgan vaqtida o'zining "Lubob ul-albob" nomli tazkirasini yozdi, Gujoratda esa arabiynavis olim qozi Muhsin Tanuhiyning (940–994) "Al-faraj ba'd ash-shiddat" ("Ofatdan so'nggi ovunish", 984-yili yozilgan) nomli asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qildi. "Javomi ul-hikoyat va lavomi' ar-rivoyat" ("Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar shu'lesi") asarini ham o'sha yerda yoza boshladi.

"Lubob ul-albob" tazkira bo'lib, unda O'zbekiston, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, G'azna hamda G'arbiy Hindistonda X–XII asrlarda yashab ijod etgan 299 shoir va adib haqida umumiylar ma'lumot beriladi. Asar Uch viloyatining hokimi Raziuddin Abubakrning topshirig'i bilan yozilgan.

"Lubob ul-albob"ning forsiy matni 1903 va 1906-yillari E.Braun va Mirza Muhammad Qazviniy tarafidan chop etilgan.

Avfiyning ikkinchi muhim asari "Javomi ul-hikoyat" bo'lib, 1227–1236-yillar orasida yozilgan. Asar to'rt qismdan, har bir qism esa 25 bobdan iborat. U Hindiston, Eron, O'rta Osiyo va O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid 2113 ta tarixiy latifadan iborat. Biz uchun uning ayniqsa to'rtinchi qismi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qismda O'rta Osiyoning qadimiy turkiy xalqlari va Buxoro sadrlari haqida muhim ma'lumotlar bor.

"Javomi ul-hikoyat" chop qilinmagan. Ayrim qismlari I.Nizomutdinov va T.Fayziyev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

<sup>1</sup> Shamsuddin Eltutmish (1211–1236)–XIII asrda Shimoliy Hindistoni idora qilgan Mu'izziyalar sulolasidani.

#### 4.4.10. «Tarixi jahonkushoy»

“Tarixi jahonkushoy” (“Jahongir (Chingizxon) tarixi”) nomli yirik tarixiy asarni yaratgan tarixchi XIII asrda o’tgan yirik olim va davlat arbobi Juvayniydir. Uning to’liq ismi Alouddin Otamalik ibn Bahouuddin Muhammad al-Juvayniy. U 1226-yili G’arbiy Xurosonning Juvayn hududiga qarashli Ozodvor qishlog’ida badavlat va nufuzli siyosiy arbob oilasida tug‘ilgan. Otasi Bahouuddin Muhammad Xorazmshoh Alouddin Muhammadning Xurosondagi noibi bo‘lgan, mo‘g‘ullar xuruji vaqtida Sulton Jaloluddin bilan birga ularga qarshi janglarda qatnashgan. Mo‘g‘ullar 1221-yili Nishopurni ishg‘ol qilgach, Bahouuddin Muhammad Tusga qochib bordi va uning mustahkam qal’alaridan biriga yashirindi. Lekin qal’a hokimi uni bandga olib, mo‘g‘ul lashkarboshilaridan Qo‘lbo‘lotga topshirdi. Qo‘lbo‘lot asirning ma’lumotli va iste’dodli shaxs ekanligini anglab, uni tirik qoldirdi. Keyincha Bahouuddin Muhammad mo‘g‘ullar xizmatiga qabul qilindi va to vafotiga (1258) qadar Xurosondagi mo‘g‘ul hokimlari Chintemur, Kirko‘z, Arg‘un og‘a huzurida sohib devonlik vazifasida turdi.

Bahouuddin Muhammaddan ikki o‘g‘il qoldi. To‘ng‘ichi Shamsuddin Muhammad 1262–1283-yillari Erondagi mo‘g‘ul hukmdorlari Elxonlardan Halokuxon (1256–1265) hamda Abaqaxon (1265–1282)ning vaziri, sohib devoni bo‘lgan va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynagan. Kenja o‘g‘li Alouddin yoshligidan yaxshi o‘qidi, arab, fors, keyinchalik mo‘g‘ul va uyg‘ur tillarini mukammal o‘rgandi, o‘rtta asr fanining bir talay sohalarini puxta egalladi. U yoshligidayoq mo‘g‘ul hukmdorlari xizmatiga qabul qilindi va Kirko‘z hamda Arg‘un og‘aning devonida xizmat qildi. Alouddin Otamalik Juvayniy Arg‘un og‘a bilan uch marta 1246–1247, 1249–1251, 1252–1253-yillari Mo‘g‘ulistonga, Qoraqo‘rumga bordi. U 1256-yilning boshlarida Halokuxonning buyrug‘i bilan Ismoiliylar hukmdori Rukniddin Hurshoh huzuriga Maymanduz qal’asiga elchi bo‘lib bordi va unga qarshilik ko‘rsatmay taslim bo‘lish haqidagi talabnomani topshirdi. Juvayniy Maymanduzni mo‘g‘ul qo‘sishnlari tomonidan ishg‘ol qilish chog‘ida Ismoilylarning boy kutubxonasini talon-tarojdan saqlab qoldi.

Alouddin Otamalik Juvayniy 1259-yili Iroq va Xuzistonga hokim, malik qilib tayinlandi. O’shanda u Bag‘dod va uning atrofida joylarni obod qildi. Tarixchi Vassofning (XIII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmi) ma’lumotlariga qaraganda, u katta mablag‘, 10000 oltin dinor sarflab Frot daryosidan Kufa va Najafga suv olib kelgan. Juvayniy bu lavozimda 20 yildan ortiq turdi. 1271-yili raqiblari qozi sayyid Tojiddin Ali ibn

Muhammad, “Kitob al-faxriy” asari muallifi Abu Ja’far Jaloluddinning otasi boshchiligidagi unga qarshi zimdan kurash boshladilar. Oqibatda, ular Juvayniyi mansabini suiiste’ mol qilib, xazinani bir qismini o’zlashtinganlikda aybladilar. Juvayniy odam yollab qozi Tojuddin Alini o’ldirtirdi, lekin bu bilan muxolislarining ta’qibidan qutulib qololmadidi. O’sha yilning o’zida Abaqaxon Bag’dod devonini taftish qilish uchun odam yubordi. Taftish natijasida 250 tuman (bir tuman 10000 kumush dinorga teng) kamomad borligi aniqlandi. Juvayniy qamab qo’yildi va kamomad undirib olingandan keyin hibsdan ozod qilindi va o’z mansabiga tiklandi.

Oradan o’n yil o’tgach, 1281-yili, Tojuddin ismli bir shaxs uni yana xazinaga “qo’l cho’zishda” va yashirinchada Misr bilan aloqa bog’laganlikda aybladi. Bag’dodning moliyaviy xo’jaligi yana taftish qilindi va 300 tuman kamomad borligi aniqlandi. Juvayniy yana hibsga olindi, lekin kamomadni to’lashga so’z bergani uchun qamoqdan ozod qilindi. Lekin, butun yersuv va qimmatbaho buyumlarni sotsa ham, kamomadning faqat 170 tumanini qopladi, xolos. Juvayniy yana qamoqqa olindi, uni qynoqqa soldilar, Bag’dod ko’chalari bo’ylab yalangg’och qilib olib o’tdilar. Juvayniy To’qudar Ahmad davri (1282–1284) da og’asining yordamida hibsdan ozod etildi, musodara qilingan mol-mulki qaytarib berildi. Lekin, oradan ko’p o’tmay, shahzoda Arg’un Bag’dod devonini qaytadan taftish qilish va Juvayniyning mol-mulkini musodara qilishni buyurdi. O’sha vaqtida Juvayniy Ozarbayjonning Arronida edi. Bu xabar fojiaga olib keldi – 1283-yili Juvayniy yurak xurujidan vafot etdi.

Alouddin Otamalik Juvayniy Mo’g’uliston, O’zbekiston hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi asari bilan shuhrat topti. Kitob 1260-yili yozib tamomlangan.

“Tarixi jahonkushoy” asari uch qismidan iborat: 1) Mo’g’ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246–1249) davrigacha, shuningdek, Jo’jixon, Chig’atoyxon va avlodlari tarixi, 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo’g’ul hukmdorlari davridagi (1258–yilgacha) tarixi, 3) Eronning 1256–1258-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoiliylarning diniy-harbii uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090–1258) tarixi. Ismoiliylar tarixi Maymanduzdagagi kutubxonada topilgan asarlar, xususan Ismoiliylarning ko’zga ko’ringan namoyandalaridan Hasan Sabohning (taxminan 1055–1124) hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi “Sarguzashti sayyidmo” (“Sayidimizning sarguzashtlari”) nomli kitob asosida yozilgan.

O’rta Osiyo va O’zbekiston tarixi uchun “Tarixi jahonkushoy”ning I–II qismlari alohida ahamiyatga ega. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar

tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan “Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroib” (“Imtihonni salqinlashtirish joyi va ajoyib narsalarning yuqori darajasi”), Faxriddin Roziyining (1210-yili vafot etgan) “Javome’ ul-ulum” (“Ulmlar majmuasi”) kitoblari asosida yozilgan. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar, asosan muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan ma‘lumotlar asosida yozilgan.

“Tarixi jahonkushoy”ning forsiycha matni Mirzo Muhammadxon Qazviniy tomonidan 1912, 1916 va 1937-yillarda nashr etilgan. Asarning inglizcha va turkcha-usmonlicha (1 jildi) tarjimalari bor. Kitob to‘g‘risida N. Toshev nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

#### 4.4.11. «Jome’ ut-tavorix»

“Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) asarining muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashiduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulxayr al-Hamadoniyidir. Uning ota-bobolari ham o‘z zamonining o‘qimishli kishilaridan bo‘lganlar. Masalan, bobosi dastlab yirik qomusiy olim Nosiruddin Tusiy (1201–1274) bilan birgalikda Alamut qal’asida<sup>1</sup> Ismoiliylar xizmatida bo‘lgan, so‘ng mo‘g‘ullar tarafiga o‘tib ketgan. Otasi Imoduddavla Abulxayr o‘rtahol kishi bo‘lib, Hamadonda tabibchilik bilan kun kechirgan, keyinchalik Elxoniylar saroyiga taklif qilinib, u yerda ham o‘z kasbi bilan shug‘ullangan.

Rashiduddin 1247-yili Hamadonda tug‘ilgan. Yoshligidan yaxshi o‘qib, ota kasbidan tashqari, ko‘pgina ilmlarni – ilohiyot, tabiiy fanlar, mumtoz adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarni puxta egallagan.

Rashiduddin Elxon Abaqaxon (1265–1282) davrida uning shaxsiy tabibi bo‘lib xizmat qilgan, keyincha G‘ozonxon (1295–1304) va O‘ljoytuxon (1304–1317)lar vaziri bo‘lgan. Ushbu xonlarning homiyligi, ayniqsa o‘zining tadbirkorligi orqasida, davlatning moliyaviy muassasasi tamoman uning qo‘lida edi, Rashiduddin vazirlik yillari (1298–1317) o‘z davrining eng badavlat va nufuzli kishilaridan biriga aylandi. Halokuiylar davlatining turli viloyatlarida uning 80 000 hektar hosildor yer-suvi, bog‘lari, o‘nlab hammom, karvonsaroy, hunarmandchilik va savdo do‘konlari, yaylovlarda esa 250 000 qo‘yi, 30 000 yilqisi, 10 000 tuyasi bo‘lgan. Rashiduddinning shaxsiy boyligi, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 35 000 000 dinorga teng bo‘lgan. Uning ko‘p sonli

<sup>1</sup> Alamut qal’asi – Qazvinni shimali-g‘arbiy tarafida, Elburs tog‘ida joylashgan mustahkam qal‘a, Ismoiliylarning muhim qarorgohlaridan.

o'g'illari (16 nafar) Bag'dod, Rum, Gurjiston, Ardabil, Isfahon, Fors, Xuziston, Kirmon va Domg'on viloyatlarining hokimi edilar.

Rashiduddin feodal tarqoqlik va ayirmachilik tarafdoi bo'lgan ko'chmanchi turk-mo'g'ul katta yer egalaridan farqli o'laroq, o'troqlik hamda markaziy davlat muassasini mustahkamlash tarafdoi edi. Uning G'ozonxon davrida o'tkazgan ma'muriy va moliyaviy islohotlari shunga qaratilgandi. Oxiri Rashiduddin elxoniylar saroyida hukm surgan fitna qurboni bo'ldi. Endigina taxtga o'tqazilgan Abu Sa'idxon (1317–1335) Rashiduddinni saroydan chetlashtirdi. Oradan bir yil o'tgach, u O'ljoytuxonni zaharlab o'ldirishda ayblanib, 1318-yilning 18-iyulida qatl etildi, barcha mol-mulki musodara qilindi. O'shanda uning Tabrizdagi 600 000 jild kitobga ega boy kutubxonasi ham talon-taroj qilindi.

Rashiduddin tarixda o'zining yirik asarlari bilan ham nom qoldirdi. Illohiyat ilmining ayrim masalalariga bag'ishlangan "Al-majmuot ar-Rashidiya" ("Rashiduddinning majmualari"), tibbiyotga oid "Al-osor va-l-ihya" ("Tirik narsalarning qoldiqlari"), "Bayon al-haqoiq" ("Haqiqatlar bayoni"), qurilish masalalariga bag'ishlangan "Asila va ajiba" ("Ajib va asil narsalar") va nihoyat, jahon tarixini o'z ichiga olgan "Jome ut-tavorix" uning qalamiga mansub asarlar jumlasidandir.

Olimning bizning zamonomizgacha to'la yetib kelgan birdan-bir asari ana shu "Jome ut-tavorix" bo'lib, u o'rta asr tarixnavisligining o'ziga xos noyob obidasi hisoblanadi. Bu kitob o'rta asr Sharq tarixchiligidagi yangi an'anani boshlab bergen asar. Unda umumiy tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G'arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga intilgan, Sharq mamlakatlari tarixi umum jahon tarixining bir qismi, deb hisoblagan.

"Jome ut-tavorix" asari 1301–1311-yillar orasida G'ozonxonning topshirig'i bilan yozilgan. Asar uch qismidan iborat: 1) Mo'g'ullar va ular asos solgan davlatlar Ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston, Elxoniylar davlati hamda mo'g'ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O'rta Osiyo va Yaqin hamda O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ul istilosigacha bo'lgan qisqacha tarixi; 2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islamiyotdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G'aznaviylar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi; 3) Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning so'nggi, uchinchi qismi saqlanmagan. Qo'lyozma 1318-yili Rashiduddinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtarda yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Mazkur asar, ayniqsa uning turk va mo'g'ul xalqlarining Chingizxoniga qadar kechgan tarixi Mahmud Koshg'ariy va Alouddin Otamatlik Juvayniy usurlari, Elxoniylar kutubxonasida saqlanayotgan "Oltin daftari", Chingizzon va uning ota-bobolari tarixi, shuningdek, turk-mo'g'ul xalqlari tarixi va rivoyatlarini yaxshi bilgan kishilar, Po'lod, Chjen-syan, G'ozonxon va boshqalarining og'zaki axborotlari, G'arb mamlakatlari, Xitoy va Hindiston xalqlari tarixiga oid qismlari o'sha vaqtarda Eronga kelib qolgan fransiyalik ikki katolik rohib, ikki xitoylik olim va kashmirlik rohibning ishtirokida yozilgan. To'plangan ma'lumotlarni tartibga solish ishlarini muallifning yordamchilari Abdulla Koshoniy hamda Ahmad Buxoriylar bajarganlar.

"Jome ut-tavorix" asarining ayniqsa turk-mo'g'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rghanishda katta ahamiyatga ega. Kitobning O'rta Osiyo, Eron va Kavkaz orti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoyatda qimmatlidir.

Asarning ayrim qismlari Katrmer (1836), E.Bloshe (1911), K.Yan (1941), I.N.Berezin (1858–1888) tomonidan rus, fransuz hamda nemis tillariga tarjima qilingan va forscha matni, so'zboshi bilan chop qilingan. Uning o'zbek tiliga qilingan ikkita tarjimasi bor. Ulardan biri Shayboniylardan Ko'chkinchixonning (1510–1530) topshirig'i bilan Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy tomonidan qilingan va muqaddima va uch jiddan iborat. Bu tarjimaning noyob qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2-tartib raqami ostida saqlanmoqda. Ikkinchisi tarjima esa 1556-yili Niso shahrida Solur bobo ibn Qul Ali tomonidan Urganch hokimi Ali Sultonning (1572-yili vafot etgan) buyrug'i bilan bajarilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxasi Ashxobodda Turkmaniston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida saqlanadi.

"Jome ut-tavorix" asarining to'liq ruscha tarjimasi 7 nafar mo'tabar qo'lyozmalar asosida 1946–1960-yillarda Sankt-Peterburgda amalga oshirilgan.



#### 4.4.12. «Tarixi guzida»

"Tarixi guzida" ("Saylangan tarix") asari muallifi Hamdulloh Qazviniy bo'lib, u XIII asr so'nggi choragi va XIV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan yirik geograf va tarixshunos olimdir. Uning to'liq ismi Hamdulloh ibn Abubakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniy bo'lib, kelib chiqishi

bo'yicha arab va 1281-yili Eron Ozarbayjonining Qazvin shahrida tug'ilgan.

Hamdulloh Qazviniy Rashiduddin davrida Qazvin, Abhar va Zanjon viloyatlarining moliya ishlarini boshqargan. Rashiduddin qatl etilgandan so'ng, uning o'g'li G'iyosuddin Muhammad (1327–1336-yillarda Elxoni Abu Sa'idning vaziri bo'lgan)ning xizmatida bo'lgan. Tarixchi 1350-yili vafot etgan.

Hamdulloh Qazviniy "Zafarnoma", "Tarixi guzida" hamda "Nuzhat ul-qulub" nomli asarlar muallifidir.

"Tarixi guzida" umumiy tarix yo'nalishida yozilgan asar bo'lib, unda qadim zamonlardan to 1330-yilgacha Eron va qisman, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan. Hamdulloh Qazviniy vafotidan keyin o'g'li Zaynuddin tomonidan asar davom ettirilgan va unga 1392-yilgacha Eronda bo'lib o'tgan voqealar qo'shilgan. Kitobning asosiy qismi hoji G'iyosuddin Muhammadga bag'ishlangan. Asar muqaddima-fotiha va olti bobdan iborat: 1) Payg'ambarlar va avliyolar; 2) islomiyatdan avval o'tgan Eron podshohlari; 3) Muhammad Payg'ambar, xalifayi roshidin, umaviylar va Abbosiylar tarixi; 4) Abbosiylar davrida Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, G'uriylar, Daylamiyalar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, mo'g'ullar va boshqa sulolalar tarixi; 5) Islomiyat davrida o'tgan shayxlar, olimlar va shoirlar; 6) Qazvin shahrining tarixi.

"Tarixi guzida" Eron, O'rta Osiyo hamda O'zbekistonning XIII–XIV asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1910-yili inglez sharqshunosi E.Braun tomonidan matn va qisqartirilgan inglizcha tarjimasi hamda 1960-yili Abdulhusayn Navoiy asar matnini nashr qilgan.

#### **4.4.13. «Ravzat uli-l-albob»**

"Ravzat uli-l-albob" yoki "Ravzat uli-l-albob fi tavorih al-akobir va-l-ansob" ("Akobir va asil (kishilar) tarixi xususida oqillar bog'i") nomli asarning ijodkori Faxruddin Abu Sulaymon Dovud ibn Abulfazl Muhammad Banokatiy (1330-yili vafot etgan) bo'lib, u XIII asrning II yarmi va XIV asr I yarmining birinchi choragida o'tgan shoir va yirik tarixchi olimdir. U, ko'proq Banokatiy nomi bilan mashhur.

Banokat Toshkentning eski shahar nomlaridan biri bo'lib, u Iloq, ya'ni Ohangaron daryosining Sirdaryo bilan qo'shilish joyi yaqinida joylashgan qadimiy shahar, 1392-yilidan boshlab Shohruhiya nomi bilan

atalgan. Tarixchi mana shu shaharda tug'ilgan. Elxon G'ozonxon hamda O'ljoytuxon saroyida xizmat qilgan va 1301-yili malik ush-shuar (shoirlar podshohi) unvoniga sazovor bo'lgan.

Lekin, Banokatiy ko'proq tarixchi olim sifatida va jahon tarixini o'z ichiga olgan "Ravzat uli-l-albob" nomli asari bilan mashhur bo'ldi. Asar 1317-yili yozib tamomlangan va muqaddima hamda to'qqiz qismdan iborat: 1) Odam Atodan to Muso payg'ambargacha o'tgan davrda yashagan payg'ambarlar; 2) Qadimiy Eron podshohlari; 3) Muhammad payg'ambar, xalifayi roshidin, imomlar, Umaviya va Abbosiya xalifalari davri; 4) Abbosiylar bilan hamasr bo'lgan Tohiriyalar, Safforiylar, Somoniylar, Xorazmshohlar va boshqa sulolalar; 5) Yahudiyarning payg'ambarlari va podshohlari; 6) Xristianlar va franklar tarixi, xristianlarning dini va e'tiqodi, Armaniston va frank mamlakatlarining geografik holati; 7) Hindiston tarixi, hindlarning dini va e'tiqodi; 8) Xitoy tarixi va uning geografik holati, xitoylarning dini va urf-odatlari; 9) Mo'g'ullarning tarixi va ularning istilochilik yurishlari.

"Ravzat uli-l-albob" asari Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" asari asosida yozilgan bo'lib, uning qisqartirilgan tahriri deb aytish ham mumkin. Lekin, Banokatiy asarida Rashiduddin kitobida uchramaydigan ma'lumotlar ham bor. Masalan, yetti iqlim mamlakatlarining tavsifi, Eronning 1310–1317-yillar orasidagi tarixi shular jumlasidandir.

Xullas, Banokatiyning mazkur asari O'zbekistonning XIII–XIV asrning birinchi choragidagi tarixi, geografik holati va aholisining turmushini o'rGANISHDA muhim manbalardan hisoblanadi.

"Ravzat uli-l-albob" XVII asrdan buyon ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Uning ayrim qismlari lotin, turk, ingлиз hamda fransuz tillariga tarjima qilinib chop etilgan. Kitobdan Alisher Navoiy o'zining tarixiy asarlarini yaratishda foydalangan.

Asarning qo'lyozma nusxalari Toshkent, Sankt-Peterburg, Qozon, Dushanbe va xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida mavjud.\*

## Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollar

1. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida nima haqida so'z boradi?
2. Beruniyning «Osor ul-vogia» asari nima haqida?
3. «Al komil fi-t-tarix» asari muallifi kim?
4. Abu Safar Tabariyning tarixiy asari nomi nima?

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asariga tayanib yoritildi.

## **5-MAVZU. TEMURIYLAR DAVRI MANBALARI**

### **(XIV asr 70-yillari – 1506-yillar)**

**Darsning mazmuni:** Temuriylar davri.

#### **Reja:**

- 5.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 5.2. O‘zbek tilidagi manbalar.
- 5.3. Fors tilidagi manbalar.

**Asosiy tushunchalar:** Temuriylar, tuzuk, suyurg‘ol, xon, amir, podshoh.

#### **5.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar**

XIV asr ikkinchi yarmiga kelib Chig‘atoy ulusining janubi-g‘arbiy qismini tashkil etgan Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Bu, ayniqsa amir ul-umaro Qazag‘on vafotidan (1358-yili) keyin kuchayib, mamlakat mayda qismlarga bo‘linib ketdi. Masalan, Shahrisabzda Hoji Barlos mustaqillik bayrog‘ini ko‘tardi. Xo‘jandda Boyazid jaloir mustaqillik e’lon qildi. Balxda Amir Husayn xon etib ko‘tarildi, Shibirg‘onni Muhammad Apardi egalladi. Xuttalonda Kayxusrav o‘zini podshoh deb e’lon qildi. Badaxshon mahalliy hukmdorlar – Badaxshon shohlari qo‘liga o‘tdi.

Feodal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan Amir Temur ustalik bilan foydalandi va 1370-yili oliy hokimiyatni qo‘lga oddi. U 1370–1378-yillarda mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movarounnahr va Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1381–1402-yillarda Amir Temur qo’shni mamlakatlar ustiga harbiy yurish qilib, Eron, Kavkaz orti, Iraq, Kichik Osiyo va Shimoliy Hindistonni istilo qildi, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga (1376–1395) qaqshatqich zarba berib, uning poytaxti Saroy Berkani egalladi.

Amir Temur va Temuriylar davlati mayda uluslarga bo‘lingan holda idora qilindi. Masalan, Amir Temur sultanati to‘rt qismga bo‘lingan edi: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seiston (markazi Hirot shahri) Shohruhxga; G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iraq va Armaniston (markazi Tabriz), Mironshohga; Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz), Umarshayxga; Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G‘azni, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg‘ol (shahzoda amirlarga toj-u taxt oldidagi katta xizmatlari uchun shartli tarzda in’om qilingan yer-suv va uni idora qilish huquqi) berilgan edi.

Amir Temur vafotidan (1405-yil 18-fevral) keyin 1409-yilgacha o‘zaro kurash davom etdi. Shohruh Mirzo (1409–1447), Mirzo Ulug‘bek (1409–1449), Sulton

Abu Said Mirzo (1451–1469), Sulton Husayn Mirzo (1459–1506) davrida davlat nisbatan markazlashgan edi va xalqaro obro'ga ham ega edi.

XV asrning 80-yillaridan boshlab, o'zaro hamjihatlik juda susaydi. Movaronnahrning bir o'zida deyarli uchta mustaqil davlat bo'lib, ularda Sulton Abu Said Mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo Samarcandda, Umarshayx Mirzo Farg'onada va Sulton Mahmud Mirzo Hisor, Xuttalon hamda Badaxshonda hokimi mutlaq hisoblanar edilar.

Amir Temur va Temuriylar davrida ham yer-suv hamda hunarmandchilik korxonalarining katta qismi podshoh xonadoni va badavlat kishilar qo'lida bo'lib, mehnatkash xalq ularning yerini ijaraga olib kun kechirar edi. Ular xiroj, dorug'agi, mirobona, jon solig'i, avorizot, boj, tamg'a, zakot, peshkash, sovari kabi soliq va jarima to'lashar, hukumat va katta yer egalarining turli-tuman yumushlarini bajarishar edilar.

Amir Temur davrida davlat tepasida rasman Chingiz avlodidan bo'lgan Suyurg'at mish (1370–1380) va Sulton Mahmudxon (1380–1402) turdi. Keyincha xon ko'tarish tartibi bekor qilindi va oliv hukmdor o'zini podshoh deb e'lon qildi. Viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat tarafidan tayinlangan dorug'alar qo'lida bo'ldi. Davlat ishlari, asosan turli muassasa – devonlar, devoni oliv – markaziy ijroiya organi, devoni mol – moliya ishlari mahkamasi va devoni tavochi – harbiy ishlar mahkamasi va boshqalar qo'lida bo'lgan. Din, shariat bilan bog'liq ishlar qozi va shayxulislom qo'lida edi.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrda Samarcand, Shahrisabz, Buxoro kabi shaharlar iqtisodiy va madaniy jihatdan o'sdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topti. Movarounnahrning Xitoy, Hindiston, Arabiston mamlakatlari, Mo'g'uliston, Oltin O'rda va Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari kengaydi. Bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Nizomiddin Shomiy va Hofizi Abru, Sharafuddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarcandiy, Muhammad Mirxon va G'iyosiddin Xondamir kabi muarrix olimlari, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Bisotiy Samarcandiy va Xoja Ismatulla Buxoriy, Shayx Ahmad Suhayliy va Kamoluddin Binoiy kabi juda ko'p iste'dodli shoir va olimlar yetishib chiqdi.

## 5.2. O'zbek tilidagi manbalar

### 5.2.1. «Temur tuzuklari»

“Temur tuzuklari”, “Tuzukoti Temuriy”, “Malfuzoti Temuriy” yoki “Voqeoti Temuriy” nomlari bilan atalgan asar Amir Temurning yetti yoshligidan boshlab hayot yo'li haqida hikoya qiladi.

“Temur tuzuklari” – muhim tarixiy manba bo‘lib, unda Amir Temur davlatining tuzilishi va boshqarish xususiyatlari bayon etilgan. Asar dastlab turkiy-o‘zbek tilida bitilgan. Uning bir qo‘lyozmasi Yaman mamlakati oliv hukmdori Ja’far podshoh kutubxonasida saqlangan.

“Temur tuzuklari”ning fors tiliga tarjimoni Mir Abu Tolib Husayniy at-Turbatiy tarjima muqaddimasida Arabistonning muqaddas joylarini haj qilib qaytishda, Yamanda bo‘lgan chog‘ida Ja’far podshoh kutubxonasida turkiy tildagi mazkur asarni topgani va u Amir Temurning hayot yo‘li haqidagi o‘zi yozgan ekanligini ta’kidlaydi. Mir Abu Tolib Arabistondan qaytib kelgandan keyin, asarni fors tiliga tarjima qilgan. Lekin, Arabistondan olib kelingan asliyatdan yoki Hindistonda bo‘lgan biron qo‘lyozma nusxdan o‘girilgani aytilmagan.

Mir Abu Tolib 1637-yilda “Temur tuzuklari” asarining forscha tarjimasini buyuk Boburiylardan Shohijahonga tortiq qildi. Keyin bu tarjima Muhammad Afzal Buxoriy (vaf. 1652-y.) tomonidan jiddiy tahrir qilingan.

“Temur tuzuklari” ikki maqoladan iborat:

Birinchi maqola Amir Temurning davlatni barpo etish va mustahkamlash, qo‘sinni tashkil etish yuzasidan tuzuklari, rejalaridan tarkib topgan.

Ikkinci maqolada 13 kengash va uning qismlarida Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va harbiy yurishlari tafsilotlari beriladi.

“Temur tuzuklari” XV–XVI asrlarda nafaqat hukmdorlar va ma’lumotli kishilar orasida, balki jahon ilm ahli o‘rtasida shuhrat topti. Asarning qo‘lyozma shaklida ham, toshbosma shaklida ham, shuningdek jahonning ko‘p tillariga qilingan tarjima shaklida ham (inglizcha, fransuzcha, urdu, rus va o‘zbek tillarida) nashr etilishi so‘zimizga isbot-dalildir.

Ikki fazil shaxslar Mir Abu Tolib va Muhammad Afzal Buxoriy xizmatlari tufayli “Temur tuzuklari” fors tilida bizgacha yetib kelgan. Bu tarjimaning mo‘tabar qo‘lyozmalari Rossiya, Hindiston, Eron, Turkiya, Misr, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlar xazinalarida mavjud.

“Temur tuzuklari”ning forsiy matni 1783, 1785, 1890 va 1963-yillari yevropa va sharq tillaridagi tarjimalari bilan birga nashr etilgan.

“Temur tuzuklari”ni to‘liq 1857-yili Xivada Muhammad Yusuf Rojiy tomonidan va 1858-yili Pahlavon Niyozen devon tomonidan turkiy-o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ularning birinchisi “Tuzuki Temuriy”, ikkinchisi “Malfuzot” nomi bilan ma’lum. Yana bir tarjima Xo‘jand qozisi Nabijon mahdum tarafidan, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1821–1858-yy.)ning topshirig‘iga binoan amalga oshirilgan.

“Temur tuzuklari” asarini Alixon To‘ra Sog‘uniy 1967-yili Mir Abu

Tolib tarjimasini o‘zbekchaga tarjima qilgan edi. 1990-yili Alixon To‘ra tarjimasini “Temur tuzuklari”ning Bombay nashri matni asosida Habibullo Karamatov yana bir tarjimani amalga oshirib, bir necha bor nashr ettirdi.

“Temur tuzuklari”ning manba sifatidagi tarixiy ahamiyati buyuk ekanligi mutaxassislarining unga bo‘lgan katta e’tiboridan bilish mumkin. Asarning sakkizta mo’tabar qo’lyozmasi Toshkentda, Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud.

### **5.2.2. Alisher Navoiyning ijodida tarixiy mavzudagi asarlar**

Ushbu ma’ruzada Alisher Navoiy (1441–1501) nasriy asarlarining tarixiy manba sifatidagi xususiyatlariiga e’tibor bermoqchimiz. Chunki, Navoiyning ulkan she’riy merosi, dostonlari va asarlari badiiy adabiyot namunasi sifatida keyingi XX asrda ham yurtimizda juda katta e’tiborga sazovor bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo uning tarix ilmiga qo’shgan ulkan hissasi, bizning fikrimizcha, tarixchi olimlarimiz e’tiboridan chetda qolib keldi. Maxsus tarixiy asarlari ham faqat filologik nuqtayi nazardan o’rganildi, xolos.

Alisher Navoiy asarlarini manbashunoslik nuqtayi nazardan tadqiq qilish uchun mukammal asarlar yigirma tomligini asos qilib olish mumkin.

Alisher Navoiy nasrsa «Munojot», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardashev», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat», «Mezon ul-avzon», «Munshaot», «Muhokamat ul-lug‘atayn» kabi asarlari bilan ham aruz nazariyasi, ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tarixi ilmi taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi.

### **5.2.3. «Tarixi anbiyo va hukamo»**

Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari 890/1485 va 904/1498–1499-yillar orasida tasnif etilgan bo‘lib, unda Odam Atodan boshlab, oltmis oltita payg‘ambarlar va o’n bitta donishmandlar to‘g‘risida ixcham, lekin juda jonli va qiziqarli ma’lumotlar bayon etilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiya qadar ham anbiyolar haqidagi turli rivoyatlar, qissalar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, «Qur’oni karim»da va eng qadimiy manbalarda, umumiy tarixga oid Abu Ja’far Tabariyining (836–923) «Tarixi ar-rusul va muluk», Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya» hamda Abu Sulaymon ibn Dovud binni Abu-l-Fazl Muhammad binni Dovud al-Banokatiyining (vaf. 730/1330) «Ravzatu Oli al-bob fi tavorix al-akobir va-l-ansob» (1317) yoki «Tarixi Banokatiy» (XIV asr)

nomli, Hamdulloh binni Abu Bakr binni Ahmad binni Nasr al-Mustavfi Qazviniyning (vaf. 750/1350) «Tarixi guzida» (744/1343), Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» va boshqa shu kabi asarlarda tarixiy voqealar, shuningdek, diniy tarixga oid ma'lumotlar ko'p.

O'z davrining yirik olimi va tarixchisi sifatida Alisher Navoiy ham bunday manbalarni o'rganib chiqqan, ular bilan yaqindan tanishgan. Bu asarlar aksariyati arab va fors tilida bo'lgani uchun, Alisher Navoiy turkiy-o'zbek tilida, ko'plab qissalarni qiyosiy o'rganish asosida o'z asarini yaratdi. U asar mazmun jihatidan umumiyligi tarixga oiddir.

Bu asar ikki qismidan iborat. Birinchi qismda Odam Atodan tortib, Nuh, Iso, Muso, Yaqub, Sulaymon, Dovud, Yusuf va boshqa payg'ambarlar hayotiga oid turli naqllarni bayon etadi, har bir tarix oxirida ruboiy keltirilib, ularning hayotiga lirik xotima yasaydi.

Kitobning ikkinchi qismida mashhur donishmandlar hayoti lavhalari, ularning hikmatlari keltiriladi. Masalan, G'arbda Pifagorga nisbatan bergen bir iborani Alisher Navoiy Buqrotus hakim nomidan shunday keltirgan: «Yaxshi so'z ko'ngulni yoritur va yaxshi xat ko'zning ne'mati arusidurkim, aning mahri shukrdir».

Butun umri va faoliyati davomida olimlarni qadrlagan Alisher Navoiy ularning tarixini anbiyo, payg'ambarlar tarixidan keyin, ularni birgalikda bitgani alohida tahsinga sazovor holdir. Bu kitob tarixchi, olim va shoirlarga qadimgi davr izohi uchun muhim manba vazifasini o'tashi mumkin. Bu asarni manbashunoslik fanida alohida o'rganish shuning uchun ham zarurki, tarixga oid asarlarda tafsilotlari keltirilmay, juda ko'p o'tinlarda payg'ambarlar va ularning hayotiga oid voqealarga murojaat qilish uchraydi. Mana shu jihatdan Alisher Navoiy asari ham tarixchi olimlar, ham tarixni o'rganuvchi talabalar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, u asarda Alisher Navoiyning mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyga munosabati bayon etilgan. Navoiy uning «Zafarnoma» asari muqaddimasini zikr qilar ekan, tarixchini «mavlono sharaf ul-millat va davlat», ya'ni «davlat va millat sharafigi» deb ta'riflaydi.

#### **5.2.4. «Tarixi muluki Ajam»**

Alisher Navoiyning ikkinchi tarixiy asari «Tarixi muluki Ajam» dir. 890/1485-yildan so'ng yaratilgan bu asarda Eronda hukmronlik qilgan to'rt sulola: Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniyilar va Sosoniylar to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Asar oxirida Sultan Husayn Mirzo madhi o'rinn olgan. Agar biz avvalroq yaratilgan «Saddi Iskandariy» dostonida ham

to'rt sulola haqidagi ma'lumot borligini nazarda tutsak, doston yaratish jürayonida Alisher Navoiy to'plagan ma'lumotlarni maxsus tarixga oid usar sifatida ijod qilgan ko'rindi. Bunda Alisher Navoysi yuqorida nomlari zikr etilgan asarlar qatorida yana Abu-l-Hayr Nasiriddin Abdulloh binni Umar ul-Qozi Bayzaviyning (vaf.685/1266) «Nizom ut-tavorix» (yozilgan 674/1275), Abu Homid G'azzoliyning (1058–1111) «Nasihat ul-muluk» va boshqa asarlarni, xususan o'z zamondoshi Mir Muhammad Mirxonning «Ravzat us-safo» asaridan boxabar holda, Eron tarixiga oid arab va fors tillarida tarixiy asarlardan farqli, bu kitobni turkiy tilda yaratdi. Ushbu asardagi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar Alisher Navoysi o'zining dostonlarida ham mavjudligini eslatib o'tgan. Bu asar ilmiy tanqidiy matnni sharqshunos L.Xalilov tuzib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi. Afsus, hamon uning tanqidiy matni chop etilmagan.

«Tarixi muluki Ajam» asarini ma'lum darajada, «Xamsa», xususan «Saddi Iskandariy» dostoniga tarixiy-ilmiy ilova sifatida ham qabul qilish mumkin. Uning ichidagi ma'lumotlarning she'riy ifodasi «Saddi Iskandariy»da keltirilgan bo'lib, ularni boshqa tarixiy asarlar bilan qiyosiy o'rGANISH Alisher Navoiyning tarixchi olim sifatidagi ijod qirralarini ochishga yordam berishi mumkin.

### **5.2.5. «Xamsat ul-mutahayyirin»**

Alisher Navoiyning uchinchi memuar biografik asari «Xamsat ul-mutahayyirin»dir. U Abdurahmon Jomiy vafotidan so'ng, ya'ni 898/1492-yildan keyin yaratilgan. Bu risola Alisher Navoiyning piri, ustozи va do'sti Abdurahmon Jomiya bag'ishlangan bo'lib, ikki buyuk ijodkor o'rta sidagi g'aroyib voqealar bayoni, Jomiyning shajarasи, asarlari nomlari va ularga berilgan baholardan iborat. Uni memuar-yodnomasi asar deb atash mumkin. Ikki buyuk shaxs asarlaridagi lavhalar, xususan «Nasoyim ul-muhabbat», «Majolis un-nafois» hamda ularning o'zaro xatti kitobati, ayniqsa, «Muraqqa'i Mir Alisher» to'plamidagi Jomiyning dastxat maktublari ushbu risola mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

### **5.2.6. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher»**

Alisher Navoiyning to'rtinchи tarixiy asari, memuar biografik xarakterdagi risola bo'lib, u «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» deb nomlanadi. O'ziga «otaday» mehribon bo'lgan Sayyid Hasan Ardasher to'g'risidagi asar to'g'ridan to'g'ri «Holot», ya'ni biografiya deb ataladi. Asar tasnif odobiga ko'ra, «Bismillahir-rahmonir rahiym» so'zidan so'ng keladigan «Hamd» Alloh madhi o'rniga nasimga murojaat bilan

boshlanadi, asar mazmuni shunday xarakterlanadi: «Soliki foni va gavhari koniy, orifi maoniy Sayyid Hasani Ardasher (rahmatullohi) siyar va holotida». Ya’ni, bu asar «o’tkinchi foni dunyodagi solik, gavharlar koni va ma’nolar orifi Sayyid Hasan Ardasher biografiyasi» deb ataladi.

Asar boshida muallif Sayyid Hasani Ardasherning otasi to’g’risida qisqa ma’lumotlarni keltiradi. Undan so‘ng, Alisher Navoiy uning o’zi ham yoshligida otasi kabi Boysung‘ur Mirzo xizmatida bo‘lgani, turli sohalar bo‘yicha bilim olganini yozadi. Temuriylar saroyida xizmat qilib, doim hurmat va e’tiborda bo‘lgani, hatto Sulton Husayn Mirzo unga katta davlat lavozimini taklif qilganida, dunyo ishlaridan yuz o‘girib, darveshlikni ixtiyor etganini zikr etadi. Risolada Sayyid Hasan Ardasherning tarixi, uning badiiy didi, turkiy va forsiy tildagi adabiyotni yaxshi bilishi, imom G‘azzoliyning «Kimiyo-i saodat», Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarlarini xush ko‘rishi, hayotida bo‘lib o’tgan voqealar tafsilotilarining eng muhimlari zikr etiladi. Natijada, kitobxon ko‘z o‘ngida Temuriylar zamoni ziyolilarining yorqin vakili siymosi tarixi namoyon bo‘ladi. O’sha davr ijtimoiy hayotiga tasavvur ta’limoti katta ta’sir o’tkazganini ko‘ramiz. Chunki, e’tiqod yuzasidan Sayyid Hasan Ardasher davlat lavozimidan voz kechgan shaxsdir.

Sayyid Hasan Ardasher nomini Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarida chuqur hurmat bilan yod etadi. Umuman, «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» risolasi Temuriylar davri ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirgan muhim tarixiy manbadir. Unda Alisher Navoiy o‘zining hayotida juda katta rol o‘ynagan katta zamondoshi Sayyid Hasan Ardasherga munosib tarixiy yodgorlik o‘rnatadi.

### **5.2.7. «Holoti Pahlavon Muhammad»**

Alisher Navoiyning beshinchi tarixiy asari ham memuar biografik xarakterdagи risola bo‘lib, o’sha davrning eng mashhur va benazir kurashchisi va turli fanlar bilimdoni to’g’risidagi «Holoti Pahlavon Muhammad»dir. Alisher Navoiy «Majolis un-nafoysis» asarida ushbu shaxs to’g’risida quyidagi ma’lumotni keltiradi: «Pahlavon Muhammad Kushtigirkim, ko‘p fazoyil bila orastadurkim, kushti bovujud ulkim, uning andoq haq va mulkidurkim, ma’lum emaskim, hargiz bu fanda andoq paydo bo‘lmish bo‘lg‘oy. O‘zga fazoyiliga ko‘ra va din martabasidur, musiqiyda idvor ilmida davrining benaziridur, chun kamoloti izhor min ash-shamsdur, sharh qilmoq ehtiyoj ermas».

Risolada biz Pahlavon Muhammadning o‘z davrining benazir kishisi bo‘lganligi, qirq yil davomida Alisher Navoiyga mehribonchilik

ko'rsatganligi, favqulodda xotiraga egaligi, barcha zamondoshlari izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega kurashchi ekanligini ko'ramiz. Uni barcha kechik zamondoshlari, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiy, Mirza Muhammad Haydar ham ujoyib kurashchi va oljanob inson, bastakor ekanligini tasdiqlaydilar.

Bu asar Temuriylar davri XV asr ikkinchi yarmi madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilishi bilan muhim xususiyat kasb etadi. Bu risola ham avvalgi «Xamsat ul-mutahayyirin» va «Holoti Sayyid Hasan Ardashev» kabi XV asr ikkinchi yarmi Temuriylar davri tarixi to'g'risidagi qimmatli manbadir.

Nomlari zikr etilgan besh sof tarixiy asarlardan tashqari Alisher Navoiy quyidagi asarlari, ya'ni «Mahbub ul-qulub», «Majolis un-nafois», «Munshaot», «Nasoyim ul-muhabbat» va hatto sof lingvistik xarakterdagi «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida ham tarix ilmi uchun muhim ma'lumot bor.

Alisher Navoiy tarixchi olim sifatida asarlarida, xususan «Mahbub ul-qulub»da ijtimoiy guruhlar to'g'risidagi mulohazalarni bayon etgan, «Majolis un-nafois» asarida 450 dan ortiq davlat arbobi, shoir va san'at shaydolari haqida, «Nasoyim ul-muhabbat» asarida esa 750 dan ziyod avliyolar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgandir.

«Vaqfiya» asarida esa Alisher Navoiyning qanday mol-mulk egasi bo'lgani, hamda ularni jamiyat uchun vasiyat qilganligi bayon etiladi. Alisher Navoiyning «Munshaot» asari, hamda u tartib bergan «Muraqqa' Mir Alisher»da jamlangan maktublar mazmuni, Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati turli qirralarini va o'z davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini yoritishda juda katta tarixiy, ilmiy ahamiyatga ega hujatlardir.

U Xoja Ubaydulloh Ahror, uning muridlari va Abdurahmon Jomiyning dastxat maktublarini tartibga keltirib, maxsus «Muraqqa' Mir Alisher» nomli dastxat avtograflardan iborat qimmatli 594 ta maktubni kitob holiga keltirib, bizga meros qoldirgan. Ushbu muraqqa' asosida doktorlik dissertatsiyasini yozib, sharqshunos Asomiddin O'rionboyev tarix fanlari doktori degan unvonga ega bo'ldi. Keyingi yillarda olim ular to'g'risida rus, tojik, fors va ingliz tillarida bir necha kitob chop etib, Alisher Navoiyning tarix sohasidagi ko'rsatgan xizmatini dunyoga namoyish etdi.

Alisher Navoiy yirik tarixchilar Muhammad Mirxon, Davlatshoh Samarqandiy va G'iyosiddin Xondamirlarning homiy va murabbiyisigina emas, balki original tarixiy asarlari ijodkori sifatidagi xizmatlari ham alohida e'tiborga loyiq, deb o'yaymiz.

Amir Temurning o'zi tarix ilmi taraqqiyotiga juda katta e'tibor berdi.

Sulton sohibqiron o‘z «Tuzuklar»ini yaratib, o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotiga beباho hissa qo‘sidi. Mirzo Ulug‘bek «Tarixi arba’i ulusi Chingiziy» nomli juda qimmatli tarixiy asarni ta’lif qilishda shaxsan o‘zi qatnashdi. Bundan tashqari bu davrda yashab ijod etgan jahonga mashhur tarixchilar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Mu’iniddin Natanziy, Abdurazzoq Samarqandiy, Muhammad Mirxon, G‘iyosiddin Xondamir va boshqalar asarlari hamon mutaxassislar uchun qimmatli tarixiy manba, bitinas-tuganmas xazinadir.

Alisher Navoiyning «Vaqfiya» asarida zikr etilgan mol-mulk ham uning o‘z davri yirik mol-mulk, davlat egasi ekanligini ko‘rsatadi. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Alisher Navoiyning bir kunlik daromadi o‘n sakkiz ming shohruhiy ekan. Tarixchining yozishicha, Sultan Husayn davlat tepasiga kelgach, butun marhamatini Alisher Navoiyga ko‘rsatadi. U esa o‘z o‘rnida mol-mulkini yurt obodonchiligi, olim-u fozellarga homiylik qilishga qaratgan. Tarixchilar G‘iyosiddin Xondamir, Zahiriddin Bobur va boshqalarning yozishicha, Alisher Navoiycha hech kim ko‘p binoi-hayr, xalq uchun imoratlar va binolar qurmagan ekan. Ahli fazl va hunarga murabbiy va muqavviyligi ham juda mashhur.

Alisher Navoiy o‘zining tarixiy asarlarida bo‘lib o‘tgan voqeя va hodisalarga, shaxslarga baho berishda yuksak insonorvarlik g‘oyalardan kelib chiqdi. Uning tarixchi olim sifatidagi amaliy faoliyati turkiy o‘zbek tilidagi tarix ilmini yuksaklikka ko‘tardi. Maxsus asar, ixcham risola, tazkira va maktublar yaratib, turkiy tildagi tarix ilmining keyingi rivoji va taraqqiyoti uchun zamin yaratdi.

Alisher Navoiy o‘zining «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida siyosiy hokimiyat va til, madaniyat siyosati xususida quyidagi haqli fikrlarni bayon etadi: «...to mulk arab xulafosi va salotinida erdi, falak ul vaqtida nazm dabiriga arab tili birla jilva berdi...» Ya’ni mamlakatlardan arab xalifalarini va sultonlari davrida she’riyat kotibi arab tilida ijod etdi.

Mamlakatlarning ba’zilarida «sort salotini mustaqil bo‘ldilar, ul munosabat bila forsigo‘y shuar o‘sish qildilar».

«To mulk arab sort salotinidin turk xonlarga intiqlor topti, Huloguxon zamonida sulton sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bila shuar paydo bo‘ldilar».

Alisher Navoiyning yuqorida keltirgan muhim fikrini faqat she’riyatga emas, balki umuman madaniyat, shu jumladan tarix ilmiga ham to‘la tadbiq etsa bo‘ladi. Buning yorqin misoli sifatida Alisher Navoiy yaratgan nasriy asarlar bo‘lib, ularni keyinchalik Zahiriddin Muhammad Bobur,

Muhammad Solih, Darvish Muhammad Buxoriy, Abulg'oziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqalar davom ettirdilar.

### 5.2.8. «Vaqoyi»

“Vaqoyi” («Voqealar») Zahiriddin Muhammad Boburning jahonga “Boburnoma” nomi bilan mashhur bo‘lgan shoh asarining asl nomidir. Muallif asarda o‘zining o‘n ikki yoshida Farg‘ona viloyati podshohi, deb ko‘tarilgan vaqtidan boshlab, hayotining oxiriga qadar bo‘lib o‘tgan voqealarni yilma-yil bayon qilgan. Dunyoda mavjud asarning barcha qo‘lyozmalarida bir necha yil, xususan 1509–1518, 1521–1524-yil voqealari bayoni tushib qolgan.

Bobur Farg‘ona viloyati hokimi Temuriy Umar Shayx Mirzoning (1461–1494) to‘ng‘ich o‘g‘li, 1483-yilning 14-fevralida Andijon shahrida tug‘ilgan. U 1494-yilning 5-iyunida, hijriy hisobda o‘n ikki yoshida halok bo‘lgan otasi o‘rniga Farg‘ona taxtiga o‘tqaziladi. Lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, mamlakatda avj olgan o‘zaro kurash natijasida mag‘lubiyatga uchrab, Farg‘onani tashlab chiqishga majbur bo‘ladi.

Uning 1497–1500-yillarda Samarqand taxi uchun olib borgan kurashi ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Bobur 1504-yilga qadar Farg‘ona va Samarqand uchun kurashdi, ammo Temuriylar o‘zaro birlasha olmadilar. Natijada, u tajribali Shayboniyxon bilan bo‘lgan janglarda mag‘lubiyatga uchrab, o‘z yurtini tark etib, omad va baxt izlab Kobulga yo‘l oldi. Kobulni egallagan Bobur o‘z mavqeini asta-sekin mustahkamlab bordi.

1511-yilning kuzida Bobur Ozarbayjon va Eron podshohi Shoh Ismoil Safaviyning (1502–1524) harbiy yordamiga tayanib, Samarqandni uchinchi bor egallahsga muvaflaq bo‘ldi. Ammo, uning o‘z xalqi e’tiqodi – sunniy mazhabni inkor etib, kishilarga shialar kiyimida ko‘rinishi, aholini undan ixlosini qaytardi. Bu safargi Boburning bobo meros poytaxt Samarqanddagagi hukmronligi bir yilga ham yetmadi.

1512-yilning bahorida Ko‘li Malik (Xayrobod bilan Qorako‘l orasida joylashgan mavze’) degan joyda bo‘lib o‘tgan jangda Shayboniylardan Ubaydullaxon, Muhammad Temur Sulton, Jonibek Sulton va boshqalarning birlashgan kuchlari uning qo‘sishinlarini tor-mor keltirdi.

Bobur Hisori shodmon tomonga chekindi va qariyb ikki yil mobaynida o‘sha viloyatda kun kechirdi va 1514-yili yana Kobulga qaytdi.

U 1514–1525-yillar orasida Shimoliy Hindistonga, uni bo‘ysundirish maqsadida besh marta qo‘sish tortadi, lekin faqat so‘nggi yurishi (1525) natijasida boy va ulkan mamlakatni egalladi. Bobur tarixda yangi saltanatga

asos soldi. Uning davlati g'arbda yanglish Buyuk mo'g'ullar nomi bilan mashhur bo'lib ketgan, aslida esa bu Hindistondagi Temuriylar yoki Boburiylar davlatidir.

Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Hindistondagi poytaxt Agra shahrida vafot etdi. Ammo uning vasiyatiga ko'ra, keyincha uning xoki Kobul shahridagi o'zi asos solib obod qilgan bog'ga ko'mildi. Uning qabr toshi keyincha chevarasi Nuriddin Muhammad Jahongir (1605–1627) tomonidan o'rnatilgan.

Bobur iste'dodli qalam sohibi sifatida ikki devon — she'rlar majmuasi, aruz ilmiga oid risola, islom qonunshunosligi masalalariga bag'ishlangan "Mubayyin" nomli masnaviysi, Ubaydulla Xoja Ahrorning "Voldiya" risolasining turkiy tarjimasi, musiqa va harbiy ishga oid risolalari muallifi, maxsus yangi alisbo "Xatti Boburiy" ixtirochisi hamda "Vaqoyi" asarining ijodkoridir.

"Vaqoyi" memuar-xotira tipidagi asar bo'lib, o'zining bayon uslubi bilan "Temur tuzuklari"ni eslatadi. Kitobda Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisori shodmon, Chag'oniyon, Kobul, Xuroson poytaxti Hirot hamda Shimoliy Hindistonning XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr birinchi o'ttiz yilligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli batafsil yoritilgan. Asar mazmunini shartli uch qismga bo'lish mumkin:

1. Farg'ona va Mavarounnahr voqealarini davri (1494–1504);
2. Kobul va Xuroson voqealarini davri (1504–1525);
3. Hindiston voqealarini davri (1525–1530).

Siyosiy voqealar bayonidan tashqari, asar geografik hamda etnografik ma'lumotlarga boy. Undan Farg'onaning turk-mo'g'ul qabilalari, ko'chmanchi o'zbeklar qo'shini tuzilishi, Mavarounnahr, Xuroson va Hindiston xalqlarining urf-odatlari, hayvonoti, nabototi, parrandalari va boshqalar to'g'risida tafsilotlar ham o'rinn olgan.

"Vaqoyi" asari asl matni uch marta, birinchi marta 1857-yili Qozonda N.I.Ilminskiy tomonidan Buxoro qo'lyozmasi va ikki marta 1905 va 1970-yillari Angliyaning poytaxti London shahrida A.Beverij xonim tomonidan Haydarobod qo'lyozmasi asosida chop qilingan edi.

1995–1996-yillari yapon olimi Eyji Manu "Vaqoyi" asari matnnini to'rtta turkiy va uchta forsiy qo'lyozmalari asosida tuzib, unga mukammal ko'rsatkichlarni alohida jild sifatida ilova qildi. Bu tadqiqotchi keyincha yapon tilida tarjima va ko'rsatkichlarni ikki jilda chop etdi.

Kirill-rus alisbosida 1948–1949-yillari ikki jilda S.Mirzayev va P.Shamsiyev tomonidan birinchi bor va 1960-yili bir jild sifatida chop qilingan edi. M. Salye tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1958, 1993-yillari Toshkentda bosib chiqarildi.

2002-yili S. Hasanov tomonidan P. Shamsiyev, S. Mirzayev va Eyji Manu nashrlari asosida “Vaqoyi” asar matnini chop etildi. Ammo, bular va boshqa nashrlar ushbu jahonga mashhur asarning asl nusxasining ilmiy akademik nashri emas.

Garchi “Vaqoyi” asl nusxa matni ilmiy asosda tiklanmagan bo‘lsada, uni tarjima qilish, o‘rganish hali asar to‘la tugamasdan oldin boshlangan edi.

Ilk marta “Vaqoyi” asarini fors tiliga tarjima qila boshlagan va bir qismini tarjima qilgan shaxs Boburning safdoshi va sadri Shayx Zayn Xavofiy (vaf. 1534-y.) edi.

Asar butunlay tugamasdan turib, undan bir nusxani Bobur ko‘chirtirib Movarounnahrga jo‘natgan edi.

“Vaqoyi” bilan tasodifan tanishgan Boburning chevarasi Sulton Salim, bo‘lg‘usi Jahongir otalig‘i, ma’naviy ustozি Qutbiddin Muhammad Beklarbegi o‘g‘li Behruzxon Navrangxondir. U Mirzo Poyanda Hasan G‘aznaviydan asarni fors tiliga tarjima qildira boshlaydi. Ammo, tarjimon vafot etgach, Muhammad Quli Hisoriyni bu ishga jalb etib, 1586-yili tarjima nihoyasiga yetadi.

Uchinchi marta “Vaqoyi” ni fors tiliga tarjima qilish tashabbuskori Boburning nabirasi Jaloliddin Muhammad Akbar (1556–1605) edi. U asarni Bayramxon o‘g‘li Abdurahimxonga tarjima qildirib, uning ko‘plab nusxalarini nafis mo‘jaz rasmlar bilan bezattirgan. Forsiy tildagi ushbu uchchala tarjima asl matnni tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega.

“Vaqoyi” asari G‘arb olimlari ichida mashhur va juda katta obro‘-e‘tiborga molik. Asar ingliz tiliga uch marta 1826, 1921 va 1990-yillari to‘la tarjima qilingan bo‘lsa, uning ixcham va qisqartirilgan nashrlari o‘n beshdan ziyoddir. Aytish mumkinki, so‘nggi ikki yuz yil davomida ingliz sharqshunoslari “Vaqoyi” asarini juda jiddiy o‘rganmoqdalar va maxsus Boburshunoslik ilmiy yo‘nalishiga asos solganlar.

Asarning forsiy toshbosma matni ham mavjud. Kitob yana ikki marta fransuz tiliga, nemis, turk, rus, yapon, hind, urdu, turk, qozoq tillariga tarjima qilingan.

Umuman, sharq tarixiga oid asarlar ichida “Vaqoyi” yuksak mavqega ega. Shunday tarixiy obida to‘g‘risida S. Azimjonova tomonidan rus tilida uchta kitob chop etilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi tadqiqotlar, asosan filologik yo‘nalishda amalga oshirilgan.

“Vaqoyi” birinchi galda tarixiy manba va u boshqa soha mutaxassislar uchun ham bebahoh obida va ibratlil namunadir.

## 5.3. Fors tilidagi manbalar

### 5.3.1. «Zafarnoma»

Mavlono Nizomuddin Shomiy yoki mavlono Nizomuddin Shanbiy, Shanbi G'ozoniy asli Tabrizning shimoli-g'arbiy tarafida, undan ikki mil masofada joylashgan joyda tug'ilgan. Tarixchi "Zafarnoma" asari bilan mashhur bo'lgan. U 1393-yili Amir Temur xizmatiga qabul qilingan, 1404-yilgacha u bilan bo'lib, sohibqironning harbiy yurishlarida voqeana vis va voiz mansabida ishtirok qilgan.

1402-yili Amir Temur unga o'zining tarixini aniq va sodda tilda yozib berishni buyurgan. Nizomuddin Shomiy bu asarni 1402–1404-yillar orasida yozib tamomlagan. Asar jahongirning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 yil.)dan to 1404-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. "Zafarnoma" asari haqiqatan ham sodda tilda, ravon uslubda yozilgan, daliliy ma'lumotlarga boy. Lekin, Amir Temur hayoti mazkur asarda birmuncha, Sharafuddin Aliga nisbatan kam, idealashtirilgan.

Asar O'zbekiston, Qozog'iston, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV asr II yarmi va XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

Nizomuddin Shomiy o'z asarini yozishda G'iyyosidin Ali Yazdiyning "Ro'znomayi g'azavoti Hinduston", Amir Temurning uyg'ur kotiblari tomonidan yaratilgan "Tarixi xoniy" va boshqa saroyda bitilgan kundaliklardan foydalangan.

"Zafarnoma"yi Nizomuddin Shomiyning ikkita tahriri mavjud: 1) 1404-yili Amir Temur Ozarbayjon yurishidan qaytganda unga taqdim etilgan nusxa. 2) Mironshohning o'g'li Mirzo Umarga (1404-yil 26-martda Amir Temur "Halokuxon taxti"ni, ya'ni G'arbiy Eron hamda Ozarbayjoni in'om qilgan paytida) taqdim qilingan. U yuqorida qayd etib o'tilgan birinchi nusxdan deyarli farq qilmaydi. Asar "Zafarnoma" deb ataladi. Unga ayrim uslubiy tuzatishlar kiritilgan va debocha hamda Mirzo Umarga bag'ishlangan kichik bir ilova (zayl) qo'shilgan. Shunga qaraganda, Nizomuddin Shomiy umrining so'nggi yillarida Mirzo Umar xizmatida bo'lgan va ona yurti Tabrizda istiqomat qilgan.

"Zafarnoma"ning qo'lyozma nusxalari Armaniston, Angliya, Fransiya, Iroq va Turkiya kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning tanqidiy matni F.Tauer tomonidan 1937 va 1956-yillari Pragada chop etildi.

1996-yili Nizomuddin Shomiy "Zafarnoma" asarining Yu. Hakimjonov tomonidan amalga oshirilgan forscha tarjimasi A.O'rınboyev tomonidan tahrir qilinib nashr etildi.

### 5.3.2. «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy»

“Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy” nomli Temuriylar davriga oid asar muallifi Mu'iniddin Natanziydir. U Isfahon shahriga qarashli, undan qariyb yigirma farsah masofada joylashgan Natanz shahrida tug‘ilgan. Ch.A.Storining ma'lumotiga qaraganda asli seistonlik bo‘lgan<sup>1</sup>. Fors viloyatining hokimi Temuriy Iskandar Mirzo (Amir Temuring nabirasи, Umarshayxning o‘g‘li, 1415-yili inisi Boyqaro Mirzo tomonidan o‘ldirilgan) saroyida xizmat qilgan. Davlatshoh Samarqandiying so‘zlariga qaraganda: “Mu'iniddin Natanziy Sulton Iskandar davrida Iroqi Ajam va Forsda shuhrat topgan olimlar va shoirlar jumlasidan bo‘lib..., ilmda o‘z zamonasining yetakchisi edi va Mirzo Iskandarning maqoma va holati hamda tarixini yozgan”<sup>2</sup>.

Mu'niddin Natanziy qalamiga mansub bo‘lgan va bizning zamonamizgacha yetib kelgan bu asarning aniq nomi ma'lum emas. U ilmiy jamoatchilik orasida “Anonim Iskandera” nomi bilan mashhur. Asar 1413-yili yozib tamomlangan. Uning ikkinchi tahriri ham bo‘lib, “Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy” (“Mu'iniyning saylangan tarixi”) deb ataladi va Temurning o‘g‘li Shohruh Mirzoga bag‘ishlanadi.

“Muntaxab ut-tavorix” umumiy tarix tipida yozilgan asar bo‘lib, olamning yaratilishidan to Amir Temur vafotigacha, 1405-yil 18-fevralgacha musulmon mamlakatlarida yuz bergen voqealar haqida babs yuritadi. Asar muqaddima va uch bobdan iborat.

Muqaddima diniy mazmunda bo‘lib, unda olamning yaratilishi, Odam Ato va uning farzandlari, Nuh payg‘ambar va uning avlodni haqida umumiy gap boradi.

Birinchi bobda qadimiy Eron va Yunoniston podshohlari, Rim va Vizantiya imperatorlari, Rim papalari, qadimiy arab hamda Efiopiya podshohlarining qisqacha tarixi bayon etilgan.

Ikkinci bobda Muhammad payg‘ambar va uning avlodni, xalifayi roshidin, Umaviya va Abbosiya xalifalari, Arabiston hamda Misrda podshohlik qilgan Ali va Fotima avlodni, shuningdek, Abbosiylar bilan zamondosh bo‘lgan Eron va Movarounnahr hukmdorlari tarixi talqin etilgan.

Asarning noyob va qimmatli qismi uning uchinchi bobni hisoblanadi. U turk-mo‘g‘ul qabilalari va ularning kelib chiqishi, Chingizxon va uning avlodni, Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan mo‘g‘ul xonlari, Chig‘atoy ulusi hukmdorlari, Elxoniylar, Jaloiriyalar, Cho‘poniylar, Muzaffariylar,

<sup>1</sup> Стори Ч.А. Персидская литература. 1-кисм. 339-бет.

<sup>2</sup> Davlatshoh Samarqandiyy. Tazkira ush-shuaro. E.Braun nashri. – Leyden: London, 1901. 371-бет.

Oq O'rda xonlari, 1346–1370-yillar orasida Movarounnahrda hukmronlik qilgan amirlar tarixini o'z ichiga oladi.

Asarning uchinchi qismini yozishda muallif Tabariy, Juvayniy, Rashiduddin hamda turkiy tilda yozilgan "Tarixi xoni" kabi asarlardan keng foydalangan.

"Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy" asarining matni 1957-yili Eronda Jak Oben tarafidan chop etilgan. Uning qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Angliya, Fransiya va Eron kutubxonalarida mavjud. Bu asar to'g'risida va undagi ayrim lavhalarni G'. Karimov "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida" (T, 1996) va "Temuriylar bonyodkorligi davr manbalari" (T, 1997) nomli to'plamlarda chop etgan. U Amir Temur to'g'risidagi ma'lumotlarni tarjima qilib "Jahon adabiyoti" jurnalida 2006-yili e'lon qildi.

### 5.3.3. «Majmu at-tavorix»

"Majmu at-tavorix" yoki "Zubdat ut-tavorix" nomli asar muallifi Hofizi Abru nomi bilan mashhur bo'lgan yirik geograf va tarixchi olimdir. Uning haqiqiy ismi Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Xavosiydir. Abdurazzoq Samarqandiyning so'zlariga qaraganda Hofizi Abru Hirot hududidagi Xavofda tug'ilgan, Hamadonda tahsil ko'rgan va 1430-yilda Zanjonda vafot etgan. Boshqa tarixiy manbalarning ma'lumotlariga va uning so'zlariga qaraganda Hofizi Abru Amir Temur va Shohruh saroyida istiqomat qilgan va har ikkala hukmdor bilan yaqindan munosabatda bo'lgan. Agar u Amir Temur bilan faqat saroydagina yaqin suhbatdosh bo'lgan bo'lsa, Shohruh bilan uning yurishlarida birga bo'lgan.

Hofizi Abru Shohruhning topshirig'i bilan ikkita yirik asar yozgan.

Bulardan biri tarixiy-geografik mazmunda bo'lib, 1414–1420-yillar orasida yozilgan. U X asrda arab tilida bitilgan noma'lum bir kitob asosida yozilgan. Yu.E.Borshevskiyning so'zlariga qaraganda, bu "Kitob al-masolik va-l-mamolik" deb atalib, Hasan ibn Ahmad Muhallabiyning qalamiga mansub bo'lgan. Shohruh Mirzo 1414-yili Hofizi Abruga mazkur asarni fors tiliga tarjima qilish va boshqa manbalar asosida qayta ishlashni topshirgan. Demak, bu asar shunchaki kompilyatsiya va tarjima bo'lib qolmay, balki yangi dalillar bilan boyitilgan, diqqatga sazovor asardir. Shuni aytish kifoyaki, unda har bir viloyatning geografik holatini tafsiflashdan tashqari, uning qisqacha siyosiy tarixi ham bayon qilingan. Biz uchun asarda Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi haqidagi, shuningdek, Movarounnahr va uning yirik shaharlari Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Termiz, Xo'jand va boshqalar haqida keltirilgan ma'lumotlar muhim ahamiyyat kasb etadi.

Asarning yaxshi qo'lyozma nusxalari Angliya va Rossiyada, Sankt-Peterburg shahrida saqlanmoqda.

Hofizi Abru Shohruhning ko'rsatmasi bilan o'zidan avval o'tgan mazkur tarixchilar Tabariy, Rashiduddin hamda Nizomuddin Shomiy asarlariga qo'shimchalar (zayl) ham yozgan. 1412–1418-yillar orasida yozilgan bu qo'shimchalar "Majmua-yi Hofizi Abru" deb ataladi.

Tabariy asarining Bal'amiy tahririga qilingan qo'shimchaga xalifa Muqtadir (908–932) zamonidan to Mo'tasim (1242–1258) davrigacha xalifalikka kirgan mamlakatlarda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Rashiduddinning "Jome ut-tavorix"iga qilingan qo'shimchaga Kurtlar (Kartlar) sulolasidan chiqqan podshohollar, Tug'a Temur, Amir Vali ibn Shayx Ali Hindu, sarbadorlar hamda Amir Arg'unshoh tarixi, ya'ni Eronda 1306–1393-yillar orasida bo'lib o'tgan voqealar kiritilgan.

Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma"sigi qilingan ilovada esa Amir Temur hukmronligining so'nggi davri va Shohruh tarixi 1416 yilga qadar bayon etiladi.

"Majmua"ning ayrim qismlari matni va tarjimasini Xonbobo Bayoniylar 1938-yilda, F.Tauer 1959-yili va K.M.Maitra 1934-yili nashr ettiganlar.

Hofizi Abruning assosiy katta tarixiy asari "Majmu at-tavorix" bo'lib, uni muarrix Shohruhning o'g'li Boysung'ur Mirzo (1433-yili vafot etgan)ning topshirig'i bilan 1423–1425-yillari yozilgan. Mazkur asar to'rt qismga bo'lingan: 1) islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar va Eron podshohhlari; 2) Muhammad payg'ambar va arab xalifalari (al-Muhtasimgacha); 3) Eronning Saljuqiylar hamda mo'g'ullar davridagi (Elxon Abu Said davrigacha) tarixi; 4) "Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy".

Asarning so'nggi, to'rtinchchi qismi asli va mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, unda Amir Temur tarixi, qayta ishlangan va birmuncha to'ldirilgan hamda Xuroson, qisman Mavarounnahrning 1427-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon etilgan.

"Majmu at-tavorix" asarining qo'lyozmalari Toshkent hamda Turkiya, Olmoniya, Angliya, Fransiya, Eron va boshqa xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda.

### 5.3.4. «Tarixnoma»

"Tarixnoma" yoki "Zayli Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga qo'shimcha") deb ataladigan muhim tarixiy asar muallifi Xoja Tojuddin as-Salmoniydir. U yetuk xattot bo'lib, Muzaffariylar<sup>1</sup> saroyida, devoni inshoda xizmat

<sup>1</sup> 1313–1393-yillarda Fors, Kirmon va Kurdistoni idora qilgan sulola. Asoschisi Muboriziddin ibn Muzaffar (1313–1359).

qilgan. Amir Temur Sherozni egallab, Muzaffariylar sulolasi barham topgandan keyin 1393-yili boshqa ilm ahli bilan Samarqandga olib kelingan va saroy xizmatiga tayinlangan. 1409-yili mart oyida amirlar isyoni bartaraf etilgach, oliy hokimiyat Shohruh Mirzo Xoja Tojuddin as-Salmoniy uning amri bilan Hirotga olib ketiladi va oliy hukmdorning topshirig'i bilan o'zining mazkur asarini yozishga kirishadi. Lekin, uni tamomlay olmaydi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, saroyda vazir Faxruddinga qarshi uyuشتirilgan fitnada qatnashganlikda ayblanib, qamalib qoladi va jazoga tortiladi.

Xoja Tojuddin as-Salmoniy mazkur asarida Amir Temurning so'nggi yillari va Shohruh Mirzoning tarixini yozishni niyat qilgan edi. Lekin, taqdir taqozosi bilan maqsadiga erisha olmaydi. Faqat 1404–1409-yillar tarixini yozib bitirishga ulguradi, -xolos. Asarda 1404-yilda Xitoya yurish oldidan Konigilda o'tgan katta tantanalar, shahzodalar Ulug'bek, Ibrohim Sulton, Ijl Mirzo, Sidi Ahmad, Pirmuhammad va Mirzo Boyqarolarning nikoh to'ylari, Xitoya yurishning boshlanishi, hazrat sohibqironning 18-fevral 1405-yilgi vafotidan keyingi og'ir ahvol, Xalil Sultonning noqonuniy yo'l bilan oliy hokimiyatni egallab olish voqealari bataysil bayon etiladi. Voqealar tafsiloti 1408-yil mart oyida Xalil Sultonning amir Xudoydod boshliq bir guruh fitnachi amirlar tarafidan asir olinishi haqidagi hikoya bilan tugaydi.

Xoja Tojuddin as-Salmoniyning "Tarixnoma" asari bizning zamonimizgacha uch nusxada yetib kelgan. Ulardan biri suqtli va shu kunlarda Angliyaning muzeysida (Inv.№ 159) saqlanmoqda. Yana ikkitasi Turkiyada, Istanbuldagi Sulaymon Fotih (Inv.№ 4305) va Lala Ismoil afandi kutubxonalarida (Inv.№ 304) saqlanadi. Birinchi nusxa suqtli, ikkinchisi to'la.

Asar G.R.Ryomer tomonidan nemis tiliga 1956-yili, Ismoil Aka tomonidan 1988-yili turk tiliga va Z.M.Buniyatov tomonidan 1991-yili rus tiliga erkin tarjima qilingan.

### 5.3.5. «Zafarnomayi Temuriy»

"Zafarnomayi Temuriy", "Fathnomayi sohibqironiy", "Tarixi jahonkushoyi Temuriy" yoki "Zafarnoma" nomi bilan mashhur bo'lgan asarning muallifi o'z davrining yirik tarixchisi Sharafuddin Ali Yazdiydir. U, asli Eronning Yazd viloyatidagi Taft qishlog'idan bo'lib, turli fan sohalarini egallagan edi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni "Sharafudin davlat va din", ya'ni din va davlat sharasi deb ta'riflagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy Fors viloyatining hokimi Temuriy Ibrohim Sulton (1415–1435) saroyida xizmat qilgan. U ilm-fan homisi bo'lmish mazkur shahzodanigina emas, balki Shohruhning ham zo'r hurmat-e'tiborini qozongan edi.

Sharafuddin Ali Yazdiy 1442-yili Shohruhning nabirasi va Sultoniga, Qazvin, Ray hamda Qum hokimi Sulton Muhammad (1442–1446)ning taklifi bilan Qumga keldi va shahzodaning xizmatiga kirdi. Sulton Muhammad 1446-yili Shohruhning og'ir kasalligidan foydalanib, isyon ko'tardi, Hamadon hamda Isfahonni bosib oldi, Sherozni qamal qildi. Shohruh unga qarshi qo'shin tortti. Sulton Muhammad Shohruh bilan ochiq jang qilishdan qo'rqiб toqqa qochdi<sup>1</sup>. Shohruh Sulton Muhammad bilan yaqin bo'lgan kishilarni, shuningdek, mahalliy sayyidlardan birmunchasini isyonda ishtirok etishda ayblab hibsga oldi va ko'plarini o'limga mahkum qildi. O'shanda hibsga olinganlar orasida Sharafuddin Ali Yazdiy ham bor edi. Faqat Mirzo Abdullatifning (Ulugbekning to'ng'ich o'g'li) aralashuvi bilan Sharafuddin Ali Yazdiy jazodan qutulib qoldi. Shahzoda uni Samarcandga, otasi huzuriga jo'natib yubordi. Sharafuddin Ali Yazdiy Samarcandda bir yil chamasi istiqomat qildi va fikrimizcha, Ulugbekning ilmiy izlanishlarida ishtirok etgan bo'lishi kerak. Shohruh vafotidan (1447) keyin 1449-yilda Sharafuddin Ali Yazdiy Xurosonga qaytdi va Sulton Muhammadning ruxsati bilan yana o'z vatani Taftga qaytib bordi va umrining oxirgi qismini uzlatda kechirdi. Sharafuddin Ali Yazdiy 1454-yili vafot etdi.

"Zafarnoma" asosan Nizomuddin Shomiyning shunday nomli asari asosida zo'r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin, Sharafuddin Ali Yazdiy Nizomuddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba'zilariga yangi tarixiy manbalar asosida aniqliklar kiritdi, uni yangi isbot va dalillar bilan boyitdi. Amir Temurning shaxsiyati va uning faoliyatidagi qaramaqarshiliklar, ya'ni bir tomondan qattiqko'l ekanligi, ikkinchi tomondan esa Movarounnahrdagi tarqoqlikka barham berib, markazlashgan davlatga asos solganligi birmuncha to'g'ri va haqqoniy yoritilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy asarining zo'r qimmati shundaki, unda Mo'g'ul imperiyasining tarkibida tashkil topgan Oltin O'rda, Elxoniylar davlati, Chig'atoy ulusi, shuningdek Movarounnahrning Chingizxon zamonidan to Temur davlatining paydo bo'lishigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda yoritib berilgan. Asarning bu qismi "Tarixi jahongir", yoki "Muqaddimayi Zafarnoma" nomi bilan ataladi va 1419-yili yozib tamomlangan.

"Zafarnoma" asarining asosiy qismi, muallifning dastlabki rejalariga ko'ra, uch qism — maqoladan iborat bo'lmog'i, birinchi qismda Amir Temur tarixi, ikkinchi qismda Shohruh Mirzo va nihoyat, uchinchi qismda

<sup>1</sup> Oradan bir yil chamasi vaqt o'tgach, 1447-yili Sulton Muhammad yana Forsni egalladi, Shohruh vafotidan so'ng (1447-yil 12 mart) Xurosanni qo'liga kiritdi, lekin 1451-yili inisi Abulkosim Boburdan yengildi va uning amri bilan qatl etildi.

ushbu asar yozishning tashabbuskori Ibrohim Sultonning davrida o'tgan voqealar bayon etilishi mo'ljallangan edi. Lekin, biz hozir asarning birinchi qismigagina egamiz, xolos. Uning ikkinchi va uchinchi qismlari saqlanmagan. Ehtimol, ikkinchi va uchinchi qismlari yozilmay qolgan bo'lsa kerak. "Zafarnoma" asarining asosiy qismi 1425-yilda yozib tamomlangan.

Asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, xorijiy mamlakat kutubxonalarini, xususan Toshkentda O'zR FA Sharqshunoslik institutida uning yigirma to'rt nusxasi bo'lib, ularning ikkitasiga (Инв. № 3440 va № 4472) XV va XVII asrlarda rasmlar ishlangan. "Zafarnoma" asari matni Hindiston (1885–1888), Eron (1957) va 1972-yili A.O.'O'rinboev tomonidan Toshkentda chop qilingan. Asar ikki marta o'zbek tiliga, ingliz, fransuz va turk tillariga tarjima qilingan. Undan ayrim parchalar ingliz hamda rus tillarida bosilgan:

"Zafarnoma" asarining muqaddimasi terma tarjimasi va 10 yilgi Movarounnahr voqealarini bayoni O.Bo'riyev tomonidan tarjima qilinib, 1996-yili nashr qilindi. Kitobning O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati juda katta. Keyincha yaratilgan tarixiy asarlarga bu kitobning ta'siri yaqqol seziladi.

### 5.3.6. «Ulusi arba'-yi Chingiziy»

"Ulusi arba'-yi Chingiziy" ("Chingiziylar to'rt ulusi" (tarixi) yoki "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") nomli asar asosiy mualliflaridan biri, uning yaratilish tashabbuskori XV asrda o'tgan buyuk olim, yirik davlat arbobi, Shohruh Mirzoning o'g'li Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bekdir. U 1394-yil 22-martda Amir Temurning Iroq va Ozarbayjonga qilgan navbatdagi besh yillik harbiy yurishi vaqtida Sultoniya shahrida, Eron Ozarbayjonida tug'ilgan. Amir Temur saroyida hukm surgan an'anaga ko'ra, shahzoda Sohibqironning katta xotini Saroymulk xonim – Bibi xonimning tarbiyasiga topshiriladi. Oradan bir yil chamasi vaqt o'tgach, 1395-yili Amir Temur Saroymulk xonim va nabirasini Shohruhgaga qo'shib Samarqandga jo'natadi.

1398-yili Ulug'bekka mashhur qissaxon, shoir va olim, shayx Orif Ozariy (1382–1462) muallim etib tayinlandi va u dastlabki asosiy ta'limni ana shu ajoyib insondan oldi. Shahzoda Amir Temurning bir qator harbiy harakatlarida, 1399–1404-yillari Turkiya va Suriyaga qarshi o'tkazilgan yurishda, 1404–1405-yili Xitoyga qarshi uyushtirilayotgan yurishda qatnashdi.

Amir Temur 1405-yil 18-fevralda vafot etgach, Movarounnahr taxtini

nabirasi Xalil Sulton zo'rlik bilan egallab oldi. Bu vaqtida Ulug'bek otasi Shohruh xizmatida bo'ldi. 1409-yili Xalil Sulton o'z amirlari tomonidan asir olingach, Shohruh Xurosandan Movarunnahrga kelib, Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinladi. U 1449-yilning 25-oktabrigacha bu mamlakatni boshqardi.

Mirzo Ulug'bek yirik davlat arbobi, sarkarda edi. Lekin, u buyuk olim va ilm-fan hamda madaniyat homiysi sifatida tengi yo'q edi. Samarqand uning davrida Sharqning yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi.

Mirzo Ulug'bek ikki yirik asar yaratdi. Biri "Ziji jadidi ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali") bo'lib, 1437-yili yaratilgan kitobda ilmi nujumning nazariy va amaliy masalalari qamrab olingan, o'sha davrdagi eng yuksak ilmiy jasorat hisoblangan.

Olimning ikkinchi asari "Ulusi arba'-yi Chingiziy" bo'lib, unda XIII–XIV asrlarda Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda bayon etilgan. Kitob 1425-yildan keyin tugallangan.

"Tarixi arba' ulus" muqaddima va yetti bobdan iborat. Muqaddimada o'rta asrlarda tarixchilar o'rtasida hukm surgan an'anaga ko'ra, tangri taolo va uning elchisi Muhammad payg'ambar avlodlari sha'niga aytilgan hamd va na't (maqtovlar), Odam atoning yaratilishi va islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, turklarning afsonaviy otababolari hisoblangan Yofas ibn Nuh va uning farzandi Turkxon, shuningdek, turk-mo'g'ul qabilalari va Chingizxon tarixi bayon etilgan.

I bobda Turkxon ibn Yofas va uning Turkiston zaminida podshohlik qilgan avlodi Abuljaxon, Dibokuyxon, Kuyukxon va boshqalar, tatar-mo'g'ul va turk qavmlari va ularning podshohlari tarixi bayon etilgan.

II bob turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alangkuva va undan tarqalgan avlod, yani podshohlar Buzunjon qoon, Buqoxon, Dutimenxon, Qobulxon va boshqalar tarixi bayonini o'z ichiga oladi.

Kitobning III bobida Chingizxon tarixi bayon etilgan.

IV bob Ulug' yurt, yani Mo'g'iliston va Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan Chingizzon vorislari tarixiga bag'shlanadi.

V bob Chingizzonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon naslidan bo'lgan 33 xonning Dashti qipchoqdagi hukmromligi bayon etilgan.

VI bobda Elxoniylar, ya'ni Eron hamda Ozarbayjonning XIII–XIV asrlardagi tarixidan bahs yuritiladi.

VII bobda Chig'atoy ulusining, Koshg'ar, Yettisuv, Movarounnahr, Shimoliy Afg'oniston hududidagi XIII–XIV asrlardagi tarixi talqin etilgan.

Shuni ham aytish kerakki, muallif mazkur ulusda hukmonlik qilgan har bir hukmdor xon ustida qisqa va alohida-alohida to'xtalib, ularning davrida sodir bo'lgan voqealardan eng muhimlarini bayon etgan.

"Tarixi arba' ulus" asarining ayrim qismi, xususan uning to'rtinchi qismi, ko'p jihatdan Sharafuddin Ali Yazdiyning "Muqaddimayi Zafarnoma" siga o'xshab ketadi. Lekin, Ulug'bek asari birmuncha mukammaldir. Bundan tashqari, unda to'rt ulus o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, "o'zbek" etnonimining kelib chiqish vaqtı xususida ham qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

Ushbu kitobning faqat qisqartirilgan tahririning to'rt mo'tabar qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan. Ularning ikkitasi Angliyada, bittasi Hindistonda va to'rtinchi nusxasi AQShda saqlanmoqda.

Mirzo Ulug'bek tarixiy asarining inglizcha tarjimasi 1838-yili Mayls tomonidan Angliyada chop etilgan. O'zbekcha tarjimasi B.Ahmedov, M.Hasaniy va N.Norqulovlar tomonidan bajarilib, 1994-yili Toshkentda chop etildi.

"Tarixi arba' ulus" Markaziy Osiyo, O'zbekiston va Qozog'istonning XIII–XIV asrlardagi tarixini, ayniqsa Chig'atoy ulusi tarixini o'rghanishda muhim manbalardan biri vazifasini o'tashi mumkin.

### **5.3.7. «Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn»**

"Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" ("Ikki saodatlilik yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo'shilish yeri") nomli yirik tarixiy asar muallifi o'z davrining yirik diplomati va tarixchi olimi Abdurazzoq Samarqandiydir. Uning to'liq ismi Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Is'hoq Samarqandiy (1413–1482) bo'lib, Hirotdagi badavlat va nufuzli xonadonlarning biriga mansubdir. Tarixchining otasi Shohruh huzurida qozi askar va imomlik lavozimida turgan. Abdurazzoq yaxshi o'qib, fiqh, tafsir, hadis, arab tili, g'azal va tarix ilmlarini puxta egallagan o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lib yetishdi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1438-yili o'zining qozi Azizuddinning arab tili grammatikasining ba'zi masalalari, yuklama va olmoshni tadqiq etuvchi "Risolayi Azudiya" kitobiga bag'ishlangan sharhini yozib tamomladi va uni Shohruhga taqdim qildi. Hukmdor asar bilan tanishib va yosh olimdagisi ulkan salohiyatni ko'rib, uni saroy xizmatiga, devoni inshoga tayin qildi. Shu vaqtdan boshlab to 1463-yilga qadar Abdurazzoq Samarqandiy dastlab Shohruh, so'ngra Abulqosim Bobur (1451–1457) va boshqa Temuriy shahzodalarining saroyida xizmat qildi.

Abdurazzoq Samarqandiy ko'proq xorijiy davlatlar bilan olib

boriladigan diplomatik yozishmalarni hozirlash, shuningdek elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Masalan, u Shohruh davrida 1441-yili Janubiy Hindistonga elchi qilib yuboriladi. Kolikut shahrida hamda Vijayanagar rojaligida bo'lib oradan ikki yil o'tgach, 1444-yilning 27-dekabrida Hirota qaytib keladi. Mazkur elchilik Temuriylar davlatining Hindiston bilan bo'lgan munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Hindiston safari vaqtida ko'rgan bilganlarini to'plab, bir xotira sifatida yozib qoldirgan va bu ma'lumot Temuriylar davlati bilan Hindistonning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, ayniqsa Hindistonning ijtimoiy va madaniy hayotini o'rganishda katta o'rinn tutadi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1447-yili Shohruhning topshirig'i bilan Gilonga bordi va uning hokimi amir Muhammad bilan muzokaralar olib bordi. O'sha yili u Misrga elchi qilib tayinlandi, lekin Shohruhning (1447-yil 12-mart) vafoti tufayli bu tashrif amalga oshmay qoldi.

Abdurazzoq Samarqandiy Abulqosim Bobur xizmatida bo'lgan kezlarida uning harbiy yurishlarida, masalan, 1458-yili Mozandaron va 1454-yili Samarqand ustiga qilgan yurishlarida qatnashdi. 1458-yili Hirotni egallagan Sulton Abu Sa'id Mirzo uni 1463-yili Shohruh xonaqosiga shayx qilib tayinladi va Abdurazzoq Samarqandiy umrining oxirigacha o'sha manzilda istiqomat qilib, asosan ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Abdurazzoq Samarqandiy yirik tarixnavis olim sifatida ham nom qoldirdi. U Eron, O'rtta Osiyo va O'zbekistonning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidan, shuningdek, Temuriylar davlatining qo'shni mamlakatlar Hindiston, Xitoy va boshqalar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari tarixidan bahs yurituvchi "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" deb ataluvchi asari bilan mashhur bo'ldi. Kitob 1467–1470-yillar orasida yakunlangan.

"Matla' us-sa'dayn" ikki qism – daftardan iborat: 1) Elxon Abu Sa'id (1316–1335) davridan to Amir Temurning vafoti va Xalil Sultonning Samarqand taxtiga o'tirishigacha, ya'ni 1405-yilgacha bo'lgan davr tarixi va 2) Shohruhning 1405-yili Hirotda Temuriylar imperiyasining oliv hukmdori deb e'lon qilinishidan to Temuriy Abu Sa'idning 1469-yili o'ldirilishigacha bo'lgan tarixi. Asarning 1427-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan qismi kompilyatsiya bo'lib, Hofizi Abruning "Majmu' at-tavorix" kitobi asosida yozilgan.

Asarda voqealar xronologik tartibda, yilma-yil bayon qilingan. Bu hol kitobdan foydalanishda katta qulayliklar tug'diradi, albatta.

"Matla' us-sa'dayn"ning qo'lyozma nusxalari Sankt-Petburg,

Toshkent, Dushanbe va Angliya, Fransiya, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

Asarning ikkinchi daftari matni Muhammad Shafe' tomonidan 1941 va 1949-yillari Lohur shahrida chop etilgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning Hindistonga qilgan safari bayon etilgan qismi hamda ikkinchi daftarning 1405–1427-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan birinchi qism-juz A.O‘rinboyev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1960 va 1969-yillari chop etilgan.

“Matla’ us-sa’dayn” asarining ikkinchi qismi, xususan uning 1427–1469-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan qismi yangi bo‘lib, Eron, Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning shu davr ichidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi va madaniy hayotini o‘rganishda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

### 5.3.8. «Ravzat us-safo»

“Ravzat us-safo” (“Sof jannat bog‘i”) yoki “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqidagi sof jannat bog‘i”) nomi bilan mashhur bo‘lgan asar umumiy tarixga oiddir. Uning muallifi Mir Muhammad ibn Sayyid Burxoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy bo‘lib, asosan Mirxon (1433–1497) nomi bilan mashhur.

Muarrixning ota-bobolari asli Buxorodandir. Mirxonning otasi sayyid Burxoniddin Xovandshoh ham o‘qimishli va keng ma'lumotli kishi bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga ketib qolgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Mirxon Balxda tug‘ilgan, lekin umrining ko‘p qismini Hirotda o‘tkazgan. Uning nabirasi Xondamirning guvohlik berishicha, Mirxon Alisher Navoiy bilan uchrashguncha turli ilmlar bilan shug‘ullangan, ammo birontasida muta‘yin emas edi. Tarixchi Alisher Navoiy bilan uchrashgach, shoir o‘zining “Ixlosiya” xonaqohidan unga alohida xona ajratib, shaxsiy kutubxonasiagi kitoblardan foydalanishga ijozat berib, olimni umumiy tarixga oid katta asar yozishga undagan, uni bu sohada doimo moddiy qo‘llab turgan. Ammo, Mirxon ulkan asarini mukammal tugata olmay, ya’ni yettinchi jildi va jug‘rofiy ilova materiallari yig‘ilgan musavvada holida qolganida vafot etadi. Uning asarini nabirasi G‘iyosiddin Xondamir yakuniga yetkazadi.

“Ravzat us-safo” asarini yaratishda Mirxon qirqta muallif, ya’ni arab tilida ijod qilgan o‘n sakkizta va fors tilida ijod qilgan yigirma ikkita olim ijodiga murojaat qilgan. Shak-shubhasiz, bu asar zamonaviy tadqiqot darajasida yaratilgan tarixiy yodgorlikdir.

Kitob muqaddima, xotima va yetti jilddan iborat:

Dunyoning “yaratilishidan” to Sosoniy Yazdijard III (632–651) davrigacha;

Muhammad payg’ambar va xalifai Roshidin davri;

12 imom tarixi; Umayiy va Abbosiylar xalifalari;

Abbosiylar bilan zamondosh sulolalar;

Chingizzxon va uning avlodni;

Amir Temur va uning avlodni to Sulton Abu Said vafotigacha (1469);

Culton Husayn va uning avlodni tarixi (1523-yilgacha) bayon etilgan.

So’nggi 7-jildi musavvadaligicha qolib ketgan va uni Xondamir to’ldirib, oqqa ko’chirgan.

“Ravzat us-safo” asarining 1–6-jiddlari kompilyatsiya — boshqalar asaridagi ma’lumotlar asosida yozilgan bo’lsa-da, ko’plab manbalardan foydalanish asosida yaratilgani uchun bu qismi ham katta ilmiy ahamiyatga ega. 6-jildning bir qismi va 7-jild yangi ma’lumotlar va muallif o’zi ko’rgan, bilgan va shohidi bo’lgan voqealar bayonidan bo’lganligi uchun juda katta ahamiyatga ega.

“Ravzat us-safo” asarini eng mashhur va manzur umumiy tarixga oid fors tilidagi kitoblardan biri deb baholash mumkin, chunki birgina Toshkentdagagi O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomli institut xazinasida uning yuzdan ziyod mo’tabar qo’lyozmalari mavjud. Ushbu ulkan asarning o’zbek tiliga tarjimasi Xorazmda bir necha yillar davomida yetuk tarjimon, shoir va tarixchilar Munis va Ogahiy ishtiroki va rahbarligida amalga oshirilgan.

Kitob matni 1845–1848-yillari Bombey, 1853–1857, 1960-yillari Tehron, 1874–1883–1891-yillari Lakhnav shaharlarida chop etilgani ham asarning shuhrati va ahamiyatidan dalolatdir.

Asardan ayrim parchalar ingliz, fransuz, nemis va rus tillariga tarjima qilinib, chop etilgan. Bu kitob to’g’risida 1999-yilda sharqshunos Mahmud Hasaniy risola e’lon qilgan.\*

### **Mayzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Alisher Navoiyning tarixga oid qaysi asarlarini bilasiz?
2. «Tarixi anbiyo va hukamo» asari nimaga bag’ishlangan?
3. «Tarixi muluki Ajam» asarida qaysi sulolalar haqida so’z boradi?
4. «Xamsat ul-mutahayyirin» asari kimga bag’ishlangan?
5. «Holot Sayyid Hasan Ardasher» asari kim to’g’risida?
6. «Holot Pahlavon Muhammad» asari mazmunini so’zlab bering.

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asariga tayanib yoritildi.

## **6-MAVZU. SHAYBONIYLAR DAVRI MANBALARI (1501–1602-yillar)**

**Darsning mazmuni:** Ushbu darsda Shayboniyalar hukmronligi davrida yaratilgan o‘zbek va fors tillaridagi manbalar to‘g‘risida talabalarga tushuncha beriladi.

### **Reja:**

- 6.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 6.2. Fors tilidagi manbalar.
- 6.3. O‘zbek tilidagi manbalar.

*Asosiy tushunchalar. Shayboniyalar davri, xon, imom uz-zamon, xalifat ul-rahmon.*

### **6.1. Muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar**

XV asrning 80–90-yillarida kuchayib ketgan tarqoqlik, xususan Toshkent, Farg‘ona va Hisorning markaziy hukumatga itoat qilmay qo‘yishi, ayrim amirlarning siyosiy nufuzi o‘ta kuchayib ketishi va yosh Temuriylarning toj-u taxt uchun kurashlari davlatning inqirozini tezlashtirdi.

1500-yili Muhammad Shayboniyxon (1500–1510) Dashti qipchoq o‘zbeklariga tayangan holda Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va Badaxshonni bo‘ysundirib, yangi sulola — Shayboniyalar davlatiga (1501–1602) asos soldi. Lekin, Shayboniyalar ma’lum darajada iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohada taraqqiyotga erishgan bo‘lsalar-da, lekin ular ham mahalliy yirik yer-suv egalarining ayrimachilik harakatiga barham bera olmadilar.

Shayboniyxon halokatidan (1510-y. 10-dekabr) so‘ng uzoq vaqt davomida mamlakatda parokandalik va tarqoqlik hukm surdi.

Ubaydullaxon vafotidan (1539) keyin esa Movarounnahrda qo‘sish hokimiyatçilik boshlandi: Samarqanda Abdullatif Sulton, Buxoroda Abdulaziz Sulton xon qilib ko‘tarildilar (1540–1550).

1551–1556-yillari esa mamlakat toj-u taxt da‘vogarlari Navro‘z Ahmadxon, Burxon Sulton, Abdullaxon soniy o‘rtasida urush maydoniga aylandi.

Abdullaxon soniy 1557-yili Buxoroni egalladi va uzoq davom etgan urushlardan (1557–1582) so‘ng Movarounnahrni birlashtirishdi, Toshkent va Turkistonni bo‘ysundirdi, 1584-yili Badaxshon bilan Ko‘lobni, 1588-yili Hirotni egalladi. U davlatni markazlashtirdi, lekin uning vafotidan (1598-y. 8-fevral) keyin ayirmachilik harakati avj oldi. Uning o‘g‘li va

taxt vorisi Abdulmo'minning hukmronligi olti oydan (1598-y. fevral-iyul) nariga o'tmadi. Undan keyin xon ko'tarilgan Mirmuhammad soniy (1598–1601) esa nomigagina xon hisoblanib, aslida hokimiyat nufuzli katta yer egalari qo'liga o'tib qoldi. Bu vaqtida qozoq xonlari va sultonlarining Movarounnahr ustiga bosqinchilik yurishlari kuchaydi. Ular 1599 va 1600-yillari Toshkent, Jizzax, Samarqand va Miyonqolgacha bostirib kirib, o'troq aholini tafon-taroj qildilar. Janubdan esa Eron hukmdorlari yurtimizga tahdid sola boshladilar.

Mana shunday bir sharoitda movarounnahrlik yirik yer-suv egalari ruhoniylar va zodagonlar bilan til biriktirib, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur naslidan bo'lgan Yormuhammadxonni taxtga o'tqizdilar. Yangi sulola tarixda Ashtarkoniylar (1601–1785) nomi bilan mashhur<sup>1</sup>.

## 6.2. Fors tilidagi manbalar

### 6.2.1. «Fathnoma»

“Fathnoma” nomli tarixiy mavzudagi she'riy doston muallifi Mulla Shodiydir. Uning hayoti va ilmiy – adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar juda kam. Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo'lganligi va uning topshirig'i bilan o'zining “Fathnoma” dostonini yozganligi, uni 1502-yili tugatgan bo'lib, ayni shu davrda 55 yoshda bo'lganligi ma'lum, xolos.

“Fathnoma” tarixiy doston bo'lib, unda Shayboniyxon tavallud topgan 1451-yildan to Dashti qipchoq o'zbeklari tomonidan Samarqandning istilo etilishi, so'nggi marta 1501-yil iyun oyigacha bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Xorazm va uning Urganch, Vazir va Adoq singari shaharlari, Dashti qipchoqning aholisi, xususan mang'itlarning turish-turmushi, shuningdek, Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Asar hozircha bironta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari ko'pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. Rossiya va MDH mamlakatlarida “Fathnoma” dostonining beshta qo'lyozmasi mavjud. Bularidan ikkitasi Sankt-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasida, ikkitasi Dushanbeda va bittasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida (ИИВ. № 5369) saqlanadi. Toshkentdagi qo'lyozma juda qimmatli bo'lib, XVI asrda ko'chirilgan va u turli mavzudagi 9 ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan.

<sup>1</sup> Asli Xoji tarxon Astraxonlik bo'lganlari uchun sulola shunday atalgan.

## 6.2.2. «Shayboniynoma»

“Shayboniynoma” fors tilida bitilgan she’riy doston bo‘lib, uning muallifi shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiydir (1453–1512). Uning asli ismi Ali ibn Muhammad al-Haraviy. Ko‘proq Kamoliddin Binoiy nomi bilan mashhur. Hirotda ko‘zga ko‘ringan me’mor ustod Muhammadxon Sabz oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik paytlari og‘ir sharoitda, Shohruh Mirzo vafotidan keyin mamlakatda kuchayib ketgan toj-u taxt uchun kurash va o‘zaro urushlar sharoitida kechdi.

Ma’lumki, 1458-yili Qora qo‘yunlular sulołasidan<sup>1</sup> bo‘lgan Jahonshoh (1438–1467) Xurosonga bostirib kirdi va Hirotni egalladi. Lekin, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 1459-yili Temuriyzoda Sulton Abu Said Mirzo qo‘sishinlarining tazyiqi ostida poytaxt shahar va mamlakatni bo‘shatib chiqishga majbur bo‘ldi. O‘shanda Jahonshoh yuz nafar hunarmand oilani o‘zi bilan birga Fors viloyatiga olib ketdi. Bular orasida me’mor Muhammad Sabz va uning oilasi qariyb uch yil Sherozda istiqomat qilib, 1461-yili yana Hirotgaga qaytib keldi.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Kamoliddin Binoiy keng ma’lumotli kishi bo‘lib, she’riyat, insho, ilohiyot, musiqa va tarix ilmlarini chuqur bilgan. Bundan tashqari u me’morchilik san’atida ham o‘z zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan. Muhammad Sabz va uning o‘g‘li ishtirokida qurilgan binolar Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida juda ko‘p bo‘lgan. Masalan, 1481-yili hozirgi Afg‘onistonning Mozori sharif shahrida, eski nomi Xoja hayron, Ali ibn Abu Tolib (656–661) mozori tepasiga qurilgan muhtasham maqbara va boshqa binolar shular jumlasidandir. Shoir va olimning “Binoiy” deb taxallus tanlashi ham mana shundandir.

Binoiy oradan ko‘p vaqt o‘tmay Tabrizga kelib qoldi va 1492-yilga qadar Sulton Ya’qub Oq Qo‘yunlu (1478–1490) saroyida xizmat qildi. 1492-yili u yana Hirotgaga qaytdi. 1495-yili ayrim sabablarga ko‘ra, o‘zining so‘zlariga qaraganda, ba’zi hasadgo‘ylarning ig‘vosi tufayli, Samarqandga ketib qoldi.

Binoiy dastlab xoja Ubaydulla Ahrorning to‘ng‘ich o‘g‘li va sulukda vorisi xoja Qutbuddin Yahyo, so‘ng Zahiriddin Bobur, undan keyin 1501-yili to umrining oxirigacha, Shayboniyxon huzurida uning saroy shoiri va tarixchisi bo‘lib xizmat qildi.

1507-yili Binoiy Shayboniyxon bilan birga Hirotgaga keldi va 1510-yilgacha ona shahrida istiqomat qildi. 1511-yili shaharga Ismoil Safaviy

<sup>1</sup> Qora qo‘yunlu 1380–1468-yillari Iroqi Ajamu va Ozarbayjonni idora qilgan suloł, asoschisi Qora Muhammad Tirmush (1380–1389-yy.).

qo'shinlari yaqinlashishi bilan, u yana Mavarounnahrga ketib qoldi va Qarshi shahrida kun kechirdi. Kamoliddin Binoiy 1512-yili Qarshi mudosaachilari safida turib shaharni Safaviylardan himoya qildi va o'sha jangda halok bo'ldi.

Kamoliddin Binoiy iste'dodli shoir va ulkan tarixshunos olim sifatida tarixda qoldi. U Markaziy Osiyo, O'zbekiston va Qozog'istonning XV asming so'nggi choragi va XVI asming boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda alohida qiymatga ega bo'lgan "Shayboniynoma" nomli tarixiy dostonini yozdi.

Binoiyning "Shayboniynoma" asari ham "Tavorixi guzida, nusratnoma" va Mulla Shodiyining "Fathnoma" asarlari bilan bir rejada yozilgan bo'lib, Shayboniyxon tavalludidan to Dashti qipchoq o'zbeklari tomonidan Mavarounnahr va Xorazmni 1505-yili bo'ysundirilishiga qadar shu hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1505–1507-yillar orasida yozilgan.

"Shayboniynoma"da 1450–1505-yillar orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar qisqa, lekin aniq bayon etilgan. U muhim geografik, masalan, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Sabron, Sig'noq, Arquq, O'tror, Yassi, O'zgand, Oqqa'rg'on va Xorazmga tobe shaharlardan Urganch, Vazir, Buldumsoz, Adoq va boshqa joylar haqida hamda etnografik, masalan Dashti qipchoqlik o'zbek qabilalari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqeい haqidagi dalillarga boy asardir. Bundan tashqari, asarda Shayboniy amirlar va askarlarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Shayboniynoma" asari matni chop etilmagan. Lekin, uning qo'lyozma nusxalari ko'p tarqalgan. Faqat O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari xazinasida yetti mo'tabar nusxa mayjud. Bulardan biri inv. № 844, eng qadimgi bo'lib, Shayboniyxon hayot chog'ida uning shaxsiy kotibi Muhammad Mo'min tarafidan ko'chirilgan, ayrim satrlari esa Shayboniyxonning o'z qo'li bilan ko'chirilgan. Yana bir e'tiborli qo'lyozma raqami № 3422 bo'lib, ushbu asarning xorazmlik mashhur tarixchi va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoni (1858–1923) tomonidan qilingan o'zbekcha tarjimasidir. Kitobdan ayrim parchalar rus tilidagi majmualarda e'lon qilingan.

### 6.2.3. «Mehmonnomayi Buxoro»

"Mehmonnomayi Buxoro" nomli nafaqat O'zbekiston va Qozog'iston, balki Markaziy Osiyoning XV asr II yarmi–XVI asr boshlaridagi voqealar bayoni mayjud qimmatli tarixiy asar ijodkori Fazlulloh ibn Ruzbexondir. Uning to'liq ismi Fazlulloh ibn Ruzbexon al-Isfahoni bo'lib, ko'pincha xoja Mullo nomi bilan mashhur bo'lgan. Ruzbexon 1457-yili Fors

viloyatining Xunji qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi Jaloluddin Ruzbexon yirik ilohiyot va fiqh olimi, mansabdor bo‘lgan.

Fazlulloh ibn Ruzbexon asosiy ma’lumotni Isfahon maktablari va madrasalaridan birida oldi, so‘ng bilimini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ikki marta 1474 va 1482-yillari Arabistoniga bordi va yirik ilohiyot olimi shayx Jamoluddin Ardastoniy (1474-yili vafot etgan) hamda misrlik mashhur tarixshunos va tilshunos olim Shamsuddin Muhammad as-Saqaviy (1427–1497)dan ta’lim oldi.

Xullas, Fazlulloh ibn Ruzbexon o‘rta asr fanining birmuncha sohalarini, xususan, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix va Sharq adabiyotini keng va chuqur egallagan olim bo‘lib yetishgan. Bu hol uning Sulton Ya’qub Oq quyunlu (1479–1490), Sulton Husayn Mirzo (1470–1506), Shayboniyxon, va, nihoyat Ubaydullaxon saroyida zo‘r e’tibor qozonishiga va xizmat qilishiga sabab bo‘lgan. Bunda tashqari va eng muhimi, u bir necha fan sohalarida yirik asarlar yozib qoldirdi.

Fazlulloh ibn Ruzbexon “Halli tajarrid” (“Abstraksiyaning hal etilishi”), “Ta’liqot bar muxolot” (“Aqlga sig‘maydigan (narsalar)ning izohi”), “Badi’ uz-zamon fi qissayi Xayy ibn Yaqzon” (“Xayy ibn Yaqzon” qissasida zamon badialari”), “Tarixi olamoroyi Aminiy” (“Aminiyning olamga bezak bo‘lувчи tarixi”), “Ibtol najh al-botil va axmol kashf al-o’til” (“Noto‘g‘ri yo‘ldan voz kechish va bid’atni inkor etish”), “Suluk al-muluk” (“Podshohlarning xulq-atvori haqida (risola)”) va “Mehmonnomayi Buxoro” nomli asarlarni yaratgan.

1509-yili yaratilgan “Mehmonnomayi Buxoro” asari Muhammad Shayboniyxonning 1508–1509-yil qish oylarida qozoq sultonlari Jonish Sulton, Ahmad Sulton va boshqalarning ulusi ustiga uyuştingan harbiy yurishi tarixini bayon etadi. Bu yurish Fazlulloh ibn Ruzbexon keltirgan ma’lumotlarga qaraganda, mazkur sultonlarning 1508-yilning kuzida va 1508–1509-yilning qish oylarida Movarounnahning o‘troq tumanlari ustiga qilgan talonchilik xurujlariga javoban uyuştingan. Fazlulloh ibn Ruzbexon bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, yuz bergan voqealarning ko‘philigini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ba’zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. Asar XV asrning ikkinchi yarmiga oid, shuningdek, o‘zbek va qozoq xon va sultonlarining kelib chiqishi hamda ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi voqealar esa Shayboniyxonning qo‘lida bo‘lgan “Nasabnama” yoki “Tarixi Humoyun” deb ataluvchi kitob asosida yozilgan.

“Mehmonnomayi Buxoro” asarining qo‘lyozma nusxalari kam. Hozirgacha dunyoda uning faqat ikkita nusxasi borligi aniqlangan. Ulardan biri muallif dastxati bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida 1414-

tartib raqami ostida saqlanmoqda. Ikkinchisi Turkiyada, "Nuri Usmoniya" kutubxonasiga qarashlidir (Tartib raqami 3431). Ushbu qo'lyozma asosida asar matnini eron olimi Manuchehr Setude 1962-yili chop etgan. Ruscha qisqartirilgan tarjimasini R.P.Jalilova foto matni bilan Moskvada 1976-yili nashr etgan.

Asarning biz uchun qimmati shundaki, unda Dashti qipchoq, Turkiston va qozoq ulusi geografik holati, o'zbek va qozoqlarning kelib chiqishi, ularning etnik tarkibi, turmushi, ursf-odati, shuningdek, boylarning xo'jaligida qul mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoyat qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Unda Shayboniyxonning qozoqlar ustiga yurishini g'ayridinlar ustiga yurish deb oqlashga harakat qilingan.

#### **6.2.4. «Habib us-siyar»**

"Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar" ("Inson xabarlari va fardlarida do'stning tarjimai holi") nomli mashhur tarixiy asar muallifi G'iyyosiddin Xondamirdir (1475–1535). Uning to'liq ismi G'iyyosiddin Muhammad ibn xoja Burxoniddindir. Otasi xoja Humomiddin Muhammad Temuriylardan Sulton Mahmud Mirzo (1459–1494-yillari Chag'oniyon, Huttalon, Qunduz, Bag'lon va Badaxshon hokimi)ning vaziri bo'lgan. Ona tarafidan tarixchi Muhammad Mirxon nabirasidir.

Xondamir 15–16 yoshdaligi chog'ida Alisher Navoiyning e'tiborini qozonadi va uning kutubxonasiga xizmatga qabul qilinadi. U to Navoiy vafotiga qadar, ya'ni 1501-yil 3-yanvarigacha xizmatda bo'ldi va boy kutubxonasiga mutasaddilik qildi. Xondamir o'zining keng va chuqur ma'lumotliligi, ilm-fanga chanqoqligi va salohiyati bilan ko'plarning tahsiniga sazovor bo'ldi. U haqda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida mana bularni o'qiyimiz: "Mavlono Xondamir Mirxonning farzandidir va salohiyatli yigitdir. Tarix ilmida mahorati bordir..."<sup>1</sup>

Alisher Navoiy vafot etgandan keyin Xondamir mamlakatda kuchayib ketgan o'zaro kurash, ayniqsa saroyda avjiga mingan fisq-u fujurlar oqibatida Balxga ketib qoldi va Badi'uzzamon mirzo (1496–1506-yillari Balx hokimi, 1517-yilda vafot etgan)ning shaxsiy kotibi sifatida xizmatiga kirdi. 1507-yili Hirot Shayboniyxon tomonidan ishg'ol etilgandan keyin, u Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga ketib qoldi. 1512-yili Bobur Movarounnahrdan siqib chiqarilgach, Xondamir Gurjistonga bordi va to 1514-yilgacha Pasht qishlog'ida istiqomat qildi. U, asosan ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. 12-jild.-Toshkent, 1966.–125-bet.

1514–1517-yillari Xondamir Balx uchun kurash olib borgan Badi'uzzamon mirzoning o'g'li Muhammad Zamon bilan birga bo'lib, uning kotibi sifatida xizmat qildi. Muhammad Zamon Safaviylardan yengilgach, Xondamir yana Gurjistonga qaytib bordi va ilmiy faoliyatini davom ettirdi.

1521-yili Xondamir vazir Habibullo Sovajiyning taklifi bilan Hirotg'a qaytib bordi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar"ni yozishga kirishdi. Oradan olti yil o'tgach, 1527-yilning iyul oyida Xondamir Hirotni tark etdi va bu safar Hindistonga ketib qoldi. Qishni u Qandahorda kechirdi va 1528-yilning 17-sentabrida Agraga kelib tushdi va Bobur xizmatiga qabul qilindi. Bobur vafotidan so'ng uning to'ng'ich o'g'li va taxt vorisi Humoyun (1530–1542, ikkinchi marta 1555–1556) bilan birga bo'ldi. Tarixchi Dehlida vafot etdi va vasiyatiga ko'ra mashhur Nizomuddin Avliyo mozorida Amir Xusrav yoniga dafn etildi.

Xondamir sermahsul olim edi. Movarounnahr, Turkiston, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o'nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Xabarlar xulosasi"), "Maosir ul-muluk" ("Podshohlar asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" ("Atoqli maktublar"), "Makorim ul-axloq" ("Olijanob xulqlar"), "Dastur ul-vuzaro" ("Vazirlarga qo'llanma"), "Qonuni Humoyuni" ("Humoyun qonunlari") va "Habib us-siyar" shular jumlasidandir.

Xondamirning ilmiy merosida "Habib us-siyar" nomli yirik tarixiy asari alohida o'rin tutadi va Movarounnahr hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar 1521–1524-yillar orasida yozilgan. Lekin, olim Hindistonda turgan yillari ham asari ustida muntazam ish olib bordi, uni yangi dalillar bilan boyitdi, tahrir qildi. Kitob to'la ravishda 1529-yili yozib tamomlandi.

"Habib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishidagi asar bo'lib, muqaddima (iftith), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad)dan iborat. O'z navbatida har bir jild to'rt qism (juz)ga bo'linadi. Asarning I–II jiddlari hamda III jildning 1–2-qismi, juzlari Turkiston xonlari, Chingizxon va uning Mo'g'uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmonlik qilgan avlodni, Mamluklar<sup>1</sup>, Kirmon Qoraxitoylari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o'z ichiga oladi. III jildning 3-va 4-qismlari, juzlari esa yangi bo'lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90-yillaridan

<sup>1</sup> Mamluklar – turk va cherkas qullaridan chiqqan sulola, 922–1217-yillari Misri idora qilgan.

to 1524-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqur va atroficha bayon etadi.

"Habib us-siyar" asarida katta yer egaligi, iqtisodiy ahvol, tinimsiz urushlar tufayli vujudga kelgan sharoit to'g'risida ayrim, diqqatga sazovor dalillar va ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, asarda o'z aksini topgan 1498-yilgi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512-yilgi Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida uyushtirilgan qirg'in-qatl om, 1514, 1515-yillari Xurosonda yuz bergan qahatchilik va ochlik haqidagi ma'lumotlar ana shular jumlasidandir.

Xondamirning ushbu asarida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid, yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqeい, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzulishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik ma'lumotlarga ham boydir.

"Habib us-siyar" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asarning matni 1857-yili Bombay shahrida va 1954-yili Tehronda chop qilingan. Undan ayrim parchalar rus, fransuz va ingliz tillarida turli to'plamlarda e'lon qilingan. Xondamir ijodini O'zbekistonda B. Ahmedov, D. Yusupova, M. Ahmedov va boshqalar tadqiq etganlar.

### 6.2.5. «Tarixi Rashidiy»

"Tarixi Rashidiy" (1544–1546-yillarda Kashmirda yozilgan) nomli mashhur asar muallifi Boburning kichik xolavachchasi Mirzo Muhammad Haydar bo'lib, uning ota-bobolari O'r tubu, Po'lodechi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (mo'g'ulcha "dog'olot" – cho'loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'uliston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Koshg'ar hokimi lavozimida turganlar. Olimning otasi amir Muhammad Husayn bir vaqtlar Andijonda Umarshayx Mirzo, so'ngra Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (1487–1508) xizmatida bo'lgan. U 1495–1503-yillarda ana shu Sulton Mahmudxon nomidan O'rategani idora qilgan.

1503-yili Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Aksi atrofida Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olinganini eshitib, amir Muhammad Husayn Qorateginga, undan Qunduz, so'ng Hirota, Sulton Husayn huzuriga qochib bordi. Muhammad Husayn ko'p o'tmay Kobulga, Bobur Mirzo huzuriga keldi. 1507-yilgi Boburga qarshi fitnada ayblanib, yana Hirota qochib bordi. 1508-yili Shayboniyxonning amri bilan Muhammad Husayn qatl etilgan.

Muhammad Haydar 1500-yilda Toshkentda tug'ildi. Otasi

o'ldirilganidan keyin Muhammad Husaynga sodiq kishilar uni birmuncha vaqt Buxoroda asradilar, so'ng Badaxshonga olib borib qarindoshi Sulton Uvays Mirzoning (Xon Mirzo deb atalga) qo'liga topshirdilar. Muhammad Haydar keyincha Kobulga keldi va Bobur xizmatida 1512-yilgacha bo'ldi. 1512-yil kuzida u Andijonga, Sulton Sa'idxon huzuriga keldi va u bilan qo'shilib Koshg'arga ketib qoldi. Sulton Sa'idxon ko'p o'tmay bu yerda Abubakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Koshg'ar hamda Yorkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Muhammad Haydar 1533-yilgacha, ya'ni Sulton Sa'idxon vafotiga qadar, uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik – otalik qildi, so'ng yirik harbiy bo'linmalarga qo'mondonlik qildi va xonning Badaxshon, Lodak, Kofiriston va Tibet ustiga qilgan harbiy yurishlarida faol ishtirok etdi.

Otasi o'rniغا taxtga o'tirgan Abdurashidxon (1533–1570) dug'lot amirlarini ta'qib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl etdi. Bularning orasida Muhammad Haydarning tog'asi Said Muhammad mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor edi. Tibetda bo'lgan Muhammad Haydar bundan xabar topib, Badaxshon tarafga qochdi va ko'p mashaqqatlardan keyin Kobulga, Bobur Mirzoning o'g'llaridan Komron Mirzo huzuriga keldi, so'ng u yerdan Agraga, Humoyun podshoh huzuriga bordi va uning xizmatiga kirdi.

Muhammad Haydar 1541-yili, Humoyunning harbiy yordami bilan Kashmirni bo'ysundirdi va u yerda qariyb 10 yil hukmronlik qildi. U 1551-yili tog'lik qabilalarning biri bilan bo'lgan to'qnashuv paytida halok bo'ldi.

Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Muhammad Haydarning bizning zamonamizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bularidan biri "Jahonnoma" deb atalib, ertak tarzida yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.

Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari "Tarixi Rashidiy"dir. Kitob ikki qism, daftardan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqlarining tarixi Tug'iluq Temur (1348–1363)dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirguni (1533-y.)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiduddinning "Jome' ut-tavorix", Jamol Qarshiyning "Mulhaqot us-suroh", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirzo Ulug'bekning

“Tarixi arba’ ulus” va nihoyat, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-su’dayn” kitoblaridagi ma’lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV—XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, usl nusxada bo’ladigan ma’lumotlar ko’p. Qolaversa, birinchi daftar Koshg’ar, Qozog’iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV—XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi daftar birinchisidan keskin farqli o’laroq, esdalik, xotiralar tarzida yozilgan bo’lib, Koshg’ar, Movarounnahr, Afg’oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o’rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Muhammad Haydar va uning “Tarixi Rashidiy” asari o’tgan asrning o’rtalaridan beri ilmiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini jalb etib keladi. Uning ayrim qismlari uyg’ur, o’zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Asarning qisqartirilgan inglizcha tarjimasi bo’lib, 1895-yili Londonda nashrdan chiqqan. A.O’rinboyev, R.Jalilova va L.Epifanova ruschaga tarjima qilib, so’zboshi va zarur izohlar bilan, 1996-yili Toshkentda chop etgan. Kitob qozoq tiliga ham tarjima qilib nashr etilgan.

“Tarixi Rashidiy” asarining qo’lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, ko’pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

### **6.2.6. «Ahsan ut-tavorix»**

“Ahsan ut-tavorix” 12 jilddan iborat umumiylar tarix yo’nalishida yaratilgan yirik asar bo’lib, uning muallifi XVI asrda o’tgan eron tarixchisi Hasanbek Rumludir. Tarixchi yirik harbiy sarkarda oilasiga mansub bo’lib, bobosi Amir Sulton (1539—1540-yili vafot etgan) o’z vaqtida Qazvin hamda Soujbuloq hokimi bo’lgan. Hasanbek 1530—1531-yillari Qum shahrida tug’ilgan, yaxshi o’qib ta’lim olgan va 1541—1542-yildan boshlab otasi bilan birga qurchi bo’lib shoh Tahmosib (1524—1576)ning harbiy yurishlarida qatnashgan va asarida yozilgan voqealarning ko’plarini o’z ko’zi bilan ko’rgan.

XII jildli “Ahsan ut-tavorix” asarining faqat XI — XII jildlari saqlanib qolgan bo’lib, ularda 1405—1577-yillar orasida Eronda, shuningdek, Movarounnahr, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon va Gurjistonda bo’lib o’tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil bayon etilgan. Asarning 12-jildi butunlay yangi hisoblanadi va u asosan Eronning 1495—1577-yillardagi siyosiy tarixini o’z ichiga oladi. Asar 1572—1577-yillarda yozib tugatilgan.

Hasanbek Rumluning asarida Safaviylar sulolasiga mansub shohlar ta’riflanadi, ularning faoliyati va bosqinchilik urushlari bir tomonlama

yoritiladi. Asarda 1495–1577-yillar orasida qo'shni mamlakatlar, shuningdek, O'rta Osiyo xonliklari, Buxoro, Xiva bilan bo'lgan siyosiy munosabatlariga oid qimmatli ma'lumotlar ko'p. Bobur bilan shoh Ismoil o'rtasida Shayboniylargaga qarshi tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq, Shayboniylar bilan Eron shohlari o'rtasidagi Xuroson uchun uzoq yillar davom etgan qurolli kurash va uning oqibatlari, Xorazmnning XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar ana shular jumlasidandir.

"Ahsan ut-tavorix"dan ayrim parchalar rus va gruzin va nemis tillariga o'girilib, to'plamlarda chop etilgan. Forscha matni, inglizcha tarjimasi bilan birga, 1931 va 1934-yillarda Ch.N.Seddon tarafidan Hindistonning Baroda shahrida chop qilingan.

### 6.2.7. «Abdullanoma»

"Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asarining ijodkori XVI asrda yashab o'tgan buxorolik shoир va yirik tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriydir. U 1549-yili Buxoroyi sharifda nufuzli mansabdar xonadonida dunyoga kelgan. Otasi Mir Muhammad al-Buxoriy Buxoroning ko'zga ko'ringan boyonlaridan bo'lib, shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo'lgan, 1550-yilning boshlarida Koshg'arga ketib qolgan va oradan ikki yil chamasi vaqt o'tgach, o'sha yurtda vafot etgan.

Hofiz Tanish Buxoriy o'z davrining chuqur va keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, 1584-yili Abdullaxon soniyining (1583–1598-yy.) yaqin odami Qulbobo ko'kaltoshning tavsiyasi bilan Abdullaxonning xizmatiga qabul qilingan va uning shaxsiy voqeanavisi, tarixchisi vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish Buxoriy umrining oxirigacha shu lavozimda ishlagan. Maleho Samarqandiyning ma'lumotiga ko'ra, Hofiz Tanish 1589-yili xotini tarafidan zaharlab o'ldirilgan.

Hofiz Tanish o'zining "Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asari bilan nom chiqargan. Kitobda O'zbekiston, Qozog'iston, shuningdek, qisman, Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilinadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Koshg'ar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar XVI asrning 80-yillari oxirida yozib tamomlangan. Hofiz Tanishning zamondoshi shoир va adabiyotshunos olim Mutribiyning guvohlik berishiga qaraganda, asarning oxirgi qismini, xonning topshirig'i bilan, qozi Poyanda Zominiy (1602-yili vafot etgan) yozgan. Lekin, bu fikrni boshqa manbalar tasdiqlamaydi.

"Sharafnomayi shohiy" muallifining rejasiga ko'ra asar muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozilishi mo'ljallangan.

Masalan, muqaddima, odatdagidek Allohning madhu sanosi, homiy, oliv hukmdor Abdullaxonning sha'niga aytiladigan ta'rifu tavsif, asarning yozilishi turixi, Abdullaxonning ota-bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlari, Chingizxon va uning avlodi haqida ma'lumot, birinchi maqolada Movarounnahrda 1533–1583-yillar orasida sodir bo'lgan voqealar, ikkinchi maqolada esa O'zbekiston, Qozog'iston va qo'shni xorijiy mamlakatlarda 1583-yildan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar, xotimada esa Abdullaxonning olijanob fazilatlari, uning bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar, shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot berishi mo'ljallangan. Lekin, asar yozilishi jarayonida reja o'zgargan – birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt vafoti sababli yozilmay qolgan.

Muallif asar muqaddimasini yozishda Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", shayxulislom Safiuddin Abubakr Abdullo Balxiyning "Fazoili Balx", Istaxriyning "Kitob masolik ul-mamolik", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiduddinining "Jome' ut-tavorix", Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan. XVI asrning 30–60-yillari orasida yuz bergan voqealar saroyda muntazam yuritib turiladigan kundalik daftar, sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan keksa kishilarning og'zaki axborotlari asosida, 70–80-yillar voqealari esa muallifning bo'lib o'tgan voqealarda shaxsan o'zi qatnashib to'plagan daliliy ma'lumotlar asosida yozilgan.

"Sharafnomayi shohiy" asari qofiyali nasr, ya'ni saj – murakkab badiiy uslubda yozilgan. Unda she'riy parchalar Firdavsiy, Rudakiy, Sa'diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy va muallifning o'z she'rlari, "Qur'oni karim" oyatlari, "Hadisi sharif" lardan parchalar ham ko'p.

Kitobda siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy mavzudagi ma'lumotlar, masalan, yer egaligining iqto, suyurg'ol, tanhoh kabi shakllari, turli-tuman soliq va jarimalar, masalan, xiroj, ixrojot, tag'or, ulufa, qo'nalg'a, madadi lashkar, boj, tomg'a, begar; o'lja va uning jamiyatdagi o'rni, asirni qulga aylantirish hollari; O'zbekistonning yirik shaharlari va hunarmandchilikning umumiy ahvoli; Shayboniylar davlatining ma'muriy tuzulishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Koshg'ar o'tasidagi munosabatlar haqida qimmatli dalil va ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asar etnografik, masalan, o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug' va qavmlar nomlari hamda topografik ma'lumotlar, masalan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Ko'lob, Balx kabi yirik

shaharlardagi diqqatga sazovor binolar, osori atiqalar, shuningdek, mazkur shaharlarning geografik holati va topografiyasi haqidagi axborotlarga nihoyatda boydir.

Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, asl matnining uchdan ikki qismini Sankt-Peterburglik olima M.Salohutdinova ruscha tarjimasi bilan chop etgan. Kitob 1942–1952-yillari Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Yu.Hakimjonov tomonidan 60-yillarda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1–2-jildlari, zarur tuzatishlar, taddiqot va izohlar bilan 1966 va 1969-yillarda B.Ahmedov tomonidan chop qilingan. 3–4-jildlari bosilmay qolgan edi. 1995–1997-yillarda ikki kitob holida B.Ahmedov tomonidan nashr etildi.

### 6.2.8. «Akbnoma»

“Akbnoma” yoki “Iqbolnoma” nomli asar muallifi Abulfazl Allomiydir. U XVI asrda Hindistonda yashagan yirik tarixnavis olim va davlat arbobidir. Olimning to'liq ismi Abulfazl ibn Muborak bo'lib, bilim doirasi juda keng bo'lGANI uchun Allomiy, bilimlar sohibi deb atashganlar. U 1551-yil 14-yanvarda Agrada tug'ilgan. Otasi shayx Muborak ibn Xizr o'z davrining mashhur ilohiyot olimlaridan hisoblangan. Akasi Abulfayz yirik shoir va olim bo'lgan.

Abulfazl Allomiy 1574–1602-yillari Boburning nabirasi Jaloluddin Muhammad Akbar (1556–1605-yy.)ning Bosh vaziri bo'lgan va Hindistonning XVI asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. 1602-yil 22-avgustda Dekan subasidan qaytib kelayotganida shahzoda Sultan Salim, bo'lg'usi Jahongir yollagan qotil tomonidan yo'l ustida o'ldirilgan.

Abulfazl Allomiyning asosiy asari “Akbnoma” yoki “Iqbolnoma” Hindiston va Afg'onistonning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Ma'lum darajada “Vaqoye” yoki “Boburnoma” asarining davomi sifatida yaratilgan bu ulkan asar uch kitobdan iborat. Birinchi kitobda Akbarning tug'ilishi, ota-bobolari – Bobur, Humoyun, shuningdek Akbar podshohligining dastlabki 17 yili ichida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilinadi.

Ikkinci kitob Hindiston va qisman Shimoliy Afg'onistonning 1573–1601-yillardagi tarixini o'z ichiga oladi.

Uchinchi kitobda Boburiylar davlatining tuzilishi, Hindistonning ma'muriy tarkibi, aholidan yig'iladigan soliq hamda jarimalar va ularning miqdori, hindlarning dini va urf-odatlari kabi masalalarga keng o'rinn berilgan. Uchinchi kitob mustaqil mazmunga ega va u “Oyini Akbari” (“Akbar qonunlari”) nomi bilan ataladi.

“Akbarnoma” asarining matni 1872–1877-yillari, G. Beverij tomonidan inglizchaga qilingan tarjimasi 1903–1921-yillari Kalkuttada chop etilgan.

“Akbarnoma” Boburiylar saroyida muntazam yuritilgan maxsus kundalik daftar, rasmiy davlat hujjatlari, shuningdek, bo‘lib o‘tgan voqealarning ishtirokchilari bo‘lgan, yoki o‘sha voqealarni bilgan kishilarning og‘zaki axborotlari asosida yozilgan. Asarning noyobligi va ahamiyati ham shundandir.

Abulfazl Allomiy asari Boburiylar davlati va Buxoro xonligi o‘rtasidagi siyosiy va madaniy munosabatlarni o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

### 6.3. O‘zbek tilidagi manbalar

“Shayboniynoma” tarixiy dostonining muallifi Muhammad Solih (taxm. 1455–1535-yy.) bo‘lib, turkiyzabon bilkut qabilasidan chiqqan. Shohruh va Mirzo Ulug‘bek davrida zo‘r nufuzga ega bo‘lgan amir Shohmalikning nabirasi. Otasi amir Nur Saidbek ham yirik amirlardan bo‘lib, avval Mirzo Ulug‘bek, so‘ngra Sulton Abu Sa‘id Mirzo xizmatida bo‘lgan, 1464–1467-yillari Xorazmda hokim bo‘lgan va 1467-yili Sulton Abu Saidning farmoni bilan qatl etilgan. Muhammad Solihning yoshligi Hirotda kechgan va o‘sha yerda o‘qib nash‘u namo topgan, so‘ngra Sulton Husayn, 1494-yildan Samarqandda katta nufuzga ega bo‘lgan Temuriy amirlardan Darvish Muhammad tarxon va xoja Ubaydulla Ahrorning o‘g‘li Muhammad Yahyo, 1500–1504-yillari Buxoro va Chorjo‘ydagi noib bo‘lib, shundan keyin to vafotiga qadar, Shayboniylardan Muhammad Sulton (vaf. 1505-y.) va Ubaydullaxonning kotibi bo‘lib xizmat qilgan.

Muhammad Solihning yaratgan tarixiy dostoni “Shayboniynoma”da Muhammad Shayboniyxonning hayoti va olib borgan urushlari haqida she’riy uslubda hikoya qilinadi. Asar qahramonning tug‘ilganidan boshlab, to 1505-yilgacha Dashti qipchoq, Mavarounnahr hamda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Dostonda qo‘sishlarning yovuzliklari, mehnatkash xalqning og‘ir ahvoli, Qorako‘l, Qarshi va Huzorda Shayboniylarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Asar geografik va etnografik ma'lumotlarga ham boydir.

“Shayboniynoma” asari 1505-yildan keyin yozilgan. Uning ikkita nodir qo‘lyozmalari saqlanib qolgan bo‘lib, biri Avstriyaning Vena shahrida, ikkinchisi esa Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobning 1885 va 1908-yillarda asl matni va 1961 va 1989-yillarda kirill alifbosidagi tabdili chop etilgan.

### 6.3.1. «Tavorixi guzida, Nusratnama»

“Tavorixi guzida, Nusratnama” (“Saylanma solnomalar, G’alabalar kitobi”) nomli tarixiy asar XVI asrda yaratilgan yozma obidadir. Ushbu asar muallifining nomi ishonarli va qat’iy aniqlanmagan. Tadqiqotchilar orasida bu xususda turlicha fikrlar mavjud. Sharqshunoslardan A.A.Semenov, R.G.Mukminova va V.P.Yudin ushbu kitobni Shayboniyxon tomonidan yoki uning faol ishtirokida yozilgan, deb hisoblaydilar.

Ushbu asarni chuqur va atroficha o’rgangan A.M.Ikromovning fikricha, “Tavorixi guzida, Nusratnama” ijodkori mashhur “Shaybonynoma” dostonining muallifi Muhammad Solihdir.

“Tavorixi guzida, Nusratnama” asari muqaddimasida muallif o’zini “Ojiz”, “G’arib”, “Hokisor” deb ataydi. U Munke qoon nomiga yozilgan “Tavorixi jahonkushoy”, G’ozonxonning qizi nomiga bitilgan “Tavorixi guzida” va Mirzo Ulug‘bek nomidan yozilgan “Muntahab ut-tavorixi shohiy” nomli kitoblardan saylab tartib qilish haqida buyruq olganligi va unda Shayboniyxon tarixini ham qo’shib bir asar yaratganligi va unga “Tavorixi guzida, Nusratnama” deb ot qo’yanligini ochiq aytadi<sup>1</sup>. Bundan ma’lum bo’lishicha, asar Shayboniyxonning topshirig’i bilan saroya yaqin turgan tarixchilarning biri tomonidan yaratilgan.

Ushbu asar 1502–1505-yillar orasida yozilgan bo’lib, ikki mustaqil qismdan – “Tavorixi guzida” va “Nusratnama”dan iborat. Birinchi qismda O’g’izzon va qadimgi turklar, Chingizxon hamda uning Mo’g’uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodи tarixi, ikkinchi qismda esa Shayboniyxon tavalludidan (1451) to uning Movarounnahrni istilo qilishigacha (1500–1505) Dashti qipchoq hamda Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan.

“Tavorixi guzida, Nusratnama”ning ikkinchi qismi zo’r ilmiy ahamiyatga ega. Unda Shayboniylar qo’shinining tuzilishi, uning etnik tarkibi, shuningdek, ko’chmanchilarining Qorako’l, Hisor, Chag’oniyon, O’ratepa hamda Xo’jand viloyatlarida qilgan talon-tarojlari haqida muhim va qimmatli ma’lumotlar bor. Asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, unda sodir bo’lgan voqealarning vaqtি aniq ko’rsatilgan. Bundan tashqari,

<sup>1</sup> Таварихи гузиде, нусратнама. Исследование, критический текст, аннотированной оглавление и таблица сводных оглавлений А.М.Икрамова. -Ташкент, 1977. стр.18–19.

Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan Farg'ona viloyatining bosib olinishi faqat "Tavorixi guzida, Nusratnoma" asarida to'g'ri va to'liq yoritilgan.

"Tavorixi guzida, Nusratnoma" asarining faqat ikkita qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri Sankt-Peterburgda, ikkinchisi esa Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Kitobning matni faksimilesi (fotonusxa) zarur ilmiy izohlar va tadqiqotlar bilan 1967-yilda Toshkentda A.M.Ikromov tomonidan e'lon qilingan. Undan ayrim parchalar rus tilida 1969-yili Olma-Otada V.P.Yudin tomonidan e'lon qilingan.

### 6.3.2. «Zubdat ul-asar»

"Zubdat ul-asar" ("Solnomalar sari") nomli turkiy-o'zbek tilidagi tarixiy asarning muallifi Abdulloh Nasrullohiy yoki Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrulloh bo'lib, u XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarmida o'tgan balxlik tarixnavis olimdir.

Tarixchi XV asrning 80–90-yillarda Balx hokimi Temurjyzoda Badiuzzamon Mirzoning xizmatida bo'lган. Hirot Shayboniyxon tomonidan 1507-yili ishg'ol etilgandan keyin uning xizmatiga kirgan. 1510-yili Muhammad Shayboniyxon halok bo'lganidan keyin, uning o'g'li Muhammad Temur Sulton huzuriga, Samarqandga kelgan.

Bobur Mirzo 1511-yili Samarqandga kelganida Abdulla Nasrullohiy Shayboniy Sultonlar bilan Toshkentga kelgan va Suyunchxojaxonning xizmatiga kirgan. Oradan ko'p o'tmay tarixchi Suyunchxojaxonning o'g'li, Shohruhiya hokimi Keldi Muhammad nomi bilan ham mashhur, Sulton Muhammadning xizmatiga yollangan va 1525-yili uning topshirig'i bilan o'zining "Zubdat ul-asar" nomli kitobini yozgan.

"Zubdat ul-asar" umumiy tarix yo'nalishida yozilgan va qadim zamonalardan to 1525-yilgacha musulmon mamlakatlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni qisqacha bayon qiladi. Asar II qism, fasldan iborat bo'lib, uning oxirgi II qismi yangi hisoblanadi. Unda XVI asrning birinchi choragida Xuroson va Movarounnahrda sodir bo'lgan voqealar birmuncha keng yoritilgan. Ayniqsa, Shayboniy sultonlar Suyunchxojaxon, Ko'chkinchixon, Jonibek Sulton, Ubaydullaxon, Muhammad Temur Sulton bilan Bobur Mirzo va uning siyosiy ittifoqchilari Safaviylar o'rtaida Movarounnahr uchun davom etgan qurolli kurash, Suyunchxojaxon bilan Sulton Saidxon o'rtaisdagi 1512–1514-yillardagi toj-u taxt uchun bo'lgan kurash va Farg'onaning Shayboniylar tomonidan qaytadan bo'ysundirilishi, Shayboniylarning 1514, 1520, 1524-yillarda Xuroson ustiga qilgan harbiy yurishlari va Balxning 1526-yili bo'ysundirilishi, Shayboniylarning qozoq sultonlari, xususan Qosimxon (1511–1523-yy.)

o‘rtasida Sirdaryo bo‘yida joylashgan Yassi, Savron, Suzoq, Sayram va boshqa shaharlar uchun olib borilgan kurashlar tarixi birmuncha keng bayon etilgan.

Ushbu qimmatli asarning faqat ikkita qo‘lyozmasi saqdanib qolgan bo‘lib, biri Toshkentda, Sharqshunoslik institutida (Inv.№ 608) va ikkinchisi Sankt-Peterburgdagi RF FA Sharqshunoslik instituti shahar bo‘limida (D.104 raqami ostida) saqlanmoqda.\*

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. *Shayboniyalar davriga oid qanday manbalarni bilasiz?*
  2. «*Shayboniynoma*» dostononing muallifi kim?
  3. «*Imom uz-zamon xalifat ul-rahmon*» kimning laqabi edi?
  4. «*Abdullahoma*» asarini kim yozgan?
  5. «*Akbarnoma*» asarida O‘zbekiston tarixiga oid qanday ma’lumotlar bor?
- 

## **7-MAVZU: XVII – XIX ASR I YARMI DAVRI MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** Talabalarga bu davrda Buxoro, Xorazm va Qo‘qonda yaratilgan o‘zbek va fors tillaridagi manbalar to‘g‘risida tushuncha beriladi.

### **Reja:**

- 7.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 7.2. O‘zbek tilidagi manbalar.
- 7.3. Fors tilidagi manbalar.

**Asosiy tushunchalar.** *Shayboniyalar sulolasi tanazzulga uchragan.*

### **7.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar**

XVII asrdan boshlab mamlakatda tarqoqlik yanada kuchaydi. Dashti qipchoqliklar, asosan qozoq xonlari va qalmoqlar, Xorazm hukmdorlari Abulg‘ozixon va Anushaxon Movarounnahriga tez-tez bostirib kirib, uning Chorjo‘y, Buxoro va Samarcand shaharlari va qishloqlarini talon-taroj qila boshladilar.

Eron va Shimoliy Hindiston hukmdorlari Boburiylarning Buxoro xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Mamlakatdagi beqarorlik Ubaydullaxon soniy (1702–1711) hukmronligi yillarda juda kuchaydi. Ulus hukmdorlari,

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asariga tayanib yoritildi.

Balxdagi Mahmudbiy qatag‘on markaziy hukumatga bo‘ysunmay qo‘ydilar. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz qabilasi, Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang‘it qabilalari xonga qarshi isyon ko‘tardilar. Ubaydullaxon soniy o‘rniga xon ko‘tarilgan Abulfayz (1711–1747) nomigagina xon bo‘lib, hokimiyat bir guruh yirik boyalar qo‘liga o‘tib qoldi.

Eron podshohi Nodirshoh (1736–1747) Movarounnahrdagi parokandalik va beqarorlikdan foydalanib, 1740-yilning kuzida Buxoro xonligini o‘ziga bo‘ysundirdi. Shundan keyin hokimiyat, asosan Nodirshoh tarafdoi, mang‘it qabilasidan chiqqan nufuzli, katta yer egasi Muhammad Rahimbiy qo‘liga o‘tdi. Abulfayzxon o‘ldirilganidan keyin taxtga o‘tqizilgan Abdulmo‘min (1747–1751) va Ubaydullaxon soniy (1751–1753) nomigagina xon bo‘lib, davlatning muhim ishlarini Muhammad Rahimbiy boshqargan.

1753-yilning 16-dekabrida Muhammad Rahimbiy xon bo‘ldi. Shu kundan boshlab Buxoro xonligida hokimiyat Mang‘itlar sulolasi qo‘lida bo‘lib, ular 1920-yilning sentabr oyigacha hukmronlik qilgan.

1709-yili markaziy hukumatning zaifligi tufayli Farg‘ona vodiysida Qo‘kon xonligi (1709–1876) tashkil topdi.

XVIII–XIX asrda yurtimiz hududida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligi mavjud bo‘lib, Rossiya asta-sekin bu hududga siqilib kirib, o‘z mustamlakasini o‘rnatdi.

## 7.2. O‘zbek tilidagi manbalar

### 7.2.1. «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk va mo‘g‘ul»

“Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” asarlarini yaratgan Abulg‘ozzi Bahodirxon Xiva xoni (1643–1663-yy.) va tarixchi olim sifatida mashhurdir. U 1603-yil 23-avgustda Urganchda tug‘ilgan va 1619-yilgacha ana shu shaharda istiqomat qilgan. So‘ngra inilari Habash va Ilbors bilan toj-u taxt uchun bo‘lgan kurashda mag‘lubiyatga uchrab, Buxoroga qochib bordi va Imomqulixon (1611–1642-yy.) saroyida panoh topdi. Akasi Isfandiyor 1623-yili xon bo‘lgach, yana Xorazmga qaytib bordi va Urganchga hokim etib tayinlandi. Lekin, 1627-yili Isfandiyorxonning o‘zi bilan bo‘lgan kurashda mag‘lubiyatga uchradi. Bu safar Abulg‘ozixon Turkistonga qochib bordi va qozoq xonlaridan Ishimxon (1598–1628-yy.) huzurida panoh topdi. Oradan bir yil chamasi vaqt o‘tgach, 1628-yili, yana bir qozoq xoni – Tursunxon uni Toshkentga olib keldi va Abulg‘ozixon Toshkentda 1630-yil oxirigacha istiqomat qildi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Abulg‘ozixon Xiva turkmanlarining taklifi bilan yana Xorazmga qaytib bordi, lekin oradan olti oy o‘tar o‘tmas, Isfandiyorxon uni Niso va Darunga bosqinchilik yurishi uyuşhtirganlikda

aylablab hibsga oldi va Eronga, shoh Safi' I (1629–1642-yy.) huzuriga omonat<sup>1</sup> tariqasida berib yubordi. Abulg'ozixon o'shanda Isfahondagi Taborak qal'asiga qamab qo'yildi va shu tarzda Eronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639-yili Abulg'ozzi qamoqdan qochdi va ko'p mashaqqatlar chekib, 1642-yili ona yurtiga qaytib keldi. 1643-yili, Isfandiyorxon vafotidan bir yil o'tgach, Orol o'zbeklari uni xon qilib ko'tardilar. O'sha yili Abulg'ozixon Xivadagi raqiblari ustidan ham g'alaba qozondi va Xiva taxtiga o'tirdi.

Abulg'ozixon keng ma'lumotli bo'lishi bilan bir qatorda, feodal hukmdor ham edi. U o'z faoliyati bilan ana shu doiralar manfaatlarini himoya qildi.

Abulg'ozixon 1663-yili toj-u taxtni o'g'li Anusha (1663–1687-yy.)ga qoldirib, umrining oxirini butunlay ilmiy ishga bag'ishlaydi. U 1664-yili vafot etgan.

"Shajarayi tarokima" turkman xalqi va Turkmanistonning o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda bosh manba bo'lib xizmat qiladi.

"Shajarayi turk va mo'g'ul" 1664-yili yozilgan, lekin Abulg'ozixonning og'ir dardga chalanib qolishi va tez orada vafot etishi sababli tamomlanmay qolgan. Asar IX bobining davomi, ya'ni 1644–1663-yillar voqealari Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan olim tomonidan yozilgan. Asarning I–IV boblari ham o'sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiyning qalamiga mansubdir.

"Shajarayi turk va mo'g'ul" asari qisqacha muqaddima va 9 bobdan iborat. Muqaddimada, asosan asarning yozilish sabablari haqida gap boradi. I bobda Odam Atodan to Mo'g'ulxongacha, II bobda Mo'g'ulxonidan Chingizxongacha, III bobda Chingizxonning tug'ulishidan to vafotigacha, IV bobda O'gaday qoon va uning Mo'g'ulistonda hukmronlik qilgan avlodi, V bobda Chig'atoyxon va uning Movarounnahrda podshohlik qilgan vorislari, VI bobda Elxoniylar, ya'ni Eronda hukmronlik qilgan Chingiz avlodi, VII bobda Jo'jixon va uning Dashti qipchoqda podshohlik qilgan avlodi, VIII bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Qozog'iston, Sibir va Qrimda hukmronlik qilgan farzandlari va, nihoyat, IX bobda Shayboniyxonning 1511-yildan Xorazmda podshohlik qilgan avlodi bilan bog'liq voqealar bayon etilgan.

Asarning I–VIII boblari umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, Rashiduddinning "Jome ut-tavorix", Sharafuddin Ali Yazdiyning

<sup>1</sup> Omonat – tobeklik alomati. O'rta asr an'analariga ko'ra, tobeklikni qabul qilgan hukmdorning saroyiga farzandlari yoki yaqin qarindoshlaridan birini garov tariqasida yuborgan. Bu yerda shunga ishorat.

“Zafarnoma” va shuningdek yana o’n sakkiz tarixiy asarlar asosida yaratilgandir. Kitobning IX bobi yangi hisoblanadi va unda Xorazmning 1512–1663-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroficha bayon etiladi. Bundan tashqari, asarda Abulg’oziy Bahodirxon zamonida obod bo’lgan Xorazmdagi Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bag’dod, Kot, Durun, Qumkent, Mizzahkan, Dorug’an ota, Boqirg’on, Xos minora, Ism Mahmud Ota, Chilik kabi shaharlar, Amudaryo va daryo o’zanining o’zgarishi, xivalik turkmanlarning og’ir ahvoli, XVI–XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o’tasidagi siyosiy munosabatlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Abulg’oziy Bahodirxon va uning “Shajarayi turk va mo’g’ul” asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq bir necha, nemis va fransuz (1726-y.), rus (1770-y.) va ingliz (1780-y.) tillariga tarjima qilindi. O’tgan asrda bu asar nemis (G.Ya.Ker), rus (Ya.O.Yarsev va G.S.Sablukov), fransuz (P.I.Demezon), turk (Ahmad Vefiq posha) tillariga tarjima qilindi. Asar 1897–1913-yillari yana turk (tarjimon Rizo Nur) va 1935-yili fors tillariga tarjima qilindi. Asarning G.S.Sablukov (1906-y.) va P.I.Demezon (1871–1874-yy.) amalga oshirgan nashrlari mukammal va zo’r ilmiy qimmatga egadir.

Abulg’oziy Bahodirxon asarini xorijiy tillarga tarjima qilinishi va dunyo bo’ylab tarqalishi bo'yicha “Temur tuzuklari” va Boburning “Vaqoyi” asari bilan qiyoslash mumkin. Ular turkiy tildagi tarixiy asarlarning juda katta ilmiy qiymatga ega ekanligini ko’rsatadi.

### 7.2.2. «Firdavs ul-iqbol»

“Firdavs ul-iqbol” (“Jannat bog’i”) nomli Xorazm tarixi bo'yicha yaratilgan shoh asarning ijodkorlari XVIII asr so'nggi choragi va XIX asrda o’tgan yirik shoir, tarjimon va tarixnavis Shermuhammad ibn Avazbiy Munis (1778–1829) va uning jiyani Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiydir (1809–1847).

Munis Xorazmning qadimda yirik shahar bo’lgan Kot qishlog’ida dunyoga kelgan, Xiva madrasalarida tahsil ko’ngan, 1800-yildan boshlab xon saroyida sarkotib bo’lib xizmat qilgan. U 1829-yili 51 yoshida vafot etgan.

Munis atroficha ma’lumot olgan, turli fanlar, xususan adabiyot va tarixdan keng xabardor bo’lgan yetuk olim va iste’dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806-yili Eltuzarxon (1804–1806)ning topshirig'i bilan “Firdavs ul-iqbol” asarini yoza boshlaydi. Lekin, asar ayrim sabablarga ko’ra, tugallanmay qolgan.

Munis ajoyib xattot sifatida “Savodi ta’lim” nomli maxsus risola

yozgan. U zo'r tarjimon bo'lib, Muhammad Mirxonning "Ravzat us-safo" asari tarjimasini ham boshlab bergen va uning birinchi jildini tarjima qilib tugatgan edi.

Ogahiy ham asli Kot qishlog'idan. Munisning jiyani va uning qo'lida tarbiya topgan. Yaxshi o'qib, turli fanlarni, xususan tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munisning vafotidan (1829) keyin saroyni tark etib, ota kasbi – miroblik bilan kun kechirgan. U 1847-yili vafot etgan.

Ogahiy ham iste'dodli shoir, yirik tarixnavis olim va mohir tarjimon sifatida shuhrat topti. U tog'asi Munis boshlagan "Firdavs ul-iqbol" asarini oxiriga yetkazdi. Undan tashqari, "Riyoz ud-davla" ("Davlatning jannat bog'i"), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar sarasi"), "Jomi' ul-voqeoti sultoniy" ("Sulton voqealarining majmuasi") va "Gulshan ud-davlat" ("Davlat gulshani") kabi tarixga oid asarlarni ham yozgan.

Bulardan tashqari, Ogahiy zabardast tarjimon sifatida 19 asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lib, ularning ichida Muhammad Mirxonning "Ravzat us-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomuddin Ahmad Hiraviyning "Tabaqoti Akbary" kabi ulkan tarixiy asarlari ham bor.

Munis va Ogahiyning tarix sohasidagi eng katta ilmiy ishi "Firdavs ul-iqbol" asarining yaratilishi edi. Kitobda Xorazmning qadim zamonlardan to Qo'ng'irot sulolasidan<sup>1</sup> chiqqan Allohqulixon (1825–1842) zamonigacha bo'lgan tarixdan bahs yuritadi.

"Firdavs ul-iqbol" asari muqaddima va besh bobdan iborat. 1806-yili boshlangan va 1840-yili yozib tamomlangan.

Muqaddimada Eltuzarxon nomiga hamd-u sano o'qiladi, Munisning xon xizmatiga kirish sabablari aytiladi va asar mundarijasi keltiriladi.

Asarning I–II boblari islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, eski tarix kitoblarida turk-mo'g'ul qabilalarining ajdodi hisoblangan Yofas ibn Nuh va Qo'ng'irot amirlarining ilk tarixiga bag'ishlangan.

Uchinchi bobda Burtajon va Chingizxon tarixi, Mo'g'ul imperiyasining Chingisxon zamonidan to Oltin O'rda xoni Berdibek (1357–1361) davrigacha bo'lgan tarixi bayon etilgan.

To'rtinchi bob Xorazmning Shayboniyalar davri (1511–1804)dagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqidadir.

Beshinchi bob Xiva xonligining 1804–1825-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi.

Munis va Ogahiyning mazkur asarining asosiy ahamiyati shundaki,

<sup>1</sup> Qo'ng'irot sulolasi–Xorazmni 1804–1920-yillar orasida idora qilgan sulola. Asoschisi Eltuzarxon(1804–1806-yy.).

unda Xorazmnning qariyb 300 yillik (1511–1825) tarixi yaxlit, xronologik tartibda bayon etilgan. Asar turli mavzudagi daliliy ma'lumotlarga nihoyatda boy. Kitobda, masalan, Xorazm (Xiva xonligi) o'ramida istiqomat qilgan turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, katta yer egaligi, mehnatkash xalq ahvoli, soliq va jarimalar, xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hokazo, o'n to'rt urug'ning tarqatib yuborilishi, 1714, 1722–1723 va 1768-yillari sodir bo'lgan ocharchilik va qahatchilik, Xorazm shaharlari Urganch, Kot, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumkon, Hazorasp, Shahobodlarning umumiyligi boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Buxoro xonligi va Rossiya bilan bo'lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Firdavs ul-iqbol” asari tarixchilar tomonidan kam o'rganilgan. Uning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi. Ushbu asarning inglizcha tarjimasi Yuriy Bregel tomonidan 1999-yili Leyden shahrida bosib chiqargan.

### **7.2.3. «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin»**

“Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” (“Sultonlar shajarasini va xoqonlar tarixi”) asarining muallifi Mirza Olim Toshkandiyidir. Uning to'liq ismi Mirza Olim ibn domla Mirza Rahim Toshkandiyidir. U o'z davrining keng ma'lumotli vatanparvar kishilaridan bo'lgan. Asar XIX asr oxirida yozib tamomlangan.

“Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” Farg'onaning yoki Qo'qon xonligining XV–XIX asrlar orasidagi tarixini o'z ichiga oladi. Muallif, ayniqsa 1842–1875-yillar tarixini keng yoritgan.

Kitobning to'rtta mo'tabar qo'lyozmalari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud. U Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda muhim manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

### **7.2.4. «Shajarayi Xorazmshohiy»**

“Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” (1910–1918) asarlari muallifi serqirra iste'dod sohibi Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniy (1858–1923)dir. Bayoniyning nasli-nasabi Xiva xonligini ko'p yillar idora qilgan Qo'ng'irotlar sulolasiga borib ulanadi. Otasi Bobojonbek Xiva xoni Eltuzarxon (1804–1806)ga nabira bo'ladi.

Muhammad Yusuf Bayoniy yoshligidan yaxshi tarbiya topdi, keng ma'lumot oldi. Arab va fors tillarini yaxshi o'rgandi, adabiyot, tarix, tibb

va musiqa ilmlarini egalladi. Shu bilan birga xattotlik ilmini ham yaxshi o'rgandi. U, ayniqsa xatlarning rayhoniy, suls, kufiy va shikasta turlari bo'yicha mohir xattot, musiqa ilmida, ayniqsa tanbur va g'ijjak chalishda mahoratli sozanda bo'lib yetishdi.

Bayoniy mumtoz adabiyotni, xususan she'r ilmini ham puxta egalladi, o'z zamonining shoiri sifatida dong taratdi. U mumtoz she'riyatning barcha turlarida ijod qildi. O'zidan bir she'riy to'plam, devon qoldirdi. Devon qo'lyozmasi O'zR FA ning Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Bayoniy, asosan yirik tarixnavis olim, Munis va Ogahiyalarning davomchisi sifatida shuhrat qozondi. Bu sohada u ikki yirik asar yaratdi.

Bayoniying "Shajaratayi Xorazmshohiy" asarida Xorazmning turklarning qadimgi podshohi Yofas o'g'lon, Yofas ibn Nuhdan to Qo'ng'irot sulolasigacha kechgan tarixi bayon etilgan. Asarning eng qimmatli qismi Muhammad Rahim avval (1806–1873-yy.) va Asfandiyorxon (1910–1918) davrigacha bo'lgan so'nggi qismidir.

Olimning ikkinchi tarixiy asari "Xorazm tarixi" kitobida Xorazmning 1910–1918-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng yoritilgan.

Muhammad Yusuf Bayoniy mohir tarjimon sifatida ham nom qoldirgan. U, ko'pgina muhim tarixiy asarlarni arab va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Kitob ar-rasul va-l muluk va-l-xulafo", Darvesh Ahmadning "Sahoyif ul-akbar", Kamoliddin Binoiying "Shayboniy nomma" asarlari ana shular jumlasidandir.

Bayoniying "Shajaratayi Xorazmshohiy" asarining (1911–1913-yillari) yozib tamomlagan qismi, ya'ni Muhammad Rahimxon soniy zamonidan sayyid Asfandiyorxon hukmronligi davrini o'z ichiga olgan 15-va 16-boblari Iqboloy Azizova tarafidan so'zboshi va zarur izohlar bilan, 1991-yilda "Meros" to'plamida nashr etilgan.

### 7.3. Fors tilidagi manbalar

#### 7.3.1. «Musaxxit al-bilod»

"Musaxxit al-bilod" ("Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi") nomli asarning muallifi Muhammadyor ibn Arab Kattagondir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. O'zining so'zlariga qaraganda, u XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida yashab o'tgan Shayboniy Abdullaxon soniy va Ashtarkoniylardan Boqi Muhammadxon (1603–1606)ning xizmatida bo'lgan.

Muhammad ibn Arab Kattagon va uning "Musaxxit ul-bilod" asari

yaqin vaqtlargacha ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'Imagan, qolaversa asar haqida turlicha, ko'p hollarda bir-biriga zid fikrlar hukm suradi. Masalan, K.G.Zaleman (1849–1916) "Musaxxir ul-bilod"ni Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarining qisqartirilgan nusxasi, deb aytgan<sup>1</sup> bo'lsa, ingliz sharqshunosi Ch.A.Stori hamda "Собрание восточных рукописей АН УзССР" katalogini tuzuvchilarini "Tarixi Shayboniy" deb ataganlar<sup>2</sup>. Yaqinda Sankt-Peterburglik olima M.A.Salohitdinova "Musaxxir ul-bilod"ni mustaqil asar ekanligini aniqladi va asar hamda uning muallifi haqida qisqa ilmiy axborot e'lon qildi.

"Musaxxir ul-bilod" Shayboniyalar sulolasining Abulkayrxondan boshlab shajarsi bayoni bo'lib, O'zbekiston va Qozog'istonning XV–XVI asrlardagi tarixini o'rghanishda muhim qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Asar 1610-yil atrofida yozilgan.

Kitob tarkibi muqaddima va olti bobdan iborat.

Birinchi bob Abulkayrxonning o'g'li va taxt vorisi Shoh Bulog' Sulton, uning o'g'illari Muhammad Shohbaxt, Shayboniyxon va Mahmud Sulton hamda ularning avlodi tarixini o'z ichiga oladi.

Ikkinci bobda Ko'chkunchixon (Ko'chumxon) va uning Samarqandda hukmronlik qilgan avlodi tarixi bayon etilgan.

Uchinchi bobda Suyunchxojaxon va uning Toshkent hamda Turkistonda hukmronlik qilgan avlodi tarixi keltirilgan.

To'rtinchi bobda xoja Muhammadxon va uning Movarounnahrda podshohlik qilgan avlodi tarixi keltirilgan.

Beshinchi bob Abdulmo'minxonning taxtga o'tirishi (1598) va qisqa hukmronligi haqida.

Oltinchi bobda Buxoroning diqqatga sazovor joylari, muallif bilan zamondosh bo'lgan va Buxoroda istiqomat qilgan shayxlar, olimlar va shoirlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

"Musaxxir ul-bilod" kam o'rghanilgan, qo'lyozma nusxalari ham kam. Hozir uning faqat ikki qo'lyozma nusxasi ma'lum: biri O'zR FA Sharqshunoslik institutida (Inv.№ 1505), ikkinchisi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida (Inv.№ S. 465) saqlanmoqda. Afsuski, ikkala nusxa ham to'la emas. Birinchi nusxada muqaddima va birinchi bobning katta qismi yetishmaydi, ikkinchi nusxaning esa eng kerakli V–VI boblari yo'q.

<sup>1</sup> Умняков И.И. "Абдулла-наме" Хафиза Таниша и ее исследователи//Записки коллегии востоковедов. В том. – Л., 1930. С. 322.

<sup>2</sup> Стори Ч.А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. частт 2. С.117; Собрание восточных рукописей АН УзССР. – Т.: том 1. 1952. С. 80.

Asarning I–IV boblarida XVI asr tarixiga oid manbalarni, xususan “Sharafnomayi shohiy” dek yirik asarlarni ham ma’lum darajada to’latuvchi, ularda bayon etilgan voqealarga aniqlik kirituvchi qimmatli ma’lumotlar ko’p. Shayboniyxon tomonidan 1507-yili o’tkazilgan pul islohoti; Shayboniylar o’tasida kelishmovchiliklar va o’zaro nizolar, uning sabablari; Shayboniylar bilan qozoq xonlari o’rtasidagi siyosiy munosabatlar; o’sha zamonalarda Sirdaryo bo‘yida istiqomat qilgan qoraqalpoqlar va ularning XVI asrning oxiri va XVII asr boshlaridagi ahvoli; Toshkent, Turkiston, Sayram, Andijon va Axsiket kabi shaharlarning XVI asrning so‘nggi choragidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

### 7.3.2. «Haft iqlim»

“Haft iqlim” (“Yetti iqlim”) nomli geografik-biografik asarining ijodkori mashhur adabiyotshunos olim Amir Ahmad Roziydir. U asli Eronning Ray shahridan, badavlat va o’qimishli xonadondan chiqqan.

Amir Ahmad Roziy o’z asarini 1594-yili tugatgan bo‘lib, unda VII asrdan to XVI asr oxirigacha yetti iqlim mamlakatlari va shaharlarda istiqomat qilgan 1560 nafar yirik shayx, olim, yozuvchi, shoir va davlat arboblari haqida qisqa, lekin qimmatli ma’lumotlar beradi. Muallif o’zigacha bo‘lgan davrga tegishli masalarni yoritishda “Suvar al-aqolim” (“Iqlimning ko‘rinishi”), “Masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlar orasidagi masofalar”), “Tarixi Banokatiy” kabi asarlarga tayangan, lekin ulardan tanqidiy foydalangan, ularni yangi dalillar va ma’lumotlar bilan boyitgan.

Shaharlar va mamlakatlarni tavsif qilganda ularning geografik o‘rnii, diqqatga sazovor joylari, osori atiqalari, xalqi va uning hayoti, mashg‘uloti va urf-odatlari, ba’zida aholisining umumiyligi soni, xo‘jaligiga oid qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Masadan, Chingizzon xurujidan avval Balxda 50 mingdan ortiq odam istiqomat qilgan, XV–XVI asrlarda Toshkent atrofidagi tog‘larda temir, firuza, ohak konlari, Xo‘jandda firuza, Badaxshonda la'l konlari ishlab turgan.

“Haft iqlim”da Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodasi davrida Hindiston va O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Sharqiy Turkiston, Koshg‘arning XVI asr ikkinchi yarmidagi umumiyligi ahvoli haqidagi zarur ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Asarda VII–XVI asrlarda O’zbekiston va Xurosonda o’tgan yirik olim va shoirlar haqidagi ma’lumotlar o’ta muhimdir. Bular orasida “shoirlar podshohi” Rashiduddin Votvot (1088–1182), “Olimlar faxri” Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy (1074–1144), buxorolik buyuk hadis

olimi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870)lar bor.

“Haft iqlim” asarining qo‘lyozma nusxalari mumlakatimizda va xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida ko‘p, lekin hali to‘liq nashr qilinmagan. Undan tarixchilar yordamchi manba sifatida foydalanishi mumkin.

### 7.3.3. «Tarixi olamoroyi Abbosiy»

“Tarixi olamoroyi Abbosiy” (“(Shoh) Abbosning olamni bezovchi tarixi”) nomli asar garchi XVI asrda o‘tgan yirik Eron tarixchisi Iskandarbek Munshiy tomonidan yaratilgan bo‘lsa-da, unda O‘zbekistonning tarixi va uning boshqa mamlakatlar bilan munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iskandarbek Munshiy o‘z asarida keltirgan ayrim dalil va ma’lumotlariga qaraganda, 1561 yoki 1562-yili tug‘ilgan. U saroy yumushiga qabul qilingunga qadar kichik moliya xizmatchisi bo‘lib ishlagan, keyinchalik devoni inshoga qabul qilingan. Bo‘lg‘usi tarixchi 1587-yili harbiy xizmatga jalb etilgan va shoh Abbos Safaviy (1587–1629)ning harbiy yurishlarida voqenavis bo‘lib ishtirok etgan, 1593-yili esa saroy munshiysi lavozimiga tayinlangan va umrining oxirigacha shu lavozimda turgan. Iskandarbek Munshiy 1634-yili vafot etgan.

Iskandarbek Munshiyning “Tarixi olamoroyi Abbosiy” nomli asarida Eronning 1588–1634-yillar orasidagi tarixi xronologik, yilma-yil tartibda bayon qilingan. Bu asar ham “Akbarnama” singari saroyda yuritilgan kundalik daftar, rasmiy hujjatlar, bayon etilgan voqealar ishtirokchilarining og‘zaki axboroti hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari bilan to‘plangan ma’lumotlar asosida yozilgan.

“Tarixi olamoroyi Abbosiy” asari tarkibi muqaddima, uch jild va xotimadan iborat. Asarning I–II jiddlari 1616, uchinchi jildi esa 1628-yili yozib tamomlangan.

Kitobning birinchi jildi kompilyatsiya, umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, Xondamirning “Habib us-siyar”, Mir Yahyo Qazviniyning “Lubb at-tavorix” (“Tarixlar mag‘zi”) va muallifi noma’lum ikki asar “Tarixi shoh Ismoil Safaviy” va “Tazkirayi shoh Tahmosib” hamda boshqa asarlarga tayanib yozilgan. Unda, asosan shoh Abbosning ota-bobolari, shuningdek, shoh Ismoil avval (1502–1524), shoh Tahmosib avval (1524–1576), Ismoil soniy (1576–1578) va Sulton Muhammad Xudobanda (1578–1587) hukmronligi yillardagi tarixi umumiylar tarzda bayon etilgan.

“Tarixi olamoroyi Abbosiy” asarining II–III jiddlari mazmuni yangi bo‘lib, mustaqil ahamiyatga ega. Ularda Eronning 1588–1628-yillar

orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng yoritib berilgan. Uchinchi jild oxirida shoh Abbas bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar va xattotlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Asar O'zbekiston tarixini o'rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Unda O'zbekistonning XVI asr oxiri va XVII asrning birinchi choragidagi siyosiy ahvoli haqida noyob ma'lumotlarni uchratamiz. Bundan tashqari, asar XVI asrning oxiri va XVII asrning birinchi choragida Eron bilan Buxoro xonligi o'rtaidagi siyosiy munosabatlarni o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Asardan ayrim parchalar B. Dorn (matni) va V.V. Velyaminov-Zernov tomonidan matni va qisqartirilgan ruscha tarjimasi nashr etilgan. Kitob matni yana ikki marta Tehronda 1896-yili toshbosma va 1956-yili bosmasi chop etilgan.

### 7.3.4. «Bahr ul-asror»

“Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor” (“Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi”) nomli asar muallifi XVII asrda o'tgan balxlik yirik qomusiy olim Mahmud ibn Validir. Uning otasi Mir Muhammad Vali asli farg'onalik, kosonlik bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon avval (1546–1567-yy.) davrida Balxga borib qolgan. U o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadam kishilardan hisoblangan. U Mir Xislat taxallusi bilan she'rlar ham yozgan.

Mahmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602-yili vafot etgan) Samarqand hokimi Boqi Muhammad (1603–1606-yillari Buxoro xoni) devonida xizmat qilgan. Akasi amir Abulboriy esa fiqh, tafsir va tib ilmini yaxshi egallagan olim kishi edi.

Mahmud ibn Vali 1596-yili tug'ilgan. 19 yoshga borganda, ya'ni 1614-yili u yirik fiqh va hadis olimi Mirakshoh Husayniyning xizmatiga kiradi va qariyb o'n yil undan saboq oladi. Mirakshoh Husayniyning boy kutubxonasi bo'lib, unda, Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, tarix, geografiya, mumtoz adabiyot, fiqh, hadis va boshqa ilmlarga doir juda ko'p kitoblar saqlanar edi. Bu ilmga chanqoq yosh olim uchun beباو xazina bo'ldi, albatta. Keyinchalik Mahmud ibn Valining o'zi kutubxonadagi ko'p kitoblarni o'qib foyda topganini aytadi.

Mirakshoh Husayniy vafot etgan 1624-yil 13-aprel kunidan keyin Mahmud ibn Vali kitobiylilimini amaliy bilimlar bilan boyitish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625-yilning iyul oyida savdo karvoniga qo'shilib Hindiston tomon yo'l oldi. U Hindistonda qariyb yetti yil istiqomat

qildi va uning Peshovar, Lohur, Dehli, Agra, Haydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bihar kabi qator yirik shahar va o'lkalarni borib ko'rди va ularning aholisi, xalqining urf-odati, tarixi, madaniyati, va nihoyat, osori atiqalari haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

1631-yil 20-avgustda Balxga qaytib kelgandan keyin Nadir Muhammadxon (1606–1642-yillari Balx, 1642–1645-yillari Buxoro xoni)ning xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha uning kutubxonasida kitobdor bo'lib xizmat qildi. Mahmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma'lum emas.

Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohalarini, tarix, geografiya, ilmi nujum, ma'danshunoslik, botanika va boshqa sohalarni qamrab olgan "Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" yoki "Bahr ul-asror" nomli o'ta qimmatli qomusiy asarini yaratdi. Bundan tashqari u qator ilmiy va badiiy asarlar yaratgan bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

1634–1640-yillar orasida yozilgan "Bahr ul-asror" asari mundarijasida ko'rsatilishicha, yetti jiddan iborat bo'lgan. Uning II–VII jiddlari jahon tarixiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640-yilgacha kechgan tarixidan bahs yuritadi. Asarning birinchi jildi ilmi nujum, geografiya, ma'danshunoslik va botanika fanlariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning faqat I va VI jiddlarigina topilgan, xolos.

Asarning birinchi jildida yetti iqlim mamlakatlarining, shuningdek, O'zbekistonning o'rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

"Bahr ul-asror" ning VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII–XVII asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusi, O'rta Osiyo, Mo'g'uliston va Shimoliy Afgh'oniston tarixi keng va atroflicha yoritilgan.

Mahmud ibn Vali va uning mazkur asari ilmiy jamoatchilikka 1902-yildan beri ma'lum bo'lsa-da, hali juda kam o'rganilgan. Undan ayrim parchalarning ruscha tarjimasi V.V.Bartold, B.A.Ahmedov va K.A.Pishulina tomonidan e'lon qilingan.

"Bahr ul-asror" asarining olti nafar qo'lyozmasi mavjud. Ularning to'rttasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida I jild va VI jildning 1–3 qismlari, ikkitasi esa Angliya va Pokistonda, VI jildning 4 qismi saqlanmoqda.

### 7.3.5. «Dastur ul-muluk»

"Dastur ul-muluk" ("Podshohlarga qo'llanma") nomli qimmatli asarning muallifi XVII asr tarixchisi Xoja Samandar Termiziyidir. Uning

o‘z ismi Muhammad Baqoxoja bo‘lib, asli Nasaf(Qarshi)lik, Mir Haydariy tariqati shayxlaridan biri oиласида dunyoga kelgan.

Xoja Samandar Termiziy Ashtarkoniylardan Abdulazizxon (1645–1681) va Subxonqulixon (1681–1702) bilan zamondosh bo‘lgan. U 1702-yilgacha Qarshida raislik lavozimida<sup>1</sup> turgan, Abdulazizxon va Subxonqulixonning harbiy yurishlarida ishtirot etgan. Oxiri ana shu Mir Haydariy tariqati shayxlaridan ba’zilarining ig‘vosi bilan 1702-yili raislik lavozimididan iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi va umrining oxirigacha, faqat ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Xoja Samandar Termiziy o‘z davrining keng ma’lumotli kishilari jumlasidan bo‘lgan. O’sha vaqtarda yozilgan bir qator kitoblar, jumladan “Muzakkiri ahbob”, “Muhit at-tavorix”ning ma’lumotlariga qaraganda, u yetuk shoir, yozuvchi va tarixchi olim bo‘lgan, ilohiyot ilmini ham yaxshi bilgan, ko‘p sayohat qilib, nazariy bilimini mustahkamlagan.

Bizning zamonimizgacha olimning ikki muhim asari yetib kelgan. Bulardan biri “Dastur ul-muluk” bo‘lib, u 1695-yili va ikkinchisi “Anis ul-fuqaro” (“Faqirlar do‘sti”) nomi bilan mashhur bo‘lib, 1735-yili yozilgan.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari zo‘r qimmatga ega. Asar Buxoro xonligining XVII asrning 70–90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Asarda o‘zaro kurashlar, oliy martabali mansabdordar orasida keng tarqalgan buzuqlik, poraxo‘rlik, zulm va mehnatkash xalqning og‘ir ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Dastur ul-muluk”da o‘zbeklarning etnik tarkibi haqida ham muhim dalil va ma’lumotlarni uchratamiz.

1971-yili “Dastur ul-muluk” asarining forsiy matnini, ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan M.A.Salohiddinova chop etdi. Asarning o‘zbekcha nashri 1997-yili Jabbor Esonov tomonidan amalga oshirildi.

### 7.3.6. «Tarixi Muqimxoniy»

“Tarixi Muqimxoniy” nomli tarixiy asar muallifi XVII asrda o‘tgan yirik olim Muhammad Yusuf Munshiydir. Asarida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, asli balxlik bo‘lgan va Subxonqulixon (1651–1680-yillari Balx, 1680–1702-yillari Buxoro xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697–1707-yillari Balx xoni) saroyida munshiy bo‘lib xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf Munshiy Muhammad Muqimxonga bag‘ishlangan

<sup>1</sup> Rais – XVII–XIX asrlarda musulmonlar tomonidan shariat ko‘rsatmalarining qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi mansabdar. X–XVI asrlarda muhtasib deb atalgan.

“Tarixi Muqimxoniy” nomli asarini yozgan. Mazkur asar 1697–1704-yillar orasida yozilgan bo‘lib, Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Muhammad Yusuf Munshiy agar “jahon hodisalarining kuchli shamoli uning (Muhammad Muqimxonning) hayot o‘tini o‘chirmasa, yo‘qsizlik dengizining to‘lqinlari o‘ynoqi otini o‘z girdobiga tortib ketmasa”, ushbu asarining ikkinchi qismini ham yozish niyatida ekanligini aytadi. Lekin, “Tarixi Muqimxoniy”ning ikkinchi kitobi yozilmay qolgan. Fikrimizcha, bunga qandaydir kutilmagan hodisa, balki muallifning biron falokatga uchrab qolganligi sabab bo‘lgan.

“Tarixi Muqimxoniy” muqaddima va uch bobdan iborat.

Muqaddimada turkiy xalqlarning afsonaviy onasi Alan quva, Chingizxonning ota-bobolari, mo‘g‘ul qo‘sishnlari tomonidan Movarounnahr, Balx va Badaxshonning bosib olinishi tarixi qisqacha bayon etilgan.

Asarning birinchi bobbi Shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiy ahvoldidan hikoya qiladi.

“Tarixi Muqimxoniy”ning yangi va muhim qismi uning II–III boblaridir. Ikkinchi bobda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Eron, Turkiya va Koshg‘ar bilan bo‘lgan siyosiy munosabatlari, uchinchi bobda esa 1702–1704-yillar voqealari, xususan Buxoro bilan Balx o‘rtasida boshlangan qurolli kurash o‘rin olgan.

Asarda xonlar va katta yer egalari to‘g‘risida, mehnatkashlar og‘ir ahvoli to‘g‘risida ayrim qimmatli ma‘lumotlar uchraydi.

“Tarixi Muqimxoniy” asarining qo‘lyozma nusxalari ko‘p va Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. Asar to‘la o‘zbekchaga 1861-yili tarjima qilingan, undan ayrim parchalar fransuz va rus tillarida e’lon qilingan. 1956-yili to‘liq ruscha tarjimasi A.A.Semenov tomonidan chop etilgan.

### 7.3.7. «Ubaydullanoma»

“Ubaydullanoma” XVII asrda o‘tgan Mir Muhammad Amin Buxoriy asaridir. U o‘qimishli va fozil kishilardan bo‘lib, 1645-yilda tug‘ilgan, vafot yili ma‘lum emas. Ashtarkoniylardan Subxonqulixon va Ubaydullahxon (1702–1711) saroyida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan.

“Ubaydullanoma” Buxoro xonligining 1702–1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiladi. Asar 1716-yildan keyin yozilgan, muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya’ni Subxonqulixon hukmronligining so’nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og‘ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizzon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan.

1–80-boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702–1711) ijtimoiy-siyosiy tarixi bat afsil yoritilgan. Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig‘iladigan soliq va jarimlar, Buxoro xonligining ma’muriy tuzulishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o‘rin bergan. Asarda geografik va etnografik ma’lumotlar ham ko‘p.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo‘lgan va Buxoroda istiqomat qilgan olimlar, shoirlar, masalan, Sayido Nasafiy, Qosimxoja, mulla Sarfaroz, Fitrat, Mulham, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e’tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan.

“Ubaydullanoma” asarining 10 dan ortiq qo‘lyozma nusxasi mavjud. Asar A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1957-yili Toshkentda nashrdan chiqarilgan.

### **7.3.8. «Tarixi Abulfayzxon»**

“Tarixi Abulfayzxon” asarini Ubaydullaxon va Abulfayzxon (1711–1747) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko‘proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaq bo‘lib, “Ubaydullanoma”ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711–1723-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi, ulus boshliqlarining, ya’ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarkand markaziy hukumatga bo‘ysunmay qo‘ydilar, Farg‘ona XVIII asr boshlari, 1709-yili Ashtarkoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o‘lkada mustaqil Qo‘qon xonligi tashkil topdi, 1722-yili Samarkand ham mustaqillik e’lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko‘tardilar (1722–1728), o‘zaro urushlar boshlanib ketdi.

“Tarixi Abulfayzxon” asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma’muriy tuzulishi va o‘zbek xalqining o‘sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma’lumotlar bor.

“Tarixi Abulfayzxon”ning to‘liq ruscha tarjimasи, zarur izohlar bilan

### 7.3.9. «Silsilat us-salotin»

“Silsilat us-salotin” Hoji Mir Muhammad Salimning asaridir. Uning qo‘lyozma nusxalari juda kamyob bo‘lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida (raqami № 269) saqlanmoqda.

Hoji Mir Muhammad Salim hech bo‘limganda biron kichik viloyatga hokim bo‘lish sharafiga tuyassar bo‘lomagan va boshidan ko‘p og‘ir kunlarni kechirgan Ashtarkoniylar jumlasidandir. Uning bobosi Tursun Muhammad sulton 1578–1598-yillari Samarqand hokimi bo‘lgan. Uning to‘ng‘ich o‘g‘li Poyanda Muhammad Sulton Balx xoni Nadir Muhammadxonga yaqin bo‘lgan, xonning singlisi Zubayda bonuga uylangan va 1611–1642-yillari Qunduz viloyatiga hokimlik qilgan. Ana shu Poyanda Muhammad sulton bilan Zubayda bonudan tug‘ilgan Muhammadyor sulton Hoji Mir Muhammad Salimning bobosidir. U 1645-yilgacha Shahrisabz viloyatiga hokim bo‘lgan va Nadir Muhammadxon Buxoro taxtini o‘g‘li Abdulazizzonga qoldirib ketgandan keyin u bilan birga Balxga qochib borgan. Oradan bir yil o‘tgach, 1646-yili, Balx Boburiylardan Shohi Jahon qo‘sishlari tomonidan ishg‘ol etilganlan so‘ng, xonning onasi Shahribonu hamda Nadir Muhammadxonning boshqa oila a‘zolarini olib Buxoroga qochib keldi, Abdulazizxonning qalmoqlar, qoraqalpoq va qozoq sultonlariga qarshi harbiy yurishlarida ishtirok etdi, toj-u taxt oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari uchun Shahrisabzga hokim qilib tayinlandi. Muhammadyor sulton 1647-yilning 14-iyunida Avrangzeb qo‘smini bilan Balx qishlog‘i – Temurobodda bo‘lgan jangda halok bo‘lgan. Hoji Mir Muhammad Salimning otasi Muhammad Rustam sulton 1645-yili hali yosh bo‘lgan va Abdulazizxon unga iqto<sup>1</sup> tarzida Samarqandga qarashli Saripul tumanini in‘om qilgan, unga otaliq<sup>2</sup> qilib esa Mir Shohxoja Shavdariyni tayinlagan. Lekin, 1671-yili Abdulaziz undan xavfsirab ko‘ziga mil torttirib ko‘r qilgan. Muhammad Rahim sulton oradan ko‘p vaqt o‘tmay, amir Muhammadyor otaliqning vositachiligi bilan, xondan ruxsat olib hajga jo‘nagan. Lekin, Dekan viloyatida davom etib turgan urush harakatlari sababli, bandargoh shaharlaridan birontasiga o‘tolmay, Shohijahonobodga qaytib kelgan va oradan ikki yil o‘tgach, o‘sha yerda vafot etgan.

<sup>1</sup> Iqto<sup>1</sup> (arab. kesim) – O‘rtta asrlarda Yaqin va O‘rtta Sharq mamlakatlarida oliy hukmdor tarafidan shahzoda va yirik amirlarga katta xizmatlari evaziga in‘om qilingan yer-suv, mulk.

<sup>2</sup> Otaliq – O‘rtta asrlarda O‘rtta Osiyo xonliklarida amalda bo‘lgan oliy mansab egasi, shahzodalarining tarbiyachisi va valysi.

Mir Muhammad Salimning o‘ziga kelsak, u, asarda bayon etilgan voqealarga qaraganda, otasidan keyin Buxoroda qolgan. 1711-yili Ubaydullaxon o‘ldirilgandan keyin, haj qilish bahonasi bilan Arabistonga jo‘nagan. Bir yilcha Isfahonda istiqomat qilib, 1712-yili Turkiyaga borgan. Sulton Ahmad 111 (1703–1730) uni ehtirom bilan kutib olgan. To‘rt yilcha Turkiyada turib, mazkur sultonning harbiy yurishlarida qatnashgan. Mir Muhammad Salim 1716-yili Makkaga bongan va haj marosimini ado etgandan keyin, dengiz orqali Hindistonga kelgan va Boburiy Nosiruddin Muhammadshoh (1719–1748)ning xizmatiga kirgan. “Silsilat us-salotin” asarini Nosiruddin Muhammadshohning topshirig‘i bilan yozgan. Hoji Mir Muhammad Salimning qachon va qayerda vafot etganligi aniqlanmagan.

“Silsilat us-salotin” 1731-yilda yozilgan bo‘lib, muqaddima va to‘rt qismdan iborat.

Muqaddimada asarning yozilishi haqida so‘z boradi va muallifning 1711-yildan keyingi hayoti haqida ayrim, diqqatga sazovor ma’lumotlar keltiriladi.

Birinchi qismda islomiyatdan avval o‘tgan payg‘ambarlar, qadimgi turklar va mo‘g‘ullar, xususan barloslar va Amir Temurning ota-bobolari, Amir Temur va Temuriylar, shuningdek, hazrat sohibqironning Hindistonda hukmronlik qilgan avlodni tarixi qisqacha bayon etiladi.

Asarning ikkinchi qismi Mo‘g‘ulistonning Tug‘luq Temurxon (1348–1363) dan to Suyurg‘at mishxongacha (1370–1388) o‘tgan davrdagi tarixini o‘z ichiga oladi.

Muqaddima va I–II qismlarni yozishda muallif o‘zidan avval yozilgan asarlardan, masalan, Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy”, Rashiduddinning “Jome’ ut-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyining “Zafarnoma”, Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus”, Xondamirning “Maosir ul-muluk”, “Xulosat ul-axbor” va “Habib us-siyar” asarlari, Abulfazl Allomiyning “Akbnoma”, Hofiz Do‘stmahammad ibn Yodgorning “Majma’ ul-ajoyib” (1606-yili yozilgan) va boshqa 20 ga yaqin kitoblardan foydalangan.

“Silsilat us-salotin”ning III–IV qismlari favqulodda ahamiyatga ega bo‘lib, O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonning XVI–XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qiladi.

Asarda Buxoro xonligining Eron, Hindiston va Koshg‘ar bilan bo‘lgan aloqalari, Buxoro xonligida hokimiyatning Shayboniylardan Ashtarxoniyilar qo‘liga o‘tishining aniq tafsiloti, XVII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, Shohijahoning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvni

va Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni bosib olishi, Xorazmning XVI—XVII asrlardagi siyosiy ahvoli xususida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli dalil va ma'lumotlar keltiriladi. Asarda ulus tizimi, tiul va solona kabi soliqlar, O'zbekiston shaharlari, ularning aholisi va turmush tarzi haqida keltirilgan ma'lumotlar ham alohida qimmatga egadir.

Hoji Mir Muhammad Salim Buxoro xonlari — Abdullaxon II, Abdulmo'minxon, Dilmuhammadxon, Imomqulixon, Abdulazizxon, Subxonqulixonning Hindiston, Eron va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalarining 20 nafar maktubi nusxalarini ham keltirgan. Bu maktublar, shubhasiz, Buxoro xonligi bilan mazkur mamlakatlar o'tasidagi munosabatlар tarixini o'rganishda muhim ma'no kasb etadi.

### 7.3.10. «Tuhfat ul-xoni»

“Tuhfat ul-xoni” (“Xonning tuhfasi”) yoki “Tarixi Rahimxoniy” (“Muhammad Rahimxon tarixi”) nomli asar Buxoro xonligining 1722—1782-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Uni tarixchi olim Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685—1769) yaratgan. Tarixchining to'la nomi Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karminagiyidir. U Buxoroning o'qimishli va taniqli kishilaridan birdir. Karminagiy nisbasiga qaraganda, asli Buxoroning Karmana tumanidan bo'lgan. “Ubaydullanova” kitobining muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning guvohlik berishiga qaraganda, Muhammad Vafoyi Karminagiy Ashtarkoniylardan Ubaydullaxon saroyida kitobdor bo'lib xizmat qilgan. Fikrimizcha, u Ubaydullaxondan keyin taxtga o'tirgan Abulfayzxon davrida ham shu lavozimda turgan. Mulla Muhammad Vafo Karminagiy “qozi Vafo” nomi bilan ham mashhurdir. U qozilik lavozimiga yangi sulola — Mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon (1753—1759) zamonida erishgan.

Muhammad Vafo Karminagiy 1769-yili “Tuhfat ul-xoni” nomli asarida faqat 1722—1768-yillar voqealarini o'z ichiga olgan qisminigina yozib ulgurgan, xolos. Uning davomini, ya'ni 1768—1782-yillar voqealarini bayon etuvchi qismini nasaflik domla Olimbek ibn Niyozqulibek yozgan.

“Tuhfat ul-xoni” qofiyali nasr, saj bilan yozilgan, lekin voqealarning to'la va keng yoritilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, geografik hamda etnik dalillarga boyligi bilan birinchi darajadi manbalar qatorida turadi. Asar Buxoro xonligida XVIII asrning 20-yillaridan boshlab kuchayib ketgan iqtisodiy va siyosiy tanglikni, ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va buning natijasida markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang'it

hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo'ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari va buning oqibatida ko'plab shaharlar hamda qishloqlarning vayron etilishi, mehnatkash xalq turmushining og'irlashib borishi va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan daliliy ma'lumotga o'ta boydir.

Asarda yana o'zbek qavmlari, ulug'lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, Ashtarkoniylar va Mang'itlar hukmronligi davrida o'zbek qo'shini va mang'itlar davlatining tuzilishi, 1722–1782-yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg'oniston, Qozoq va Qo'qon xonliklari hamda Koshg'ar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p uchraydi.

"Tuhfat ul-xoniy" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Masalan, faqat Sankt-Peterburg, O'zbekiston, Tojikiston kutubxonalarida uning 23 qo'lyozmasi mavjud. Asar biron tilga to'la tarjima qilinmagan ham. Asardan kichik bir parcha, ya'ni Muhammad Rahimxonning 1747-yili Saraxs atrofida Eron qo'shinlari bilan to'qnashuvi rus tilida 1938-yili e'lon qilingan, xolos.

### **7.3.11. «Tarixi Amir Haydar»**

"Tarixi Amir Haydar" XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida o'tgan buxorolik Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif asaridir. Kitobning noma'lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan bo'lib, qo'lyozma O'zR FA Sharqshunoslik institutida 1836 raqami ostida saqlanmoqda.

"Tarixi Amir Haydar" kichik hajmdagi asar, jami 96 varaqdan iborat, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan, Buxoro xonligining Ashtarkoniylar, shuningdek, asosan, Mang'itlar sulolasidan bo'lgan amir Haydar hukmronligi (1800–1826-yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi.

Asar 81 bob, yoki dostonidan iborat. 1–2-boblari Buxoro shahri tarixiga bag'ishlangan, 3–6-boblarda Ashtarkoniylar tarixi qisqacha bayon etilgan, 7–81-boblarida esa Buxoro amirligi amirzoda Haydarning tug'ilishidan to uning 1826-yil 6-oktabridagi vafotigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi.

Kitob 50-yillarda A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, lekin nima sababdandir qo'lyozma nashr etilmay qolgan. Tarjima qo'lyozmasi O'zR FA ShI kutubxonasida saqlanmoqda.

### **7.3.12. «Fathnomayi sultoniy»**

"Fathnomayi sultoniy" ("Sulton fathnomasi") asari muallifi Mir Olim

Buxoriy bo'lib, kitobini Amir Nasrulloh davri (1826/27–1869/79)da G'uzor hokimi bo'lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo'lgan paytida va uning topshirig'i bilan yozgan.

“Fathnomayi sultoniy” amir Shohmurod (1785/86–1800) davridan to Nasrulloh hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi, lekin Shohmurod va amir Haydar davrlari qisqacha (O'zR FA Shı qo'lyozmasi, inv. № 1838, vv.7b–55b), Nasrulloh davri esa batafsil yoritilgan.

Mazkur qo'lyozma asarning birinchi jildi bo'lib, ikkinchisi bizga ma'lum bo'lмаган sabablarga ko'ra yozilmay qolgan.

“Fathnomayi sultoniy”ning birinchi qismi marhum O.D.Chexovich tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Tarjima qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda.

### 7.3.13. «Muntaxab ut-tavorix»

“Muntaxab ut-tavorix” (“Saylanma tarix”) asarining muallifi qo'qonlik yirik tarixchi olim Hakimxon to'radir (taxm. 1802 – vafot etgan yili ma'lum emas). Ota tarafidan naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri, yirik ilohiyot olimi Maxdumi A'зам Kosoniy (1461/62–1542/43)ning avlodи, ona tarafidan Qo'qon xoni Norbo'taxon (1770–1800)ning nabirasidir.

Otasi sayyid Ma'sumxon to'ra Umarxon davri (1809–1822)da va Muhammad Alixon hukmronligi (1822–1842)ning dastlabki yillarida xonlikning shayxulislomi lavozimini egallab turgan. Hakimxon to'ra Muhammad Alixon hukmronligi avvalida Namangan, To'raqo'rg'on va Kosonsoyda hokim bo'lgan. Lekin, ko'p o'tmay otasi ham, o'zi ham xonning g'azabiga duchor bo'lib, egallab turgan lavozimlaridan bo'shatilganlar va haj marosimini ado etish uchun Arabistoniga jo'natib yuborilgan. Otasi yo'lda, Mozori sharifda 1834-yili vafot etgan. Hakimxon to'ra esa ko'p mashaqqatlar chekib, yetti yildan keyin Rossiya, Turkiya, Iroq, Suriya va Falastin orqali Makkaga yetib bordi. O'shanda 1834-yili u Orenburgda podshoh Aleksandr I bilan uchrashish sharafiga tuyassar bo'lgan. Hakimxon to'ra Makka va Madina ziyoratidan qaytgach, 1828-yili, Muhammad Alixon dan cho'chib Qo'qonga bormadi va qolgan umrini Kitobda kechirdi. O'zining yozishicha, Kitobda uning qarindoshlari va ozmi-ko'pmi yer-suvi bo'lgan.

Hakimxon to'ra yirik tarixnavis olim bo'lib, o'zining “Muntaxab ut-tavorix” asarini 1843-yilning 29-may kuni yozib tamomlangan.

“Muntaxab ut-tavorix”da qadimiy zamonlar, islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, qadimgi Eron podshohlari, Xitoy va Yevropaning qadimiy

podshohlari, xalifayi Roshidindan to Mavarounnahrning Mang'it va Ming sulolasidan chiqqan oliv hukmdorlar zamonigacha kechgan tarixi bayon etiladi.

Asarda Qo'qon xonligining xonlik asoschisi Shohruhxon(1709–1721)ning o'g'li va toj-taxt vorisi Abdurahimxon (1721–1724) zamonidan to Norbo'taxon, Olimxon va Umarxon davri tarixi yaxshi yoritilgan. Asarda muallifning Rossiya, Turkiya, Iroq, Shom (Suriya) va boshqa mamlakatlarga qilgan sayohati chog'ida olgan taassurotlari va o'sha mamlakat xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi va hayot tarzi haqida keltirgan ma'lumotlari ham diqqatga sazovordir.

"Muntaxab ut-tavorix"ning qo'lyozma nusxalari kam. Uning Dushanbeda, Tojikistonda A.A.Semenovning uy muzevida saqlanayotgan forscha fotonusxasini Ahror Muxtorov 1983-yili ikki kitob holida chop etdi. Asarning o'zbekcha nusxasi ham bo'lib, hozirda O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (raqami № 594) saqlanmoqda. Kitobning ikkinchi jildi tanqidiy matni yaponiyalik olimlar Yayoi Kawahara va Koichi Haneda tomonidan Tokio shahrida 2006-yili e'lon qilindi.

### 7.3.14. «Tarjimai ahvoli amironi

#### **Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad»**

"Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad" ("Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli. Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha") asarining muallifi Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla nomi bilan mashhur bo'lgan, XIX asrda ko'zga ko'ringan mutafakkir shoir, adib, olim va diplomatdir. Uning to'la ismi Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Xanafiy al-Buxoriyidir. Bo'lg'usi tarixchi 1827-yili Buxoroda tug'ilgan. U yoshligidan yaxshi o'qib tarix, mumtoz adabiyot, riyoziyot-matematika, ilmi nujum-astronomiya, musiqa va tibbiyat ilmlarini yaxshi o'rgangan, husnixat va musavvirlik sirlarini ham egallangan.

Ahmad Donish o'z faoliyatini xattotlikdan boshlagan va 50-yil boshlarida amir Nasrulloh xizmatiga qabul qilingan, 1870-yili iste'foga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan.

Ahmad Donish 1857-yili amir Nasrulloh, 1869 va 1974-yillari amir Muzaffar (1860–1885) elchiligi tarkibida Peturburgda bo'ldi va Rossianing iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar olimning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi. Lekin, u Buxoroning Rossiyaga qaraganda qoloqligining haqiqiy sabablarini tushunib

yetmadi. U jamiyatni mavjud qonun va tartiblarini takomillashtirish yo'li bilan, odil podshohning qo'li bilan qaytadan qurish mumkin deb hisoblardi. Olimning bu qarashlari uning "Navodir ul-vaqoye" ("Nodir voqealar") nomli asarida o'z aksini topgan. Ahmad Donish ushbu asarida amirga davlatni boshqarish ishlarini qaytadan qurishni maslahat berdi. Lekin, amir bundan darg'azab bo'ldi va 70-yillar oxirida Ahmad Donishni poytaxtdan uzoqlashtirdi va G'uzorga qozi qilib yubordi.

1885-yili, amir Muzaffar vafotidan keyin, u Buxoroga qaytib keldi va umrining qolgan qismini ilmiy mashg'ulotlar bilan kechirdi. Ahmad Donish 1897-yili vafot etdi.

Ahmad Donish sermahsul ijodkor bo'lib, ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adabiyot va tarixga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. "Manozir ul-kavokib" ("Sayyoralarning manzaralari"), "Navodir ul-vaqoye" va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif" (1885-yildan keyin yozilgan) asarları ana shular jumlasidandır.

O'zbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda olimning so'nggi asari katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobda katta so'zboshi, sayyoralarning inson taqdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda amir Doniyol (1758–1785), Shohmurod (1785–1800), Haydar va amir Nasrulloh hukmronligi yillarida bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan.

Asarning katta va so'nggi qismi amir Muzaffarga bag'ishlangan. Bu qismida Buxoro xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, chor Rossiysi qo'shinlari tomonidan 1866-yili Jizzax hamda 1868-yili Samarqandning ishg'ol qilinishi voqeaları batafsil bayon etilgan.

"Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif" asarining qo'lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Dushanbe kutubxonalarida mavjud. Asarning matni A.Mirzoyev tomonidan chop etilgan. 1960-yili kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimasi Dushanbeda nashr qilingan.

### 7.3.15. «Tarixi salotini Mang'itiya»

"Tarixi salotini Mang'itiya" ("Mang'it sultonlarining tarixi") asari buxorolik mashhur tarixchi olim va shoir Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy (1838/39–1914-yildan keyin) qalamiga mansubdir. Bo'lg'usi tarixchi boshlang'ich ma'lumotni ona yurti Bo'ston qishlog'ida, Buxoroning shimolida, undan 40 km narida olgan, so'ngra Buxoro madrasalaridan birida o'qigan, dastlab viloyat hukmdorlari qo'lida kotib, amir Muzaffar taxtga o'tirgandan keyin uning shaxsiy kotibi, munshiysi

bo'lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligi (1885–1910)ning so'ngida 1898 yoki 1899-yilda podshohlikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochorlikda kechirgan.

Somiy bir necha adabiy va tarixiy asar yozib qoldirgan. "Mir'ot ul-hayol" ("Xayol ko'zgusi"), "Insho", "Tuhfayi shohiy" ("Podshohnung tuhfasi"), "Tarixi salotini Mang'itiya" shular jumlasidandir. Bularning ichida tarix ilmi uchun eng muhim so'nggi ikki asardir.

1900–1902-yillar orasida yozilgan "Tuhfayi shohiy" va 1907-yili yozib tamomlangan "Tarixi salotini Mang'itiya" bir davr, Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag'ishlangan. Biroq, ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Masalan, "Tuhfayi shohiy" to'laroq, lekin oliy hukmdorni ko'klarga ko'tarib maqtash, panegrik ruhida bitilgan.

"Tarixi salotini Mang'itiya" esa nisbatan xolisona yozilgan. Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Buxoro amirligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan. Kitobning qo'lyozma nusxalari ko'p. Uning o'zbekistonlik olima L.M.Epifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so'zboshi va zarus izohlari bilan birga, 1962-yili, Moskvada chop etilgan.

### 7.3.16. «Tarixi Salimi»

"Tarixi Salimi" ("Salimiyning tarixi") asari muallifi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida o'tgan Mirza Salimbek bo'lib, uning to'liq ismi Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahimdir. Olim 1850/51-yillari Buxoroyi sharifda badavlat va nufuzli xonadonda tavallud topgan.

Mirza Salimbek 1871-yili Nahrpoy (Norpoy) va Ziyovuddin hokimiga kotib bo'lib ishga kiradi, lekin olti oydan keyin amir Muzaffarning farmoyishi bilan Toshkentga rus ma'murlarining xatti-harakati va ayniqsa Buxoro xususida tutgan siyosatini kuzatib boruvchi qilib yuborildi.

Mirza Salimbek Toshkentga choysurush qiyofasida keldi va bu yerda 12 yil istiqomat qildi. 1880–1883-yillari u amir huzurida, 1884–1885-yillari Turkiston general-gubernatori huzurida Buxoro vakili bo'lib xizmat qildi. 1885-yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlokdor qilib tayinlandi. Shundan keyin uning martabasi yil sayin ortib bordi. 1891–1893-yillari Buxoro shahrining mirshabi, 1893–1920-yillari Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod, Shahrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh zakotchi vazifalarida turdi. 1920-yilgi inqilobdan keyin Mirza Salimbek sho'ro tashkilotlarida, Buxoroda tashkil etilgan «Anjumani tarix»

(«Tarixshunoslar jamiyatida»)da xizmat qildi. Mirza Salimbekning vafot etgan yili ma'lum emas.

Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy va adabiy asar yozib qoldirgan. «Kashkuli Salimiyy» («Salimiyning kashkuli»), «Jomi' ul-gulzor» («Gulzorlar majmui»), «Ka'b al-axbor hikoyalari», «Hikoyati Abdulla ibn Muborak», «Tarixi Salimiyy» shular jumlasidandir.

Tarixchilar uchun eng muhimmi uning so'nggi asari «Tarixi Salimiyy»dir. N. Norqulovning fikriga qaraganda, XX asrning 20-yillarda yozilgan. Uning bosh qismi, Chingizxonidan to amir Muzaffar davrigacha bo'lgan tarix umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860–1920-yillar voqealarini o'z ichiga olgan katta qismi butunlay yangi bo'lib, muallifning o'zi bu voqealarning guvohi bo'lgan.

Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko'lob, Baljuan, Qorategin va Darvozda bo'lib o'tgan isyonlar, Buxoro-Qo'qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiyy ahvoli va ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

«Tarixi Salimiyy» asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asar 1968-yili N. Norqulov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, lekin hali chop etilmagan.

### **7.3.17. «Tarixi jadidayi Toshkand»**

“Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) nomli asar muallifi Muhammad Solih Toshkandiydir. Uning to'liq ismi Muhammad Solih domla Rahim Qoraxoja o'g'li. Tarixchi 1830-yilda tug'ilgan, vafot etgan yili noma'lum. Boshlang'ich ma'lumotni bobosi mulla Abdurahimxojadon (u Qiyot mahallasida joylashgan Bekmuhammadbiy masjidida imom bo'lgan) olgan, so'ng Beklarbegi va xoja Ahror madrasalarida o'qigan. Farg'onaning Qo'qon (1853-y.), Marg'ilon, Namangan va O'sh (1853-y.) shaharlarida, keyinchalik Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrисabz va boshqa shaharlarda bo'lib, madrasada olgan bilimini kengaytirdi. 1863-yildan boshlab, ilgari bobosi imomlik qilgan masjidda imom bo'lib xizmat qildi, ayni paytda dars ham berib turdi.

Muhammad Solih turli ilmlar, tarix, geografiya, adabiyot, tibdan xabardor bo'lgan keng ma'lumotli kishi edi, lekin uning tarixga rag'bat ko'proq bo'lgan. U Abu Tohirxoja(XIX asr)ning “Samariya”siga o'xshash Toshkent, uning tarixi va osori atiqalariga bag'ishlab bir asar yozishni ko'pdan orzu qilib yurgan va nihoyat, 1863–1888-yillari maqsadiga erishgan. Asar ikki jilddan iborat.

Birinchi jildda qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha Sharq mamlakatlarida, shuningdek, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar, ikkinchi jildda esa Qo'qon xonligining XV asr oxiridan – Zahiriddin Muhammad Bobur davridan to XIX asrning 80-yillarigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayot haqidagi qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

Asar hali biron tilga tarjima qilinmagan qo'lyozma. Faqat Toshkentda, O'zR FA Sharqshunoslik institutida uning uch nusxasi mavjud, tartib raqamlari № 7791, 11072–73, 5732. Kitob va uning muallifi to'g'risida A.O'rınboyev, O.Bo'riyevlar 1983-yili "Toshkent Muhammad Solih tafsifida (XIX asr)" nomli risola chop etganlar.

2007-yili O'.Sultonov bu asar to'g'risidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va kitob nashr etdi.

### 7.3.18. «Tarixi Shohruhiy»

«Tarixi Shohruhiy» («Shohruh (bek) tarixi») nomli asar muallifi XIX asrda yashab o'tgan farg'onalik tarixchi olim Niyoz Muhammad Xo'qandiyidir. U taxminan 1803-yili Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan, Xudoyorxon qo'shinida lashkarnavis, ya'ni harbiy kotib lavozimida xizmat qilgan, 60-yillar boshlarida iste'foga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan.

Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo'lib, «Niyoziy» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Lekin, yirik tarixiy asari «Tarixi Shohruhiy» bilan ko'proq mashhur. Bu asar Qo'qon xonligining 1709–1876-yillar orasidagi tarixi to'g'risida mukammal ma'lumot berib, unda ushbu xonlikka qaram bo'lgan boshqa Toshkent, hozirgi Qirg'iziston, Qozog'istonning janubiy viloyatlari hududlarining ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Unda Qo'qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

«Tarixi Shohruhiy» asarining matni N.N.Pantusov tomonidan 1885-yili Qozonda chop etilgan. Ayrim parchalari V.V.Bartold, N.G.Mallitskiy va V.A.Romodin tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Bu asar T.K.Biysembiyev tomonidan chuqr va atroflicha o'rganilib, 1987-yili rus tilida Olma-Otada alohida kitob chop etildi.\*

\* Ushbu mavzu B. Ahmedov asariga tayaniб yoritildi.

## **Mavzuni mustakamlash uchun beriladigan savollar**

1. Shayboniyilar davriga oid qaysi manbalarni bilasiz?
  2. "Abdullah nomo" asari muallifi kim?
  3. "Tarixi Roshidiy" asarini kim yozgan?
  4. "Silsilat ul-salotin" asari necha qismdan iborat?
  5. "Tarixi jadidayi Toshkand" asari mazmunini so'zlab bering?
- 

## **8-MAVZU. CHOR ROSSIYASI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRI MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** Turkiston o'lkasining chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanishi, uning sabablari, mustamlakachilik tuzumining xalqlar boshiga solgan zulm-u bedodliklari to'g'risidagi tarixiy manbalar asosiy xususiyatlari, ularning ilmiy ahamiyati talabalarga tushuntiriladi.

### **Reja:**

- 8.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 8.2. Mahalliy manbalar.
- 8.3. Rossiya manbalari.
- 8.4. Rasmiy hujjatlar va ushbu davr to'g'risidagi adabiyotlar.
- 8.5. Turkiston to'plami.
- 8.6. Turkiston albomi.

**Asosiy tushunchalar:** Chor Rossiyasi, Turkiston o'lkasi, mustamlaka, oq podshoh, mardikor.

### **8.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar**

Movarounnahrda yirik davlat bo'lgan Buxoro va Xiva xonligi XVIII asrning birinchi yarmida Eron shohi Nodirshoh ta'sir doirasiga tushdi. 1753-yili Nodirshohni vasiy sifatida tan olgan Muhammad Rahim o'zini Buxoro amiri deb e'lon qildi va 1920-yilgacha hukm surgan mang'itlar sulolasiga asos soldi.

Farg'ona vodiysida yashab turgan o'zbek qabilalaridan biri minglar o'z yetakchisi Shohruhbiyni hokimiyat tepasiga ko'tardilar va Qo'qon xonligi tashkil topdi.

XIX asr boshida Muhammad Rahimxon avval (1806–1825) mustaqil Xiva xoni sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Shunday qilib, XVIII oxiri XIX asr boshlarida Movarounnahrda uchta mustaqil davlat faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Rossiya iqtisodiy va harbiy qudratga erishishi munosabati bilan uning Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligiga bo'lgan munosabatida istilochilik ruhi ustun kelib, XIX asrning ikkinchi yarmidan o'lkani zabit etishga kirishdi. 1860-yili Rossiya Qo'qon xonligiga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Polkovnik Mixail Chernyayev 1864-yili Avliyo ota shahri tomon yurish boshladi va shaharni egallab, general darajasiga ko'tarildi. 1865-yil M.Chernyayev Toshkentni egalladi. 1866-yili M.Chernyayev Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlarini boshladi va 2 yil davomida uning yarim hududini egalladi.

Rossiya hukumati yangi bosib olingen yerlarni boshqarish uchun va bu harakatni davom ettirishni muvofiqlashtirish uchun 1867-yilning 11-iyulida Turkiston general-gubernatorligini ta'sis etdi va uning rahbari etib general Fon Kaufmanni (1867–1881) tayinladi.

1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligiga Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagagi podshoh noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. 1873-yili may oyida ruslar Xiva shahrini egallaydilar.

Bu esa kuchayib borayotgan Rossiya davlatining osonlikcha o'lkani o'z ta'sir doirasiga o'tkazish imkonini berdi. 1917-yilgi Sank-Peterburgda yuz bergen Oktabr to'ntarishi Rossiya davlati tarixida Sho'rolar hukmronligiga asos soldi.

Bu davrda yuz bergen voqealar bir tomondan o'sha davr rasmiy hujjatlarida mahalliy xalq vakillari va rossiyalik mualliflar tomonidan turlicha yoritilgan. Mana shuning uchun har manba alohida o'rganilishi, turli tomonlar qarashlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Ushbu davr voqealar keyingi davr adabiyotlaridan ham turlicha talqin etib kelindi. Chunki, ularga siyosiy tuzum tazyiqi juda kuchli edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan mustamlaka davri tarixini xolislik va odilona tarzda yoritish imkonini yaratildi.

## **8.2. Mahalliy manbalar**

Bu davrda «Afzal at-tavorix», «Tarixi Umarxon», «Risolai askariya», Hakimxon To'raning «Muntaxab ut-tavorix», Mulla Niyoz Muhammadning «Tarixi Shohruhiy», Avaz Muhammad Attorning «Tarixi jahonnamoiy», Muhammad Solihning «Tarixi jadidayi Toshkand», Mullo Yunusjon Munshiyning «Amiri Lashkar Alimqul tarixi» kabi asarlar Qo'qon xonligida, «Tuhfat ul-xoniyy», «Tarixi amir Haydar», «Fatxnomai sultoni», «Mang'itlar xonadoni tarixi», «O'zbek podshohliklari zikri», Mirzo Abdullazim Somiyning «Tarixi Salotini mang'itiya», «Tarixi salotini

mang‘itia, uzbakiya va ashtarxoniya», «Shajarai xusravi Komkor» nomli asarlar Buxoro amirligida, Munisning «Firdavs ul-iqbol», Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyoz ud-davlat», «Zubdat ut-tavorix», «Jomi’ al-voqioti sultoniy», «Gulshan ud-davla», Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshoxiy», «Xorazm tarixi», «Iqboli Feruziy» kabi tarixiy asarlar Xorazmda yaratildi. Xorazmda yaratilgan tarixiy asarlar o‘zbek tilida yaratilganligi bilan diqqatga sazovor. Bundan tashqari xorazmlik olim va tarjimonlar ko‘plab tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilganlar. Umuman, mustamlakachilik arafasida va bu davrda ko‘plab mahalliy tarixchilar bo‘lib o‘tgan siyosiy voqealarga o‘z munosabatlarini bildirganlar. Bugungi kunda ushbu manbalardagi qimmatli ma'lumotlarni boshqa manbalar bilan qiyosiy o‘rganish asosida tarixni xolis va odilona yoritish mumkin.

### **8.3. Rossiya manbalari**

Mustamlakachilik davriga oid Rossiya manbalari deganda, birinchi galda Chor Rossiyasining rasmiy idoralari, tashqi ishlar vazirligi, rus amaldorlarining xotiralari hamda rus tarixchilarning asarlarini tushunamiz.

Chor Rossiyasining rasmiy idoralarining Turkistonni zabit etilishi va mustamlakaga aylantirilishiga oid ko‘plab qimmatli ma'lumotlari mavjud. Ammo, ular yaxlit holda chop etilmagan. Bu manbalardan O‘zbekiston yangi tarixinining birinchi jildi «Turkiston Chor Rossiyasi mustamlachiligi davrida» (Toshkent, 2000) kitobidan ma'lum darajada foydalanilgan. Lekin, ularni katta tarixiy-ilmiy ahamiyatga egaligini nazarda tutganda hammasini yaxlit holda ilmiy izohlar bilan chop etilishi maqsadga muvofiqdir.

### **8.4. Rasmiy hujjatlar va ushbu davr to‘g‘risidagi adabiyotlar**

Turkiston o‘lkasining rus mustamlakachiligi va sho‘ro hukmronligi davrida kechgan mazlumona hayoti tarixiy-ilmiy adabiyotlarda, qaynuqtayi nazardan bo‘lmasin, harholda, nisbatan to‘laroq ifoda etilgan, deyish mumkin. Bu adabiyotlarni mazmun va mohiyat e’tibori bilan to‘rt davrga ajratish to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchi davr, asosan 1917-yilgacha yozilgan tadqiqotlarni, ikkinchi davr 20—50-yillarda, uchiinchi davr esa 50-yildan to 80-yillar birinchi yarmiga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi. To‘rtinchi davrga oid adabiyotlar tarixshunoslikda «qayta qurish» deb nom olgan 80-yillarning ikkinchi yarmidan to O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishguniga qadar va mustaqillik yillarda vujudga kelgan asarlar majmuidan iboratdir.

## **8.5. «Turkiston to‘plami»**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining nodir nashr va qo‘lyozmalar fondida 594 jilddan iborat («Туркестанский сборник») «Turkiston to‘plami» alohoda ahamiyatga ega. Unda 1917 yilgacha O‘rtal Osiyo tarixi, etnografiyasi, iqtisodi, madaniyiati to‘g‘risida noyob ma‘lumotlar mavjud. To‘plam Turkiston va unga chegaradosh Markaziy Osiyo, Sharq mamlakatlari adabiyoti, tarixiga oid davriy nashrlardan olingan maqolalar, ayrim kitoblardan olingan ma‘lumotlar jamlangan bo‘lib, XIX asrning 70-yillaridan 1916-yilgacha chop etilgan ma‘lumotlarni qamrab olgan.

## **8.6. «Turkiston albomi»**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida 10 jild, 4 qismdan iborat “Turkiston albomi” saqlanib, u o‘lkada yashagan xalqlarning hayoti va turmushiga oid qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Unda 1200 dan ortiq nodir fotorasmlar mavjud. Sharqshunos A.L.Kun rahbarligida 1871-1872-yillarda yig‘ilgan fotorasmlarda qadimiy Samarqand yodgorliklari, o‘lkada yashagan turli millatlar hayat tarzi, 100-110 yil oldingi hunarmandchilik xususuyatlari aks etgan.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

- 1. Bu davrga oid qanday tarixiy manbalarni bilasiz?*
  - 2. Bayoniy asarlarida ruslarning bosqini qanday tasvirlangan?*
  - 3. Rus tarixchilari Turkiston o‘lkasining zabit etilishini qanday yoritganlar?*
  - 4. Turkistonning tarixi zamонавијадабијотларда qanday yoritilgan?*
- 

## **9-MAVZU. SHO‘RO DAVRI MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** O‘zbekistonning sho‘rolar hukmronlik qilgan (1917–1991) davriga oid manbalar, umumiy xususiyatlari bayon etiladi.

### **Reja:**

- 9.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 9.2. Rasmiy manbalar.
- 9.3. Davr tarixi tadqiqotlarda.
- 9.4. Sho‘ro davri tarixi xorijiy olimlar asarlarida.
- 9.5. Sho‘ro davri tarixi zamонавијатадқиқотлarda.

**Asosiy tushunchalar:** Sovet, sho'ro, bolshevik, kompartiya, s'yezd, dehqon, ishchi, pioner, komsomol, partiya.

## 9.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar

Yaqin o'tmishimizning sobiq sovet hokimiysi hukmronlik qilgan davri mamlakatimiz tarixida o'ziga xos o'rinn egallaydi. Bu davr, garchi tarixan qisqa bo'lsa-da, lekin o'zining murakkabligi va ziddiyatliligi bilan ajralib turadi. 1917-yilning oktabrida bolsheviklar zo'rlik bilan amalga oshirgan to'ntarish sobiq Ittifoq xalqlari, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari tarixida salkam 75 yil davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini boshlab berdi. Natijada chor mustamlakachilik imperiyasi o'rnini «qizil imperiya» egalladi. Yangi mustamlakachilik zulmi ostida yashagan o'lka xalqlari bolsheviklar «sotsialistik tajribasi»ning barcha mash'um mushkulotlarini boshdan kechirdilar. Eng achinarlisi shundaki, respublikadagi ijtimoiy-siyosiy tarixiy jarayonning o'ta murakkab va ziddiyatliligi kechishi ko'plab qurbanlar berilishiga, madaniy va ma'naviy yo'qotishlarga olib keldi.

Oktabr to'ntarishidan keyin O'zbekistonning Turkiston hududida bo'lgan anchagini qismi Turkiston Avtonom Respublikasi sifatida RSFSR tarkibiga qo'shib olindi. 1924-yilda zo'raki o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil topib, SSR Ittifoqi tarkibiga kiritildi. SSR Ittifoqi o'z mohiyatiga ko'ra unitar (qo'shma) davlat edi. Oqibatda O'zbekiston to'la-to'kis Moskvaga qaram bo'lib qoldi. O'zbekiston SSR faqat nomigagina mustaqil edi. Respublikaning rahbar organlari Kompartiya Markaziy Qo'mitasi (MQ) va Ittifoq hukumati tomonidan tayinlanar, binobarin, ularga bo'ysunardi. Ular respublika va uning xalqlari manfaatlari emas, balki Sovet Rossiysi manfaatlari yo'lida siyosat yurgizishga majbur edilar. O'zbekiston xalqlarining suveren huquqlari asosida ularning tub manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vatanparvarlik kayfiyatidagi milliy rahbarlarning chiqishlarini mustabid tuzum g'oyat qat'iyat bilan barham toptirardi.

Mustabid tuzum O'zbekistonni mustamlaka sifatida o'z iskanjasida doimiy saqlab qolish va uni metropolianing xomashyo bazasi va mahsulot bozori sifatidagi holatini yanada mustahkamlashga intildi. Bunday siyosat oqibatida respublikaning iqtisodiy rivojlanishi bir tomonlama kechdi, uning qishloq xo'jaligi tobora ko'proq paxtachilik yo'naliishiga ega bo'lib bordi, shu alfozda paxta yakkahokimligi qaror topdi. O'zbekiston sanoati, asosan qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan edi.

Sanoatda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga dastlabki tarzda ishlov beradigan tarmoqlar asosiy o'rinni egallardi. Respublika xomashyosining pirovard mahsuloti Ittifoq sanoat markazlarida ishlab chiqarilar, binobarin, foydaning asosiy qismi ham o'sha yerda qolardi.

Markazning O'zbekistondagi mustamlakachilik siyosati respublikaning madaniy rivojida ham o'zining yaqqol ifodasini topdi. Garchi, bu sohada birmuncha ijobjiy siljishlarga erishilgan bo'lsa-da, o'inka xalqlarining ma'naviy hayoti to'la-to'kis o'z davrining hukmron mafkurasi va siyosati ta'siriga olindi, baynalmilallik niqobi ostida respublikani ruslashtirishga intilish ro'y berdi. O'zbek xalqining milliy, madaniy qadriyatları oyoqosti qilindi, o'zbek tili ikkinchi darajali tilga, rus tili esa davlat va asosiy muomala tiliga aylantirildi.

Darvoqe, Markazning bunday mafkura siyosati tufayli xalqimiz hayotining barcha sohalariga putur yetkazilganligini ta'kidlash barobarida respublika tarixiy o'tmishining sovet davrida ham bir qator ijobjiy ishlar qilinganligini aytib o'tmaslik noxolislik bo'lur edi. Zero, o'sha yillarda xalqimizning fidokorona mehnati bilan ko'plab zavod va fabrikalar qurildi, millionlab hektar yangi yerlar o'zlashtirildi, katta-katta kanallar qazildi, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika negizi mustahkamlandi, uning mahsulotlari hajmi ortdi. O'nlaracha oliy va o'rtalik maxsus o'quv yurtlari ochildi, ularda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlandi, umumta'llim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlarining keng tarmog'i tashkil etildi, ko'pgina madaniy-ma'rifiy muassasalar barpo qilindi. Natijada aholining ta'limiy va madaniy saviyasi oshdi. Bu yutuqlarning barchasiga mustabid tuzum davrida aytish odat bo'lib qolgan «partiyaning dono siyosati» tufayli emas, balki xalqimizning sadoqatli, fidokorona mehnati tufayli erishildi.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, og'ir va mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratilgan ana shu moddiy boyliklar o'zbek xalqi, uning farovonligi uchun xizmat qilmadi. Aksincha, bu moddiy-ma'naviy boyliklar o'zbek xalqini kamsitish, milliy g'ururini oyoqosti qilish, o'zligini unuttirish, kommunistik mafkurani yanada kuchaytirish uchun xizmat qildi. O'zbekiston hududida bunyod etilgan korxonalar (ayniqsa, kimyo kombinatlari), keragidan ortiqcha o'zlashtirilgan qo'riq va bo'z yerlar, qazilgan kanallar, qurilgan suv omborlari respublikaning ekologik ahvolini murakkablashtirdi, Orol dengizining qurib borishini tezlashtirdi, dehqonchilik yerlari tarkibini o'zlashtirib yubordi, atrof-muhitni, ichimlik

svуни zaharladi. Modomiki shunday ekan, Sovet davlati «eksperimentlari» natijasida barcha xalqlar boshiga tushgan fojialar va kulfatlarni, mustabid tuzum, hukmron partiya tomonidan sovet xalqlariga qarshi olib borilgan zo'rovonlik va g'ayriinsoniy siyosatni hech qachon oqlash mumkin emas.

## 9.2. Rasmiy manbalar

Sho'ro davri rasmiy manbalari deganda turli davlat idoralarining hujjatlari, partiya tizimi organlari qarorlarini tushunamiz.

O'sha davr rasmiy matbuotida ularning bir qismi chop etilgan. Lekin turli maxsus organlar hujjatlari ma'lum davrgacha ko'pchilikdan pinhon saqlangan. Chop qilingan rasmiy ma'lumotlarni maxsus tizimlar hujjatlari bilan qiyosiy o'rganish juda muhimdir. Bu hujjatlar ichida sho'ro davri rahbarlari hayoti, ijodiga oid ma'lumotlar, ularning asarlari muhim tarixiy manba vazifasini o'taydi.

Faqat, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan tarixiy haqiqatni tiklash uchun, yangicha va xolis yondashuv, sovet davrida yuzaga kelgan Vatanimiz tarixidagi noxolisliklar va «oq dog'lar»ni milliy mustaqillik mafkurasi asosida tugatish uchun qulay shart-sharoit qaror topdi. Bunga bosh mezon sifatida tarixiy dalil va voqealarga, butun tarixiy jarayonga respublika va uning xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda tamoyilli baho berish asos qilib olindi. Aynan shunday yondashuvlarning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1996-yil dekabrdagi «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish» va 1998-yil iyuldagи «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlarida bayon etilgan bo'lib, turli ilmiy-ommabop kitoblar mualliflari jamoasi ham shu asosda sovet davri O'zbekiston tarixini, sovet davlatchiligining mustabidchilik mohiyatini xolisona yoritishga harakat qilganlar.

## 9.3. Davr tarixi tadqiqotlarda

Sho'ro davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar mavjud siyosiy yo'naliш va mafkuraga bo'ysingan edi. Bu davrdagi tadqiqotlarni bir necha davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisi—1917—30-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardir. Ularda shu davr tarixi butun bor ziddiyatlari bilan yoritilgan. Ikkinchisi—40—50-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda tarixiy haqiqat ma'lum darajada «sotsialistik» g'oyalarga bo'ysindirilgan holda yoritilgan. Uchinchisi—60—70-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ma'lum darajada shaxsga sig'inishdan ozod bo'lingan bo'lsa-da, umuman, «kommunistik» mafkura ruhida yoritilgan.

Mustaqillik tufayli biz sho'ro davri tarixini xolis va to'g'ri yoritish imkoniga egamiz.

## **9.4. Sho'ro davri tarixi xorijiy olimlar asarlarida**

O'zbekistonning sho'ro davri tarixi Rossiya va mahalliy olimlar tomonidan mavjud mafkura ruhida yoritilganligi sababli chet el olimlarining ularga munosabati ma'lum ilmiy ahamiyatga ega.

Albatta, ularning ba'zilarida g'oyaviy kurash ta'siri aks etgan. Lekin, ayrim yirik olimlar tadqiqotlari, xususan Ahmad Zakiy Validiy To'g'on asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bu davrda O'zbekistonda bo'lgan chet el tarixchilarining taassurotlari ham ma'lum darajada manba sifatida ilmiy qimmatga ega.

## **9.5. Sho'ro davri tarixi zamonaviy tadqiqotlarda**

Tarix fani mustabidchilik davrida O'zbekistonning sovet davrini (1917–1991), respublikamiz davlat mustaqilligini qo'liga kiritgunga qadar bo'lgan tarixini o'rganish borasida muayyan ishlarni amalga oshirdi. Tarixchi olimlarning sa'y-harakatlari bilan, o'sha davr nuqtayi nazaridan, katta miqdordagi tarixiy manbalar to'plandi, ular bir tizimga solinib, ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Biroq, bu asarlar jamiyatshunoslikda hukmron bo'lgan markscha uslub asosida, sinfiylik va partiyaviyilikning asosiy tamoyillari negizida yozilgan edi. Shu boisdan bu asarlarda tarixiy jarayon ko'p jihatdan bir tomonlama, noxolis, tarixiy dalil va voqealar ataylab buzib ko'rsatildi, kommunistik mafkuraga xos xulosalar qilindi.

Binbarin, chop etilgan ana shu ilmiy, ilmiy-ommabop ishlar konseptual tuzilishi, oldiga qo'ygan vazifasi, uslubiy jihatlar xilma-xilligiga yo'l qo'yilmaganligini, yagona siyosiy mafkura qolipida yozilganligini e'tiborga olib, sovet davri tarixiy adabiyotlarining har biriga alohida baho berishni lozim ko'rmadik. Shuningdek, 73 yillik sovet tuzumi davrida sotsializmni ulug'lab yozilgan tarixiy adabiyotlarning son-sanog'i yo'qligini inobatga olib, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini berishni ham maqsadga muvofiq emas deb hisobladik.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. *Sho'ro davridagi qanday manbalarni bilasiz?*
2. *Sho'ro davri rasmiy manbalar deganda nimani tushunasiz?*
3. *Sho'ro davri tarixiga oid qanday tadqiqotlarni bilasiz?*
4. *Qaysi chet ellik tarixchilar asarlarida sho'ro davri tarixi yoritilgan?*
5. *Zamonaviy tadqiqotlarda sho'ro davri tarixi qanday talqin qilinadi?*

# **10-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI MANBALARI**

**Darsning mazmuni:** Mustaqillik yillarda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aks etgan manbalar to'g'risida umumiylashtirishda tasavvur berish va ularni tahlil qilish malakasini o'rgatish.

## **Reja:**

- 10.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.
- 10.2. Rasmiy hujjatlar.
- 10.3. Prezident I.A.Karimov asarlari.
- 10.4. Mustaqillik davri tarixi zamonaviy tadqiqotlarda.

*Asosiy tushunchalar. Davlat suvereniteti, Mustaqillik, istiqlol, davlat ramzlari. Oliy Majlis, Senat, Parlament, ma'naviyat, milliy istiqlol g'oyasi, inson omili.*

### **10.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar**

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqealar va hodisalarning shiddatliligi, olam-u odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiylashtirishda tortib, eng kichik, eng shaxsий yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarini o'zida mujassam etdi. Mudroq bosgan tuyg'ularimizni junbushga keltirdi. Boshqacha qilib aytganda, hayotga tiyrakroq qaraydigan bo'ldik. O'zligimizni anglay boshladik.

Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqning istiqlolga erishish yo'lidagi fidoyi mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, istiqlolni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy istiqlol mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, o'rganishga, tadqiq etishga, dastlabki ilmiy-nazariy xulosalarni o'rtaga tashlashga asos bor.

2000-yil 6-aprel kuni Oq saroyda mamlakat Prezidenti bir guruhi olimlar, faylasuflar, tarixchilar va mutaxassislar bilan uchrashib, milliy mafkura, milliy ong taraqqiyoti, uning zarurati haqida gapirdi.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», — degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong,

milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'nganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik kuchi xuddi ana shunda.

Shu ma'noda mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Markazini tashkil qilish to'g'risida chiqargan Farmoyishi katta tarixiy va siyosiy a'lamiyatga ega.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiatidan munosib o'rın olishi manbalarda aks etgan.

Xullas, hayot mustaqillik davrida o'tgan kunlarimizni manbalar asosida alohida o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy va nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda. Buning o'ziga xos asoslari bor.

**Birinchidan**, istiqlol yillarda O'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

**Ikkinchidan**, eng og'ir, mashaqqatli va ziddiyatli paytlarda, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lgan bir vaqtida mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikning saqlab turilishi mamlakat hukumati siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuzdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatda turli aqidalar va g'oyalar ta'sirida bo'lgan aholining talab-ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish, ularning qarashlarini bir nuqtada jamlash alohida uddaburonlikni va qat'iyatlikni talab etadi. O'zbekiston hukumati xuddi ana shunday qat'iyatni ko'rsata bildi.

**Uchinchidan**, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan qonun ustivorligiga erishish, qonun oldida barchanining tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi. Tub islohotlarning Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyili istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon hamjamiatida yuqori baholandi va to'la tan olindi.

**To‘rtinchidan**, xorijiy investitsiyalarni jalg etish, chet ellik ishbilarmonlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shu asosda mamlakat ishlab chiqarishini tubdan o‘zgartirish, uni jahoning eng ilg‘or texnologiyalari bilan qayta jihozlantirish yo‘li tutildi. Bu O‘zbekistonning jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o‘tkazishda barcha yosh mustaqil mamlakatlar o‘rtasida eng to‘g‘ri yo‘l tanlaganini ko‘rsatdi.

**Beshinchidan**, O‘zbekiston hukumatining islohotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlari, an’analari bilan uyg‘un holda amalga oshirila boshlandi. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir», «Savob ishni har kim qilishi kerak», «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, aqli, dono va albatta baxtli bo‘lishi kerak» singari shiorlar xalqimizning orzu-istagi, umid va intilishlari bilan uyg‘un holda dunyoga keldi. Bugungi O‘zbekistonning tom ma’noda ma’naviy tiklanish va ruhiy poklanish maydoniga aylanganligi ana shu eng ezgu niyatlar asosida davlat siyosati va xalq orzu-umidlarining uyg‘unligi natijasidir.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotida shaxsning roli benihoya katta. Ayniqsa, o‘tish davrida davlat arbobining, siyosiy yetakchining o‘rnini yana ham yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Chunki, bu paytda hali ma’lum bir siyosiy tuzum, siyosiy qatlam va jamiyatni yo‘naltiradigan oqim shakllanmagan, qarashlar bir o‘zanga tushmagan, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo‘lgan murakkab bir vaziyat vujudga keladi. Bunday paytda xalq o‘z kelajagini asosan davlat rahbariga qarab belgilaydi. O‘zining iymon-e’tiqodini, taqdirini u bilan bog‘laydi.

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda mustaqillikning o‘tgan davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar bevosita davlat rahbarining shaxsiyati, uning ish uslubi, voqeal-hodisalarga yondashish usuli bilan bog‘lanib ketgan. Xohlasmizmi-yo‘qmi, davlat arbobining siyosiy qiyofasi o‘tish davrining noyob mahsuli sifatida tarix sahifalarida Bosh islohotchi qiyofasida mustahkam o‘rnashgan bo‘ladi. Demak, mustaqillik davri tarixini o‘rganar ekanmiz, bu jarayon bevosita mamlakat Prezidenti I.Karimov faoliyati bilan uzviy bog‘langanligini yaqqol ko‘ramiz va uni sahifalarga aynan ko‘chirishga intildik. Tarixiy haqiqat ham, hayotiy va ilmiy haqiqat ham shuni taqozo etadi.

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o‘rganish va mushohada qilish kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol maskurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an’analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadi.

## **10.2. Rasmiy hujjatlar**

O'zbekiston mustaqilligiga oid rasmiy hujjatlar deganda sobiq sho'ro davrining hokimiyati tizimi so'nggi qarorlarini tushunamiz. Chunki, mustaqillik sobiq ittifoqning barham topishi bilan yuzaga keldi. Bu davr hujjatlarining bir qismi sobiq ittifoq tizimida qabul qilingan.

Ikkinci guruh rasmiy hujjatlar mustaqil O'zbekiston rahbariyat organlari tomonidan qabul qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi», «O'zbekiston konstitutsiyasi» va boshqa qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqalardir. Ayrim tarmoq hujjatlari ham yurtimiz tarixini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

O'zbekiston mustaqilligi davri eng muhim hujjatlari «Yangi O'zbekiston tarixi» 3-jildida (2000), R.X.Murtazayeva tahriri ostida chop etilgan «O'zbekiston tarixi» (2003) darsligida o'z aksini topgan.

## **10.3. Prezident I.A.Karimov asarlari**

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruza va nutqlarida, monografik asarlarida aks etgan. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros, shu maqsad ajdodlar orqali ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov: «O'zbek millati azaldan o'z fikri, o'z istiqlol uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir!», – deganda ana shu holatni nazarda tutadi. Xalqimizning uzoq tarixi u o'z o'tmishida ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash olib borganidan guvohlik beradi.

I.A.Karimov asarlarida ko'p asrlik tariximizdagи eng yirik tarixiy shaxslar – Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi hamda mustaqil respublikamiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topgan. Bundan tashqari Prezident davlat rahbari sifatida respublikamizning xalqaro miqyosida olib borayotgan siyosatini aniqlaydi. Mana shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

<sup>1</sup> Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 92-bet.

xalqimiz tarixini o‘rganishda uslubiy qo‘llanma sifatida, zamonaviy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Uning eng muhim asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o‘nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor nashr qilingan. Respublikamizda esa I.A.Karimov asarlarining 13 jildlik to‘plami nashr qilingan.

#### **10.4. Mustaqillik davri tarixi zamonaviy tadqiqotlarda**

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o‘zida mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o‘zini erkin his qilishga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turliche, mohiyatan o‘xshash bo‘lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko‘p ko‘rgan. Bugungi kunda kechayotgan voqealar, asosan vaqtli matbuotda, jurnallarda va zamonaviy tarixchilar asarlarida yoritilmoqda. Ularni ma’lum darajada umumlashtirgan holda talabalarga yetkazish, tahlil qilishga o‘rgatish manbashunos, tarixchi, pedagoglar vazifasidir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Mustaqillik deklaratsiyasi nima?
2. Prezident I.A.Karimov asarlarida O‘zbekiston tarixi qanday yoritilgan?
3. O‘zbekiston oliy davlat organlari to‘g’risida ma’lumot qaysi manbada aks etgan?
4. O‘zbekistonning xalqaro munosabatlari qanday manbalarda yoritilgan?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Karimov I.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura. 1-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. **Karimov I.** Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. **Karimov I.** Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. **Karimov I.** Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
5. **Karimov I.** Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.
6. **Karimov I.** Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
7. **Karimov I.** Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1999.
8. **Karimov I.A.** Ozod va obod Vatan erkin va farvon hayot — pirovard maqsadimiz. T.8.-T.: O'zbekiston. 2000.
9. **Karimov I.A.** Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. — T.: O'zbekiston. 2001.
10. **Karimov I.A.** Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. — T.: O'zbekiston. 2002.
11. **Karimov I.A.** Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot, ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. — T.: O'zbekiston. 2003.
12. **Karimov I.A.** Tinchlik va xavfsizligimiz o'z qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. — T.: O'zbekiston. 2004.
13. **Karimov I.A.** O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. — T.: O'zbekiston. 2005.
14. **Ahmedov B.A.** O'zbekiston tarixi manbalari. — Toshkent: O'qituvchi, 2001.
15. O'zbekiston tarixi. R.X.Murtazayeva tahriri ostida. — Toshkent, 2003.
16. **Sa'dullayev A.S.** Qadimgi O'zbekiston tarixi manbalardan. — Toshkent, 1996.
17. **Tolstov S.P.** Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. — Toshkent, 1964.
18. **Beruniy.** Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent, 1968.
19. **Ртвеладзе Э.В.** Великий шелковый путь. — Ташкент, 1999.

20. Saidqulov T.S. O'rtta Osiyo xalqlari tarixining tarxnavisligidan lavhalar. — Toshkent: O'qituvchi, 1993.
21. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая. — М.: Наука, 1987.
22. "Qur'oni karim". O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. — Toshkent, 1992.
23. Ислам. Энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1991.
24. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. — М., 1985.
25. G'aniyeva S., Sodiqov Q. Yozuv tarixi va kitobat san'ati. — Т.: 2006.
26. Qayumov A., Is'hoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. — Т.: Yozuvchi. 2000.
27. Is'hoqov M., Rahmonov N., Sodiqov Q., To'xliev B. O'lmas obidalar (O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo'yicha tadqiqotlar). — Т.: 1989.
28. Islom ensiklopediyasi / Z.Husnidinov tahriri ostida . — Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004.
29. O'zbekistonning islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi / Mas'ul muharrirlar: B.A.Abduxalimov, Z.I.Munavvarov.-Т.-Samarqand. 2007.
30. Tarixiy manbashunoslik / Tuzuvchilar: A.Madraimov, G.Fuzailova.-Т.: Fan. 2006.
31. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. Составители Д. Ю. Юсупова, Р.П.Джалилова. — Ташкент: Фан, 1998.
32. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. Соч. IV том. — М., — Л., 1957.
33. Вахабова Б. Памятники арабоязычной биографической литературы XII-XIV веков как источник для истории культуры Средней Азии// Автореф... дисс. канд. филол. наук. — Ташкент, 1970.
34. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston Sovet mustamlakasi davrida / Tuzuvchilar M. Jo'rayev va boshqalar. —Toshkent: Sharq, 2000.
35. O'zbekiston tarixi /R.X. Murtazoyeva tahr. ostida. — Toshkent, 2003.
36. Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. Bo'linganni bo'ri yer. —Toshkent: Adolat, 1997.
37. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней

Азии. XVI–XVIII вв. (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985.

38. **Ahmedov B.A.** Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
39. Manbashunoslikdan ma'ruzalar majmuasi/ Tuzuvchi A.A.Madraimov. – Toshkent: TDPU, 2001.
40. **Shoniyo佐 K.Sh.** O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001.
41. Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari (ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari)/ Tuzuvchilar: A.A.Madraimov, G.S.Fuzailova. – Toshkent: TDPU, 2001.
42. **Habibullayev A.** Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: TDShI, 2000.
43. Tarixiy manbashunoslik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumi materiallari (2003-yil 25 aprel). – Toshkent: Universitet, 2003.
44. Temuriylar davri madaniy yodgorliklari. 1-kitob. – Toshkent: 2003.
45. **Murodov A.** O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971.
46. Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Выпуск 1. – М.: Наука, 1989.
47. Источниковедение: Теория. История. Метод. Источники Российской истории.-М.: 1998.

# M U N D A R I J A

So'zboshi .....	3
-----------------	---

## I BOB. MANBASHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

1-mavzu. Manbashunoslik fanining maqsad va vazifalari .....	4
2-mavzu. Manbashunoslikning yo'nalishlari .....	10
3-mavzu. Manbalarni o'rganish va o'rgatish usullari .....	18
4-mavzu. Hujjatlar .....	25
5-mavzu. Tarixiy asarlar xususiyarlari .....	41
6-mavzu. Geografiya va kosmografiyaga oid manbalar .....	50
7-mavzu. Biografik asarlar .....	62
8-mavzu. Agiografik asarlar .....	71
9-mavzu. Memuar asarlar .....	88
10-mavzu. Sayyoh va elchilar esdaliklari .....	93
11-mavzu. Manbashunoslik tarixi va muammolari .....	108

## II BOB. O'ZBEKISTON TARIXI MANBALARI

1-mavzu. Qadimgi zamон manbalari .....	117
2-mavzu. VI—VIII asrlar manbalari .....	130
3-mavzu. IX—XII asrlar manbalari .....	140
4-mavzu. XIII—XIV asrlar manbalari .....	160
5-mavzu. Temuriylar davri manbalari .....	182
6-mavzu. Shayboniylar davri manbalari .....	206
7-mavzu. XVII—XIX asrning I yarmi davri manbalari .....	222
8-mavzu. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri manbalari .....	246
9-mavzu. Sho'ro davri manbalari .....	250
10-mavzu. Mustaqillik davri manbalari .....	254
Foydalanilgan adabiyotlar .....	260

**ABDUMAJID MADRAIMOV  
GAVHAR FUZAILOVA**

# **MANBASHUNOSLIK**

*Bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalari uchun darslik*

Muharrir *Z. Mirzahakimova*

Texnik muharrir *A. Berdiyeva*


Musahhih *H. Zokirova*

Sahifalovchi *N. Mamanov*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.  
100083, Toshkent shahri, «Matbuotchilar» ko'chasi, 32-uy.

Bosishga ruxsat etildi 10.06.2008. «Tayms» garniturasi. Kegli 10. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Shartli bosma tobog'i 16,0. Nashrhisob tobog'i 16,5. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 16

«AVTO-NASHR» bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., 8-mart ko'chasi, 57-uy.



ISBN 978-9943-319-59-2

9 789943 319592

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MELLİY JAMİYATI NASHRIYOTI